

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

FALSAFA (mantiq, etika, estetika) FANIDAN

O'QUV –USLIBIY MAJMUA

Bilim sohasi	300000 - Ishlab chiqarish texnik soha 400000 - Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
Ta'lim sohasi	150000 - San'at 230000 - Iqtisod 310000 - Muhandislik ishi 320000 - Ishlab chiqarish texnologiyalari 410000 – Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Mazkur o'quv-uslubiy majmua, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “Falsafa” fan dasturi asosida tayyorlangan. NamMTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2020 yil 26 avgustdagi 1-sonli yig`ilishida muhokama qilindi hamda institut kengashida tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Tuzuvchi: T.T.Malikov - Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar: A.Mirzaxmedov, NamMTI dotsenti, f.f.n .

M.Ismoilov, NamMQI professori, f.f.d

O'quv-uslubiy majmua NamMTI kengashning 2020 yil “29” avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi

MUNDARIJA

So‘z boshi	
I. Ma’ruza materiallari	
II. Mustaqil ta’lim mavzulari	
III. Glossariy	
IV. Ilovalar	

- fan dasturi

- fanning ishchi dasturi

-tarqatma materiallar

- testlar

- baholash mezonlari

SO'Z BOSHI

Oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida falsafa fanining roli va o'rni beqiyosdir. Falsafa fani zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning nazariy sohasidir. "Falsafa" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammo va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- falsafa tarixini bilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etishi xamda ilmiy asoslay olishi;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va xodisalar haqida yahlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

- insonning davlat, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda joriy qilishi;

- axborot to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- bakalavriatning o'z yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikqa ega bo'lishi;

- Yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- dunyoning global muammolaridan xabardor bo'lishi, fundamental globallashtirishni jihatlarini farqlay olishi, xususiy, milliy, mintaqaviy muammolarni o'rganishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olishi,

sog'lom turmush tarzi haqida ilmiy tasavvurga va e'tiqodga ega bo'lishi, o'zini jismonan takomillashtirish malakasi va kunikmalariga ega bo'lishi kerak.

MA'RUZA

MATNLARI

1-MAVZU: FALSAFA FANI PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ VA G'ARB FALSAFASI.

Falsafa fanining predmeti va mazmuni, xamda ushbu fanning jamiyatdagi roli va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi borasida so'z yuritar ekanmiz avvalo biz birinchi navbatda "Falsafa" so'zining ma'nosi nima ekanligini anglab olgan xolda mazkur tushunchaning mazmun mohiyatini yoritib berishimiz, falsafa va falsafiy dunyoqarashning vujudga kelishi jarayonini insoniyat yaratilganidan beri mazkur tushuncha bilan chambarchas bog'liqligini asoslab berishimiz xamda falsafa fanini fan sifatida shakllanishi mexanizmini ketma ket yoritib berishimiz lozim.

Qadimgi davrda falsafa barcha nazariy fikrlarni, ma'naviy hayotning hamma tomonlarini qamrab oluvchi fikrlar tizimi sifatida paydo bo'lgan. Shu ma'noda falsafa yunoncha «filio» -sevaman, «sofiya»-donolik so'zlaridan olingan bo'lib, donolik, donishmandlik bilan shug'ullanish deb qaraladi.

Falsafa tushunchasi keng qamrovli tushuncha xisoblanib u olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab tushunchalarni o'zida mujassam etganligi bilan axamiyatlidir.

Falsafa inson tarbiyasi va undagi dunyoqarashni shakllantirishdagi rolini, insonning dunyoda tutgan o'rnini aniqlab olishga yordamlashadi.

Hozirgi zamon falsafasi borliq, bilish, ilmiy bilish, qadriyatlar, ma'naviyat, inson, shaxs, erkinlik kabi masalalarni hal qilishda yangicha fikrlash va yangicha uslubga asoslanmoqda.

Eskicha yashash tamoyillari asoslari o'zgarishi bilan hayotni yangicha fikrlash asosida tushuntiradigan nazariy bilimlarga ehtiyoj tug'iladi. Bu masalani hal qilishda falsafa fani asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida eskicha yashash asoslari o'zgargandan so'ng falsafa endi qanday yashash kerak, insonlar qaysi yo'ldan ketmoqda, ularning faoliyati nimaga qaratilishi lozim, odamlarning maqsadi, orzu – umidlari istaklarini qaysi yo'l bilan amalga oshirish mumkin, yashashning maqsadi, ma'nosi, tamoyillari nimadan iborat, inson dunyoni nima maqsadda o'rganadi, inson-dunyo, inson-jamiyat kabi masalalarni qanday biladi kabi savollarga javob qidiradi va shu asosda nazariy fikrlar tizimini ishlab chiqadi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya» so'zining Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Sharqning atoqli faylasufi, mashhur mutafakkir Abu Nasr Forobiy filosofiya so'zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o'tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab yetgan, o'zi va o'zgalar qadrini to'g'ri tushunadigan kishi hech qachon «Men — donishmandman» deya ochiq e'tirof etmaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo, Forobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga yetish — boshqa gap. Shu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko'pdan-ko'p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

«Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan, alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa, u yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Asrlar davomida filosofiyaga nisbatan xilma-xil qarashlar shakllangan, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar dunyoga kelgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to'g'rirog'i, «fanlarning otasi», ya'ni asosiy fanga aylangan.

Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida “donishmandlikni sevish” degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot, insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan. Masalan, “Ikkinchi Arastu”, “Ikkinchi muallim” deya e'tirof etilgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy “filosofiya” so'zini “Hikmatni qadrlash” deb talqin etgan.

Qadimgi Yunonistonda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to'g'risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma'noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o'rnini haqidagi qarashlar tizimi bo'lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot to'g'risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo'lganini aksariyat olimlar alohida ta'kidlaydilar.

Ushbu fanning shakllanishini faqatgina qadimgi Yunoniston va Rim bilan bog'lash ham bu borada yetarli tasavvur bermaydi. Chunki ushbu hududning dastlabki faylasufi Fales ko'p yillar Osiyoda bilim olib qaytganidan so'ng falsafiy fikrlarni alohida ilm sohasi sifatida talqin eta boshlagani ma'lum. Alloma Beruniyning «Hindiston» asarida hindlarning dastlabki qarashlari qadimgi yunonlarniki bilan o'xshash edi, degan fikri ham bejiz aytilmagan, albatta. Bu o'z navbatida, falsafiy dunyoqarashning qadimgi shakllari barcha xalqlar tarixiga tegishli umumiy hodisa ekanini isbotlaydi.

Aslida esa, Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII—III asrlarda ushbu fan endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi, olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi. Ushbu fan dastlab saroy ilmi sifatida shakllangan va asosan mulozimlarning tafakkur tarzini ifodalagan. Bu fan bilan ko'proq aslzodalar shug'ullangan, uning asosan ular uchun tushunarli bo'lgan muayyan tushunchalari va atamalari, o'ziga xos fikrlash uslublari va bayon qilish tili ham shakllangan.

Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u insoniyatning tafakkur bobida ilgari erishgan yutuqlarni tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu — ularni tamoman rad etish, ko'r-ko'rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Bu fanning oldiga qoyilgan vazifalarga va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning ba'zilar falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rnini, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala hamma davrlarda ham dolzarb bo'lgan.

Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g'oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun ham buyuk falsafiy ta'limotlarni, bir tomondan, madaniy-intellektual rivojlanish samarasi, ikkinchi tomondan, tub ijtimoiy o'zgarishlar taqozosi deyish mumkin. Muayyan tarixiy burilish davrida «Falsafa nima o'zi?» degan masala dolzarb ahamiyat kasb etishi ham shundan. Ana shunday davrlarda kishilar falsafaning mohiyati, uning maqsad va vazifalarini yangicha idrok etganlar.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o'tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan. Lekin zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o'tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab: «Ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko'payib ketdi. Endi falsafani o'rganishning hojati bormikan?» — debdi. Shunda ulug' faylasuf bamaylixotir gap boshlab: «Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o'rganmaslik har qaysi nodonning ham qo'lidan keladigan ish bo'lib qoldi», — degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qoyilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Falsafaning predmeti. Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday obyektiv va subyektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi obyekt haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmeti bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa

qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtai nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsakda, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda *kosmotsentrizm* ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi *teotsentrik* (yunon. *theos* – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa *san'at (estetika)*ga va ko'p jihatdan *insonga murojaat qilindi*. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan *bilish va ilmiy metodlar* masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi *irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik* muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlarini va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu *globallashuv* jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga *ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish* muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omiliga va obyektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan

davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o‘rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘z vaqtini «kutib», go‘yoki panada turadi, desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o‘zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e‘tibori ma‘lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko‘ramiz.

Endi Faylasuf kim, degan savolga javob beraylik. «Filosof» so‘zini ham yuqorida aytganimizdek, ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo‘llagan. Bu tushunchaning ma‘nosini u Olimpiya oyinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya‘ni o‘zi va o‘zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh — savdo-sotiq qilish, boyligini ko‘paytirish uchun, uchinchi esa, oyindan ma‘naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko‘ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo‘n misolga o‘xshaydi. Ammo uning ma‘nosi nihoyatda teran. Chunki, inson umri ham shunday. «Dunyo teatrga o‘xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o‘z rolini oynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to‘g‘risida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini yeyish-ichish, uyro‘zqor tashvishlari bilan o‘tkazadi. Boshqasi — nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qoyadi. Uchinchi esa, olam hikmatlarini o‘rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo‘larli hayot kechiradi.

Qadimgi davrlarda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma‘naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlargina falsafa bilan shug‘ullanganlar. Aslida, o‘sha davrlarda falsafani o‘rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko‘zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520—460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do‘stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o‘tkazmay desang, falsafani o‘rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

"Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470—399-yillarda yashagan) bu haqiqatni quyidagicha ifoda etgan: «O‘z-o‘zingni yerga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o‘zligingdan yuqori turish esa — faylasuflikdir».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o‘z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to‘plangan bilim va tajribalarni o‘zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko‘tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand yoki mutafakkir deb bo‘lmaydi. Haqiqiy faylasuflar hayotda nihoyatda kam bo‘ladi. Ular o‘z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xudoning o‘zi aql-zakovat, iste‘dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo‘lgan bunday buyuk shaxslar umumbashariy taraqqiyot miqyosida tanilgan, teran insoniy g‘oyalar, ma‘naviy boylklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo‘lgan.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Bu — dunyoqarashning o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bolib, ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o'ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta'sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. «Har kimning o'z falsafasi bor» deyilganida ana shu hol anglanadi. Demak, dunyoqarash o'zining kundalik ommaviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. Shuning uchun ham ko'p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarni to'g'ri tushuntirish va baholashga ojizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur.

Falsafa va fan. Falsafa nafaqat fan, balki ijtimoiy hayotning boshqa, chunonchi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy jabhalari, san'at va shu kabilar bilan ham uzviy bog'liq. Biz falsafa va fan munosabatlarining genezisi haqida ularning birligi va farqlarini aniqlash maqsadida so'z yuritimiz. Mazkur masalani mufassalroq o'rganishga kirishar ekanmiz, avvalo ko'rsatilgan tushunchalarning asosiy ma'nolari va mazmunlarini aniqlab olamiz.

Fanning mohiyati. O'ziga xos, betakror hodisa – fanning juda ko'p ta'riflari mavjud, ammo uning murakkabligi va serqirraligi tufayli fan tushunchasiga qandaydir bitta, universal ta'rif berish mumkin bo'lmasa kerak. O'z tarixi mobaynida fan shu qadar ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirgan va uning har bir qoidasi ijtimoiy faoliyatning boshqa jihatlari bilan shu darajada bog'liqki, fan tushunchasiga ta'rif berishga har qanday urinish faqat uning tomonlaridan bittasinigina ozmi, ko'pmi aniq ifodalashi mumkin. Shunga qaramay barcha hollarda fanni tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, aniqroq aytganda uning *keng* va *tor* talqinlari aniq-ravshan ko'zga tashlanadi.

Keng ma'nodagi fan – *bu butun inson faoliyati jabhasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni o'rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir.* Bu yerda «fan», «olim» tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig'ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. «Fan» tushunchasi falsafaga tatbiqan ko'pincha ayni shu kontekstda qo'llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o'rinlidir.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, *fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani* ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu yerda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu obykti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona sanalgan til, kategoriyalar apparati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtai nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avlodan-avlodga o'tadi.

Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ua'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ma'naviy faoliyat bo'lgani bois, u borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari — axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyliigi yana shundaki, u ma'lum bir jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan. Agar shunday bolmaganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed hammomdan yalang'och holda chiqib, «Evrika!», ya'ni «Topdim!», deya qichqirmagan bo'lar edi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiylarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug' mashinasidan kosmik raketalarigacha bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Inson ongli ijtimoiy mavjudot bolgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o'z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g'oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e'tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo'lishidir.

Ontologiya — olam, inson va jamiyatning obektiv-universal mohiyati to'g'risidagi falsafiy ta'limotdir.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash

g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega. Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o'rni va ahamiyatini ham sun'iy ravishda mutlaqlashtirish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. Teologiya olam va odam munosabati, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qiladi hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va i tobora ortib bormoqda.

Taraqqiyot jarayonida falsafadan tabiatshunoslik fanlari bilan birga psixologiya, etika, estetika kabi ijtimoiy fanlar ham ajralib chiqdi. Keyinchalik madaniyat, qadriyatlar va huquq kabi sohalarni o'rganadigan alohida yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Ular olamni o'z predmeti doirasida yaxlit bilish, uning xususiy qonuniyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo'lagiga aylanadi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotiga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o'zbek xalqi sivilizatsiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday n a'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda.

Falsafiy dunyoqarashning quyidagi tamoyillari har qanday konkret dunyoqarash shakllari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, Chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli

obektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchilik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

4. Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq bo'lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzuomidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviylik tamoyili, uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqloq g'oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri nazariya va amaliyot birligidir. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligi falsafaning mushtarak umumnazariy va uslubiy ahamiyatini belgilab beradi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyatini har tomonlama o'rganish inson va jamiyatning ma'naviy kamolotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, falsafiy bilimlar tizimini takomillashtirish yo'llarini topish imkonini beradi. Masalaning bu tarzda hal etilishi umuminsoniy sivilizatsiya tamoyillariga ham mos keladi.

Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqloq g'oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o'zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Istiqloq talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g'oyat murakkab bo'lib, quyidagi bir qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

— kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g'ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;

— O'zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuqlaridan yanada kengroq foydalanish;

— bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida nafaqat

oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish;

— ma'naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o'rganish;

— falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko'proq moslash, qo'llanma va darsliklarimizda milliy g'oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini aks ettirish;

— istiqloq talablariga mos keluvchi sog'lom g'oyali ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta'lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish;

— jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o'rganish, bu jarayonda turli g'oya va mafkuralarning davlatlar va xalqlar taqdiriga ta'sirini aniq ko'rsatish va shu asosda istiqloq mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish.

Ana shu masalalarni uyg'un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi.

Bunda, avvalo jamiyatning siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar uni harakatlantiruvchi, taraqqiy ettiruvchi asosiy omil — inson tafakkuri, ruhiyati, his-tuyg'ulariga samaralita'sir etadi. Shu bilan bog'liq ravishda, Vatan va xalq tarixi, ma'naviy-madaniy meros, ona tili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarini ya'ngi davrning mohiyat-mazmunidan kelib chiqqan holda tiklash, boyitish va milliy g'urur-iftixorning yuksalishida juda ulkan o'rin tutadi.

XXI asrga kelib, insoniyat g'oyat murakkab, olamshumul muammolar qarshisida turganligini anglay boshladi. Xususan, yadro urushi xavfi, keskinlashayotgan ekologik muammolar, xomashyo va energetika resurslari, Yer shari aholisining shiddat bilan o'sib borayotgani, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, maorif va madaniyatni, fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish muammolari yangicha tafakkurni taqozo qilmoqda. Bu masalani milliy va umuminsoniy falsafiy g'oyalarni, nazariyalarni ishlab chiqmasdan hal qilish mumkin emasligi esa tobora aniq bo'lib bormoqda.

Jamiyat taraqqiyoti va falsafaning rivojlanishi dialektikasi ana shu xususiyatlarga asoslanib, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, jamiyatning o'zgarib borish tamoyili falsafiy g'oya, nazariya va ta'limotlar o'zgarishini taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, o'zgarayotgan falsafa jamiyat moddiy-ma'naviy hayot tarzini ilg'ab olib, uning istiqbollari belgilash, mafkurasini shakllantirishda nazariy, uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tgan bugungi kunda kishilar tafakkuri va ongida saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash qoliplarini bartaraf etish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantirish, milliy o'zlikni anglash, istiqloq mafkurasini shakllantirishda shoshilmay, behuda his-hayajonlarga berilmasdan, aql-zakovat bilan ish tutishda falsafaning o'rni va ahamiyati g'oyatda ulkandir.

Falsafa har qanday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatda ham kishilarni yuksak g'oyaviylik, mustahkam e'tiqod, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash bilan birga, ularga murosa va hamkorlik qilish, chigal muammolarni ham umummilliy, umuminsoniy manfaatlarini nazarda tutgan holda madaniy va ma'rifiy hal etish imkoniyatlarini topishga yordam beradi.

Falsafaning umumbashariy fan ekani, uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. Shu ma'noda odam va olam, ularning ibtidosi va inlihosini, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson gafakkuri, tabiag va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammo.lardir. Shu bilan birga, muayyan davrda tug'iladigan va hal etiladigan o'tkinchi muammolar ham bo'ladi. Ular abadiy muammo.lar dara jasiga ko'tarilmasa-da, o'z davrining pshab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun, muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa yangi goyalarining tug'ilishiga imkon beradi. Hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. U tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etadi. Har bir tarixiy davr, uning oldiga yangi masala va muammolarni qo'yadi. Falsafiy muammolar bevosita hayot zaruratidan tug'iladi. Aynan ular orqali falsafada davrning taraqqiyot tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Masalan, hozirgi davrda istiqloq mafkurasi falsafiy asoslarini izohlash zarurati shu bilan belgilanadi.

FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Falsafiy tafakkur taraqqiyoti jarayonida inson va uning mohiyati, borliqqa munosabati, borliq haqidagi umumiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid bo'lgan turli ta'limotlar yuzaga keldi. Bu ta'limotlarda insonning mohiyati va borliqqa munosabati masalasi o'sha davrdagi nazariy fikrlar, dunyoqarashlar asosida tahlil etildi. Ayrim falsafiy ta'limotlar tarix sahnasidan tushib, o'rniga yangilari shakllandi. Lekin, inson o'zini qiziqtirgan falsafiy muammolarga hanuz to'la javob topa olgani yo'q. Biror muammo falsafiy chuqur tahlil etilsa, o'rniga ko'plab yangilari kun tartibiga qoyila boshladi. Shu asosida o'rganiladigan falsafiy muammolar doirasi ham tobora kengayib,murakkablashib bordi. Umar Hayyom yozganidek:

*„Azal sirin bilolmasmiz, na sen-i, na men,
Bu jumboq, hal etolmasmiz, na sen-i, na men.
Parda orqasidadir bu g'uvurimiz,
Parda ketar-u, qolmasmiz, na sen-i, na men“.*

Tarixda, men o'zimni qiziqtirgan barcha savollarga to'liq javob topdim, degan dono mutafakkir bo'lgan emas. Donolarning donoligi — bilganidan ko'ra, bilmagani ko'pligini anglashidir. Tarixda falsafa rivojiga hissa qo'shgan buyuk allomalar ham umrining oxirida, men hech narsa bilmay dunyodan o'tib ketmoqdaman, deb armon bilan hayotdan ko'z yumganlar. Ular hayot vaqtida „*parda orqasida*“ bo'lib ko'ringan sirlar keyin ochilgan. Lekin buni ko'rish ularga nasib etmagan. Shu sababli insoniyat tarixida yuzaga kelgan har bir yangi ta'limot haqiqatni bilish yo'lidagi kichik bir pog'onadir. Bu yo'ldagi falsafiy bilimlar rivojining har bir pog'onasi xoh idealistik bo'lsin, xoh materialistik bo'lsin, inson ma'naviyati taraqqiyotida o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor.

Qadimgi Sharqda falsafaning rivojlanishi, o'ziga xosligi va betakrorligidan qat'iy nazar, ayrim umumiy qonuniyatlarga ega. Birinchidan, falsafiy tafakkur Sharqda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi *mifologiya* negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o'zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ikkinchidan, Sharq falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga

kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan. Xitoyda falsafa bu yerda jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, chunonchi: jamoalar kasodga uchrab, yangi yer mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi quchog'ida voyaga yetgani vauning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Babil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida "Eng qadimgi tarix" darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'hna Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi¹.

Uchinchidan, Sharq falsafasi *umuminsoniy qadriyatlarga* qarab mo'ljal oladi. U insonni hamisha qiziqtiruvchi hodisalarni o'rganadi, Qadimgi manba "Avesto"da ko'rsatilgani kabi «qanday qilib yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash va yaxshi ish ko'rish mumkin», degan savolga javob topishga harakat qiladi. Bu noyob mevalardan bahramand bo'lish uchun inson falsafiy donishmandlikni o'zlashtirishi lozim: u dunyo va uni anglab yetish, inson va tabiat, inson hayotining mazmuni va boshqa shunga o'xshash muammolarda mo'ljal ola bilishi kerak.

Qadimda Sharq falsafasi *yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, do'stlik, birodarlik, muhabbat va nafrat, baxt, lazzatlanish va azob chekish* kabi muammolarning yechimini izlagan. Bu jarayon o'sha davr buyuk faylasuflarining fikrlarida ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi:

Zardo'sht: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal"

Platon: "Oliyhimmatlilik – vaziyatdan mohirona foydalanish: aql-idrok bilan bog'langan sahovatlilik";

Aristotel: "Do'stlik birga yashashning zaruriy shartidir";

Konfusiy: "Odamlar seni bilmasliklaridan g'am chekma, o'zing odamlarni bilmasligingdan g'am chek";

¹ Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov va boshq. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

Lao-szi: “Yuksak fazilatli inson odamlar bilan munosabatlarda xushmuomala bo‘lishi, mamlakatni boshqarishda izchil bo‘lishi lozim; ishda imkoniyatlardan kelib chiqishi, harakatda vaqtni hisobga olishi lozim”.

Beshinchidan, falsafiy bilimning *dunyoqarash* bilan bog‘liqligi Sharq falsafasi rivojlanishining qonuniyatidir. Biz istaymizmi, yo‘qmi, lekin falsafiy g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar va tizimlar yo idealistik, yo materialistik, ba‘zan eklektik (bu ikki dunyoqarashning birikmasi) bo‘ladi. Masalan, hindlarning qadimgi falsafiy kitobi «Upanishada»da, shuningdek «Chorvaka» qadimgi hind falsafiy maktabiga doir manbalarda *suv, olov, yer, havo, Zardushtiylik ta’limotida olov* butun borliqning substansional asosidir, deb qayd etiladi.

Sharq falsafasi rivojlanishining navbatdagi umumiy qonuniyati uning metodologik ahamiyat kasb etuvchi haqiqiy ilmiy bilimga erishish yo‘lida ilmiy izlanishlar olib borishidir. Bu yerda gap fanga va falsafaning metodologik funksiyasiga bo‘lgan munosabat haqida ketmoqda. Falsafiy ta’limotlar, konsepsiyalar, g‘oyalar yordamida turli hodisalarning tahlili amalga oshiriladi, amaliy tavsiyalar beriladi. Bu jihatdan miloddan avvalgi V asrda vujudga kelib, Xitoydagina emas, balki boshqa Sharq mamlakatlarida ham keng tarqalgan konfusiychilik diqqatga sazovordir. Uning ayrim konsepsiyalari hanuzgacha tirik. Masalan, «syao» yoki ota-onani hurmat qilish, kattalarga izzat-ikrom ko‘rsatish konsepsiyasi yosh jihatidan ham, ijtimoiy iyerarxiya bo‘yicha ham kattalarga nisbatan o‘z xulq-atvorini barcha fazilatlar mohiyatini anglab yetish asosida yo‘lga qo‘yishni taklif qiladi.

Sharqda faylasuflar narsalar va hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish, tushuntirishning o‘z metodlarini yaratganlar. Yangi davr tadqiqotchilari, Gegeldan boshlab, ikki asosiy falsafiy metod – *dialektik* va *metafizik* metodlarni ilgari surganlar. Qadimgi dunyo falsafasi rivojlangan sharoitda bu metodlar faylasuflar tomonidan ongli ravishda idrok etilmagan. Ular stixiyali, aniqroq aytganda, falsafiy ta’limotlar, tizimlar va qarashlarga ichdan xos bo‘lgan metodlar sifatida amal qilgan.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Ko‘xna Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo‘lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o‘troq hayot va o‘ziga xos dehqonchilik an‘analari boshlangan Nil daryosi boylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi. Eramizdan avvalgi to‘rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya‘ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topa boshlagan edi. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo‘nalishda borgan. Birinchi yo‘nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog‘liq ekanini, ikkinchi yo‘nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog‘liq bolganini ko‘rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o‘rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu — o‘sha davr uchun tabiiy hol edi, ya‘ni u — davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga garchand sodda tarzda bo‘lsa-da, aksariyat hodisalarning falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo‘lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo‘lgan odamzod, albatta, tevarak-atrofdagi voqeahodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir

hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu — o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat», «Mug'anniyning qo'shig'i», «O'z hayotidan xafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat» kabi bitiklarda aks etgan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, ilohiy kuchlarga ishonch, ularning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

Qadimgi Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki talimotlar yozma manba — «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitar) shaklida yetib kelgan. Bular «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adharvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq meyorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniymifologik nuqtayi nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, p'uava va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablardir. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdanbir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jayнизм — nastika guruhiga kiradi. Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jayнизм diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston»

asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551—479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy talimotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bolishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmuyi, millatning mafkurasini sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. U hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri LaoSzi (VI—V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga boysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirofi etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. LaoSzing ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bolishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni In va Yan orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbayidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bolmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. LaoSzi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini

buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bolish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish — qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalari. O'sha, hamma narsa oddiy tushunilgan qadim zamonlardayoq buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga yetmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'gitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o'rgangan odam o'sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon sivilizatsiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bolishi murnkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o'zlashtirish va hayotning qonuniga aylantirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasli o'zi yaratgan buyuk daholarning barcha o'gitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o'z vaqtida kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko'hna tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskirgani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu talimotlar insoniyatning o'tda yonmas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlarini to'g'risidadir.

Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bolgan diniy-falsafiy ta'limotlardan hiri Zardushtiylikdir. Bu ta'limotga Zardusht asos solgan bo'lib, Sliarq va G'arbda Zaratushtra, Zoroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi haqida aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari — yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, Shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Shox Filippning o'g'li Aleksandr (eski o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida malumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o'qiy olmaganini sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni yoqish to'g'risida ko'rsatma bergan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu — tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo'lsa-da, xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida yetti iqlimda tan olingan Arastudan ta'lim olgan edi. Binobarin, Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tushunmaydigan kimsa deb ta'riflash tarix haqiqatiga to'g'ri kelmaydi.

To'g'ri, u «Avesto»ni o'tda kuydirgan bolishi mumkin. Lekin buni kitobning qadrini tushunmagani uchunmas, balki yerli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qoygan milliy g'oyalar timsoli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatanparvarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, shu ishni amalga oshirgan. U, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u ushbu zamin farzandlari uchun o'zlikni anglash, binobarin, kuch-qudrat manbayi bo'lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tushungan. Aleksandr dan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va Vizantiyaga qarshi urush qilib, yahudiylarning yerini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo'q qilgani, «Zabur» va «Tavrot»ning qadimgi nusxalarini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasligidan dalolat beradi.

Umuman, har qanday sharoitda ham istilochilarning birinchi ishi xalq va millatlarni zo'rlik bilan bosib olish, boyliklarini talash bo'lsa, keyingi asosiy faoliyati — millatni o'z tarixi va an'alaridan uzib qoyish, madaniy merosini talon-taroj qilish, uning ma'naviyatini yo'qotishdan iborat bo'ladi. Tarixning bu achchiq sabog'i mustamlakadan ozod bo'lgan, o'z mustaqilligini saqlab qolish va mustahkamlashga intiladigan har qanday xalq taraqqiyoti uchun eng muhim xulosa bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda buddaviylik ham o'z o'rniga ega. U diniy-falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Sidharta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u «Budda», ya'ni nurlangan degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik Islomga qadar O'rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o'rin tutadi. Bu ta'limot O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II—I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, uni Toharistonga balxlik savdogarlar olib kelishgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi.

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'pri bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlikning ildizlari ham o'sha davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyati va san'atiga qiziqislii tasodifiy emas.

Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylilik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha lisolalar yozgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Moniy Imtto «Moniylik yozuvi» nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi — yaxshilik va zulmat dunyosi — yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsur (ruh — nur farzandi, jism — zulmat mahsuli)dan iborat. Moniylik xalq ommasini manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo'lgani sababli hukmron mafkura qarshiligiga duch kelgan.

Moniylik ta'limoti asosida Mazdak ta'limoti yuzaga kelgan. U eramizning V—VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470—529-yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida xalq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo'lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko'payib ketgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida kurashga da'vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik-boylikka hirs qoyish va o'ta kambag'allik qoralanadi. Bu insonparvar harakatdan cho'chigan shox Mazdakni turli

hiylalar bilan o'linga mahkum etadi. Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan.

Markaziy Osiyo arablar istilosigacha mayda feodal mulklarga bo'lingan edi. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida Mavoraunnahr xalqlari Arab xalifaligi hokimiyati ostida qoldilar. Arab yarim oroli islomning kelib chiqishi arafasida urug'-qabilachilik munosabatlarining inqirozi bosqichida edi. VI asrda arab qabilalari o'rtasida markazlashishga bo'lgan tamoyil kuchayib boradiki, u o'z ifodasini xaniflarning (voizlarning) qabila sanamlariga (shirk) qarshi qaratilgan yakkaxudolikni (tavhid) targ'ib qilishlarida topadi. Oxirgi xaniflardan biri Quraysh qabilasidan kelib chiqqan Muhammad (570-632) edi. Muhammad va uning sahobalarining faoliyati natijasida *xanafiylilik* yangi diniy oqim islom sifatida shakllandi.

Islom Arabistonda arablarning sinfiy jamiyatga o'tish va Arab davlatining tashkil topishi davrida paydo bo'ldi. Ilk islomning bosh yodgorligi bo'lgan Qur'onda mutlaq yakkaxudolik asosiy aqida bo'lib, arab qabilalarining yagona davlat hokimiyatiga birlashishini ifodalay edi.

Qur'on (arabcha qara'a o'qimoq) musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi bo'lib, ular uni eramizning VII asrida Muhammad s.a.v. payg'ambar tomonidan yetqazilgan ilohiy vahiy, deb tan oladilar. Bizgacha yetib kelgan ko'rinishda Qur'on 114 suraga (boblar) bo'lingan bo'lib, suralarning uzunidan qisqa tomonga borishi tartibida tuzilgan. Har bir sura sarlavhaga ega: masalan, «Baqara» («Sagir»), «Yunus», «Hadid» («Temir»), «Shams» («Quyosh»). Qur'on Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin to'plashga boshlandi. Rivoyat qilishlaricha, uning birinchi rasmiy matni xalifa Usmon (644-656) davrida tahrirdan chiqqan. O'rta asrlarda muomalada bo'lgan Qur'onning boshqa nusxalari bizgacha yetib kelmagan. Qur'onning rasmiy Usmon matni VII asrning boshlarigacha o'zgarishlarga (qisqartirishlar va qo'shimchalarga) duchor bo'ldi. Unli belgilar unga VII asrning oxirlarida kiritildi.

Qur'on mazmuni xilma-xil bo'lib, undagi materiallarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) afsungarlik (shemanlik) o'qishlari; 2) narigi dunyo, ya'ni oxirat; 3) qadimgi arablar og'zaki ijodi; 4) yahudiylik va xristianlikning mazhabiy aqidalari va afsonalar; 5) huquqiy meyorlar. Bu materiallarning barchasi Qur'onda tizimga solinmagan holda joylashtirilgan. Qur'on xususiy mulkni saqlash va qo'riqlashga alohida diqqat-e'tibor qaratadi. Shuning uchun Qur'onda mulkni merosga olish, vasiylik va boshqalar haqida aniq ko'rsatmalar bor. Mulkiy va ijtimoiy tengsizlikni (jumladan, qullikni) Qur'on Alloh tomonidan o'rnatilgan tartib hisoblaydi.

Qur'on va Muhammad (s.a.v.) payg'ambar hadislari amriga ko'ra, insonlar o'rtasida haqiqiy va adolatli munosabatlar o'rnatishning asosiy va zaruriy sharti tinchlikdir. Bundan tashqari, haqiqiy musulmon bu hamma vaqt adolat uchun murosasiz ravishda dadil kurashadigan kurashchidir. Ammo buning uchun, uning dini bu oliy tushunchaga qanday ma'no sig'dirganligini bilish uchun, uning o'zi yetarli darajada yaxshi bilimlar bilan qurollangan bo'lmog'i lozim. Masalan, u shuni bilmog'i lozimki, ijtimoiy adolat ostida islom odamlar orasida qandaydir majhul va mutlaq tenglikni emas, balki hayotning barcha muhim sohalarida, ya'ni ijtimoiy foydali mehnat, ta'lim-tarbiya olish, ijtimoiy himoyalash, tibbiy yordamdan foydalanish va boshqa ijtimoiy xizmatlar boyicha barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishni ko'zda tutadi. Odilona yo'l tutgan xalifalar davri umumiy tarzda ana shunday alomatlar bilan belgilangan edi. Ma'lumki, xalifa Umar ibn al-Xattob Islom

amr qilgan kishilar jamoasi hayot tarzidagi axloqiy munosabatlarning asosiy meyorlarini hayotga tatbiq qilishda ayniqsa mashhur bo'lgan edi. U hech ikkilanmasdan qudratmand va boy kishilar adolatsizlik qilganda ojizlar tomonini olar edi. Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning ko'plab boshqa sahobalari ham bunday mustahkam qoidalarga tayanar va unga rioya etar edilar.

Qur'onga qo'shimcha sifatida Muhammad (s.a.v) payg'ambarga nisbat beriladigan, u kishining hatti-harakatlari va hukmlarini hikoya qiluvchi juda ko'p xadislardan iborat *sunna* (musulmoncha muqaddas rivoyatlar) vujudga keltirildi. Sunnada xalifatdagi qarama-qarshi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy kurash, hamda islomga boshqa dinlar va qadimgi ellinistik falsafiy tizimlar ta'siri o'z aksini topgan.

Ma'lumki, Qur'on islom qonunchiligining asosidir. Hadislar esa, uning murakkab joylarini qisqacha tushuntirib, yangi qirralarini ochib, umumiy joylarini muayyanlashtirib, uni to'ldiradi. Hadislar Muhammad (s.a.v.) nasihatlarini ham bo'lib, musulmonlarni hayotning barcha sohalariga yo'naltiradi. U kishi shunday degan: «Men sizlarga ikki narsani qoldirdim, agar sizlar uni mahkam ushlasangizlar, hech qachon adashmaysizlar, bu -Qur'on va mening sunnatimdir»².

Muhammad (s.a.v) payg'ambarning birinchi sahobalaridan boshlab, haqiqiy musulmonlar hamma vaqt u kishining rivoyatlari va aytganlari haqida ishonchli bilimga ega bo'lishga va uni o'rganishga alohida e'tibor berdilar. Ularni esda saqlab, ehtiyotkorlik bilan boshqa odamlarga yetkazishga harakat qildilar. Muhammad (s.a.v.) hayotlari vaqtida *islom shariatining* asosi Qur'on va u kishining o'zlarining namunaviy hayoti sunna edi. Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin islomning juda tez va keng tarqalishi diniy ilmlar qonun-qoidalarini rivojlantirishni dolzarb zaruriyatga aylantirdi. Bu maqsadda juda tezlik bilan turli-tuman joylarda ko'plab markazlar shakllana boshladi.

Hadislar ishonchli deb faqat shundagina tan olinishi mumkin ediki, uni rivoyat qiluvchilar zanjirining barcha bo'g'inlari aniqlangan bo'lsa, hadislar to'plamining eng ishonchlisini bizning vatandoshimiz imom va al-Buxoriy yozgan. U kishi hadislarini fiqh boyicha, unga muvofiq keladigan boblarga bo'lib, joy-joyiga qoyib tasnif qildi. Shunday usuldan imom Muslim ham foydalandi. Keyinchalik ularning har ikkisi izidan mashhur muhaddislar Abu Dovud, An-Nasam, at-Termiziy va Ibn Mojalar bordilar.

Olimlar bu olti muhaddis to'plamlariga katta e'tibor berib, ularni talqin va sharhlash bilan shug'ullandilar. Hijriy uchinchi asr (X asr) hadislar to'plash tarixida oltin davr hisoblanadi. Hadis ilmi taraqqiyotining ana shu noyob, sermahsul davridagina yuqorida aytilgan olti buyuk muhaddis va ko'plab boshqa olimlarning asarlari o'zining butun go'zalligini namoyon qildi. Bu ajoyib islom fidokorlari zumrasi o'zlarining asarlarida Payg'ambar hadislarining mutlaq ko'pchiligini qamrab olib, keyingi keladigan butun musulmon avlodlariga rivoyatlarning ishonchligini o'rganishda mustahkam asos soldilar.

Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. VIII-IX asrlarda markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat va fan ravnaq topdi.

Xalifalar al-Mansur (754-776), Horun ar-Rashid (786-809), Ma'mun (813-833) hukmronligi davrida hind va yunon adabiyotlaridan qilingan tarjimalarga

² Falsafa. Darslik. M.Axmedova umumiy tahriri ostida. T.: O'FMJ, 2006. 339 b

qiziqish ayniqsa kuchaydi, Aristotel, Galen, Hippokrat, Arximed, Yevklid kabi yunon faylasuflarining ilmiy merosi o'rganildi. IX asr boshida Bag'dodda «Dor ul hikmat» «Bilim uyi» tashkil etildi. Bu dargohda xalifalikning turli shaharlaridan taklif qilingan olimlar astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, kimyo, falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgandilar.

IX asrlar boshlangan arab istilosiga qarshi kurash mustaqil davlat qurish va xalifalikka qaramlikdan xalos bo'lish uchun kurashga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo mo'g'ullar istilosini boshdan kechirdi va unga qarshi kurash jarayonida XIII asr boshlarida bir necha davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lib, ular keyinchalik tor-mor qilindi.

IX asr boshlarida dastlab Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati mo'g'ullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq, ko'p asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, san'at va adabiyot rivojlanishda davom etdi.

Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar.

Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyo uyg'onish davri deb nomlash mumkin. Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan, va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

2. Tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni, oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilish.

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish bu davr madaniyatining muhim jihatlari.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari o'rtasida madaniy qadriyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy boyliklar, turli xalqlarning an'analari, tili va tarixini o'rganish bilishning eng to'g'ri yo'llari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun apparatini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning optika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur o'rganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi. O'rta asrlarda Sharq falsafasi mifologiya va din qo'ynidagina emas, balki fan qo'ynida ham rivojlanadi. Sharq olimlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar ma'lum. Odatda tabib, munajjim, sayyoh bo'lgan Sharq faylasuflari asbtrakt mulohazalardan ko'ra ko'proq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar.

Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari orasida o'rta osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, Yaqin va O'rta Sharqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor.

Forobiy (870-950) falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy (mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi o'ringa qo'ygan. Ayni shu sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida e'tibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «ko'p»dir. Borliqning mazkur holati emanatsiya, ya'ni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi to'qqiz gumbaz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu gumbazlarda ularning Yer atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar o'z harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyligi haqidagi masalada Platon fikriga qo'shilmagan, chunki uning paydo bo'lishi va o'limi tananing paydo bo'lishi va o'limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni shu sababli Forobiyda bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab yetish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab yetadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab yetiladi. Bunda aql avvalo mantiqqa tayanishi, lekin sezgi a'zolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim.

Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obyektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslanadi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, obyekt subyektga qadar mavjud bo'lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo'lganidek, bilish mumkin bo'lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo'lgan.

Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o'rganadi. Forobiy «Fan va san'atning o'ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo'l ekanligini qayd etadi.

Forobiy fikricha, inson paydo bo'lganidan so'ng avvalo «oziqlantiruvchi kuch» paydo bo'ladi, uning yordamida oziqlanish jarayoni yuz beradi. So'ngra sezgi organlari paydo bo'ladi, ular insonga sezish, tasavvur qilish qobiliyatvaxotirani beradi. Shundan keyingina inson «orzu kuchi» yordamida bilim va hunarlarni o'zlashtiradi, foydali narsalarni foydasiz narsalardan farqlaydi, o'z xulq-atvorini tartibga soladi. Forobiy insonning barcha kuchlari ma'lum sezgi organlari bilan moddiy sabab orqali bog'lanadi, bu kuchlarning birortasi ham moddiy sababsiz mavjud bo'la olmaydi, deb hisoblaydi.

Forobiy inson ruhining bir tanadan boshqa tanaga o'tishini qat'iy rad etadi va ruh ham, tana kabi substansiyalarning individual birligidan iborat, deb hisoblaydi. Uning fikri noizchil bo'lgan. Bunday noizchilik Aristotelning bilish nazariyasida ham kuzatiladi.

Aristotelga ergashib Forobiy ham ayrim narsalar birlamchi, mavjud tushunchalar va g'oyalari – ikkilamchidir va ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashishi natijasida paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu g'oyalari universalialar va umumiy tushunchalar haqidagi qarashlarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Universalialar mavjud bo'lgani uchun ham umumiy tushunchalar mavjuddir, deb hisoblaydi buyuk mutafakkir.

Bilish bosqichlari o'rtasidagi farqlarni tushunish Forobiyga bilish yo'llari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Bilishning fiziklar foydalanuvchi birinchi yo'li sezishdan boshlanishi lozim, chunki tana sezgiga yaqinroqdir. Bu hol sezgilar muayyan narsalarni aks ettirishi bilan izohlanadi. Narsalar sezgi organlarida aks etgach, jismni va uning yuzasi, chiziqlari va nuqtalarini mavxum o'rganishga o'tishi lozim. Matematiklar jismning u yoki bu jihatlarini teranroq bilish uchun foydalanuvchi bilishning ikkinchi yo'li mavhumlashtirishdan boshlanishi darkor. Bilishni mavxum nuqtadan boshlagan aql muayyan jism bo'ylab harakatlana boshlaydi, mavxum chiziq, yuza, jismni anglaydi va so'ngra muayyan jismni tushunib yetadi.

Forobiy g'oyalari nafaqat Sharq fanining, balki G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojida ham muhim rol o'ynadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar, asarlari: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya"), tabiat va uning obyektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi, materiya narsalar shaklini o'zi yaratadi va o'zgartiradi, jon (tafakkur, ma'naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta'kidlagan.

Ma'lumki, tajriba, eksperiment borliqini bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so'zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyliги tajribada o'z tasdig'ini topmagan».

Beruniyning yetarli asos bilan o'rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og'irligini aniqlash bo'yicha bir qancha tajribalar o'tkazdi. Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim meyorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida obyektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o'tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiyliğini tekshirish metodi sifatida, o'rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan, deb aytish imkonini beradi. G'oya ilgari surilgani va ishonchli bilimning olinishi tajriba bilan bog'lanishi, bilimning haqiqiyliги tajribada sinalishi muhimdir.

Beruniyning ijodida kuzatish muhim o'rin egallaydi. Tabiatni ilmiy o'rganishda kuzatish bilishning boshqa shakllari bilan o'zaro bog'langan.

Beruniy fikricha, kuzatuvchi kuzatilayotgan hodisani u yuz berayotgan joyda idrok etadi. Binobarin, kuzatish u yoki bu hodisani uning muayyan ko'rinishida qayd etadi. Kuzatishlarning eski ma'lumotlari obyektning haqiqiy ko'rsatkichini ancha buzib ifodalashi mumkin.

Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerdagi hayotga ta'siri, iqlim, tabiiy va sun'iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg'or metod va nazariy tamoyillar yordamida yechishga harakat qildi.

Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblari yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U o'sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e'tibor bergan. Olimni o'ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblari yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan.

Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblari vositasida, balki o'rganilayotgan obyekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo'ljall, ilmiy tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo'llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o'ynadi.

Abu Ali ibn Sino. O'rta Osiyoning mashhur qomusiy allomasi va faylasufidir. Buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) (980-1037) 300 dan ortiq asar muallifidir. Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi» ayniqsa keng dovruq qozongan.

Ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma'noda qomusiy bilimlar egasi bo'lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning ularni tadqiqot obyektlariga ko'ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan.

Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgarmaydi va inson ularni anglab yetishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyliги mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan.

O'sha davrda u shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan.

Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obyektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi.

Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu, ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir, degan xulosaga keladi.

Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism to'qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to'lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa yetgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi va ular bundan jonni xabardor etadi. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo'lsa-da, hozirgi

tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali obyektiv dunyoning subyektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta'sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi.

Ibn Sino ko'rish haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Ko'rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta'limoti asossiz ekanligini ko'rsatadi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi.

Alloma sezgilarni va tuyg'ularning barcha shakllarini o'rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya'ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog'ladi va uni idrok etish va sezish asosi deb e'tirof etdi.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, in'ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog'liq emas. Sezish markazi miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o'rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a'zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o'tkazgichlar bo'lib xizmat qiladi. Umumiy ma'lum tasavvurga ko'ra, asablar bosh miyada boshlanadi va ularning tarmoqlari terining yuza tomonida tugaydi. Ko'rib turganimizdek, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo'l bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Tasavvurni Ibn Sino O'rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o'rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko'rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha yetib boradi, deb qayd etadi.

Shunday qilib, Ibn Sino fikriga ko'ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalanitiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo'qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi.

Ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo'ladi. Birinchi – narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu yerda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi nazarda tutilmoqda. Ibn Sino in'ikos konsepsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to'g'risidagi masalani ko'taradi. Ma'lumki, bu mo'ljal Yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o'zining tadrijiy yakunini topgan.

Ikkinchi – obyektiv borliqda amalda mavjud bo'lmagan narsaning mohiyati anglanadi. Bu yerda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog'lanmaydigan ideallashtirilgan obyektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

Uchinchi – narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu tamoyilda narsani sezgi bog'liq bo'lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi abstraksiyaning kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligiga qaramay aks etishi mumkin.

Ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg'u – bu miyaning old qismida joylashgan kuch bo'lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi.

Binobarin, Ibn Sino fikriga ko'ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg'ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi.

Obraz deganda alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aksidental tomonlari yig'indisini tushunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so'z yuritir ekan, u shunday deb yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya'ni inson bilan bog'liq barcha narsalardir».

Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi.

Shunday qilib, bilish jarayoni pirovard maqsadi obyektlar mohiyatini bilishdan iborat bo'lgan murakkab jarayondir. O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari asosan bilish bilinayotgan obyektning in'ikosidir, degan nuqtai nazardan kelib chiqdilar. Bunda insonning sezgi organlari bevosita bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi, ya'ni sezgilar yordamida bilinuvchi obyektiv dunyo bilish manbai sifatida amal qiladi.

So'fizm falsafasi. Bilish muammosi so'fizmning eng muhim tomonini tashkil etadi. Mo'tadil so'fizm ta'limotiga ko'ra gnostik (orif)ning asosiy vazifasi oliy maqsadga erishish – haqiqatni bilishdan iborat. Bu maqsadga o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini o'zi bilish yo'li bilan erishiladi. O'z mohiyatini bilish jarayonida inson o'zida ilohiy unsurlar mavjudligini, Allohni bilishning birdan-bir to'g'ri usuli o'zini o'zi bilish, ya'ni o'zlikni anglash ekaninini tushuna boshlaydi.

Biroq bilishning bu darajasiga yetish uchun odam o'zini butunlay o'z o'zligini anglashga baxshida etishi lozim. U so'fiycha turmush tarzini tanlashi, shuningdek haqiqat sari yo'l tutgan kishilarga qo'yiladigan ayrim boshqa talablarni bajarishi darkor. Mo'tadil so'fizm vakillari qatoriga Xorisi Muhosibiy, Abulqosim Kushayriy, Abu Homid G'azzoliy va boshqalar kiradi. Ular so'fiy shariat chizig'idan chetga chiqmasligi, uning barcha so'zlari va ishlari Qur'oni karim aqidolari va Muhammad payg'ambar hadislariga muvofiq bo'lishi lozim, deb hisoblaydilar.

«Vahdati vujud» (borliqning birligi) nuqtai nazarida turuvchi so'fiylar so'fizmning ashaddiy tarafdorlari hisoblanadi. Ular Haqiqat (Alloh) va tabiatni bir deb qaraydilar. Tabiat ilohiy emansipatsiya oqibatidir. Inson bu emansipatsiya zanjirida oxirgi bo'g'inni egallaydi. U nafaqat Haqiqat (Alloh)ni bilish darajasiga yetadi, balki o'zi ham Haqiqat – «Alloh»ga aylanadi. So'fiylikning bu tariqati vakillari yashirin, sirli narsalarni bilishni afzal ko'rib, shariat aqidolari va meyorlarini tan olmaganlar.

So'fizm Allohni tabiat bilan uzviy deb qaraydi. Uni insonni qurshagan tashqi dunyoda, mavjud har bir narsa bilan tenglashtiradi va ularda Allohning siymosi, mohiyatini ko'rib, tabiat, atrof muhit sari, uning sirlarini ochish tomon, bu yashirin hodisalarning har birida ilohiy haqiqat belgisi, mohiyatini topish va bilish maqsadida muayyan qadam tashlaydi.

So'fizmdagi Allohni bilishda bilish usullari va vositalari sifatida vahiy va ilhom amal qiladi. Bu yerda sezgilar va aql bilish vositalari sifatida ishlamaydi. Borliqning birligi tarafdorlari sanalgan so'fiylarda panteistik an'analar ustunlik qiluvchi ta'limotlarda Allohni bilish nazariyasi bilan bir qatorda dunyoni bilish nazariyasi ham mavjud bo'lib, unda bilish obyektini sifatida moddiy dunyoning o'zi, bilish vositalari va usullari sifatida esa – sezgilar, aql, kuzatish, taqqoslash, so'zning tor ma'nosidagi tajriba amal qiladi. Garchi ular bilishning turli shakllarini tan olsalar-da, mohiyatlar mohiyati (Alloh)ni bilish darajasi to'g'risida so'z yuritilgan hollarda bilish

shakllarining ahamiyatini cheklaydilar. Allohni bilishga faqat Uning karami va nuri yordamida muvaffaq bo‘linadi.

Mutlaq haqiqatning tagiga yetish yo‘lidan boruvchi odam (orif) o‘z oldiga haqiqatni bilish vazifasini qo‘ygan faol individga aylanadi va uzoq izlanishlar, turli mistik bosqichlar, maqomlardan o‘tish va o‘zlikni anglash natijasida o‘zida mutlaq haqiqat (Alloh)ni topadi va yetuk insonga aylanadi.

So‘fizm ta‘limotiga ko‘ra, haqiqatning tagiga yetish uchun odam o‘z ichki dunyosi, qalbini har xil dunyoviy qusurlardan forig‘ etishi lozim. Bunga erishish uchun u bir qancha ma‘naviy bosqichlar yoki so‘fiylar ta‘biri bilan aytganda maqomlardan o‘tishi darkor.

Bilish va ma‘naviy sayohat yo‘lida odamga uning tafakkuri yo‘l ko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan bosqichlarning har biridan o‘tish natijasida odam axloqiy va ma‘naviy jihatdan takomillashadi va haqiqatni bilishga yaqinlashadi.

Abu Homid G‘azzoliy so‘fizmni panteizmdan tozalashga harakat qildi. Bunga u muvaffaq bo‘ldi. G‘azzoliy fikriga ko‘ra, «har qanday ma‘naviy poklanishlardan qat’i nazar, inson hech qachon Xudoga aylana olmaydi». Bu bilan u so‘fizm va panteizm o‘rtasida o‘ziga xos «xitoy devori» o‘rnatdi.

O‘sha davrda yashagan, ijod etgan mutafakkirlardan biri **Yoqub ibn Isoq al-Kindiy** (800—879-yillar) falsafiy qarashlari o‘z davrining eng ilg‘or oqim sifatida tanilgan va Mu‘tazila ta‘limoti bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Arab falsafasi mutaxassislarining fikricha, garchand musulmon Sharqida juda ko‘p yirik mutafakkirlar o‘tgan bo‘lsa ham, „faylasuf“ degan nomga faqat al-Kindiy musharraf bo‘lgan, xolos.

Al-Kindiy falsafa bilan fan o‘rtasidagi tortishuvni falsafa foydasiga hal qiladi. U falsafa fanining zarurligini isbot qilishga urinib, uni borliqni bilishning muhim quroli, hatto falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar, deb uqtiradi. Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, uning vazifasi nimadan iborat, inson o‘z aqli, idroki bilan narsa va hodisalarning asl mohiyatini bilishga qodirmi, degan savollarga ham javob berishga harakat qiladi. „Falsafa, — deydi u, —narsa va hodisalarning mohiyatini, asosiy sabablarini tekshiradi, no‘malum haqiqatning sababini topish orqaligina, uning mohiyatini bilish mumkin“.

Al-Kindiyning fikricha, plant to‘g‘risidagi butun haqiqatni bir mutafakkirning o‘zi to‘liq tushunib, egallab yetolmaydi. Haqiqat necha necha asrlar davomida, qanchadan-qancha mutafakkirlar tomonidan to‘planib kelingan bilimlar majmuasidan iborat. Bir odamning umri qancha uzun, aqli teran, ilmiy izlanishlari chuqur bo‘lmasin, ko‘p mehnat qilmasin, baribir, olam to‘g‘risidagi bor haqiqatning hammasini to‘liq anglab yetolmaydi. „Buning uchun, — deydi u, — yuzlab, minglab yillar, necha-necha avlodlarning matonatli izlanishlari, o‘tkir fikrlari zarur bo‘ladi. Shu tufayli biz biroz bo‘lsa-da, haqiqatni bizga bildirib ketgan o‘tmishdoshlarimiz, ota-bobolarimizdan minnatdor bo‘lmog‘imiz lozim“, — degan xulosaga kelgan.

Al-Kindiyning arab falsafasida sharq aristotelchiligi paydo bolishidagi roli g‘oyat kattadir. U Arastu falsafasini juda yaxshi bilgan va, hatto uning ba‘zi bir g‘oyalariga tanqidiy yondashgan. U Arastuning 10 ta kategoriyasi o‘rniga o‘zining 5 ta parasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonni) ilgari surgan. Uning nuqtayi nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to‘rt unsur: *olov, suv, havo va tuproqdan* iboratdir. Materiya doimiy harakatda, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o‘tishidan iborat. Bu, o‘z

navbatida, o'zgarishlarga olib keladi. Harakatni u olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat, 6) siljish. Vaqt harakatning sekin va tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon va kelgusi zamoni bog'laydi. Materiya shaklga ham ega. Faqat shakliy tafovut materiyani (xayulo) makon atributi ekanligini ham e'tirof etadi. Makon deb, jisrni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz. Makon bilan uni to'ldirib turadigan narsa bir-biriga bog'liq. Agar makon bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, degan xulosaga kelgan.

Al-Kindiyning falsafiy qarashlarida. dunyoni ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'limoti ham muhim o'rin tutadi. Bunda bilishning birinchi bosqichi mantiq va matematika yordamida yuzaga kelsa, tabiatshunoslik bilimlari orqali inson bilishning ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Inson bilishning uchinchi bosqichiga esa, metafizika (falsafa) orqali ko'tariladi. U o'zidan oldin o'tgan olimlar va zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, tanqidiy ravishda qayta ishlab chiqqan, qadimgi faylasuflar, xususan, yunon falsafasining durdonalari bilan butun kelgusi avlodlarni bahramand qila olgan qomusiy mutafakkirdir.

O'rta asr Sharq falsafasining Al-Kindiydan keyingi yana bir yirik vakili **ar-Roziydir** (864—925-yillar). Uning to'liq nomi Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziydir. U tibbiyot, kimyo, botanika, astronomiya, matematika, mantiq va falsafaga oid ilmlarni chuqur egallab, Sharqning buyuk ensiklopedist olimi, tabib va mutafakkiri bo'lib yetishdi.

Roziyning falsafiy qarashlari ham Eron, Arab, Hind, Xitoy, Turon zaminidagi diniy-falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta'limotlari asosida shakllandi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va kuzatishlarga asoslangan bo'lib, u o'z davrining dogmatik qarashlaridan xolidir. Roziy o'zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha oldinga ketib, qator ilg'or g'oyalarni ilgari suradi.

Roziy o'z falsafiy qarashlarida Arastuning izidan borgan o'z o'tmishdoshi Al-Kindiyga nisbatan butunlay mustaqil yo'l tutdi. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, real dunyo beshta azaliy boshlang'ich: materiya, makon, zamon, jon (an-nafas) va Xudo (bori)dan iboratdir. Roziy Xudoni azaliy sabablardan faqat bin deb biladi. U dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy sabablar qanday rol oynasa, Xudo ham shunday rol oynaydi, deb hisoblagan. Shu sababli u Xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavur qiladi. Ko'rinib turibdiki, Roziy borliqning abadiyligi, uning makon va zamondagi cheksizligi, dunyo hech kimsa tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati ekanini, harakatning manbaysi narsalarning ichidaligini ko'rsatadi.

Roziy kishilarni ilm-fan va ma'rifatni egallashga chaqiradi, baxtli hayotga erishish ilm-fanni egallash orqali royobga chiqadi, deb tushuntiradi. „Biz uchun eng sharafli bo'lgan narsa, — deydi u, — faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma'rifat orttirish va haqiqatga erishishdir". Uning ta'limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli turmushga erishishdir. Shuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashishi kerak. Bu kurash ikki yo'ldan iborat. Birinchisi — hayotning hamma moddiy ne'matlaridan foydalangan holda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish; ikkinchisi — eng oliy axloqiy holga erishishdir. Eng baxtli odam boshqalarga ko'p foyda keltirgan kishidir. Uningcha, eng ohy axloqiy yetuklik kishilarning bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bir-birini ochiq ko'ngillilik va

hushmuomalalik, rahmdillik bilan qabul qilish, yordam berishidir. Boshqalarni baxtsiz qilish yo'li bilan baxtli bo'lish mumkin emas.

Roziy hatto Islom dini aqidalarini tanqid qiluvchi ikki asar ham yozgan. Bular: „Naqd aladyon“ („Dinlardagi ziddiyat“) va „Hiyal almutanabbiyyin“ („Soxta payg'ambarlar nayrangi“)dir. Bu asarlarning bizgacha faqat ayrim qismlarigina yetib kelgan.

Roziy o'z qarashlarida o'sha davr uchun eng ilg'or va qimmatli bo'lgan — xalqlarning o'zaro tengligi, kishilarning dinga, e'tiqodga nisbatan erkinligi haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi.

O'rta asr musulmon falsafasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri **Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliydir** (1058-1111-yillar), G'azzoliy mashhur islom ilohiyotchisi, Kalom falsafasining yirik vakilidir.

Abu Hamid G'azzoliy islomiy ilmlarning turli sohalarini dunyoviy ilmlarga qo'shib chuqur egallaydi. U nimani o'rgansa, shu sohani to'ldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir o'rgangan narsasini islom tarozisiga qoyib, o'lchab ko'rish asosida baholashga harakat qiladi. Oqibatda, islomning turli sohalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fikx ilmiga oid „Bosit“, „Vajid“ va „Kosit“, „Kalom“ ta'limotiga doir „Tavxid ul A'qoid“, „ArRisolat-ul-Qudsiya“, „Al-iqtisod-u fil-e'tiqod“ kabi asarlarni yozgan.

G'azzoliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qo'shgan asarlari — mu'tazilachilar, botiniylar (ular ko'proq aqlga tayanganlar)ning yo'ldan ozganini asoslashga va islomni zaiflashtirishlariga qarshi yozgan „Fadoix al-Botiniya“, „Al-Qismoi-aI-Mustaqim“, „Hujjatul-Haq“, „Mufasiul-Xilof“ va „Ad-Diras al-Marqum“ nomli kitoblaridir.

Abu Hamid G'azzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarlari bilan ham tanishib chiqqan. U Forobiy va Ibn Sinolarning Platon va Arastuning falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini tanqid qilib, „Taxofut-ul-falosifa“ („Faylasuflarga qarshi“) asarini yozgan. Bu asarida u Islomni, Qur'onni insoniyatning aqliy bilimlari mezonlari bilan o'lchab bo'lmasligini ta'kidlaydi. Insoniyatning aqliy bilimlarini Qur'on nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish lozimligiga e'tibomi qaratadi. Agar shunday qilinmasa, Islomni yanglish tushunish davom etaveradi, biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

G'azzoliy o'z ta'limotida Islom falsafasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanish uchun awal Ollohni tanishi kerakligini, aks holda ular his-tuyg'uda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlari mumkin, deydi. Xullas, G'azzoliy o'zining asarlarida islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi. U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi.

G'azzoliy islom ilohiyotiga oid falsafiy qarashlariga qarshi chiqqan faylasuf — **Ibn Rushddir** (1126—1198-yillar).

Ibn Rushd Arastuning falsafiy qarashlarini davom ettirdi va, shu asosda, o'ziga xos falsafiy tizimni yaratdi. U o'z qarashlarida Xudoning mavjudligini e'tirof etsa-da, dunyoni Xudo yaratmagan, uning ibtidosi ham, intihosi ham yo'q, deydi. Uning fikricha, materiya benihoyat abadiy va azaliy bo'lib, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, Xudo ham shu zaruriyatga boysunadi.

Ibn Rushd „ikki haqiqat“ to'g'risidagi ta'limotni ham yaratdi. Bu ta'limotda aytilishicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat — haqiqiy bilim, diniy ta'limotlar mavjud haqiqatlarga mos kelmasligi ham mumkin.

Ibn Rushd o'zining Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asari — „Taxofut al-falosifa“ („Faylasuflarni rad etish“) ga qarshi yozgan „Taxofut-ut-taxofut“ („Faylasuflarni rad etishni rad etish“) asarida G'azzoliy ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U, kishi oliy kamolotga faqat zikr-u sano orqali emas, balki ilmiy-falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta'lim beradi. Ibn Rushdning bu ta'limoti O'rta asrdagi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, keyinchalik esa, Uyg'onish davri Yevropa mamlakatlarida falsafiy qarashlar rivojlanishida katta rol oynaydi. U O'rta asr hurfikrliligining eng yirik namoyandalardan biri bo'lgan.

Kalom va Mu'tazila g'oyalari O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida ham o'z ifodasini topadi.

X asrda yashagan Turkistonlik olimlar Abul-Qosim Samarqandiy va Abu Mansur as-Samarqandiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, *Mu'tazilagbyalari* Samarqand, Buxoro madrasalarida ham keng tarqalgan, ular bilan Kalom falsafasi tarafdorlari o'rtasida katta munozaralar olib borilgan. Ray shahrining qozikaloni Qozi Abdujabbor *mu'tazila falsafasi* tarafdorlariga boshchilik qilgan. U har qanday bilimni mantiqiy dalillar asosida himoya qilish zarurligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, u islom aqidalari, shariat talab va taqiqlariga ko'r-ko'rona rioya qilish mumkin emasligini ham ko'rsatgan.

Xorazmlik olimlar Abu Mudar binni Jarir-al-Dabbiy al-Isfahoniy, Abul-Qosim ibn Umar az-Zamaxshariy, Imom Tojiddin Muhammad Abdu-ul-Karim ash Shahrisoniy *Mu'tazila ta'limotini* ochiqdan-ochiq himoya qilib, falsafada ratsionalistik yo'nalishni ancha yuksak bosqichga ko'tardilar. O'z zamonining eng yirik, obro'-e'tiborli olimlaridan bin bofigan Abu Mudar Urganchda kuchli mu'tazila maktabini tashkil etgan. Uning shogirdi bo'lgan Zamaxshariy qattiq ta'qib va tazyiqlarga qaramay, mu'tazila e'tiqodidan yuz o'girmagan, mustaqil aqliy mulohazalar haqiqatni bilishning asosiy sharti ekanini ko'rsatgan, ratsionalizm — aqliy bilimlarni, mantiqiy dalillarni ko'r-ko'rona e'tiqoddan ustun qoingan.

Ibn Arabiy falsafasi Yevropa falsafiy an'anasida foydalanilgan tilga juda yaqin bo'lgan tilda yaratilgan filosofema. Uni ayni holda ratsionalistik filosofema deb nomlash mumkin (u birlik, ko'plik, sabab, oqibat, birinchi asos, jism, makon, zamon kabi kategoriyalar va atamalardan foydalanadi); tilini badiiy til deb belgilash mumkin bo'lgan, biroq nafaqat estetika jabhasini, balki ontologiya va naturfalsafaning ratsionalistik tili bilan bir borliqni tavsiflovchi filosofema (uning kategoriyalari – muhabbat, intilish, ehtiros, muhtojlik, go'zallik va sh.k.); nihoyat, «mistik» tilda yaratilgan filosofema (kategoriyalari: zavq, hol, fano, baqo, jon, ro'yo va h.k.).

Har bir filosofema, Ibn Arabiyda bilishning alohida usuliga tayanadi. Shu sababli yechimlarning har biri bo'yicha tegishli bilish usulining qisqacha tavsifini keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz.

1. Bilishning birinchi usuli – oqilona-mantiqiy bilish. Uning vositasi – aql, amalga oshirish usuli – sillogizmlar yoki dalillar orqali chiqarilgan xulosalar tarzidagi mantiqiy mulohazalar. Ko'rib turganimizdek, Ibn Arabiy Aristotel mantiqi bilan tanish: u to'g'ri sillogizmi tuzish uchun zarur shartlarni tavsiflaydi, mantiqan to'g'ri mulohaza yuritish uchun dalillar va xulosalar zanjiri izchil bo'lishi, biron-bir bo'g'inda uzilmasligi lozimligini ko'rsatadi va o'zi isbotlashning mantiqiy metodlarini ko'p karra qo'llaydi.

Mantiqiy bilish Ibn Arabiy uchun qimmatli emas, u dunyoni bilishga xizmat qiladi. «Faylasufning barcha bilimi ham soxta emas, u nimadadir haq bo'lishi

mumkin, ayniqsa, payg‘ambar ham shu haqda so‘z yuritgan bo‘lsa. Sen faylasuf dinsiz yashaydi, deb aytishing mumkin, biroq unda dinning yo‘qligi faylasufning butun ta’limoti soxta ekanligini isbotlamaydi: buni aql asoslari bilan har qanday aql egasi anglab yetadi». «Aql asoslari» (avval al aql) – bu keyinchalik Dekart qayd etuvchi intuitiv jihatdan aniq va shak-shubhasiz oqilona haqiqatlardir.

Ibn Arabiy fikriga ko‘ra, oqilona bilim inson tanasini boshqaruvchi inson joniga kerak: u jonning dunyo haqidagi bilimi muqarrar unsuridir. Oqilona bilim (ilm)ning qimmatini Ibn Arabiyda shubha uyg‘otmaydi: «Narsani bilish, hech shubhasiz, uni bilmaslikdan ma’qulroqdir». Sillogizmlar orqali oqilona bilish bizga dunyo haqida to‘g‘ri bilim beradi: u, masalan, rangli oyna orqali o‘tgan yorug‘lik oyna rangini kasb etsa-da, o‘z holicha rangsiz ekanligini, Quyosh ko‘zga kichkina bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida Yerdan bir necha marta kattaligini aniqlash imkonini beradi. To‘g‘ri sillogizm tuzib, dunyoning borlig‘i zamirida sabab yotishini aniqlaymiz.

Bilishning oqilona-mantiqiy metodidan faylasuf bizni qiziqtiruvchi muammoni yechish uchun foydalanadi, biroq uning uchun mantiqiy mulohazalar zanjirida mutlaqo boqiy ilohiy mohiyat tushunchasi «boshlang‘ich nuqta», dunyoda bo‘lib turgan o‘tkinchi nomukammal mohiyat kategoriyasi esa – «pirovard nuqta» hisoblanadi yoki aksincha. Xudodan dunyoga yoki dunyodan Xudoga bunday mantiqiy harakat qilish natijasida muammoning ratsionalistik yechimi topilishi lozim: dunyoga nisbatan transsendent ilohiy mohiyat ayni vaqtda unga ichdan xos bo‘lishi, uning borlig‘i substansional asosini tashkil etishi darkor. Bu biz yo dunyoni tavsiflovchi muhim kategoriyalarni transsendent ilohiy mohiyat tushunchasidan chiqarishimiz, yo dunyoda mavjud o‘tkinchi mohiyat kategoriyasini asos qilib olib, transsendent ilohiy mohiyat borlig‘ini keltirib chiqarishimiz lozimligini anglatadi. Shunday qilib, muammoning yechimi oqilona-mantiqiy metodlar yordamida topilishi mumkin.

2. Bilishning ikkinchi usuli – muammoni mushohada yuritish yo‘li bilan yechish: yechimdan shartlar sari. Mushohada yuritishni bilish usuli sifatida o‘rganar ekanmiz, dunyo va ilohiy mohiyatning uzviy birligi va ayni vaqtda ilohiy mohiyatning transsendentligi uning uchun muqarrar holdir, deb aytishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, bu birlik ayniylik emas: boshqacha aytganda, bu dunyo va ilohiy mohiyatning farqlangan birligidir. Har qanday narsa va hodisada mushohada yuritish seziluvchi va idrok etiluvchi tashqi – zohir jihatlarni va sezgilarga ham, aqlga ham yashirin ichki (botin) ma’noni aniqlash imkonini beradi. Bu yashirin ma’no borliqning birinchi asosi, ilohiy mohiyatning dunyoga ichdan xosligining negizi va ayni vaqtda mushohada obyektini hisoblanadi. Yashirin ma’noni anglash narsalarda, dunyoda Xudoni bevosita ko‘rish demakdir.

Mushohada yuritish jarayonida bilish subyekti o‘zining bilish obyektidan ontologik mustaqilligini saqlagan holda u bilan birikadi, uni butun vujudi bilan anglab yetadi. Bunga bilish subyekti bo‘lgan insonda ham «yashirin ma’no» mavjudligi imkoniyat yaratadi. U yagona va uzviy bo‘lgani uchun bilish obyektini bilan «ichki mohiyat» jihatidan birikish imkoniyati yuzaga keladi, «tashqi mohiyat»da esa subyekt va obyektning alohidaligi saqlanib qoladi.

Mushohada yuritish yo‘li bilan olingan bilim ratsionalistik tildan farq qiluvchi alohida tilda bayon etiladi. Mushohada yuritish, mohiyat e’tibori bilan, butundan qism sari harakatdan iborat bo‘lgani uchun bu tilni badiiy til deb atash mumkin. Bu tilda yozilgan matnda qismning mazmunini anglab yetish uchun (har qanday badiiy

asarda bo‘lganidek) avval butunning mazmunini anglab yetish lozim. Vaholanki, fan tilida yozilgan matnda qismlarni tushunmasdan butunni tushunish mumkin emas. Ibn Arabiy filosofemasi «badiiy» tilda yozilgan bo‘lib, mushohada yuritishga asoslanadi va uni biz shu til nomi bilan estetik filosofema deb ataymiz.

3. Bilishning uchinchi usuli – muammoni mistik yo‘l bilan yechish: shartlar va yechim ayniydir. Bu yerda bilish oqilona-mantiqiy va mushohada yuritish yo‘li bilan bilishdan mutlaqo boshqacha shartlardan kelib chiqadi. Bu bilish subyekti va obyektining ayniylik shartidir. Bilish subyekti bu ayniylikka erishgach, o‘zining subyektlik mohiyatini yo‘qotadi; subyekt va obyekt o‘rtasidagi tafovut yo‘qoladi, biluvchi bilinuvchiga aylanadi, biluvchi ham, bilinuvchi ham yo‘qolib, faqat yagona universal qoladi. Bu holat «fano» holati, subyektiv o‘zlikning «halok bo‘lish», yo‘qolish holati deb ataladi.

Biz ilohiy mohiyatning dunyoga nisbatan transsendentligi va immanentligi muammosi yechimining uch variantini ko‘rib chiqdik. Yechimning birinchi yo‘lini qismdan butun sari yo‘l, mantiqiy mulohaza yuritishdan boshlanuvchi yo‘l deb belgilash mumkin. Bunda ilohiy mohiyat yoki dunyo «qism» deb, muammoning izlanayotgan yechimi esa – «butun» deb olinishi mumkin. Ikkinchi yo‘l butundan qism sari harakatdan iborat: biz yechim mavjudligini faraz qildik, u qanday bilishi lozimligini («butun»ni) ko‘rsatdik va so‘ng uni tahlil qildik, transsendent-immanent muammo yechilgan sharoitda ilohiy mohiyat va dunyo qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rishga harakat qildik. Nihoyat, yechimning uchinchi varianti qismlar va butunning ayniyligini, mutlaqo va barcha yo‘nalishlarda ayniylikni: qismlarning bir-biri bilan, ularning har biri va ikkalasining butun bilan ayniyligini qayd etadi. Birinchi holda transsendentlik va immanentlik muammosining yechimi topilmadi, ikkinchi holda u o‘z yechimini topish uchun dualizmni qabul qilishni talab etdi, uchinchi holda esa u yechilmaydi, balki o‘z asosini yo‘qotadi.

Bahouddin Naqshband. asos solgan so‘fiylik ta’limotining nazariy asoslaridan birini Xudo, dunyo va insonning o‘zaro nisbati muammosi tashkil etadi. Bu bosh muammo talqinida so‘fiylarni ikki yo‘nalish – teistik va panteistik yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Alloh hamma narsaning yaratuvchisi deb e’tirof etilgan, insondan tashqarida turgan, dunyo uzra yuksalgan va bilish mumkin emas deb e’lon qilingan bo‘lsa, so‘fiylar ta’limoti monoteizm shakl-shamoyilini kasb etgan, dunyo va Xudo tushunchalari tenglashtirilgan taqdirida bunday ta’limot panteistik deb hisoblangan³.

Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishishga intilishda ko‘rgan va Haqiqat (Alloh)ga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim – tariqat jarayonida yuz beradi, deb hisoblagan. U shariat Qur’oni karim va hadislarini bilishdan kelib chiquvchi diniy qonun-qoidalar to‘plami ekanligidan kelib chiqqan. Tariqat odam Haqiqatga erishish uchun qaysi bosqichlardan o‘tishi, Allohni anglash va u bilan birikish uchun qanday to‘siqlarni yengishi lozimligini belgilaydi. Bunda bilish jarayonida shariatdan tariqatga o‘tish darhol yuz bermaydi. Faqat shariatni o‘zlashtirish va uning talablarini bajarish orqali Haqiqat yo‘lidan jadalroq va samaraliroq borish mumkin.

Odam bilishning har bir bosqichi (mistik yo‘l manzillari)dan oldinma-ketin o‘tib o‘z maqsadiga yaqinlashadi. So‘fizm nazariyasi va amaliyoti ongning tashqidan

³ Shayx Baxovuddin Nakshband: yego znachenije dlya religioznogo mirovozzreniya, vliyaniye yego ucheniya na etiku i politiku. – T.: Movarounnaxr, 1997. – S 13

ichkiga, ochiqdan yashiringa sayohatini nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband tariqat ezoterik (yashirin, mistik) fan, u hammaga ochiq emas, uni faqat o'zini Haqiqatga baxshida etgan odamlar anglab yetishi mumkin, deb hisoblagan.

So'fizmda mistik bilish zamirida «O'zini bilgan odam o'z Allohini biladi» degan tamoyil yotadi. O'zini o'zi bilish orqali Allohni bilish maqsadga erishishning eng qisqa yo'lidir. Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limotning asosida «Dil ba yoru, dast ba kor», ya'ni «Ko'ngil yorda, qo'l – ishda», degan shior yotadi.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Abu Hanifa, imom Moturidiy va imom Burhoniddin Marg'inoniylar peshqadamlik qilganlar.

Imom Buxoriy (810—870) yirik ilohiyotchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan ishonchli deb topganlarini maxsus to'plam holiga keltirgan. Bu to'plam “Sahihi Buxoriy” nomi bilan mashhurdir.

Imom Iso Termiziy (824—892)dan “Payg'ambarning alohida fazilatlarini”, “Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”, “Tarix” va boshqa asarlar meros bo'lib qolgan. Imom Termiziy hadislarni muntazam ravishda to'plab, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob shakliga keltirgan.

Temur va temuriylar davri xuddi ana shunday, mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lgan xalqimizning milliy dahosi eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davrdir. Bu davr falsafasi xalqimizning sohibqiron Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustaqillikni saqlash hamda mustahkamlash uchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir. Bu xalqimizning markazlashgan davlat tuzish, milliy davlatchiligini tiklash va barqaror qilish, mustaqil yashash orzularining ushalgan davridir.

Mo'g'ullar o'rnatgan mustabid tuzumning Amir Temur dunyoga kelgan davrida yerli aholi o'rtasida chuqur ijtimoiy va ma'naviy uyg'onish jarayoni borayotgan edi. Bu jarayon, «Tarixi, o'sha davridayoq, ming yilliklar qa'riga ketgan buyuk xalq mustamlakachilik azobida yotaveradimi?» yoki «Mustaqillik uchun kurash olib borishda davom etadi va ozodlikka erishadimi?» degan asosiy savollar atrofida roy berayotgan edi.

Mo'g'ullar mamlakatimizni siyosiy va harbiy jihatdan istilo qilgan edilar, ammo uni ma'naviy boysundirish, madaniy jihatdan mo'g'ullarning ustunligi to'g'risida gap ham bolishi mumkin emas edi. Ko'chmanchilik va shaharlarni g'orat qilishdan boshqasiga yaramaydigan, o'troq hayotga mensimay qaraydigan Chingiz avlodlari ma'naviy va madaniy jihatdan o'zlaridan ustun bo'lgan xalqqa nima ham bera olar edilar? Ular o'z hukmronligining oxirigacha ham Vatanimizda birorta tuzukroq yashash mumkin bo'lgan yangi shahar barpo etmadilar, madaniyat o'choqlarining yuksalishi uchun imkon bermadilar, yerli aholi orasidan chiqqan barkamol kishilarni qilichdan o'tkazib turdilar. Ammo xalq irodasini buka olmadilar, uning ozodlik va mustaqillikka intilishini to'xtatib qoya olmadilar. Amir Temur ana shu harakatning natijasi, xalqining milliy g'oyalarini royobga chiqarish uchun tarixiy shakllangan zaruriyat, o'sha paytda har biy uyushqoqlik, siyosiy hushyorlik, fidokorlik jihatidan jahonda tengi yo'q millatga aylangan xalq dahosi yaratgan buyuk jahongir edi. Xalq jahongirga aylanganida o'zining jahongirini yaratadi. Gohida bir jahongir millat boshqasini uyg'otib yuboradi. Bu esa tarixning muayyan hududdagi eng burilish nuqtalariga to'g'ri keladi.

Ba'zilar Temug falsafiy asarlar yozmagan-ku, uning falsafaga aloqasi bormi, deb o'ylaydi. Aslida Temurning hayoti va faoliyati falsafadan iborat emasmi? U

falsafiy xulosalar chiqarish uchun boshqa kishilarning hayoti va asarlaridan ham mazmunliroq hayot emasmi? Falsafani faqat kitoblardangina o'rganish mumkinmi? Aslida, falsafani to'la-to'kis kitobga tushirib bo'lmaydi. Kitobga tushirilgan falsafa muayyan tizimga keltirilgan falsafiy bilimlar sistemasi xolos. Temur va temuriylar davrini tarix falsafasi va falsafa tarixini uyg'un tarzda yozish orqali nisbatan to'g'ri ifodalash mumkin. Amir Temurning hayoti, uning faoliyati, temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji kabi masalalar esa bir necha falsafiy kitoblar, o'nlab tadqiqotlar uchun mavzu ekanligi aniq. Qolaversa, Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va san'atni, falsafa va adabiyotni nozikta'b tushungan, o'zlari ham bu sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan siyosiy sulolalarni jahon tarixidan topish qiyin. Bu sulola vakillari orasida she'r yozmagan, adabiy mashqlar qilmagan, fan-madaniyatga qiziqmagan biror temuriyzoda bo'lmasa kerak. Tarix shundan dalolat beradiki, yurt boshliqlari fan va madaniyatga qiziqqan, ma'naviyatni yuksaklikka ko'tarish uchun kurashgan o'lkada bu sohalarida haqiqiy yuksalish bo'ladi. Siyosiy ta'minlanganlik, boshqa sohalar bilan birgalikda, madaniy taraqqiyotning eng asosiy omili ekanligini rad qilish unchalik o'rinli emas. Madaniyatparvar va millatparvar Amir Temur va temuriyzodalar o'sha davr ma'naviy taraqqiyoti uchun siyosiy va iqtisodiy asoslarni to'la-to'kis yaratgan arboblardir. Xalqimizning asrlar osha ular ruhiga minnatdorlik tuyg'usi bilan yondashuvi, haligacha o'z farzandlariga bu sulola vakillari nomlarini qo'llab yurishi, bugungi kunlarda ham o'sha zamondan tashbehlar izlayotganining sabablaridan biri ham ana shunda⁴.

Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336—1405) Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja ilg'or qishlog'ida dunyoga keldi. Uning eng asosiy tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u mo'g'ullarning bosqinchilik va vayronkorliklariga qarshi kurashib, O'rta Osiyoni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlarning o'zaro nizolariga barham berib, kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi. Uning davrida «Kuch — adolatda» tamoyili amalga oshdi, iqtisod va madaniyat yuksaldi, o'zga mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi.

Amir Temur mohir harbiy sarkarda sifatida nom qozondi. U o'z hayotini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go'zal hududiga aylandi.

Temurning yana bir ulkan xizmati shuki, u madaniyat va ilmfan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olimu fuzalo va din arboblari to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqand eng go'zal shahar edi. Ispan sayyohi R. G. Klavixo Samarqandning go'zalligiga qoyil qolgan edi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi. Islom dini o'sha

⁴ Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov va boshq. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

davrda asosiy mafkura bo'lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Temur o'z faoliyatida unga tayanib ish ko'rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloqch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarni tarqatishda foydalangan. Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, zino va fahsh ishlar bilan shug'ullanmaslik, harom-xarish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehr-shafqat ko'rsatish kabi g'oyalarni xalqqa singdirish uchun kurash olib bordi. Naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo'lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Barakalar Temurning pirlari bo'lib, sohibqiron ular bilan tez-tez muloqot qilib turgan.

Temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'alarini izchil ravishda davom ettirdilar. Bu davrda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Amir Temur Ko'ksaroy masjidi, Shoxizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi. Keshda (Shahrisabz) Oqsaroy barpo qila boshladi. Mirzo Ulug'bek davrida 1417—1420-yillarda Registonda, keyinchalik Buhoroda, 1432—1433-yillarda G'ijduvonda madrasalar qurildi, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi qurib bitkazildi. 1429-yili esa Ulug'bekning falakiyot rasadxonasi nihoyasiga yetdi. Xirotda ham ko'plab me'morchilik binolari barpo qilindi. Ular jumlasiga masjid, madrasa va xonaqohlardan iborat bo'lgan Gumbazi sabz, Alisher Navoiy qurdirgan «Ixlosiya», «Nizomiya», «Shifoiya» madrasalari, Marv shahridagi «Xusraviya» madrasasi va boshqalar kiradi. Navoiy yashagan zamonda Xirotda «Sharq Rafeali» deb nom olgan Kamoliddin Behzod (1456—1535) va shoh Muzaffar kabi dunyoga mashhur rassomlar ijod qildi. Behzod «Zafarnoma» kitobiga, Xusrav Dehlaviyning «Xamsa», Sa'diyning «Bo'ston» asarlariga naqsh bergan va Xusayn Boyqaro, Xotifiy, Jomiy va boshqalarning rasmini chizgan, xalqning mehnatini, tabiat manzaralarini haqqoniy tasvirlagan.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan siymolardan biri, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri *Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir* (1441—1501). Uning otasi G'iyosiddin kichkina Shahrisabzdan Hirotga borib qolgan barlos beklaridan edi. Navoiy Hirotga Husayn Boyqaro saroyida turli lavozimlarda ishladi, 1472 yildan boshlab vazir etib tayinlandi. Mamlakat obodonchiligi, xalq ravnaqi va osoyishtaligi yo'lida ko'p ishlar qildi.

Navoiy ijodi boy bo'lib, asarlari turli mavzularga bag'ishlangan. «Xamsa» ya'ni «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari hamda «Xazoyin ul maoniy» («Ma'nolar xazinasini»), «Lison ut-tayr», «Majolis un nafa'is», «Mahbub ul qulub», «Mezon ul-avzon», «Muhokamat ul-lug'atayn» va boshqalar.

Navoiyning ijodi falsafiy fikrlarga boy bo'lib, unda jamiyat va inson munosabati, insonning baxt-saodati, komil inson va fozil jamoa, ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-oylari o'z ifodasini topgan. Shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy o'xshatish va ramziy iboralar yordamida, zohiriy va botiniy ma'nolarda bayon qilinadi. Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g'oyasi muhim o'rinni egallaydi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, tinchlik,

osoyishtalik va boshqa go'zal fazilatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari, nasihatimiz so'zlari respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) o'sha davrning eng ma'rifatli podsholaridan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug'ilgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan saltanatga asos soldi. Bobur davrida hind diyori gullab-yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli kishilari Maxatma Gandi va Javoharlal Neru ham Bobur va boburiylar — Shoh Jahon, Avrangzeb va Akbar kabi temuriyzodalarga juda katta baho berganlar.

Ichki kelishmovchiliklar natijasida o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan Bobur avval Qobulda, so'ngra esa 1526-yilgi Panipat jangida Ibroxim Lo'di ustidan g'alaba qozonib, Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatdi. «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilib, temuriylar davlati va madaniyatining davomchisi sifatida mashhur bo'ldi.

Boburning xizmati shundaki, u Hindistonni markazlashgan davlatga aylantirdi, mamlakatda tinchlik o'rnatdi, obodonlashtirish va qurilish ishlarini rivojlantirdi, karvonsaroylar, me'moriy yodgorliklar, bog'chalar, kutubxonalar barpo qildi, madaniyat, san'at, adabiyot va ilm-fanni yuksaltirdi. Bobur ilm-fan, san'atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo'lgan davlat arbobi, olim va shoirdir.

Boburiylarning ko'pchiligi ma'rifatchilik bilan mashg'ul bo'ldilar, olimu fuzalolar bilan maslahatlashib turdilar. Ularning yana bir xizmati islom va budda diniga e'tiqod qiluvchi musulmon va hindularni kelishtirishga, ahil yashashga chaqirishda bo'ldi.

Boburning mashhur tarixiy asari «Boburnoma»dir. Bulardan tashqari, u huquqshunoslikka oid «Mubayyin», aruz ilmiga oid «Mufassal», musiqa boyicha «Musiqiy», harbiy ishlarga oid «Harb ishi» risolalarini yozgan. «Boburnoma» o'sha davrdagi Markaziy Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eronning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotini, savdo munosabatlari, jug'rofiyasi, hayvonot va nabotot olamini, iqlimi, qabila va elatlarning urf-odatlarini, marosimlari, turmush tarzini va marosimlarini aks ettirgan asardir.

Bobur o'zining lirik she'rlarida ishq, muhabbat, Vatan sog'inchi, mehr, vafo, insoniylik, do'stlik, yaxshilik va mehr-oqibatni kuyladi.

Javoharlal Neru Boburning Hindistondagi faoliyatiga katta baho bergan edi. Neru Boburning dilbar shaxs ekanligi, mard va tadbirkorligini, san'atni sevganini va umuman, Hindiston uchun ko'p ish qilganligini ta'kidlagan edi. Bobur va boburiylarning siyosiy, madaniy faoliyatlari Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashda hozir ham muhim rol oynamoqda.

Shunday qilib, XIV—XV asarlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish yuz berdi. Buni olimlar Renessans davri ham deb atamoqdalar. Ba'zi olimlar esa, bu atamaning Sharq mamlakatlariga to'g'ri kelmasligi to'g'risida o'z fikrlarini aytmoqdalar. Nima bo'lganda ham Yevropada XV—XVI asarlardagi ko'tarinkilik, Renessansning muhim xususiyatlari Markaziy Osiyoda roy bergan madaniy yuksalish bir-biriga ko'p tomonlari bilan o'xshab ketadi. Bular orasida mushtarakliklar ko'p.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda uch davlat — Qo'qon va Xiva xonligi hamda Buxoro amirliklari paydo bo'ldi. Ular davrida ham ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirgan ba'zi mutafakkirlar yashadilar.

Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Ogahiy va Munis kabi shoirlar ijod qildilar: Ogahiy — Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li 1809-yilda Qiyot qishlog'ida tug'ilib, 1874-yilda vafot etgan. Shoirning muhim asarlari «Gulshani davlat», «Riyoziy ud-davla», «Jome' ul voqeoti Sultoni», «Zubdat ut-tavorix», «Shoxidi iqbol», «Bayozi mutafarriqai forsiy», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalardir. Bulardan tashqari, Ogahiy, Sa'diy Sheroziy, Nizomiy, Kaykovus, Jomiy va Koshifiyning badiiy, tarixiy, falsafiy, axloqiy-didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaq (1827-1900) «Omongeldi», «Xalq uchun», «Ahmoq podsho», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Ernazarbiy» kabi asarlarning muallifidir. Ushbu asarlarda mutafakkir qoraqalpoq xalqining turmush tarzini, o'sha zamondagi hayotini mohirona tasvirlaydi. Berdaq asarlarida axloq va xulq-odob, nafosat va go'zallik, vatanparvarlik, insonparvarlik, tenglik, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, haqiqat uchun kurash kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar keng o'rin olgan. Uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari yoshlar ongida ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirishda muhim tarbiyaviy kuchga ega.

Mintaqamiz XIX asr oxirlarida Chor Rossiyasi tarkibiga zo'rlik bilan qo'shib olindi va bu ijtimoiy tafakkurda chuqur iz qoldirdi. Turkistonda ma'rifatchilik harakatining avj olishi jadidchilik g'oyalarining vujudga kelishida muhim o'rin egalladi. Lekin Sho'rolar davrida jadidchilik ko'pincha bir tomonlama talqin qilindi, uning g'oya va maqsadlarini soxtalashtirish va hatto uni millatchilik harakati deb baholash hollari ham bo'ldi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng bu harakatni xolisona va ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish imkoniyati tug'ildi. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim xususiyati uni milliyozodlik harakati va Turkistonda milliy burjuaziyani vujudga kelishi bilan chambarchas bogliqligi edi.

O'sha davrda jadidchilik harakatining qator vakillari yetishib chiqdi. Bular Munavvar qori, Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqalardir. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875—1919) jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Behbudiy yangi maktablar uchun «Risolayi asbobi savod», «Risolayi jug'rofiyai umroniy», «Kitobat ul-atfol», «Amaliyoti islom», «Risolayi jug'rofiyai rusiy» va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari «Padarkush» dramasi. Bulardan tashqari, Behbudiy ko'plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi, axloq va ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar o'rin olgan. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri Abdulla Avloniydir (1878—1934). U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo'shib olib bordi. Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni bolalarga o'qitish yo'lga qoyildi. Mutafakkir «Ikkinchi muallim», «Birinchisi muallim», «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi» kabi darsliklarni yaratdi. Ayniqsa, olimning «Turkiy guliston yoxud axloq» darsligi bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda

bolalarga ilmfan sirlarini o'rgatish, yaxshi xulq-odob qoidalarini singdirish, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xon iashyo qaramligidan xalos etish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan. Avloniy «Advokatlik osonmi», «Biz va Siz», «Portugaliya inqilobi», «Ikki sevgi» va boshqa dramatik asarlar yozib, o'zbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884—1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim «Sayxa» («Bong»), «Hind sayyohining qissasi», «Uchqun» to'plami, «Chin sevis», «Hind ixtilochilari», «O'zbek tili grammatikasi», «Chig'atoy adabiyoti» va boshqa ko'plab asarlar yozdi. Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bolib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

XX asr Sharq falsafasi o'z taraqqiyotida quyidagi tadrijotni — asosiy bosqichlarni bosib o'tdi:

1. *XIX asr oxiridan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr* — milliy ozodlik kurashi avj olishi va keng yoyilish davridir. Bu davrning eng yorqin siymolari Sayyid Ahmadxon, Muhammad Iqbol, O.Tair, al-Afg'oniy, Muhammad Abdu, Ismoilbey G'aspirali, Domla Ikromcha, Behbudiy, Mirzo Siroj Buxoriy, Munawar Qori, Fitrat, Ziyo Go'kalp, Muso Jug'ulloh Qozoniy va boshqalar edilar.

2. *XX asrning 20-yillaridan to 40-50-yillar.* Bu davrda milliy ozodlik kuchlari milliy mustaqillikni qodga kiritish, milliy davlatchilik qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'liga o'tish vazifalarini amalda hal qilish pallasiga kirgan edilar. Bu davrning eng yorqin siymolari — mutafakkirlari Mustafu Kamol Ota Turk, Ziyu Go'kalp, Alixon To'ra Sog'unuy, Mustafu Cho'qayev, Usmon Xo'ja, Xoja Pahlavonniyoz, Alixon Bukeyxonov, Mirsayyid Sultongaliyev, Z.V.To'g'on, Bekir Chodponzoda, Omonulla Hon, Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov, Rashid Rido, Toqiy Eroniy, Mahmudbek Torziy, A.K.Ozod va boshqalar edilar.

3. *XX asrning 60—70-yillaridan to 90-yillarigacha bo'lgan davrda* arab-musulmon Sharqi, sho'rolar mintaqasini istisno qilganda, qiyinchilik bilan bo'lsa-da, hozirgi zamon taraqqiyoti uchun iqtisodiy-texnik, siyosiy-huquqiy, ilmiy-ma'naviy va texnologik zaminni yarata boshladilar. Bu davrning eng yorqin mutafakkirlari, siyosiy rahnamolari: Jamol Abdul Nosir, Masodiq, Sukarno, Anvar Sadat, Muhammad va Sayyid Qutb, Turgut O'zol va boshqalar edilar.

4. *XX asrning 90-yillaridan keyingi davrda* arab-musulmon dunyosi, turkiy olam, nisbatan rivojlangan davlatlar va mintaqalar — Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Janubi Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari jadal taraqqiyot yodiga kira boshlagan bo'lsalar, sho'rolar istibdodi ostida qolgan mintaqalar davlatlari — Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston — milliy mustaqillikni qolga kiritish, mustahkamlash, milliy davlatchilikni vujudga keltirish, zamonaviy taraqqiyot yo'liga chiqib olish va huquqiy, demokratik jamiyat qurish, jahon sivilizatsiyasiga tabiiy-tadrijiy kirib borishdan

iborat „Milliy uygʻonish“ jarayonlarini boshidan kechirmoqdalar.

Bu davrda arab-musulmon Sharq falsafasi Indoneziya, Malayziya, Singapur, Filippin kabi mamlakatlarda yuksak texnologik taraqqiyot surʼati va sifatiga mos keluvchi Gʻarbga xos aqliy bilish usullari, texnologik tafakkurga zoʻr berish va Sharqqa xos tadrijiy taraqqiyot va eʼtiqodiy bagʻrikenglikni oʻzida jo qilayotgan (sintez) zamonaviy falsafa qaror topa boshladi.

Ayni paytda Misr, Suriya, Iroq, Liviya, Yaman, Falastin, Jazoir, Livan, Sudan, Efiopiya, Eron, Afgʻoniston kabi musulmon mamlakatlarida 60-80-yillardagi „Islom sotsializmi“ vasvasalaridan soʻng, asl arab-musulmon falsafasi oʻzaniga qaytish roy bermoqda.

Sobiq shoʻrolar hududidagi yangi „Milliy Uygʻonish“ falsafasi gʻoya, maqsad, qadriyat nishonalari Milliy Respublikalar Prezidentlari I.A.Karimov, M.Shaymiyev, B.N.Nazarboyev, A.Akayev va boshqa siyosiy arboblardan tomonidan ilgari surildi. Mustaqillikning nazariy va amaliy muammolari boyicha Islom Karimov oldinga surgan gʻoyalar ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotga qoʻshilgan muhim hissadir. Bunda ham asosiy qadriyat sifatida Sharq falsafasi anʼanalari eʼtiqodiy bagʻrikenglik va zamonaviy taraqqiyot prinsiplari bilan uygʻun boʻlishi zarurligi haqidagi asosiy gʻoyalar ilgari surilmoqda.

XX asr Sharq falsafasi sobiq mustamlaka mamlakatlarda roy bergan va berayotgan milliy uygʻonish, milliy tiklanish jarayonining nazariy asosiga aylandi.

Sharqda oʻz tafakkur uslubida bilimlarni ifodalash va oʻzlashtirishning oʻz mexanizmlari va shakllari, bilim va haqiqatga eltuvchi yoʻlni yorituvchi oʻz moʻljallari mavjud. Sharq taʼlimotlari va tafakkur uslubini Sharq amaliyoti va tajribasidan olingan Sharqqa xos usullar va metodlar yordamida tushunish va ichdan anglab yetish mumkin.

FALSAFANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI: GʻARB FALSAFASI

Qadimgi Yunoniston va antik davr Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Fales, Zenon, Geraklit, Pifagor, Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit, Epikur va boshqalarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-axloqiy taʼlimotlari muhim oʻrin egallaydi.

Orfiklar va boshqa qator afsonaviy-falsafiy taʼlimotlar vakillari yunonlarning anʼanaviy diniy eʼtiqodlarini toʻgʻrilash va tozalashga urindilar. Shu vaqtning oʻzida (er.ol. VI asr) Ioniya naturfalsafasi deb atalgan maktabning vakillari boʻlgan Tolis (Fales), Anaksimandr va Anaksimenlar dunyoga butunlay boshqacha qarashni rivojlantirdilar. Ularning har uchchalasi Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlati boʻlgan Milet shahrida tugʻilgan edi. Miletlik mutafakkirlar birinchi boʻlib Koinotni uygʻun ravishda tuzilgan, oʻz-oʻzidan rivojlanuvchi va oʻzi tomonidan boshqariladigan tizim sifatida tasvirlashga urindilar. Olam hech qanday xudolar va hech qanday odamlar tomonidan yaratilgan emas. U doimo mavjud boʻlishi lozim. Uni boshqarayotgan qonunlarni inson tushunib yetishi mumkin. Ularda hech qanday tushunib boʻlmaydigan, sirli narsa yoʻq. Shunday qilib, dunyoni diniy-afsonaviy tushunish yoʻlidan uni inson aqli vositasida tushunishga hal qiluvchi qadam koyildi.

Birinchi faylasuflar noiloj ravishda barcha ashyolarning birinchi ibtidosi, birinchi sababi nima, degan savolga duch kelishlari muqarrar edi. Tolis va Anaksimenlar fikricha, hamma narsalar paydo boʻlib, pirovardida yana unga aylanadigan birlamchi

javhar tabiatning to'rt asosiy hodisasidan biri bo'lmog'i lozim edi. Tolis bu narsada ustunlikni suvga bergan bo'lsa, Anaksimendri havoga berdi.

Ammo tabiat hodisalarini majhul nazariy idrok qilish bobida Anaksimendri hammadan ilgari ketdi. U barcha mavjud narsalarning birinchi sababi va asosi *apeyron*, deb e'lon qildi.

Apeyron abadiy va cheksiz javhar bo'lib, sifat jihatdan uni to'rt tabiiy hodisaning birortasiga bog'lab bo'lmaydi va shu bilan birga u doimiy harakatdadir. Uzluksiz harakat jarayonida apeyryondan qarama-qarshi ibtidolar bo'lgan issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik va shunga o'xshashlar ajralib chiqadi. Qarama-qarshiliklarning ushbu juftliklari o'zaro ta'sirga kirishib tabiatning ham tirik va ham o'lik hodisalarini vujudga keltiradilar.

Anaksimendri tomonidan berilgan dunyo manzarasi kelib chiqishi jihatidan o'sha zamon uchun butunlay yangi va g'ayri oddiy edi. U o'zida bir qator moddiyuncha va dialektik xususiyatga ega bo'lgan unsurlarni yaqqol ifodalardi. Shu jumladan o'z shaklini doimo o'zgartirib boruvchi va hamma narsalarni qamrab oluvchi birlamchi javhar to'g'risidagi tasavvur, moddaning hozirgi zamondagi tasavvuriga juda yaqindir. Qarama-qarshiliklarning kurashi va ularning birini ikkinchisiga o'tib turishi, hamda ularni dunyodagi ko'plab xilma-xil barcha jarayonlarning bosh manbasi ekanligi haqidagi fikr ham hozirgi zamon ilmiy qarashlari bilan hamohangdir.

Yunonistonlik faylasuflar shuni yaxshi tushunar edilarki, har qanday bilimlarning eng ishonchli asosi bo'lib tajriba, tajribaviy izlanishlar va kuzatish xizmat qiladi. Mohiyat jihatdan ular faqat birinchi faylasuflargina bo'lib qolmay, balki yunon va butun yevropa fanining asoschilari bo'lgan birinchi olimlar ham edilar. Qadimgilarning o'zlari Tolisni «birinchi riyozidon» (matematik), «birinchi munajjim», «birinchi fizik» deb atar edilar. Bobillik munajjimlarning ilgari kashfiyotlaridan foydalanib, Tolis (Fales) eramizdan oldingi 585 yilda yuz berishi mumkin bo'lgan quyosh tutilishini oldindan bashorat qilgan edi. U birinchi bo'lib birnecha asosiy geometrik teoremlarni isbot qildi, iste'molga sirkul va burchak o'lchovchi asbobni kiritdi. Ma'lum bo'lgan yer yuzini birinchi geografik xaritasini tuzgan kishi sifatida Anaksimendri yod etadilar. U yer yuzini silindr shaklida, havoda muallaq osilib turgan holatda tasavvur etgan. Anaksimendri osmon gumbazi boylab harakat qiladigan yoritgichlar holatini namoyish etadigan «samoviy doira»ni kashf etdiki, unda yoritgichlarni yerga va bir-birlariga nisbatan joylashganliklarini ko'rsatuvchi imkoniyat mavjud edi.

Miletdan keyingi Ioniya falsafasining markazi, faylasuf *Geraklitning* vatani Efes shahri edi. Dunyoning birlamchi unsurini Geraklit olovda ko'rdi. Geraklitning falsafa tarixidagi ahamiyati shunda ediki, u moddaga xos bo'lgan qonuniylik zaruriyati haqidagi masalani dunyoning dialektik rivojlanishi holati bilan bog'lab tushuntirdi. Qarama-qarshiliklarning dialektik birligi Geraklit tomonidan shunday ifodalandiki, ular bir-birlarini doimo o'zaro uyg'unlikda to'ldiradilar va shu jihatdan paydo bo'ladilar. U o'z falsafasining asosiy nuqtai nazarlarini hammaga keng ma'lum bo'lgan bir qator hikmatli so'zlarda ifodaladi: «*hamma narsa oqimda, hamma narsa o'zgarishda*», «*bir daryoga ikki marta sho'ng'ib bo'lmaydi*» va hokazo.

Janubiy Italiyada faoliyat ko'rsatgan mashhur falsafiy maktab pifagorchilar maktabi edi. Pifagorchilar demokratiyaga dushman bo'lgan, ommadan ajralib qolgan, o'z qobig'iga o'ralgan aslzodalar to'dasi edi. Ularning sirli ta'limoti ko'proq nozik tab xususiyatga ega bo'lib, aqliy yuksaklikka da'vo qilardi. Pifagor (mashhur

teorema muallifi) va uning izdoshlari matematik hisob-kitoblar bilan qiziqishar, sonlar va raqamlar birikmasini sirli ruhda talqin qilar edilar. Din va axloqni pifagorchilar jamiyatni tartibga solishning ajralmas qismi hisoblar edilar. Bu hind va eron tasavvufiy qarashlari ta'sirining natijasi edi. Pifagorchilar axloqni xalqni aslzodalarga bo'sunishini ta'minlaydigan ijtimoiy uyg'unlikning asosi deb hisoblar edilar. Uning eng muhim qismi hech qanday shartlarsiz bo'ysunish edi.

Eramizdan oldingi V asr yunon falsafasini ko'zdan kechirib, yunonlarning diniy qarashlarida inqiroz yuz berganligini qayd etish lozim. Eski tasavvurlarning tushkunligi sharoitida yangi diniy g'oyalar tug'ildi. Jumladan, shu vaqtda insonning xudo bilan shaxsiy aloqasi to'g'risidagi mashhur g'oya tarqaldi. Uni biz masalan, an'anaviy qarashlarga salbiy munosabatda bo'lgan yevripid ijodida uchratamiz. Yangi diniy e'tiqodlarning, masalan, tabobat xudosi Asklepiyaning ahamiyati oshib bordi. Vazifalarining o'zgarganligi munosabati bilan ba'zi eski diniy aqidalar yangitdan tug'ildi. An'anaviy diniy aqidalarning tushkunligi frakiyalik va osiyolik chet el aqidalarini Elladaga keng ravishda kirib kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, diniy tasavvufning yoyilishi ham o'ziga xos xususiyat edi.

Bu davr moddiy unchiligining eng yorqin vakillari Anaksagor va Empedokl edilar. Anaskagor fikricha, dunyo dastavval harakatsiz qotishmadan iborat bo'lib, eng kichik zarrachalardan («urug'lar») tashkil topgan ediki, unga aql (nus) harakat bag'ishlagan. Anaksagorning aql haqidagi ta'limoti faoliyatsiz moddaga harakat manbasini keskin qaramaqarshi qoyganligini bildirar edi. Bu narsa falsafiy fikrning kelgusi rivojiga (yangi zamon falsafasining «birinchi turtki» g'oyasi) sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Empedokl barcha narsalar asosida birlamchi to'rt unsur («barcha ashyolarning o'zagi»): olov, havo, tuproq va suvni ko'rdi. Empedokl aqidasicha, barcha ashyolar miqdor va sifat jihatdan o'zgarmaydigan, turli mutanosiblikda bir-biri bilan qo'shilgan to'rt unsurdan tashkil topganlar. Moddaning harakati (Anaksagorda bo'lganidek) koinotdagi boshlang'ich tartibsizlikni bartaraf qilgan va uni o'zini uyushtirgan va uning aqlidan tashqarida bo'lgan narsa sifatida ifodalanadi. To'rt unsur haqidagi nazariyani Arastu qabul qilganligi tufayli, u XVII asrgacha yevropa fizikasining asosi bo'lib xizmat qildi. Empedoklning sezish nazariyasi ham ko'plarga, jumladan Aflotun va Arastuga ham katta ta'sir o'tkazdiki, unga binoan sezgi a'zolarining «badanidan ter chiqadigan teshik»lariga qabul qilinayotgan ob'ektdan ajralib chiqayotgan moddiy «to'ldiruvchilar» kiradilar.

Qadimgi Yunonistonning moddiyunchilik qarashlari o'zining eng gullab-yashnagan davriga Miletlik Levkipp va Abderlik Demokrit (er.ol. 460 yillar) ta'limotlarida erishdi. Levkipp atomistik falsafaga asos soldi. Uning shogirdi Demokrit uni kengaytirib, sayqallashtirdi va har tomonlama umumiy falsafiy tizim yaratdi. Ushbu nazariyaga muvofiq dunyo bo'shliq va harakatdagi atomlardan, ya'ni sifat jihatdan bir xil va o'zgarmaydigan, ammo shakl va andoza jihatdan turlicha bo'lgan cheksiz mayda bo'linmas zarrachalardan tashkil topgan. Atomlar bo'shliqda harakat qiladilar va ularning bir-biriga qo'shilishi butun dunyoni vujudga keltiradi. Tirik mavjudot tirik bo'lmagan narsadan ruhi borligi bilan farq qiladi. Ruh doira shaklidagi harakatlanuvchi atomlardan tashkil topgan. Demokrit ruhni o'ladigan narsa deb hisobladi. Qachonki, badan o'lsa, atomlar makonga sochilib ketadi. Demokrit ta'limotidagi eng muhim qoida, bu moddaning ajralmas xususiyati sifatida taqdim etilgan va unga xos bo'lgan harakat haqidagi qarashdir. Harakat ruh ta'sirining natijasi bo'lmay, balki moddaning o'zini xususiyatidir.

Demokrit falsafa tarixida birinchi marta keng yoyilgan bilish nazariyasini yaratdiki, uning manbai hissiy tajriba edi. Ammo Demokrit fikricha, ashyolarning haqiqiy «tabiati» (atomlar)ni bilishga his-tuyg'u bilan erishib bo'lmaydi va uni faqat tafakkur yordamida idrok etish mumkin.

Empedokl kabi Demokrit ham hissiy qabul qilishni o'tib ketuvchi oqim bilan tushuntirdi (qabul qilinayotgan badandan ajralib chiqayotgan atomlar oqimi).

Demokrit ta'limotida ijtimoiy va axloqiy muammolar katta o'rin tutadi. Davlat tuzumining eng yaxshi shakli sifatida u demokratiyani hisobladi, eng xayrli ish deb donishmandlikni bildi. Demokrit ko'p qirrali olim bo'lib, uning asarlari o'sha zamondagi barcha bilim sohalarini qamrab olgan edi. Demokrit falsafasi yevropa falsafasi va tabiatshunoslik fanlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Eramizdan oldingi V asr boshidagi barcha falsafiy maktablarni koinot va borliq haqida yagona ta'limot yaratib, dunyoning yagonaligi va xilma-xilligini tushuntirib berish istagi birlashtirgan edi. Biroq eramizdan oldingi V asrning o'rtalaridan boshlab Yunonistonning ma'naviy hayotida keskin burilish yuz berdi, ya'ni bundan keyin falsafa asosiga dunyo emas, balki inson qoyildi. Bunday ma'naviy to'ntarishda sofistlarning (yunoncha sofos-oqil) o'rni kam emas edi. Sofistlar harakatining paydo bo'lishi jamiyat tarkibining murakkablashishi bilan bog'liq bo'lib, kasbi siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish bo'lgan toifaning ko'payishi, muvaffaqiyatli siyosiy faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan muayyan bilimlar hajmining oshishi bilan ifodalanar edi.

Safarda kezib yurib, pul ishlash maqsadida donishmandlik va notiqlik ilmidan dars beruvchi o'qituvchi-sofist-kasbiy bilimlar olish jarayoni zaruriyatining tabiiy natijasi edi. Sofistlar ta'limoti tug'ilishining boshqa bir sababi bilimlarning o'zini mantiqiy rivoji edi. O'zining asosiga ko'ra, aqliy mushohadaga tayangan tabiatni o'rganuvchi faylasuflarining hamma narsani qamrab oluvchi koinot to'g'risidagi ta'limotlari juda bo'sh va omonat asosga kurilgan edi. Vaqt o'tishi bilan koinotning bosh tasvirini ko'plab alohida olingan tajribaviy kuzatishlar va xususiy fanlarning xulosalari bilan muvofiqlashtirish qiyinlashib bordi. Tabiat falsafasi bilan muayyan voqeylikdagi bilimlar o'rtasidagi uzilish kuchliroq darajada anglashilgani sari naturfalsafaga nisbatan ijtimoiy umidsizlik oshib bordi. Ana shunday umidva ishonchsizlikning ifodachilari sofistlar edilar. Ushbu ishonchsizlik o'zining nazariy asosini sofistlar tomonidan qoyilgan haqiqat mezonini muammosida topdi: inson bilimlariga ishonish mumkinmi? Ularning to'g'ri yoki yolg'on ekanligini qanday qilib tekshirish mumkin? Umumiy tarzda sofistlarning ta'limoti relyativizm (nisbiylik) edi. Sofistlar faoliyati xususiyatining o'zi bunga imkon bergan edi, chunki ular har qanday nuqtai nazarni himoya qilishga o'rgatar edilar. Bunday ta'limotning asosida mutlaq haqiqat va ob'ektiv qadriyatlarining yo'qligi haqidagi ta'limoti yotar edi.

Sofistlar ta'limotining eng mashhur vakillari Abder shahridan bo'lgan Protagor va Leontinlik Gorgiy edilar. Protagor barcha hodisalar va idrokning nisbiyligi va ularning muqarrar ravishda sub'ektivligi (bir taraflama ekanligi) haqidagi qoidani oldingi surdi («inson barcha ashyolarning mezonidir»). Protagor qadimgi davrlardayoq sofizm deb nom olgan og'zaki bahs musobaqalariga asos soldiki, unda sofistlar mantiqiy mushkul holatlarni qo'llar va umum tomonidan qabul qilingan fikrlardan keskin farq qiladigan nuqtai nazarlarni bayon qilar edilar. Sofistlar Yunonistonda bilimlarning keng tarqalishiga imkon yaratdilar. Bundan tashqari,

dalillarga asoslangan fan sofistlik ishonchsizlik asosiga qurilgan kuchli raqib bilan duch kelib, uning natijasida mustahkamlandi. Ba'zi sofistlar an'anaviy diniy aqidalarga qarama-qarshi bo'lgan fikrlarni bayon qildilar. Masalan, Protagor xudolar bor yoki yo'qligini bilmasligini ta'kidlagan edi. Din xalqni itoatda tutib turish uchun ayyor siyosatchi tomonidan oylab chiqarilgan degan nuqtai nazarni Kritiyga taalluqli deydilar⁵.

Afinada sofistlarning murosasiz dushmani sifatida Suqrot (er.ol. 470-399yy.) maydonga chiqdi. U sofistlarga qarshi o'laroq, baribir haqiqat mavjud va u bahsda topilishi mumkin, degan fikrda edi. Suqrotning kuchi bahs yuritish sohasida u ishlab chiqqan usulda ediki, unda bir qator savollar berish yo'li bilan opponentni o'z nuqtai nazarini noto'g'ri ekanligini tan olishgacha olib borib, so'ngra shu usulning o'zi bilan o'z qarashlarining adolatliligini isbot qilar edi. Suqrot ta'limotining asosida donishmandlar tomonidan bilib olinadigan, ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan ruh to'g'risidagi g'oya yotar edi. U hayotning har qanday sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun kasbiy bilimlar zarurligini ta'kidlagan edi. Ana shundan siyosiy xulosalar ham qilinadi, ya'ni davlatga rahbarlik qilish - bu ham kasb va shuning uchun shu narsa zarurki, u bilan shunday kasbga ega bo'lganlar shug'ullansin. Bunday nuqtai nazar Afina demokratiyasining asosiy qoidalariga butunlay qarama-qarshi edi, negaki, polisni (davlat-shahar) boshqarish-har bir fuqaroning ishi edi. Shu bilan birga Suqrotning ta'limoti oligarxlar (bir to'da puldorlarning siyosiy va iqtisodiy hukmronligi) uchun nazariy asos yaratdiki, pirovardida demos (xalq hokimiyati) bilan ixtilofga olib keldi. Bu narsa Suqrotning mahkum etilishi va o'limi bilan xotima topdi.

Aflotun (er.ol. 427-347yy.) Afinadagi aslzodalar urug'iga mansub edi. «Davlat» va «Qonunlar» degan risolalarida Aflotun orzudagidek polis (shahar-davlat)namunasini yaratdiki, unda tabaqalarga bo'linganlik tizimi o'zining quyi tabaqalar faoliyati ustidan jamiyat yuqori tabaqalarining qat'iy nazorati o'rnatilishi orqali sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan edi. Polis tepasida bilimga ega bo'lgan kishilar, faylasuflar turishi lozim edi. Aflotunning fikricha, demokratiyaning beboshligi tufayli polis haloqat yoqasida turibdi, negaki, u tabiiy kelib chiqishi jihatidan boshqarishga qobiliyati yo'q odamlarni boshliq qilib, o'rnatilgan tartibni buzdi. Bundan chiqish yo'lini u polis xilidagi davlatlarga xos bo'lgan dastlabki asoslarni qayta tiklashda ko'rdi. Ular quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga boysunish tartibidagi tizimni tashkil etadilarki, unda uchta davlat tabaqasining faoliyat doirasi aniq ajratilgan: hukmdor faylasuflar, harbiylar va yerga ishlov beruvchilar. Har kim o'z ishi bilan shug'ullanadi, davlat esa barcha ish tartibini belgilaydi va hammani nazorat qiladi. Aflotun fikricha, oilani jamiyatning boshlang'ich tashkiloti sifatida yo'qotish, bolalarni esa umumiy qilish lozim. Davlatning farovonligi uning fuqarolarining qanchalik tarbiya topganliklariga bog'liqdir. Aflotun bunga shunchalik katta ahamiyat berdiki, muayyan yoshga yetgandan keyin bolalarni ota-onalari ixtiyoridan olib, davlat tarbiyasiga berishni tavsiya etdi.

Aflotunning falsafiy-axloqiy qarashlari uning savol-javoblar tarzida yozilgan ko'p sonli asarlarida berilganki, ulardagi bosh ishtirok etuvchi shaxs uning ustozlari Suqrotidir. Aflotun aqidasi, bizni o'rab turgan voqey dunyo-haqiqiy g'oyalar

⁵ Falsafa. Darslik. M.Axmedova umumiy tahriri ostida. T.: O'FMJ, 2006. 339 b.

dunyosining faqat taxminiy in'ikosidir. G'oyalar va tushunchalar tabiiy ravishda bizning ongimizga xos bo'lib, ulardan ajralmasdir. Siymolar (g'oyalar), Aflotun fikricha, zamon va makondan tashqarida bo'lib, ularni idrok etib bo'lmaydi, ammo ularni aql mushohada qila oladi. Aql ikki dunyoni, ya'ni u dunyo va voqey dunyoni bir-biri bilan bog'laydi.

Aflotun o'z asarlarida aks ettirmagan bilim sohalarini topish juda qiyin. U axloq, siyosat, bilim muammolari, san'at, din va boshqa sohalar bilan shug'ullandi. Bu faylasufning Akademiya deb atalgan maktabida o'qigan shogirdlari Yunonistonda juda ko'p edi. Ular orasida mashhur faylasuflar Spevsipp, Ksenokrat, Knidlik yevdoks, Pontiylik Geraklitlar bor edi. Akademiya matematika va astronomiya rivojida ayniqsa katta xizmat ko'rsatdi. Aflotun keyingi davrlarga katta ta'sir o'tkazdi. Uning his-tuyg'u dunyosini g'oyalar dunyosiga qarama-qarshi qoygan qoidasi turli namunaviy nusxalarda qadimgi dunyo, o'rta asrlar va Yangi zamonning ko'plab ta'limotlarida ishtirok etdi. Aflotunning kuchli ta'sirini faqat yevropadagi falsafagagina emas, balki o'rta asrlardagi arab tilidagi falsafa ham sinab ko'rdi.

Arastu (er.ol. 384-322yy.) tarixga ensiklopedik olim sifatida kirdi. Uning merosi eramizdan oldingi IV asrgacha yunon fani to'plagan haqiqiy bilimlar majmuasi edi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, uning tomonidan yozilgan asarlarning soni mingtaga yaqinlashadi. O'z ustozini Aflotundan farqli o'laroq, Arastu fikricha, moddiy olam birlamchi bo'lib, g'oyalar dunyosi ikkilamchidir. Bir hodisaning ikki tomoni sifatida shakl va mazmunni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tabiat haqidagi ta'limot uning risolalarida avvalo harakat haqidagi ta'limot sifatida namoyon bo'ladiki, bu Arastu tizimining eng qiziq va kuchli tomonidir. U *dialektikaning* yirik vakili hisoblanadi. *Dialektika* uning uchun ehtimoliy va haqiqatga o'xshash bilimlardan haqiqiy va ishonchli bilimlar olish usuli edi.

Faylasufning «Organon» deb umumiy nom olgan mantiqiy asarlari haqiqat va tafakkur qonunlari haqidagi ta'limotdir. O'rta asrlarda «Organon» eng mashhur va o'qiladigan asar bo'lib, o'rta asrlardagi barcha sxolastika (borliqni tekshirish va o'rganishga emas, balki din aqidalariga suyangan idealistik falsafa) uning asosiga qurilgan edi. Arastuning hayvonlar haqidagi risolalari mashhur bo'lib, ularda qadimgi davrda birinchi marta yirik organizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tadqiq etilgan, ularning ta'rif va tasniflari berilgan edi. Shuningdek, olim o'zini tarixchi, pedagog, notiqlik ilmining nazariyotchisi, axloqiy va siyosiy ta'limotlar asoschisi sifatida ham namoyon qilgan edi. Uning qalamiga shunday axloqiy risolalar mansubki, ularda xayrli ish tushunchasi ostida insonlar faoliyatini oqilona boshqarish yetar edi. Ikki keskinlik orasidan o'rtanchasini tanlash: masalan, jasorat qo'rquv bilan shiddatli jur'at o'rtasida turmog'i tavsiya etilgan edi. U she'riyatga ko'p diqqate'tibor qaratdi, negaki, uning fikricha, nazmiy asar inson ruhiga samarali ta'sir etadi va shu sababdan ijtimoiy hayot uchun muhimdir.

Arastu orzudagi (ideal) davlat tuzumi loyihasining muallifi sifatida shunday xulosaga keldiki, *polis* insonlar uyushmasining eng yuqori shakli bo'lib, unda yashaydigan kishilarning maqsadi farovonlikka erishishdir. Jamiyatning asosiy birlamchi tashkiloti oiladir. O'zining mulohazalarida Arastu tabiatdan kelib chiqib quyidagilarni aytgan: oila tabiiy bo'lganidek, qullik ham tabiiy, negaki, ba'zilarning buyruq berishi, boshqalarning esa tobe bo'lishi tabiat tomonidan oldindan belgilab qoyilgan.

Polisning (shahar-davlat) mavjud turlarini diqqat bilan ko'rib chiqqan faylasuf boshqarishning to'g'ri uch shakli (saltanat, monarxiya, aristokratiya va politiya) va uch noto'g'ri (tiraniya, oligarxiya va demokratiya) shaklini topadi. Ularning har birining xususiyatlarini mufassal ko'rsatadi va baholash mezonini sifatida ularning farovonlikka qanchalik yaqin turgan yoki turmaganliklarini belgilaydi. Arastu shogirdlari orasida shuhrat topgan juda ko'p faylasuflar, fiziklar, matematiklar va biologlar bor edi.

Qadimgi dunyo tarixida eramizdan oldingi IV asrning oxiridan eramizning I asrining oxirgi o'n yilliklarigacha bo'lgan davrni *ellinizm* davri deb atash qabul qilingan. Bu davrning falsafiy-siyosiy qarashlari polis mafkurasidan yiroqlashib ketgan edi. Mumtoz shahar davlatlar fuqarolari jamoasining dunyoqarashlarini aks ettirgan Aflotun maktabi, polislarning tushkunligi sababli o'zining ilgarigi yetakchilik mavqeini yo'qotadi. Eramizdan oldingi IV asrdayoq mavjud bo'lgan va polis mafkurasining inqirozi tufayli vujudga kelgan kiniklar va *skeptiklar* oqimining ta'siri oshib boradi. Biroq ellinistik dunyoda eng mashhur bo'lgan voqea eramizdan oldingi IV va III asrlar bo'sag'asida paydo bo'lgan ravoqiylar va epikurchilar ta'limoti edi.

Rimning oxirgi ravoqiychisi imperator Mark Avreliy edi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, dunyoda biror bir narsani o'zgartirib yoki to'g'rilab bo'lmaydi. Uning ta'kidlashicha, barcha kishilar har doim laganbardor, yolg'onchi va o'z manfaatini ko'zlovchi bo'lganlar, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladilar. Bu tartibsizlik orasida nima qoladi? Faqat o'z zakovatiga xizmat qilish, o'zini kamolotga yetkazish va ezgulik. Ammo bunday o'zini qoyarga joy topolmaydigan, hayotda hech qanday maqsadi bo'lmagan ezgulik insoniyatga xizmat qilish borasidagi o'z ma'nosini yo'qotar edi. Negaki, insoniyat o'zgarimas va illatlardan holi bo'lmaganligi uchun, uni hech qachon ilhomlantirib bo'lmas edi.

Epikur falsafasi Demokrit moddiyunchiligi taraqqiyotida oldinga qoyilgan qadam edi. Uning atomlar haqidagi ta'limotini qabul qilgan Epikur atomlarning to'g'ri chiziqlik harakatdan ichki ta'sir natijasida chetga og'ishi haqidagi taxmini o'rta qoydi. Bu bilan u qonuniylik bilan tasodifiylik uyg'unligi muammosini oldinga surdi. Uning falsafasida inson markaziy o'rinda turadi. Epikur o'z vazifasini insonlarni o'lim va taqdir xavfidan ozod qilishda deb bildi. U xudolarning tabiat va inson hayotiga aralashishlarini rad etdi va ruhning moddiyligini isbot qildi. Xudolarning mavjudligini tan olgan holda, u xudolar haqida «olomonning yolg'on uydirmalari» ga qarshi chiqdi. Tashvish va faoliyatni huzur-halovat holati bilan sig'ishtirib bo'lmaganligidan, xudo «xushbaxt va bezavol mavjudot bo'lib, o'zi ham tashvish bilmaydi, boshqalarga ham notinchlikni ravo ko'rmaydi va shuning uchun g'azabga ham, izzat-hurmat qilishga ham duchor bo'lmaydi». Ruh badan kabi atomlardan tashkil topgan, ammo nozikroq zarrachalardan tarkib topgan bo'lib, hamonamki tana qobig'ida ekan his-tuyg'uning bosh sababchisidir. Qachonki, qobig' buzilsa, atomlar ruhi tarqab ketadi va his-tuyg'u yo'qoladi. Inson uchun yaxshi va yomon narsa his-tuyg'uda ekanligidan, o'lim esa -his-tuyg'udan mahrum bo'lish ekanligidan, o'lim insonni qo'rqitmasligi kerak, negaki «hamonamki biz bor ekanmiz, o'lim hali yo'q, o'lim kelganda esa, bizning o'zimiz yo'q bo'lamiz»⁶.

Ellinistik davlatlarning inqirozi va rimliklar bosqinchiligining boshlanishi bilan aqliy dunyoqarash borgan sari o'z o'rnini din va tasavvufga bo'shatib berdi.

⁶ Falsafa. Darslik. M.Axmedova umumiy tahriri ostida. Toshkent, 2006. – 356 b.

Sehrgarlik, yashirin diniy udumlarga ishonish, munajjimlik keng tarqaldi. Ijtimoiy xayolparastlik va payg'ambarlikka e'tiqod qoyish, ayniqsa keng shuhrat kasb etdi. Yashirin diniy udumlarga o'zini bag'ishlash, Xudo bilan bevosita aloqa o'rnatish va taqdir hukmidan ozod bo'lish imkoniyati sifatida qarala boshlandi.

Ziyolilar va shaharliklar orasidagi bosh masala shunga qaratildiki, dunyodagi butun yomonlik va razolat qaerdan kelib chiqadi va uni qanday qilib bartaraf etish mumkin? Ilgari aflotunchilar tomonidan berilgan javob eng mashhur bo'lib ketdi: yomonlik moddadan va moddiy dunyodan kelib chiqadi. Ilgari ravoqiylar o'zlarini unga moslashtirishga uringan va uni ezgulik va baxt-saodat asosi hisoblangan koinot zaruriyati, endilikda qul qiluvchi, boquvchi kuchga aylantiriladi. Bundan keyingi butun hatti-harakat shunga yo'naltirildiki, o'zini yashirin diniy udumlarga bag'ishlab, vahiyga va sharq donishmandlarining sirli bilimlariga yo'l topib, qanday qilib bo'lsa ham, zaruriyat xoqimiyatidan qutilib, haqiqiy ozodlik yo'lini idrok etish bilan umumiy birlikka erishib, razolatni bartaraf qilish choralari izlana boshlandi. Ana shu maqsadda sehrlil iboralar ham qo'llanila boshlandiki, ular yer va sayyoralar jinlarining ruhini ulardan tashqariga chiqarib yuborishga o'rgatishlari kerak edi.

Eramizning III asri kishilari uchun qahramon endi sarkarda yoki siyosatchi emas, balki faylasuf *Plotin* va uning izdoshlari kabi xudodan ilhom olgan, butun dunyo sirlarini biladigan donishmand edi. Plotin (204-270yy.) Gallien homiyligidan foydalanib, o'z davrining sharoitlarini hisobga olgan holda, o'zi qadimgi dunyo madaniyatini uyg'otish to'g'risida orzu qilsa ham, qadimgi dunyo qarashlaridan nimani qutqarish imkoni bo'lsa, o'shani saqlab qolishga harakat qildi. U Xudo bilan inson o'rtasidagi vositachilar tabaqalarini qisqartirib, koinot bilan insonning yagonaligini qayta tiklashga intildi. Uning uchun oliy nuqtai nazar xunuk emas, balki go'zal bo'lgan butun dunyoni teshib o'tadigan yagona, bir butun oliy ezgulik ediki, nega deganda u mukammal g'oyalar dunyosini ifoda qilar edi. Kurash va baxtsizlik borliqning ko'pligi va uzilganligidan paydo bo'ladi. Ularni bartaraf etish oliy ezgulik bilan qo'shib ketishlikdadirki, unga bilim bilan emas, balki ekstaz (karaxtlik) holati ya'ni barcha yerdagi narsalarni tark etish, ruhni razolatdan xuddi oltin quymasini unga yopishgan loydan tozalash kabi yo'l bilan erishib bo'ladi. Bu oliy ezgulikni talab qiladi. Ammo Plotin «fuqaroviy» ezgulikni ham rad etmaydi. Bunga erishish uchun har kim o'z burchini dunyo voqealarida vijdonan oynashi kerak. Har kim shuni unutmazligi kerakki, dunyodagi yomonlik, rasmdagi soya kabi zarurdir va u o'zining shaxsiy farovonligidan kelib chiqmasdan, balki butun ezgulikdan kelib chiqmog'i lozim. Yomon odamlar hukmronlik qilmoqda, yaxshilar esa azob chekmoqda degan doimiy shikoyatlar bema'nilikdir. Negaki, xudolar yig'layotgan va ibodat qilayotganlarga emas, balki kim mehnat qilayotgan va kurashayotgan bo'lsa, o'shalarga yordam beradilar.

Plotinning ta'limoti keng omma uchun juda ham murakkab edi. Uning o'zi ham uni xoslarga mo'ljallagan edi. Keyinchalik yangi aflotunchilik bir qator o'zgarishlarga duchor bo'lib, asosan sharqdagi shahar ziyolilarining falsafasiga aylandi. Xristianlikning yoyilishi bilan cherkov borgan sari salobatli va yaxshi tashkil topgan kuchga aylanib bordi. Xristianlarga nisbatan bo'lgan ta'qiblarning bekor qilinishi bilan xristian jamoalari chekkan azoblari sinovidan uyushgan va mustahkamlangan holda chiqdilar. Bu narsa xristianlarning keyingi taqdirleri uchun sezilarli ahamiyat kasb etdi. 529 yilda Vizantiya imperatori Yustinian farmoniga

binoan Afinadagi Aflotun Akademiyasi bekitildi. Qadimgi dunyo falsafasi o'zining ming yillik mavjudligini to'xtatdi.

Rim imperiyasi davri va o'rta asrlarda Yevropa falsafasi. Yevropada qadimgi Yunon va Rim davridan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgarigi I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi. 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustuvor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150-yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihati bilan Xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354-yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

Dualizm — gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya — hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi «himoya qilish» — demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asarlarida mushriklik (ko'p xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar. Apologetlar asarlarida ikki ap'apa yaqqol sezilib turadi. Ya'ni inkor qilish va tasdiqlash, Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qoyilgan ayblar — g'ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinchii apologeya», «Ikkinchi apologeya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta'kidlash lozim.

«Patristika» so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347—407) edi. Uning 640 ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo'llash sofiy axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354—430) bo'lib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo'lgan. Avgustin o'z hayotini yepiskoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag'ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig'inish» 401-yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikkacha bo'lgan hayotini yozadi. Unda Tavrot oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa

insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar ham yozgan.

«Sxolastika» so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga raoslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish taqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberiy (1038—1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093-yilda Ketterberiy shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur. Birinchisi «Monopoliya» — Xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bolishi kerakki, biz uni Xudo deb ataymiz.

Angelmning ikkinchi asari «Prologion» Xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa obektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo'lmaganda edi, narsa komil bo'lmas edi. Agar Xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, Xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlarini mo'tadil realistlar deb atalgan. Ularning yirik vakillari Per Abelyar va Akviniyalik Fomlar bo'lgan. Britaniyada tug'ilgan P. Abelyar (1079-1142) juda yoshligidanoq o'z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universal y dastlab Xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi afzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yollaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi Xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni Xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga axloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini Xudoga boysundiradilar. Bu qarash axloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Akviniyalik Foma (1224—1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bolgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida Xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi Xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «Xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi. Foma talimotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida G'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri Vilyam Okkamdir (1309—1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari ratsional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Tavrot nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, Shuningdek, universaliylarning obektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214—1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan.

Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XVII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300-yillarda — Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300-yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (ratsionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

Yevropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200-yillarda vujudga keldi. 1400-yillarga kelib, Yevropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi. Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, Shuningdek, talabalarning chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209-yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar qadimgi Yunoniston va Rirnda, shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogirdlar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatiladigan va ilmiy bahslar olib boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsa-da, ammo fan sohalarining ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldi. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

Uyg'onish davri falsafasi. Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg'onish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis Nikolay Kuzaniydir (1401—1464). Kuzaniy ta'limoticha, Xudo hamma narsalarda mavjud, Shuningdek, hamma narsalar Xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U Xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzaniy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar boyicha Kuzaniy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir (1473—1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliotsentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarimas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq Xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi ta'limot asossiz bo'lib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Brunodir (1548-1600). U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo'ladi. Uzoq vaqt Shvetsariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592-yilda Bruno Italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1660-yil 17-fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Niderlandiyada XYI asrning 60—70-yillarida, Angliyada XYII asrning 40—50-yillarida bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz berdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiiy, g'ayriaqliy bo'lib ko'rina boshladi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rtaga qoydilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50—60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan Yevropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladi. Hatto Rim papasining nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligi, odamzodning

yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglay boshlamdi. Albatta, bungacha ikvizitsiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparastlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.

Ma'naviy uyg'onayotgah millat va hududda hech qachon aqidaparastlik o'z ta'sirini to'la-to'kis saqlab qola olmaydi. Yevropada ham xuddi shunday bo'ldi. Ma'nau kamolga yetgan, milliy davlatchiligiga ega bo'lgan va ana shu mustaqil davlatlarini kamolga yetishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan Yevropa millatlari o'zlarining komil insonlarini endi inkvizitsiyaning, aqidaparastlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar. Yevropa uyg'ondi.

Yevropada aynan ana shu davrda ilgari, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy va yagona mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning sofligini saqlashga urinishning mutlaqlashtirilishi natijasida vujudga kelgan inkvizitsiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Yevropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'tmishga aylana boshladi. Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar roy berdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davlatlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirollik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiysi, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit yetildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarni to'la-to'kis tikladilar. Bu davlatlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqqa o'ralib qolmadilar, balki umumevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. Ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rilishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561—1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qoyilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga xalaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, qor idollari. Bu har bir odamning o'z spetsifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtayi nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga

tanqidiy yondashmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga ega. U ijtimoiy-siyosiy qarashlari boyicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi oynaydi.

Uning ta'limotini Tomas Gobbs (1588—1679) takomillashtirgan va rivojlantirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtayi nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha, davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632—1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690-yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug'ma g'oyalari» to'g'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi. 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari. 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Fransuz falsafasi. O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Volter, Lametri, Gelvetsiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596—1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga boysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhurdir. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart ratsionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim hisoblanadi.

Nemis mumtoz falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy

ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri Immanuel Kant (1724—1804) faqat mashhur faylasufgina bolib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushunt: ruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqalarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji Hegel (1770-1831) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Hegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning obektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g'oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi.

Rivojlanish g'oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarining tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z-o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan. Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoyon bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunyosi. 2. Yunon dunyosi. 3. Rumo dunyosi. 4. German dunyosi: Hegelning da'vosicha, faqat german xalqlarida to'liq erkinlik bo'lgan. Bu xalqlar o'z tarixiy rivojlanishlarida isloxotchilik (reformatsiya), 1789-yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo'lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy erkinlikka erishganlar. Hegelning ta'kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o'rnatgan faqat german xalqigina umumjahon — tarixiy jarayonining haqiqiy timsolidir. Hegel umumiy falsafiy sistemasini ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan xoli emas edi.

XX asr va hozirgi zamon falsafasi. Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yomlarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma-xil oqim va yo'nalishlar mavjud.

O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

XX asrga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «neo», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — stsientizm (lot. scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiylikni asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — antistsientizm, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistensializm, Frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniyfalsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qoymaslik talabi bilan bog'liqdir. Antistsientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qoyish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida birbiriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, stsientizm va antistsientizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi Artur Shopengauer (1788—1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irratsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir.

Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844—1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir». Nitsshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening sivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918-yilda G. Shpengler «Yevropaning so'nishi» degan asarini yozadi.

O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turqunlikdan chiqishning yo'lini g'arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi. Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neotomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqeini yo'qotmagan bo'lib, katolik

cherkovi tomonidan qo'llabquvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyat rnuhim o'rin tutadi.

Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akviniyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham Xudo tomonidan berilgan haqiqat. Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Neotomizm hozirgi dunyoda sivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustuvor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan ta'limotdir. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qoygan ilmiy bilishning umumiyliigi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyandalari misol bo'ladi.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20-yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Neopozitivistlar verifikatsiya prinsipini ilgari suradilar (lot. Veritas — haqiqat). Ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper falsifikatsiyalash metodini ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyliyini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60—70-yillariga kelib, neopozitivizmning mavqeyi kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning obektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan LeviStross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot

qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday prinsipga, umumiy mantiqqa ega.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari asosiy diqqatini qaratadi. Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat. Bu oqim vag'illari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror-bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30-yillariga kelib «ekzistensial falsafa» rivojlandi. Ekzistensiya tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi talimotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistensial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi. Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, Chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida Xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «Axlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'raligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistensialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foydaga» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor. Yangi davr falsafasida tarqalgan ana shunday nazariyalardan biri marksizm bo'lib, keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu talimotning asoslari K. Marks (1818—1883) va F. Engels (1820—1895) asarlarida ta'riflab berilgan va keyinchalik hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. Uning K. Kautskiy, V. Plekhanov boshliq mo'tadil tarafdorlari sotsial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V.Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini

mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida, inqilobiy sakrash usulini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo'lga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum bo'ldi.

G'arbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari «neomarksizm» oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqilobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlariga ko'ra jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyotni belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmoqda.

Alohida ta'kidlash lozimki, yaqingacha sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari hududida mutlaq hukmron bo'lgan ushbu mafkuraning taqdirini va oqibatini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chiqarish, bu talimotning qanday ayanchli natijalarga olib kelganini bilib qoyish ham foydadan xoli emas. Bu borada lommim demaslik foyda bermaydi. Zero, talimotlar tarixi — insonlar, xalqlar va ularning taqdiri, jamiyat va davlatlar yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p hollarda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida roy beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bolishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo'lgan hududda shakllangan natsional sotsializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa, biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan «izm»ga, aqidaparastlikka olib keladi, bu o'z navbatida jaholat va qabohatga eltuvchi yoldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi.

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «sivilizatsiyalarning xilmaxilligi» konsepsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'rnini bor.

Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. Shpengler (1880— 1936) va ingliz tarixchisi A. Toynbi (1889—1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. Shpengler o'zining «Yevropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir-biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuyidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va rus-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmgaga) boysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi — uning tanazzuli («sivilizatsiya»),

O.Shpengler yevropotsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi.

Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining sivilizatsion konsepsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni — sanoatning rivojlanish darajasidir.

Shunday qilib, XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib rangbarang falsafiy talimotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o'z navbatida bizning milliy g'oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: falsafa, falsafaning milliyliigi, falsafaning umuminsoniyliigi, faylasuf, falsafiy muammolar, dunyoqarash, tafakkurning o'zgarishi, dunyoqarashning yangilanishi, dunyoqarashning vazifalari, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafaning vazifalari, zardushtiylik, «Avesto», Konfutsiylik, «Veda»lar, buddaviylik, ilk o'rta asrlar falsafasi, «Qur'on», Hadislar, islom falsafasi, tasavvuf, temuriylar davri falsafasi, «Temur tuzuklari», «Ziji Ko'ragoniy», «Xamsa», «Boburnoma», xonlik va amirliklar davri falsafasi, «Qarolar falsafasi», jadidchilik, jadidlar falsafasi. Yunon falsafasi, Rim falsafasi, xristianlik dini, sxolastika, apologetika, realizm, nominalizm, uyg'onish davri falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi, nemis mumtoz falsafasi, XX asr falsafasi

Takrorlash uchun savollar

1. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzulari nima?
3. Falsafaning umuminsoniyliigi deganda nimani tushunasiz?
4. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
5. «Dunyoqarash» tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.
6. Sharq — insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'chog'i.
7. «Avesto» to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Zardushtiylikning mohiyati nimadan iborat?
9. Islom dini va falsafasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Temur va temuriylar davri falsafasi.
11. Amirlik va xonliklar davri falsafasi.
12. Yunon falsafasining falsafa tarixidagi ahamiyati.
13. Rim falsafasi va undan keyingi davr falsafasi.
14. Xristianlik va Yevropada ijtimoiy tafakkur.
15. Inkvizitsiya nima, uning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
16. «Uyg'onish davri» tushunchasini qanday talqin etasiz?
17. XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlari.
18. Hozirgi zamon falsafasini o'rganishning ahamiyati.

2-MAVZU. BORLIQ - FALSAFANING FUNDAMENTAL KATEGORIYASI. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISHI. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Borliq tushunchasi va uning mohiyati. Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o'rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. O'quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o'rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, shuningdek, mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o'zaklarga ega bo'lib («ontos» -«borliq», «logos» «so'z», «ta'limot»), borliq haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o'rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydo bo'ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O'z navbatida, ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

Bu atama fan tarixida birinchi bor 1513 yil *R. Gokleniusning* «Falsafa lug'ati»da, so'ngra, *X. Volf* (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo'llanilgan bo'lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyaning mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir» deb hisoblashgan. *Eley maktabi* namoyondalari esa ontologiyani mangu, o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot deb hisoblashgan. *Milet va Ioniya maktabi* vakillari esa dastlabki borliqning sifatliy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni *Empedokl* «stixiya», *Demokrit* «atomlar», *Anaksimandr* «apeyron», *Anaksagor* «urug'» deb atagan. *Aflotun* esa g'oyalar ontologiyasini yaratgan. G'oyalar ontologiyasi aql bilan erishiladigan mohiyatlar ierarxiyasini tashkil etib, uning yuqori nuqtasida Farovonlik g'oyasi, undan keyin beto'xtov oquvchi xilma-xil hissiy dunyoni aks ettiruvchi ideal namunalari, sonlar, geometrik shakllar yotadi. *Arastu* fikricha umumiylik ayrim holda yakka narsalardan chetda mavjud emas. Biz olamda ayrim narsalarga duch kelamiz va ulardagi bir-biriga o'xshash jihatlarni umumlashtirib, abstrakt va ideal obraz hosil qilamiz. Shu tariqa Arastu empirizm ontologiyasini yaratdi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar apparatini tashkil etadigan ko'p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet, hodisa, voqea va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, ularning mavjud bo'lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lish, o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi. Bu inson o'zligini va o'zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob'ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Moddiy va g'oyaviy borliq. Atrofimizni o'rab turgan dunyo ikki xil reallikdan tashkil topgandir. Ob'ektiv reallik va sub'ektiv reallik. Ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan reallik *ob'ektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar materiya tushunchasi bilan aynan bir ma'noda ishlatishadi. Reallikning inson ongi bilan bog'liq bo'lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi *sub'ektiv reallik* deyiladi. Ob'ektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, sub'ektiv reallik esa borliqning g'oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g'oyaviy shakli moddiy shaklining maxsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g'oyaviylikning ijodi yoki g'oyaviylikning namoyon bo'lish shaklidir.

Aktual vapotensial borliq. Aktual borliq borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo'lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu ob'ektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki ob'ektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan emas. Biz borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz. Bu qismi o'tmishga aylanib, uning o'rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo'ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holdagi qismi potensial borliq deyiladi. Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdir.

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual (lot. *virtuales* ehtimol) borliq deyiladi.

Tabiiy va ijtimoiy borliq. Tabiiy borliq deganda odatda atrofimizdagi jismoniy narsalar (jismlar), jarayonlar, tabiatning holatlari nazarda tutiladi. Tabiiy borliq ikki qismga ajraladi: birinchisi azaliy tabiiy borliq, ya'ni tabiatning tabiiy borlig'i. U insondan ilgari insonning ishtirokisiz mavjud bo'lgan. Buni *birlamchi tabiat* deb ham atashadi; ikkinchisi inson ishtiroki bilan vujudga kelgan narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlarni o'z ichiga oluvchi xosilaviy tabiiy borliq. Uni *ikkilamchi tabiat* deb ham atash mumkin.

Ikkilamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko'rinishlarini kuzatish mumkin:

- inson borlig'i insonning narsalar dunyosidagi borlig'i va maxsus insoniy borliqdan iborat;

- ma'naviy borliq individuallashtirgan va ob'ektivlashtirgan (individuallikdan tashqaridagi) ma'naviy borliqdan iborat;

- sotsial borliq ayrim odamning jamiyatdagi va tarix jarayonidagi borlig'i hamda jamiyatning borlig'i ijtimoiy borliq.

Olamda nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda keng ma'noda «*yaxlit dunyo*»ni tashkil etadi va uni ba'zan «*haqiqiy borliq*» deb ham atashadi. Forobiy barcha mavjud narsalarning yig'indisi dunyoni tashkil qiladi, «hamma narsaning umumiy jinsi olamdir» va «olamdan tashqarida hech nima yo'qdir» deb hisoblagan. Yaxlit holda butun dunyoning asosida nima yotadi? Bu savolga javob berishda faylasuflar turli xil konsepsiyalarda fikr yuritishadi. Bu joyda asosan uch xil muhim konsepsiyani ko'rsatish mumkin. Ularga *monistik*, *dualistik* va *plyuralistik* konsepsiyalar kiradi.

Borliq tushunchaning etimologiyasi. «Borliq» falsafiy kategoriyasi na faqat eng muhim, balki boshqa kategoriyalar orasida ayniqsa, ko'p ishlatiladigan kategoriya hisoblanadi. Bu holni shu bilan izohlash mumkinki, uning kelib chiqishi dunyoning ayniqsa, keng tarqalgan tillarida ayni bir ma'no «bo'lish», «mavjud bo'lish», «hozirlik», «hozir bo'lish», «mavjudlik» ma'nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o'tilgan va ma'no jihatidan unga yaqin fe'llar negizini tashkil etadigan «bo'lmoq» fe'li, o'zining bevosita ma'nosidan tashqari, yordamchi fe'l sifatida ham faol ishlatiladi. Bu dalilga izohni inson tafakkuri tabiatidan izlash lozim bo'lib, uning mantig'i va qonunlari fikmi bayon etishning til shakliga bog'liq bo'lmaydi, lekin, albatta, fikrlash mumkin bo'lgan, universal va o'zgarmas sifatida amal qiladigan va shu sababli har qanday mulohazaning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan nimagadir tayanishi lozim. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlaridayoq tom ma'noda universal fe'l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o'zbek tilida «bo'lmoq», «bor», ingliz tilida «is», nemis tilida «ist» va hokazo.

Shunday qilib, «borliq» va «yo'qlik» kategoriyalarining o'ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy ma'nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular fe'ldan, aniqroq aytgan da, «bo'lmoq» fe'ldan (yoki uning inkoridan) hosil bo'lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o'zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo'qligini ko'r satadi. Masalan, stol bor, yomg'ir yo'q, oqlik bor, aks yo'q, miya bor, g'oyalar yo'q va hokazo. Borliq tabiiy tillarda otlar, ravishlar yoki ravishdoshlar bilan ifodalanadigan, ya'ni bilishda uning ob'ekti yoki sub'ekti sifatida amal qiladigan tushunchalar bilan tenglashtirilishi mumkin emas. Ayni zamonda bu ob'ektlari yoki sub'ektlarning birortasi ham uning borligi yoki yo'qligini qayd etmasdan fikrlanishi mumkin emas.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, oy-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan lashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obektiv reallikni, balki subektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. Tabiat borlig'i odatda tabiatdagi narsalar (jismlar),

jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- inson borlig'i (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);
- ma'naviy borliq (individuallashgan va obektivlashgan ma'naviy borliq);
- sotsial borliq (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Keyingi yillarda virtual borliq (lot. virtus — ehtimol tutilgan, mumkin bo'lgan; realis — haqiqiy, mavjud) — zamonaviy texnika vositalari va informatsion kommunikatsiyalar yordamida yaratiladigan va insonga olamni o'ziga xos idrok etish va anglash imkonini beradigan sun'iy dunyo shakli haqida ham ko'plab fikrlar bildirilmoqda. Borliqning turli kompyuter modellari va elektron borliq uning sinonimlaridir. XX asrning 60-yillari oxirida Mayron Kryuger tomonidan «Sun'iy borliq» tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa, Jaron Laner hozirgi kunda keng tarqalgan «virtual borliq» atamasini 1989-yilda ilmiy muomalaga kiritgan edi. U 1984-yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda olam, borliq shakllari va insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois unda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, u obektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'i nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga — bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa — moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini» — substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l — hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga to'g'ri rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bolgan tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning mahsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy obektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy obektlarga xos eng umumiy tushuncha falsafiy kategoriyadir.

Borliqning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham fanning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda,

qadimgi O'rta Osiyo va Yunonistonda ba'zi faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki muayyan unsur yotadi, deb hisoblashgan. Ularning ba'zilari bu unurni olov, boshqalari suv yoki havo, ayrimlari esa — tuproqdan iborat deb hisoblashgan. Ba'zi bir falsafiy ta'limotlarda esa, olamning asosida — olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar ana shu to'rtta unurning birikishidan hosil bolgan, deyilgan.

Olamning asosida yotuvchi substansiyani axtarishning yana bir yo'li narsalarning tarkibidagi bolinmas eng kichik unurni, ya'ni narsalarning tarkibidagi umumiy substrat (lotincha substratum — asos ma'nosini anglatadi)ni axtarishdir. Bunday yo'nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi Yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit va Lukretsiylar narsalarning va butun olamning asosida eng kichik bolinmas unsurlar atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan.

Albatta bu ta'riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko'proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi mumkin bo'lgan reallik nazarda tutilgan. Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz mansub bo'lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u obektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tushuncha haqidagi tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtayi nazardan kelib chiqib, substansiya (lotincha, substantia — nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat degan ma'noni beradi) deb ataldi.

Borliq va yo'qlik dialektikasi. «Borliq bor, yo'qlik esa yo'q», deganida, Parmenid ayni shu holga e'tiborni qaratgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to'g'ri, noto'g'ri, quvnoq, sho'r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o'xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo'lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo'qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik» atamasi ayni shu ma'noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas deyiladi. Lekin, sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyaning alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero unda mumkin bo'lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo'q. Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma'noda borliq va yo'qlikning o'zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, amalda mavjud bo'lgan narsaning ob'ektiv borlig'i yo'qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya'ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo'lsa, bu narsa ongda mavjud bo'ladi va o'zining «ikkinchi» borlig'ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob'ektning nusxasi, ideal obrazi bo'lib qoladi. Shunday qilib, o'tgan zamondagi borliq yo'qlikdir, deb aytish mumkin. Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar upotensial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektivrivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqidaideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin. Ayni shu ma'noda biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritimiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.

Shunday qilib, borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi. Inson o'zi va umuman dunyo haqida oylar ekan, odatda, muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni vaqtda, u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shakl-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrot dan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz. Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Substansiya. Substansiya (lotincha — substantina — mohiyat; falsafada narsalarning mohiyati) deyilganda falsafada dastlabki vaqtlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyoda barcha narsa hamda hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsa tushunilgan.

Ayrim faylasuflar substansiya, deb butun mavjudlikning asosi bo'lgan mutlaq g'oyani, ruhni yoki subekt ongi va shu kabilarni tushunishadi. Masalan, qadimgi davr materialist faylasuflar moddalarning biron turini dunyoning asosida yotuvchi substansiya, deb tushunganlar. Qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor sonlarni, Platon esa, g'oyani, g'oyalarni substansiya deb qaraydi. Nemis klassik falsafasining vakili I.Kant substansiya „shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisalarni aniqlash mumkin“ deydi. I.Kant fikricha, substansiya — tajriba ma'lumotlarini sintezlashtiruvchi tafakkurning aprior shaklidir.

Faylasuflarning yagona asos to'g'risidagi qarashlari monizm (yunoncha — monos, yakka, bir degani) — dunyoning asosi bitta, deyuvchi ta'limotini keltirib chiqargan.

Faylasuflar orasida dunyoning asosini bir narsa emas, balki ikki narsa: ham g'oya (ruh), ham materiya tashkil qiladi, deyuvchilar ham mavjud bo'lgan. Bunday qarash *dualizm* (duaiizm (lotincha — dua, ikki degani) — dunyo asosida ikki narsa, ham materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi, deyuvchi ta'limot), deb ataladi.

Substansiya muammosini hal qilishda monistik va dualistik qarashlardan farqli o'laroq, plyuralistik qarashlar ham mavjud.

Plyuralizm (lotincha — plyural ko'plik degani) — dunyoning asosida ko'p narsalar yotadi, deyuvchi ta'limot nuqtayi nazaricha, dunyoning asosini yakka bir narsa emas, balki ko'p narsalar tashkil qiladi. Dunyodagi butun mavjudotlar yagona bir ibtidoga ega bodmagan ko'pdan-ko'p, har xil asoslardan tashkil topgandir.

Ilmiy-falsafiy ta'limotlar va hozirgi zamon fanlari erishgan ma'lumotlarga ko'ra, moddiy borliq, doimiy harakatda bo'lgan materiyaning turli shakldagi ko'rinishidir.

Materiya — dunyoning moddiy birligini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavurlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. „Materiya“ „moddiy unsur“ga, „atomar“ga, „pramateriya“ga nisbatan ham kengroq, umumiyroq bo'lib, borliqning obektiv real shaklini ifodalovchi, eng umumiy tushunchadir.

Haqiqatan ham, „materiya“ tushunchasi abstraksiya, fikrning mahsulidir, chunki, olamda „umuman materiya“ yo'q, balki materiyaning konkret obektlar ko'rinishlari mavjud. Aniqroq qilib aytganda, materiya, hamma vaqt konkret obektlar ko'rinishida uchraydi.

Materiyaning uchta muhim falsafiy jihati bor. Bular: *birinchidan*, „materiya“ tushunchasi falsafiy kategoriya ekanligi, *ikkinchidan*, bu kategoriya obektiv reallikni, moddiy voqelikni ifoda etishi, *uchinchidan*, materiyaning bilish mumkinligining ta'kidlanishidir. Materiyaning bu falsafiy tushunchasi materiyaning muayyan ko'rinishlarini, uning tuzilishi va xossalarini o'rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Materiya o'zining mavjudligini behisob xossalari, xususiyatlari orqali namoyish qiladi. Turli xil fanlar bu xususiyatlarni tadqiq etadi. Materiyaning eng umumiy xossa va xususiyatlarini falsafa fani o'rganadi. Buning uchun esa, atrofimizni o'rab turgan moddiy obektlarning tuzilishi va xossalarini bilishimiz kerak bo'ladi.

Borliqning mavjudligi undagi o'zgarishlar bilan belgilanadi. Agar o'zgarish bo'lmasa, borliqning bor yoki yo'qligi noma'lumligicha qolardi. Har qanday o'zgarish harakatdir. O'zgarishlar na faqat moddiy ob'ektlarga, balki ma'naviy, g'oyaviy ob'ektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy yoki g'oyaviy) ob'ektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Shu sababli *harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir*. Falsafiy adabiyotlarda moddiy borliqning quyidagi harakat shakllarini ajratib ko'rsatishadi: 1) moddiy harakatning eng sodda shakli *mexanik harakat* (uni moddiy nuqtalarning fazodagi siljishi deb ta'riflashadi); 2) *fizik harakat* (elementar zarachalar, atom yadrosi va atomning harakatidan tortib, olamning fundamental kuchlari, issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug'likdan tortib koinotning gravitatsiya kuchigacha barchasi shu harakat shakliga mansubdir); 3) *ximiyaviy harakat* (bunga molekulalarning

assotsiatsiyasi va dissotsiatsiyasi, ionlar harakati, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, ximiyaviy reaksiyalar, ximiyaviy sintez va parchalanish, yonish va oksidlanish va boshqa ximiyaviy jarayonlar kiradi); 4) biologik harakat (hayotiy jarayonlar); 5) *sotsial (yoki ijtimoiy) harakat* (jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo'lishi). Bulardan tashqari, inson aql-zakovati hamda axborot jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ideal, g'oyaviy, ma'naviy ko'rinishdagi harakat shakllari ham mavjuddir.

Harakatning eng sodda shakli mexanik harakat bo'lib, uning manbai tashqi ta'sirda, harakatning murakkab shakllarining manbai esa ichki aloqadorliklarda. Faylasuflar qadimdan harakat va uning manbalari haqida xilma-xil konsepsiyalarni ilgari surib kelishadi. Ayrim faylasuflar hatto harakatning mavjudligini ham inkor etgan. Ioniya maktabiga mansub faylasuflardan Eleylik Zenon harakatning yo'qligini o'zining «Axill va toshbaqa», «Dixatomiya», «Uchayotgan kamon o'qi» kabi mashhur *aporiya* (yunon. *aporia* ilojisiz vaziyat)larida harakatning yo'qligini isbotlashga uringan. Buni dastlab, Arastu yaxshi tushunib yetdi. Sharq falsafasida esa Forobiyning falsafiy risolalarida bu muammo yaxshi asoslab berilgan. Yangi davr falsafasida G.Xegel harakatning mohiyatini formal mantiq vositasida ifodalash mumkin emasligi, uni faqatgina dialektik mantiq doirasidagina asoslash mumkinligini ta'kidlagan.

Fazo va vaqt borliqning umumiy yashash shakllari bo'lib, fazo dunyoni tashkil etuvchi ob'ektlar va ularning tarkibiy nuqtalarining o'zaro joylashish tartibi, ko'lam va miqyosini ifoda etadi, vaqt esa dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning roy berish ketmaketligi tartibi va davomiyligini ifodalaydi. O'zbek tilidagi adabiyotlarda arab tilidan kirgan makon va zamon atamaları ham ishlatiladi. Fazo va vaqtning tabiati va mohiyati haqida qadimdan faylasuflar xilma-xil nuqtai nazarlarni ilgari surib kelishadi. Ularni umumlashtirib, ikki yirik konsepsiyaga ajratish mumkin. Bu konsepsiyalar *substansial* va *relyasion* konsepsiyalar deb ataladi.

Substansial konsepsiyada fazo va vaqtning absolyut jihatlari, relyasion konsepsiyada esa ularning nisbiy jihatlari absolyutlashtiriladi. Substansial konsepsiya tarafdorlari (*Demokrit, Aflotun, Eronshahri, Zakariyo ar Roziy, Beruniy, Patritsiy, Kampanella, Gassendi, Nyuton, Eyler, Mopertyui va boshqalar*) fikricha, fazo materiya va moddiy aloqadorliklardan tashqarida, ularga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan mustaqil substansiyadir; fazo moddiy ob'ektlar uchun joylashish makoni, u absolyutdir. Vaqt esa borliqqa, fazo va harakatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi; vaqt munosabatlari absolyutdir, ya'ni vaqt hamma hisob sistemalarida bir xilda o'tadi. Fazo va vaqtni ular mustaqil substansiya deb hisoblaganliklari tufayli bunday yondashuv *substansial konsepsiya* deb fanga kirgan.

Borliqdagi bogdanish va aloqadorlikni ifodalovchi falsafiy kategoriyalari.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik. Yakkalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bogdanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi *yakkalik* deyiladi. *Yakkalik alohida narsa va hodisalami ham, ulardagi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi.*

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos

bodgan, o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha *umumiylik* deb ataladi. Umumiylik borliqdagi ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lgan umumiy belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir. Umumiylik bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarning hammasiga oid belgi yoki xususiyatni ifodalaydi. Chunki, borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan, albatta, biror umumiy tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi „xususiylik“ kategoriyasida ifodalanadi. „Xususiylik“ kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylik kabi tomonlar o'rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiy, umumiylikka nisbatan alohida bo'lgan tomonlar, belgilar, xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Bir butun borliqdagi hamma narsa va hodisalarga xos bo'lgan tomonlar, belgi va xususiyatlar eng umumiylikdir. Eng umumiylik hajm jihatdan boshqa kengaytirib bo'lmaydigan universal tushunchadir. Masalan: *Axmad* → *odam* → *tirik mavjudot*, *nihoyat* → *materiya* — *borliq*. „Borliq“ tushunchasi bu yerda eng umumiylikdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik bir-biri bilan o'zaro dialektik munosabatda boiadi. Binobarin, yakkalik bilan umumiylik xususiylik orqali bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikdadir. Xususiylik yakkaliklardan tashkil topib, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi, umumiylik esa, yakkaliklardan ajralgan holdabolmaydi, balki yakkaliklarning umumiy xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog'lanishlari shaklida har bir yakkalikning o'zida mavjud boiadi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa yakkalik, xususiylik va umumiylikning birligidan iboratdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi shundan iboratki, maium sharoitda yakkalik xususiylikka, xususiylik umumiylikka va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Obektiv olamda har qanday yangilik dastlab yakkalik sifatida paydo boiib, so'ngra u o'sib, rivojlanib xususiylik va umumiylik xarakterini kasb etadi.

Lekin, bundan har qanday yakkalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylikka o'taverar ekan, degan fikr yuritmaslik kerak. Bunday bo'lishi uchun har bir yakkalik, xususiylik va umumiylik taraqqiyotning asosiy tendensiyasiga mos kelishi shart. Yakkalik, xususiylik va umumiyliklarning o'zaro bog'lanishlarini dialektik nuqtayi nazardan tushunish obektiv voqelikni to'g'ri bilish uchun juda muhimdir. Chunki, insonning borliqni bilishi ham yakkalikdan xususiylikka va undan umumiylikka borishdan iboratdir. Bu umumiylikni biz narsa va hodisalarni ularda ifodalanuvchi yakkaliklar va xususiyliklarni bilish orqali anglab yetamiz.

Mohiyat va hodisa. Mohiyat — narsa va hodisalarning ichki eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shakli — mohiyatning ifodalanishidir. Masalan, hamma tirik mavjudotlarning mohiyati, ulardagi modda almashuv jarayoni bo'lmasa, tiriklik jarayoni — hayot ham bo'lmaydi. Modda almashuv jarayoni butun hayot jarayonining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Lekin, bu modda almashuv jarayoni har bir tirik organizmda juda xilma-xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Bu ko'rinishlar — hodisalardir.

Mohiyat va hodisa o'zaro umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir.

1. Mohiyat — ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Masalan, inson daraxtning shitirlashini, qushlarning sayrashini eshitadi. Bu

hodisalarning sababi turlicha bo'lsa-da, ularning mohiyati bittadir, ya'ni havo zarralarining tebranishidir. Biroq, inson buni birdan payqay olmaydi. Dastlab, u hodisa sifatida yuz bergan narsani fahmlaydi, so'ng uning mohiyatini bila boshlaydi.

Mohiyat — narsalarning ichki aloqadorligi bo'lgani sababli, u chuqur tahlil qilish vg. izlanish natijasida, amaliyot jarayonida bilib boriladi. Hodisa esa aksincha, hissiy organlar orqali bevosita idrok etiladi. U hissiy organlarimizga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, u yoki bu sezgi va idroklarimizni hosil qiladi.

2. Mohiyat bilan hodisa o'zaro birlikda bo'lishi bilan, ular bir-biriga qarama-qarshi ham, shu sababli ular hech vaqt birbiriga aynan mos kelmaydi. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsalarning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo'ladi va uni bevosita hissiy organlar orqali bilish mumkin emas. Hodisa — narsalarning namoyon bo'lish shakli sifatida mohiyat bilan hech vaqt mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo'lish shakli bo'lgan hodisa mohiyat bilan bevosita mos kelganda edi u holda har qanday fan ortiqcha bir narsa bo'lib qolgan bo'lur edi. Fanning vazifasi — borliqning ko'pdan-ko'p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatlarni izlab topishdan iborat.

3. Mohiyat nisbatan doimiyligi va barqarorligi bilan hodisadan farq qiladi. Mohiyat va hodisa munosabatini daryoning yuzidagi ko'piklar va uning ostidagi suvning tez oqimiga o'xshatish mumkin. Bunday daryo suvi harakatining yuzidagi ko'piklar hodisa bo'lsa, ularning ostidagi suvning tez oqimlari mohiyatdir. Lekin uning ustidagi ko'piklar ham mohiyatning o'ziga xos ifodasidir.

4. Mohiyatning nisbiy doimiyligi va barqarorligini, hodisaning o'zgaruvchanligini mutlaqlashtirmaslik lozim. Chunki, mohiyat ham, hodisa ham o'zgarib boradi. Lekin, mohiyat hodisaga nisbatan sekin o'zgaradi, u ma'lum barqarorlikka ega.

Mohiyat va hodisa o'zaro umumiy tomonlarga ega. Masalan: a) har qanday mohiyat hodisada namoyon bo'ladi, ya'ni hodisa mohiyatning u yoki bu holda ko'rinishidir; b) mohiyat va hodisa obektiv xarakterga ega bo'lib, ular inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir; d) mohiyat ham, hodisa ham doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Biroq, mohiyat va hodisa ziddiyatli xarakterga ega bo'lishi bilan birga, mohiyatning o'zi ham ziddiyatlidir. Dialektika buyumlarning mohiyatidagi shu ziddiyatlarni o'rganadi.

Mohiyat va hodisa bog'lanishlarini har tomonlama o'rganish fan va amaliyotda ham muhim o'rin tutadi. Bunda hodisani mohiyatdan ajrata bilish muhim ahamiyatga ega. Mohiyatni hodisadan ajrata bilmaslik, nazariya va amaliyotda jiddiy xatolarga olib keladi.

Butun va qism. Ma'lumki, borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko'z oldimizda bir butun, yaxlitlik sifatida gavdalanadi, ular qismlardan, bo'laklardan komponentlardan, elementlardan iboratligini ko'ramiz. Bu qismlar bo'laklar, komponentlar, elementlar o'zaro muayyan qonuniyatlar orqali birikib, ma'lum tuzilishdagi bir butun narsani, hodisa yoki jarayonni tashkil qiladilar. Bu narsa va hodisalarning ma'lum bir guruhi o'zaro birikib, biron-bir sistemani hosil qiladi. Bu esa ma'lum strukturaga ega bo'lib, muayyan elementlardan iborat bo'ladi. Bunday butun, qism, sistema, struktura, elementlar o'zaro dialektik birlikda, bog'lanish va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Xo'sh, butun va qism deb nimaga aytiladi?

Butun — o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. *Masalan, bizni o'rab turgan olam bir butundir.*

Qism esa, shu butunni tashkil qilgan uning tarkibidagi ma'lum bo'lak, komponent, elementdir. *Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.*

Butun va qism o'zaro dialektik aloqadorlikdadir. Butunning umumiy tabiati uni tashkil qiluvchi qismlarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, butun tarkibidagi har bir qism butunning o'ziga xos xususiyatini, ma'lum darajada ifodalaydi. Lekin, butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo'laklari sifatida ko'rinadi. Unda butunga xos ma'lum xususiyat qismlarga ham xos bo'lishi mumkin. Shuningdek, butun tarkibidagi qismlar butun bilan umumiy birlikka ega bo'lishidan tashqari ular bilan o'zaro ziddiyatda, qarama-qarshilikda bo'lishi ham mumkin. Butunsiz qismlar, qismlarsiz butun yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, ular faqat o'zaro aloqadorlikda, birlikda, birgalikda, bir-birini taqozo qilgan holda mavjud bo'ladi. Bunda butunni tashkil qiluvchi qismlar ham o'zaro bir-birlari bilan ta'sir va aks ta'sir qilib turishadi. Butun va qismlarning bu o'zaro ta'sir va aks ta'sir qilib turishlari natijasida butun va qismlarning o'zgarishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir butun va qismlar obektiv reallikdagi boshqa butunlik va qismlar bilan ham muayyan aloqadorlikda va bog'lanishda bo'ladi.

Butun bilan qism aloqadorligining uch tipinifaraq qilish mumkin:

1. Butunning biror qismi uning tarkibidan chiqarib tashlansa, yoki bu qism yana qaytadan butun tarkibiga kiritilsa, bunda butun sifat jihatdan o'zgarmaydi.
2. Butunning qismlaridan biri butun tarkibidan chiqarilishi yoki bu qism qayta butun tarkibiga kiritilishi bilan butun butunlay yoki qisman o'zgaradi.
3. Butunning qismlari o'zgarishi bilan butun ham yoki butunning o'zgarishi bilan uning qismlari ham o'zgaradi.

„Butun“ va „qism“ kategoriyalari inson tomonidan borliqni bilish va o'zlashtirishning ma'lum shakllari sifatida dunyoning birligi muammosini ilmiy hal qilishda muhim rol oynagan.

Sistema, struktura va element. Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega bo'ladi. Chunki ular ma'lum sistemalar tarzida mavjud bo'lib, o'z tuzilishi va tarkibiga ko'ra, muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

Sistema — borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi birbiriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura esa shu sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. *Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati bo'lib, u muayyan elementlardan tashkil topadi.*

Element sistema strukturasi tashkil qilgan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir. Har bir sistema o'z strukturasi ko'ra, bir qancha o'zaro chambarchas bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi.

„Sistema“, „struktura“ va „element“ kategoriyalari narsa va hodisalarga xos bo'lgan ana shu moddiy sistemalar, strukturalar va elementlarning aqliy in'ikoslaridir.

Odatda, har bir sistema o'zining tuzilishiga ko'ra, alohida sistemachalarga ajralishi, nisbiy mustaqil elementlarga bo'linishi, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi, bir butunlikni tashkil etishi kabi xususiyatlarga egadir. Bunda sistemalar iyerarxiyasi shundaki, doimo bir qancha sistemalar birikib, yangi, hajm jihatidan kengroq sistemani hosil qila boradi. Bu holat yanada yuqorilashib borib, natijada, bir-biriga kiruvchi, bir-biri bilan bog'liq, biriga nisbatan ikkinchisi kengroq bo'lib boradigan sistemalarning yuqori birligi — bir butun borliqni qaror toptiradi.

Umuman, har bir sistemaning tashkil topishi va mavjud bo'lishida uning strukturasi muhim rol oynaydi. Ayni shu struktura sistemadagi o'zaro ta'sir va aks ta'sir qiluvchi moddiy tarkiblarni elementlarga aylantiradi.

Dialektika uchun „sistema“, „struktura“ va „element“ kategoriyalarining o'zaro aloqadorligini, bir-biriga o'tishlarini va har biriga xos alohida xususiyatlarini ko'rsatish, ularning o'zaro umumiyliги va bir-biridan farqlarini aniqlash, ayniqsa, muhimdir.

Struktura narsa va hodisalardagi, ulardan tashkil topgan sistemalardagi o'zaro bog'liq quyidagi uch ma'noni ifodalaydi:

1. Struktura narsa yoki hodisaning bir xil yoki har xil jinsliligini, lining muayyan, nisbiy mustaqil qismlarga, elementlarga, komponentlarga bo'linishini ifodalaydi.

2. Struktura narsa yoki hodisani tashkil etuvchi qismlar, bo'laklar, komponentlar va elementlarning o'zaro bir-biriga ta'sir va aks ta'sirlarini, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, bu bog'lanishlarga oid qonuniyatlarni ifodalaydi.

3. Struktura, nihoyat, narsa yoki hodisaning qanday elementlardan tashkil topganligidan qat'iy nazar, bu elementlarning organik birligini, ularning yaxlitligi va bir butunligini ifodalaydi. Shuning uchun strukturani bilish: birinchidan, uning elementlarini aniqlash; ikkinchidan, mazkur elementlarning o'zaro aloqadorliklarini aniqlash; nihoyat, uchinchidan, bu elementlar bir butunligining o'ziga xos tabiatini tushunib olishdir.

Demak, „struktura“ kategoriyasi butun bir sistemani tashkil etuvchi elementlar aloqadorligining o'ziga xos usullarini va butunlik doirasidagi elementlarning o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Bunda har bir element strukturaning nisbiy mustaqil komponenti bo'lishi bilan birga, o'zaro muayyan qonuniyatlarni asosida birlashib, bir butun sistemani vujudga keltiradi.

Keyingi vaqtlarda, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqot obektini chuqurroq o'rganish maqsadida „sistemali yondashish“, „strukturaviy analiz“ usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning qo'llanilishi, ularning samarador va istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, „sistemali yondashish“ usuli o'zining umumiyliги, o'rganilayotgan predmet va hodisalardagi barcha aloqadorlik va bog'lanishlarni hisobga olishi bilan dialektik usullarning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mazmun va shakl. Mazmun va shakl ham kishilarning borliqni bilishida katta rol oynaydi.

Mazmun — narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki shu hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar o'zgarishlarining majmuyidan iborat.

Shakl — mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasi, ya'ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Mazmunni tashkil etuvchi xususiyatlar, ziddiyatlar, elementlar shaklsiz

ifodalanmaganidek, ularning mavjudlik usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz namoyon bo'la olmaydi. Demak, mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning bir-biri bilan dialektik aloqador bo'lgan ikki tomonidir.

Obektiv olamda narsa va hodisaga oid bo'lmagan sof mazmun ham, sof shakl ham yo'q. Aksincha, faqat muayyan mazmun va shakl birligiga ega bo'lgan narsalar va hodisalargina mavjuddir. Bunda hamisha muayyan mazmun, muayyan shaklda ifodalanib, muayyan shakl muayyan mazmunga ega bo'ladi.

Borliqdagi har bir narsa va hodisa mazmun va shakl birligi tufayligina mavjud bo'lsa-da, ular shu birlikni vujudga keltirishda turlicha rol oynaydi. Shakl esa, aksincha, mazmunni ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, mazmun shaklni belgilaydi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalar o'zlarining paydo bo'lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida bir-birlari bilan aloqadorlikda va sababiy bog'lanishlarda bo'Mishib, ularning biri sabab, ikkinchisi shu sabab tufayli kelib chiqqan oqibat bo'ladi. Ularning o'zaro bunday aloqadorligi sababiy bog'lanish deyiladi. Bu sababiy bog'lanishda har bir narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsa yoki hodisani vujudga keltiradi.

Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi sabab deb ataladi. Sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa oqibat deyiladi. Masalan, qo'llarimizni bir-biriga ishqalaganimizda qo'llarimiz qiziydi. Bu yerda ikki hodisa: ishqalanish va issiqlikning guvohi bo'lib turibmiz. Lekin, bunda ishqalanish issiqlikni keltirib chiqarmoqda, ya'ni ishqalanish issiqlikning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Demak, ishqalanish — *sabab*, issiqlik — *oqibat* bo'lmoqda.

Odatda, borliqdagi har bir hodisaning paydo bo'lishida, rivojlanishida o'z sababi bo'ladi va, ayni vaqtda, muayyan oqibatni namoyon qiladi. O'z navbatida, bu oqibat boshqa hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayrim hodisalarni tushunmoq uchun biz ularni umumiy aloqadorlikdan ayirib olishimiz hamda alohida-alohida tekshirishimiz lozim. Bunday holda bir-biri bilan almashinib turuvchi harakatlardan biri sabab tarzida, boshqasi oqibat tarzida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Sabab bilan oqibatning o'zaro aloqadorligi sababiyat deb ataladi. Tabiat va jamiyatdagi sabab-oqibat bog'lanishlarning kishilar fikridagi ifodasi „sababiyat“ kategoriyasining paydo bo'lishiga olib kelgan. Sababiyat hodisalar o'rtasidagi shunday ichki aloqadorlikki, bunda har doim bir hodisa mavjud bo'lar ekan, uning ketidan muqarrar ravishda ikkinchisi sodir bo'ladi.

Sababiyat borliqda umumiy, har tomonlama xarakterga ega. Sababsiz oqibatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, hamma narsaning o'z sababi bor. „Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi“, deydi xalqimiz. Aniqroq qilib aytganda, kishilarda bir hodisa boshqa hodisaga sabab bo'ladi, degan tasavur ularning amaliyoti asosida kelib chiqqan.

Sabab va oqibat vaqt jihatdan ketma-ket kelib, bunda sabab oqibatdan oldin, oqibat sababdan keyin keladi, ya'ni sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin, borliqda ketma-ket keluvchi har qanday predmetlar va hodisalar bir-birlari bilan sababiy bog'lanishda bo'lavermaydi. Masalan, qishdan so'ng bahor, bahordan so'ng yoz, yozdan so'ng kuzning kelishi sabab va oqibat bog'lanishi emas, ular bir-birlarini keltirib chiqarishmaydi. Bu hodisalarning roy berishi Yerning Quyosh atrofida o'z holatini o'zgartirgan holda aylanishi sababli sodir bo'ladi.

Odatda, sababni bahonadan ham farq qilish lozim. Bahona bevosita oqibatdan oldin sodir bo'ladigan biror hodisa yoki voqea bo'lib, u o'z mohiyati bilan oqibat sifatida roy bergan hodisaning haqiqiy va asosiy sababi bo'la olmaydi. Bunda bahona sababning oqibatini keltirib chiqarishda turtki bo'lishi, oqibatning sodir bo'lish jarayonini tezlatuvchi omil rolini oynashi mumkin. Masalan, bunga Rossiya Federatsiyasida 1991-yil 19-21-avgustdagi davlat to'ntarishi qilishga uringan Favqulodda davlat komitetining faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Bu o'rinda sobiq Ittifoq yemirilishi, uning o'miga yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishining sabablari butunlay boshqa narsalar edi.

Borliqdagi sababiy bog'lanishlarning murakkab zanjirida zaruriy va tasodifiy aloqadorliklar ham muhim rol oynaydi.

Bunday aloqadorliklarni „zaruriyat“ va „tasodif“ kategoriyalari ifodalaydi.

Imkoniyat va voqelik. Imkoniyat va voqelik narsa va hodisalarning o'zgarishi, rivojlanishi jarayonidagi ikki davrni, holatni, ularning o'zaro munosabatini ifodalovchi kategoriyalardir.

Voqelik — hozir real mavjud bo'lib turgan narsa va hodisalardir. Lekin, bu hodisalar rivojlanish jarayonida hozirgi holatda bo'lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo'lib, ular o'zlarining ma'lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik paydo bo'lishidan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi.

Imkoniyat — bu voqelikning kurtak holdagi ko'rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Shu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning obektiv va subektiv shart-sharoitlari tarzida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, imkoniyat obektiv qonuniyatlardan kelib chiqadi, lekin ular turli subektlar tomonidan yaratilishi ham mumkin.

„Imkoniyat“ va „voqelik“ kategoriyalarini, ularning o'zaro dialektikasini chuqur bilib olish, kishilarning amaliy faoliyatida, ilmiy-tekshirish ishlarida katta ahamiyatga ega.

„Imkoniyat“ va „voqelik“ kategoriyalarining mazmuni ongdan tashqaridagi obektiv olamdan olinadi. Bu kategoriyalar bir butun moddiy yoki ruhiy jarayonning ikki tomonini aks ettiruvchi o'zaro dialektik munosabatdadir. Shuning uchun imkoniyat va voqelikni bir-biridan farq qilish lozim, chunki ularni aralashtirib yuborish nazariyaning rolini inkor etishga, insonning tabiat va jamiyatni o'zgartiruvchi faoliyatini tushunmaslikka, amaliyotning ahamiyatini yo'qqa chiqarishga, yo'q narsani bor, deb bilishga, yangining kurash jarayonida eski ustidan g'alaba qilishini ko'rmaslikka olib keladi.

Jamiyatdagi imkoniyatlar yangi — endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan va eski — umrini tugatayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ bo'lishi mumkin.

Eskilikni ifodalovchi imkoniyat, rivojlanish jarayonida voqelikka aylanib qolishi ham mumkin, lekin bu harakatning ichki qonuniyatidan, uning tub xarakteridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun eskilikni ifodalovchi imkoniyatning voqea bo'lishi vaqtinchadir.

Imkoniyat voqelikka birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, awalo, kurtak shaklida mavjud bo'lib, so'ng rivojlanib borib, tobora reallasha boradi va ma'lum davrda, ma'lum shart-sharoit tufayli voqelikka aylanadi. Imkoniyat reallasha borgan sari uning mavjud eski voqelik bilan kurashi ham keskinlashib boradi. Shunga ko'ra, imkoniyatni formal, abstrakt va real imkoniyatlarga ajratib o'rganiladi. Quruq, fikriy

izchillik jihatidagina to'g'ri bo'lgan, lekin real asosga ega bo'lmagan imkoniyat formal imkoniyatdir. Formal imkoniyat obektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham, u hech qachon voqelikka aylanmaydi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'liq yetilmagan, lekin amalga oshishi qonuniy bo'lgan, narsa va hodisaning o'zgarish va rivojlanish mantiqidan kelib chiquvchi imkoniyat abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum obektiv va subektiv shart-sharoitlar yetilganda real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — rivojlanishning asosiy tendensiyasini ifodalovchi hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtda amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatning voqelikka aylanishida obektiv shart-sharoit hal qiluvchi rol oynaydi. Obektiv shartsharoitlar — inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan shartsharoitlardir. Biroq, jamiyatdagi real imkoniyatlarni voqelikka aylantirishda ongli faoliyatning roli ham g'oyat kattadir. Buning ma'nosi shuki, jamiyat imkoniyatlarining voqelikka aylanishida subektiv omil muhim ahamiyatga ega. Subektiv omil — bu xalq ommasi, uning ongliligi va faol amaliy faoliyatidan iborat hodisa.

Umuman, dialektikada yuqoridagi deterministik aloqadorliklarni ifodalaydigan kategoriyalar o'zaro bir-birlari bilangina emas, balki boshqa barcha kategoriyalar bilan ham chambarchas bog'liqlikda o'rganishni talab qiladi.

OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Olamdagi aloqalar, o'zgarish va rivojlanish. Boglanishlarning turlari. Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbayi, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular O'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday boglanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bogliq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin

emas. Chunki olamning namoyon bolishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Yer qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. Ya'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida roy bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin roy beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzda takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi. Ammo dunyo o'zgarmadimi bu bir kunning ichida? Unda minglab bolalar tug'ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar roy berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi? Ona zamin o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimi? Bularning barchasi bir kunu-tunda roy bergan botiniy va zohiriy o'zgarishlarning namoyon bolishidir.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi?

Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h.k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h.k.) asosiy vazifasi har bir soha boyicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil sezid, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlariga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: Nima uchun inson qonunni bilishi kerak? Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h.k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qoyishadi va h.k. Nima uchun? Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I.Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni obektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qoymaysiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

— qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini,

ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

— qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi;

— qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2019-yili qishdan keyin bahor kelib, 2020-yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati — u obektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar obektiv xususiyatga ega.

Miqdor va sifat o'zgarishlari birligi. Bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o'rganar ekanmiz, ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsalar: *sifat*, *miqdor* va *me'yor* ekanini ko'ramiz.

Sifat deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlar birligiga aytiladi.

Ma'lumki, tabiat va jamiyat juda ko'p xilma-xil narsalar, voqea va hodisalarning birligidan tashkil topgan. Ularning bunday xilma-xilligi narsa va hodisalar o'rtasidagi sifatli tafovutlarning ifodasidir. Masalan, noorganik tabiat bilan organik tabiat sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Organik tabiat o'z atrofidagi muhit bilan uzluksiz modda almashinib turadi. Noorganik tabiatda bunday modda almashinish bo'lmaydi.

Sifat bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratibgina qolmasdan, balki uning boshqa narsalar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Shuning uchun muayyan sifatga ega bo'lgan narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib, bir tomonlama o'rganish bilan chegaralanmay, balki ularni bir-biri bilan bog'laydigan umumiy xususiyatlari asosida ham o'rganish zarur. Agar organik tabiatdagi tirik organizmning atrof-muhit bilan modda almashinishi to'xtab qolsa, bu organizm halok bo'ladi, o'zining tiriklik sifatini yo'qotadi, chunki tirik organizmning tirikligi, undagi-hayotning mohiyati — modda almashinuvidan iborat.

Narsa va hodisalarning sifati, ularning xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Har bir narsa yoki hodisa ko'pgina xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlardan bir qanchasi birikib, shu narsa yoki hodisaning muayyan sifatini tashkil qiladi. Narsa va hodisalarda xususiyatlar ko'p bo'lib, ularning muhim, nisbiy turg'unlarigina sifatni tashkil etadi. Sifat narsa va hodisaning mohiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Narsa va hodisalar no muhim xususiyatlarini yo'qotishlari yoki yangidan hosil qilishlari natijasida muayyan sifatlarini o'zgartirmaydilar. Agar bu narsa va hodisalar o'zlarining muhim xususiyatlarini yo'qotsa yoki o'zgartirsalar, ular yangi sifatga o'tadilar. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo'qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchanlik esa, benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o'zining bu xususiyatini biror sabab bilan yo'qotsa, u dvigatel uchun boshqa kimyoviy moddaga aylangan bo'ladi.

Borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan nafaqat sifatlari bilan, balki miqdorlari bilan ham farqlanadilar. Ularning sifatlari doimo miqdorlari bilan birga mavjuddir.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi miqdor deb ataladi.

Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o'lchov darajasi tariqasida, uchinchi holatda esa narsa va hodisalarning makondagi o'zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Ijtimoiy hodisalarda ham sifat va miqdor birlikda bo'ladi. Masalan, bir ijtimoiy tuzum ikkinchi ijtimoiy tuzumdan ishlab chiqaruvchi kuchlarining taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarning xarakteri sifat jihatidan farq qilishi bilan birga, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, unumli mehnatda band odamlarning soni, milliy daromadning miqdori, uning jamiyat a'zolariga taqsimlanishi (miqdor) va shu kabilar bilan farq qiladi.

Har bir narsa va hodisa muayyan miqdor va sifat birligidan iborat meyorga ham ega bo'ladi. **Meyor — narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir.** Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi meyor deyiladi. Meyor — narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisa sifati o'zgarishiga, boshqa sifatga o'tishiga, ya'ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.

Narsa va hodisalar o'z mavjudligining ma'lum davrlarida sifat va miqdor birligini, ya'ni oldingi sifatlarni saqlaydilar. Bu davrda ularda faqat muhim bo'lmagan miqdor o'zgarishlari sodir bo'ladi. Biroq, bu jarayon vaqtinchadir. Taraqqiyotning ma'lum bosqichida miqdor o'zgarishlari shunday darajaga yetadiki, endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolishi tufayli, zaruran sifat o'zgarishlariga o'tadi. Bunda narsaning eski sifat chegarasi buzilishi natijasida uning oldingi meyori ham o'zgaradi, ya'ni yangi sifat va miqdorga ega bo'lgan yangi meyordagi narsa vujudga keladi.

Borliqdagi narsa va hodisalarda barcha o'zgarishlar: rivojlanish, taraqqiyot miqdor va sifat o'zgarishlari natijasida sodir bo'ladi. Bunda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga o'tgani kabi, sifat o'zgarishlari ham miqdor o'zgarishlariga o'tadi. Rivojlanish jarayonidagi bir-biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o'zgarishlari uzluksizlik va uzilishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. **Uzluksizlik** — narsa va hodisalar rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarda ichki o'zgarishlar yuz bersada, bular shu narsa yoki hodisa mohiyatini butunlay o'zgartirib yubormaydi. Bunda narsa yoki hodisa o'zining oldingi sifatini saqlab qoladi. Uzilish esa, shu narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ifodalaydi. **Uzilish** — bu o'zgarish va rivojlanish jarayonida narsa yoki hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o'tishi demakdir. O'zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o'tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanish jarayoni falsafada **uzluksizlikning uzilishi** deyiladi.

Bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayoni falsafada **sakrash** deb ataladi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashlar o'z xarakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Masalan, tabiatdagi sakrashlar, ya'ni eski sifatdan yangi sifatga o'tishlar insonning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda, tabiiy-tarixiy jarayonning oqibati sifatida yuz beradi. Ijtimoiy hayotdagi sakrashlar esa tabiatdagi sakrashlardan farq qilib, ular kishilar tomonidan obektiv zaruriyatlarni anglash natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlar tadrijiy rivojlanishlar orqali amalga oshiriladi. Sakrashlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning bilimlar tizimining rivojlanib borishiga ham xosdir. Ilm-fan sohasida sekin-asta to'planib borgan dalillar, ma'lumotlar va bilimlar asosida inson o'z aql-idroki bilan butunlay yangi ixtiro va kashfiyotlar qiladi. Bu ham, asosan, tadrijiy yo'l bilan amalga oshadi.

O'zbekiston haqiqiy demokratik va rivojlangan davlatga aylanishi, ya'ni, yangi sifatga ega bo'lishi uchun juda ko'p iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish kerak. Taraqqiyotning tadrijiy yo'li — O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishning muhim shartlaridandir.

Endi, rivojlanishning sababi nima, degan masalani ko'rib chiqamiz.

b) Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi.

Borliqdagi har bir narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'ladi. Ana shu bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o'rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat, qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash, rivojlanishning sababi, uning manbayi hisoblanadi.

Buni tushunib olish uchun „ayniyat“, „tafovut“, „ziddiyat“, „qarama-qarshilik“ kabi tushunchalarning o'zaro munosabatlarini bilish lozim.

Narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligi **ayniyat** deyiladi. **Ayniylik** — narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga tafovut ham mavjud bo'ladi. **Tafovut** — narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir. Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Tafovutlar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib qarama-qarshiliklarga aylanadi.

Falsafada qarama-qarshilik deb borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, birbirini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o'zaro munosabatlari tushuniladi. Umuman, qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ziddiyatlarni o'rganish harakat, o'sish, o'zgarish, rivojlanishning sabablarini bilishda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday narsa va hodisalarning o'zgarishi, rivojlanishi ulardagi mavjud ziddiyatlar birligi va kurashi natijasida yuz beradi. Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatida hal qilinmasa, konfliktga aylanishi mumkin. Ziddiyatlarning hal qilinishi o'zgarish va rivojlanishga, eski narsa yoki hodisa o'miga yangi narsa va hodisa paydo bo'lishiga olib keladi. Organik, noorganik olam, ijtimoiy hodisalardagi o'z-o'zini boshqarish, tashkil etish imkoniyatlari ham muayyan ziddiyatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Ziddiyatlar juda xilma-xildir. Ular narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha rol oynaydi hamda har xil vazifani bajaradi. Ular, odatda, ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarga bo'lib o'rganiladi.

Ichki ziddiyat — narsa va hodisalarning o'z ichidagi qaramaqarshi tomonlar, kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Tashqi ziddiyat esa, bir-biridan nisbatan mustaqil narsalar va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlardir.

Ichki va tashqi ziddiyatlarni bunday bo'lish nisbiy xarakterga ega. Chunki, bir munosabatda ichki ziddiyat, boshqa munosabatda tashqi ziddiyat bo'lishi mumkin. Masalan, turli tuzumdagi davlatlararo ziddiyat tashqi ziddiyat, ammo kishilik jamiyati miqyosida olinsa, ular ichki ziddiyatlardir.

Rivojlanish jarayonida ichki va tashqi ziddiyatlar bir xil rol oynamaydi. Rivojlanishning mohiyatini asosan ichki ziddiyat belgilaydi. Tashqi ziddiyatlar rivojlanishga bilvosita, ya'ni ichki ziddiyatlar orqali ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan ziddiyat asosiy ziddiyat deyiladi. Asosiy ziddiyat taraqqiyotda hal qiluvchi rol oynaydi va boshqa barcha ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Asosiy bo'lmagan ziddiyatlar esa narsa va hodisalarning ma'lum bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'lib, ularning mohiyatini belgilamaydigan, rivojlanishini o'zgartirish kuchiga ega bo'lmagan ziddiyatlar bo'lib, ta'siri konkret vaqtga va sharoitga bog'liqdir.

Ziddiyatlarning qaysi bid asosiy va asosiy emasligini aniqlash rivojlanishning sabablarini to'g'ri belgilashning yo'lidir. Asosiy ziddiyatni mavjud ziddiyatlar orasidan topish uchun ziddiyatlarni vujudga keltirgan sharoitni, vaziyatni, bundagi qarama-qarshi tomonlarni va ular birligidan tashkil topgan narsaning mohiyatini, har bir ziddiyatning shu mohiyatga boigan munosabatini aniqlash lozim. Asosiy ziddiyatlarni aniqlash esa, ijtimoiy amaliyot natijalarini tafakkur orqali analiz va sintez qilish natijasida amalga oshadi.

Asosiy ziddiyatlar bir nechta bo'lganda, ular orasida albatta bu bosh ziddiyatni tashkil qiladi. Bosh ziddiyat deb, rivojlanishning u yoki bu bosqichi mohiyatini belgilab, asosiy ziddiyatlar tarkibida muhim o'rin tutadigan, ularga nisbatan taraqqiyot jarayonida belgilovchi rol oynaydigan ziddiyatga aytiladi. Ijtimoiy taraqqiyotda bosh ziddiyatni to'g'ri aniqlash, mamlakat taraqqiyotini to'g'ri belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotiga xos ziddiyatlarni tahlil qilganda, yana antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni ham farq qilish zarur. Antagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga tubdan zid bo'lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Noantagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga mos keladigan yoki manfaatlarini o'zaro kelishtirish mumkin bo'lgan ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Antagonistik ziddiyatlar konfliktlarga olib kelishi ham mumkin. Bunday holda, ular bir tomonning mag'lubiyati va ikkinchi tomonning g'alabasi bilan hal qilinadi. Umuman, hamma ziddiyatlarni o'z vaqtida hal qilib borish zarur, aks holda ularning keskinlashib borishi kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Jamiyat hayotidagi ziddiyatlar xilma-xil shakl va usullar bilan bartaraf etilishi mumkin: ulardan ba'zilar eskining yemirilib borishi va yangining qaror topib borishi asosida hal qilinib borilsa, boshqalari ayni shu ziddiyatlarni tashkil qilgan qaramaqarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosalyu madoraga keltirish, bir-birlari bilan o'zaro siyosiy muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'llari bilan bartaraf etilishi va shu asosda taraqqiyotni ta'minlashi mumkin.

Hozirgi davrda **murosa (konsensus) usuli** jamiyat taraqqiyotida muhim rol oynamoqda. Ayniqsa, uzoq muddatlar davomida birbiriga qarama-qarshi bo'lib kelgan davlatlar, jamiyatdagi qaramaqarshi tomonlar, kuchlar, ijtimoiy guruhlar, harakatlar va partiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni jamiyatning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib hal qilishda bu usul juda qo'l kelmoqda. Bu usul jahon xalqlarining milliy totuvlikka, o'zaro hamkorlikka, hamjihatlik va birlikka, barqarorlikka erishishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Konsensus usuli o'zaro tinch yo'l bilan olib borilayotgan muzokaralar, muloqotlar, referendumlar, xalqaro huquq normalari asosida ma'lum bir bitimga kelishuvlar, demokratik tamoyillar asosida eng muhim hujjatlar qabul qilish orqali olib borilmoqda.

Har bir sohadagi ziddiyatlarning o'ziga xos hal bo'lish shakllari mavjud. Tabiatdagi ziddiyatlar, odatda, stixiyali — o'z-o'zicha paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng o'zlariga xos qonuniyatlar asosida hal etiladi. Jamiyatda esa, ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishi kishilar tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, harakat, o'zgarish va rivojlanish jarayonida turli-tuman ziddiyatlar paydo bo'lishi, ular turlicha hal qilinishi mumkin. Bu bilan ziddiyatlar butunlay tugamaydi. Eskilari o'rniga yangilari paydo bo'lib, ular ham ma'lum vaqtdan so'ng eskirib, o'rnini yana yangilari olib, shu asosda rivojlanish cheksiz davom etaveradi.

Ziddiyatlar kurashi asosida amalga oshadigan rivojlanish asosan progressiv yo'nalishda boradi. Buning sababi — *vorislik, davomiylikdir.* -

Taraqqiyotda vorislik va davomiylik (inkorni inkor). Taraqqiyot vorislik va davomiylik, inkorni inkor etish yo'li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o'rganishni „inkor“ tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

„Inkor“ tushunchasi kundalik ongda „yo'q“ so'zi bilan qo'shilib ketadi. Inkor qilmoq „yo'q“ demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin, dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan bunday tushunchadan farq qiladi. Dialektik inkor — yangining eski bilan oddiy o'rin almashuvi bo'lmasdan, balki yangi eskining bag'rida vujudga kelib, undagi sog'lom tomonlardan foydalanib qaror topishidir.

Dialektik inkor, ayni bir vaqtda „yo'q“ deyish bilan „ha“ deb, ya'ni inkor etish bilan birga tasdiqlashni ham o'z ichiga oladi. U barcha narsani butunlay rad etuvchi nigilistik qarashdan xoli bo'lib, bir paytda sodir bo'ladigan yemirilish bilan yaralishni, xullas, narsa-hodisalarning yo'qolishi va paydo bo'lishini bog'lab, ilgari rivojlanish holatini ifodalaydi. Bu dialektik inkorning muhim jihatini tashkil qiladi.

Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi — eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi; ikkinchisi — yangining eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Dialektikaning bu ta'limoti ikki marta takrorlanuvchi inkor bilan ifodalanishi moddiy olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har

bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor ana shu inkorlarning sodir bo'lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Bunday bitta inkor narsa va hodisalardagi o'zgarish va rivojlanishning bir momentini tashkil etsa, „inkorni inkor“ atamasi ularning muayyan zanjirini ifodalaydi.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, balki ko'p chizikli doira shaklida ham bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich riuqtaga yaqinlashadi. Lekin, bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan butkul tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli, taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan kengroq, yuqoriroq bosqichda yuzaga kelgan bo'ladi. Ana shu ma'noda dialektik nazariyada „spiralsimon taraqqiyot“ atamasi ishlatiladi.

Dialektik inkorga ko'ra, taraqqiyotning „spiralsimon“ xarakteri o'zining quyidagi uch jihatiga ega: *birinchidan*, inkorni inkorda, dastawal, narsa va hodisalar abadiy o'zgarishdan qola olmasligi, davrning o'tishi bilan har bir narsa va hodisa o'zgarishi, bu o'tishda yangining paydo bo'lish mexanizmini ochib beradi. Buni *destruksiya* deyiladi. *Ikkinchidan*, u yemirilayotgan (inkor etilayotgan) narsa bilan paydo bo'layotgan yangi narsa o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Buni *kummulatsiya* deyiladi. *Uchinchidan*, inkor etilayotgan narsa oldin erishgan yutuqlarni, uning rivojlanishga qodir bo'lgan ba'zi belgi va xususiyatlarini saqlab qolish, ulardan foydalanish asosida yuz beradi. Buni *konstruksiya* deb yuritiladi. Shu asosda o'zgarish, rivojlanish sodir bo'ladi. Bundan inkorni inkorning muhim belgisi, ya'ni narsa va hodisalarning ilgarilab rivojlanishi, yangilikning yengilmasligi mantiqan o'z-o'zidan kelib chiqadi.

Xullas, inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab ilgarilab boruvchi rivojlanish sodir bo'ladi. Shuning uchun inkorni inkor jarayonining xarakterli xususiyatlaridan biri — uni orqaga qaytarib bo'lmasligidir. Buning sababi shundaki, har bir yangi bosqich ilgarigi bosqichlarning butun boyligini o'zida sintezlashtirib, taraqqiyotning yanada yuqoriroq shakllari uchun zamin yaratadi. Bu sintez „inkorni inkor“ deyiladi. Inkorni inkor tufayli, har bir paydo bo'lgan yangilik shuning uchun sintez deyiladiki, unda eskining rivojlanishga qodir bo'lgan tomonlari saqlanib qolib, yangida paydo bo'lgan tomonlar bilan uzviy birikkan bo'ladi va shu asosda rivojlanishning navbatdagi bosqichini ta'minlaydi. Xuddi shu yo'l bilan taraqqiyotning yo'nalishi belgilanadi.

Yuqorida aytilgan, bir-biri bilan chambarchas bogliq bolgan uch jarayonning birligi hozirgi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda oz ifodasini topmoqda. Biz uchun hozir jamiyatimizda eskirgan ijtimoiy munosabatlarni, iloji boricha, dialektik izchillik va ziyraklik bilan o'z vaqtida bartaraf etish, yangi paydo bo'layotgan bozor iqtisodiyotiga oid munosabatlarni o'z vaqtida payqay olish, ularni rivojlantirish yutuqlarimizning ko'payishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimiz keng qo'llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizdagi xo'jasizlik, shahar va qishloqlarda mehnatning hamma sohalarida boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar yetkazuvchi ekologik va ma'naviy buzulishlarning tugatilishiga olib keladi.

Shunday qilib, borliq va bilishga xos miqdor ham sifat o'zgarishlari, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkor va inkorni inkorlar benihoya davom etaveradi. Bu

abadiy davom etadigan jarayonda dialektikaning barcha tamoyillari birgalikda amal qiladi. Bunda hech bir narsa yoki hodisa abadiy — o'zgarmasdan qola olmasligi, ammo ular o'rtasida vorisiy aloqalar va bog'lanishlar mavjudligini ifodalaydi.

Har qanday fanning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og'irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko'p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog'langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro qonunlari va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o'rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga ko'ra, «qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya nima? Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish» degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni obektiv voqelikning umumlashgan in'ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali goyoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII—XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va

harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, she'uog), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (obektiv, subektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) obektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy-mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jara yonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik — olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa-hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Alohidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun, Arastu). Hegel, alohidalikni voqealarning

zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi. Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (bu haqda «Osiyotsentrizm» va «Yevropatsentrizm» to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo'lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o'z o'rnini va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sabablardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kegak. Chunki har qanday umumiylik, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko'ra, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy, ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

«Butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari. Falsafaning «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» kategoriyalari bilan «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtayi nazardan, butunni — umumiylik, qismni yoki elementni alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmuyi ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», «element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kegak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema — grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, Chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi obektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya'ni, insonning obektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa-hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning obektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo'lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura»ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning strukturaviy uzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. Shunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi. Shuning uchun «sistema», «struktura»,

«element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bolmagan elementlarga ajratib o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko'rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli xarakterga ega bo'lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma'lum vaqtga kelib muhim bo'lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi. Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondashadi. Bu yondashish subektiv xarakterga ega bolib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog'ini qondirish, fizik uchun agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning H₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun — narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa — sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. Ya'ni, mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo'lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy boglanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juziy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. Ya'ni, suv bug' holatida chanqoqni qondirmaydi, o'simliklarni sug'orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog'lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, strukturaviy bog'lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko'ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo'rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar

va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning obektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subektiv, muqobil qarashlarda o'z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda o'z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya'ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo'lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, sabab — biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bolmagan, muhim va muhim bolmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollari ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) uning obektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;
- 2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;
- 3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;
- 4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;
- 5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Obektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat — narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa — zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir. Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatidan kelib chiqadi hamda obektiv sabablar tizimiga asoslanadi.

Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy obektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «subektivla'shtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, obektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning obektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi⁷.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan subekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, obektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyligi, sababiyiligini, qonuniyiligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

Imkoniyat va voqelik ham falsafaning muhim kategoriyalaridir. Falsafaning sabab va oqibat, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif, mohiyat va hodisa singari kategoriyalari voqelikdagi o'zgarish, yangilanish holatlarining muhim tomonlari, bog'lanish holatlari va asosiy tamoyillarini ifodalasa, imkoniyat va voqelik uzluksiz rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarning, ikki xil bosqichi, davri, holatini hamda bu davrlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydi.

Imkoniyat va voqelik o'zaro bog'liqlikda mavjud bo'ladi, ular bir-birini ham taqozo qiladi, ham istisno etadi. Amaliy faoliyatda doim imkoniyat va voqelikdan hamda imkoniyatsizlikdan ajrata bilishga o'rganish kerak. Mumkin bo'lmaydigan narsani mumkin bo'ladigan narsa yoki hodisa qilib ko'rsatish yaramaydi yoki aksincha, mumkin bo'ladigan narsani mumkin bo'lmaydigan narsa qilib ko'rsatish ham imkoniyat va voqelikning mohiyatini, noto'g'ri tushunish asosida kelib chiqadi. Bu hol g'ayriilmiy qarash va noto'g'ri xulosaga olib keladi.

Imkoniyat va voqelik muayyan mazmunga ega bo'lgan olam hodisotlarining ikki tomoni, rivojlanishning boshlanish momenti va nihoyasi, uzluksiz taraqqiyot

⁷ Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov va boshq. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

jarayonining bir-biri bilan bog'liq, bir-birini tavsiflaydigan halqalari, deb atash mumkin. Rivojlanish uzluksiz imkoniyatlarning vujudga kelishi, ularning voqelikka aylana borishidan iborat jarayondir. Bunda imkoniyat endigina kurtak otayotgan, royobga chiqishi lozim bo'lgan hodisa bo'lsa, voqelik esa ba'zi hollarda o'z umrini tugallayotgan, eskirish jarayonida o'z intihosiga qarab borayotgan hodisadir.

Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Imkoniyatning voqelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin demokratik huquqiy jamiyat qurishi uchun real imkoniyatlar vujudga keldi.

Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. Shart-sharoitlar oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta'sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mavjud voqelik tarixiy genezisiga ko'ra, o'zida boshqa voqelikning imkoniyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Zamonaviy falsafa imkoniyat va voqelikni ilmiy tushuntirib bu kategoriyalar dunyodagi aloqadorlik va rivojlanishning muhim xususiyat, tomonlarini ifodalaydi. Olamdagi narsalarning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishini, taraqqiyotning oddiydan murakkabga qarab yo'nalishini, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarni bildiradi, deb hisoblaydi.

Tayanch tushunchalar: borliq, borliq shakllari, individual borliq, ijtimoiy borliq, real borliq, virtual borliq, tabiat, tabiiy muhit, biosfera, noosfera, hayot, yo'qlik, mavjudlik, reallik, olam, ontologiya, materiya, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt, sabab va oqibat, mazmun va shakl, ziddiyat, miqdor, sifat, inkor, inkorni inkor, vorislik, yangilanish, kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, bog'lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik sistema va element, butun va bo'lak.

Takrorlash uchun savollar

1. Olam nima va unda odamning o'rni qanday?
2. Borliq va yo'qlik tushunchalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Borliqning murakkab tuzilishi deganda nima tushuniladi?
4. Real, konkret va virtual borliqning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Mavjudlik va reallik nima?
6. Harakat va uning asosiy shakllari to'g'risida so'zlab bering.
7. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma'nolarni anglatadi?
8. Hayot nima va uning mazmuni nimadan iborat?

9. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
10. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bog'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'lmoqda?
11. Qonun nima?
12. Miqdor va sifat nima? Meyor-chi?
13. Falsafiy kategoriyalar tizimi, ularning mazmuni.
14. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimada?
15. Inkori nima? Inkorni inkor-chi?
16. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?

3-MAVZU: BILISH NAZARIYASI: ASOSIY MUAMMO VA YO'NALISHLARI. JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI. FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI). GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI

Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi — «Gnoseologiya» vujudga keldi va u qadimgi lotincha «gnosis» — bilish va «logos» — fan, ilm ma'nolarini anglatadi.

Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G'arbiy Yevropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma'nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi falsafiy ta'limot ma'nosidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo'limi bo'lib, unda 1) insonning dunyoni bilish imkoniyati 2) insonning o'zlikni anglash jarayoni; 3) bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi, 4) bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

Shunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani yechishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning yechimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Inson o'zining bevosita borligini, mavjudligini uni qurshab turgan dunyo bilan doimiy aloqada amalga oshiradi. Dunyoda yashash va optimal moslashish uchun inson, uning aqlidroki va hislari tashqariga, ya'ni dunyoni bilishga qaratilgan. M.Xaydeggerning so'zlari bilan aytganda «bilish tadqiqot sifatida mavjud narsani hisobotga jalb etadi». Bilish faoliyatiga inson hayoti va faoliyatining zarur elementi deb qaramoq zarur. Bilishning maqsadi va vazifasi turli hodisalarni o'rganish yo'li bilan ularning chuqur, turg'un, belgilovchi tomonlari va qirralarini, ularning mohiyatini ochib, xaqiqatni anglab olishdan iborat. Antik falsafadayoq sofistlar va Sokrat dunyoqarashining asosiy masalasini insonning tabiatga, sub'ektning ob'ektga, tafakkurning borliqqa munosabati masalasi sifatida ilk bor ta'riflab bergan edilar.

Yangi zamonda F.Bekon va R.Dekart bilish to'g'risidagi ta'limotni boyitib, uni sub'ektning ob'ektga munosabati deb ta'rifladilar. Dekartning so'zlariga ko'ra, *sub'ekt* bu bilish harakatining sohibi bo'lgan shaxsdir, fikrlovchi «Men» dir. *Ob'ekt* bu sub'ektning bilish faoliyati yo'naltirilgan narsadir, ya'ni bizni qurshab turgan butun olamdir. Bilish ob'ekti bilish vaziyatida bevosita berilgan emas, u ijtimoiy amaliyotning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi, *determinatsiyalanadi*. Bilish sub'ekti ham o'zining bilish faoliyati keng amalga oshiriladigan konkret ijtimoiy-tarixiy vaziyat orqali belgilanadi. Binobarin, bilishning o'zi ham ijtimoiy tabiatga ega, uni ijtimoiy amaliyot belgilab beradi. Dunyoni bilib bo'ladimi yoki yo'qmi, agar bilib bo'lsa bu bizning ongimizda qanday aks etadi, degan masala hamisha falsafiy fikrni qiziqtirib kelgan. Bilish nazariyasi, yoki *gnoseologiya* (yunoncha bilish haqidagi ta'limot) falsafiy ta'limotlarning ajralmas qismidir.

Bilishning ikki shakli: *kundalik* (empirik) bilish va *nazariy* (ilmiy) bilish bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha — etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nazariy bilishning obekti, subekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish obekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obektlari hisoblanadi. Bilish obektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish obektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish subekti. Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subekti hisoblanadi. Ayrim Mingan tadqiqotchilimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson

va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obekti, ham bilish subekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obektining ayrim sohaları va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohaları vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy dara jaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hissiy bilish deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muxitga moslashish va himoyalanihi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan malumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilishdir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari mavjud va ularni o'rganadigan maxsus soha — metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ga: 1) eng

umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bolinadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Bilish nazariyasining o'ziga xos shakllari.

Xissiy bilish. Har qanday narsani, har qanday predmet yoki hodisani bilish fikr xissiy idrokdan predmetning mohiyati tomon boradigan jarayondir. *Xissiy bilim*, jonli mushohada insonning qurshab turgan dunyo bilan *bevosita aloqasi* shaklidir. Xissiy anglash tashqi ta'sir energiyasining ong faktiga aylanishidan boshqa narsa emas. Usiz biz borliqning hech qanday shakllari haqida hech nima bila olmaymiz. Biz jonli mushohada yordamida atrofdagi vokelikning turli xossalari va tomonlarini bilib olamiz, lekin birgina xissiy obrazlar bilan ularning mohiyatini anglab ololmaymiz.

Bunga sabab, eng avvalo, inson sezgi a'zolarining tabiiy cheklanganligidir. Masalan, odamning ko'zi elektromagnit to'lqinlarning butun spektrini to'lik idrok eta olmaydi, u elektromagnit to'lqinlar spektrining infraqizil, ultrabinafsha va rentgen qismlarini sezmaydi. Bunday tabiiy cheklanganlik boshqa sezgi a'zolariga ham xosdir. Masalan, odamning qulog'i tebranish chastotasi 16 dan 20 ming Gs gacha bo'lgan tovush to'lqinlarini qabul qila oladi, yuqori chastotali yoki past chastotali tovush to'lqinlarini eshitmaydi.

Tabiiy sezgi a'zolari bilan idrok etib bo'lmaydigan hodisalarni maxsus yaratilgan *sun'iy organlar* orqali, ya'ni mikroskop, radioteleskop, loqator, barometr, Geyger hisoblagichi va boshqa xil priborlar vositasida idrok etish mumkin. Bu priborlar xissiy bilish quvvatini ancha kengaytiradi va kuchaytiradi. Shu bilan birga xissiy bilish bizni yanglishtirib qoyishi mumkin ko'z chalg'ishi, sarob, xomxayol, ko'z gallyusinatsiyasi, tovush effekti va hakovolar. Falsafa tarixida yangi zamon mutafakkirlari barcha bilimlarning xissiy kelib chiqishi muammosiga yuqori darajada ahamiyat berganlar. Masalan, Jon Lokk materialistik *sensualizm* (lotincha *sensus* sezgi, sezish) prinsiplarini asoslab berar ekan, avval sezgida bo'lmagan narsa intellektda bo'lmaydi, shuning uchun kimki hech nimani sezmasa u hech nimani bilmaydi, deb yozgan edi⁸.

Sezgilar, bu shunday kanallarki, ularning vositasida odam qurshab turgan olam bilan bog'langan, olam haqida bevosita axborot olib turadi. Sezgilar abstrakt tafakkur amalga oshishining asosi bo'lgan ozuqadir.

Sezgi xissiy bilishning eng oddiy shakli, ob'ektivlik bilan sub'ektivlikning qorishmasidir, u manbai jihatidan ob'ektiv va u yoki bu sezgi a'zolarining tuzilishiga bog'lik holda shakli jihatidan sub'ektivdir. Garchi sezgi bilish uchun yagona kanal bo'lsada, birgina sezishning o'zi tashqi dunyoni butun yaxlitligi, chuqurligi va konkretligi bilan anglab olish uchun yetarli emas. Sezgi sub'ektga o'rganilayotgan ob'ektning ayrim tomonlari yoki xossalari bilishga yordam beradi, ammo o'zining tabiiy cheklanganligi sababli ob'ektning yaxlit holida bilishga imkon bermaydi. Shuning uchun bilish sezishdan idrok qilish tomon boradi.

⁸ Falsafa. Darslik. M.Axmedova umumiy tahriri ostida. T.: O'FMJ, 2006. -339 b

Idrok bu bir sezgi emas, u turli xil sezishlarning jamul-jami, kombinatsiyasidir. Biz idrok qilish orqali predmetning ayrim tomonlarini emas, balki uni yaxlit holda aks ettiramiz.

Masalan, sharsimon, yashil-qizil, yaltiroq, xushbuy, chuchuk-nordon narsalarni xis qilishlar birgalikda ongimizda olma obrazida assotsiatsiyalashadi.

Xissiy bilishning idrokdan keyingi bosqichi *tasavvurdir*. U sezishdan ham, idrok qilishdan ham sifat jihatdan farq qiladi. Tasavvur bu xissiy idrok bilan tushuncha o'rtasidagi oraliq bosqichdir. Sezish va idrok qilishdan farqli o'laroq, tasavvur endi sub'ekt bilan ob'ektning bevosita o'zaro ta'siri bo'lib chiqmaydi. Ilgari biron-bir hodisa yoki predmetni idrok etgan, ko'rgan odam ularning obrazlarini hatto ular bizning sezgilarimizga ta'sir etmagan taqdirda ham xotirlab, ko'z oldiga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, biz tasvirlashlariga asoslanib, masalan, ilgari o'zimiz hech qachon ko'rmagan tropik changalzorlarni tasavvur qila olamiz. Birok sezgi va idrokdan farqli o'laroq, tasavvur ilgari idrok etilgan predmetni gavdalantirar ekan, uning konkret-xissiy detallarining hammasini emas, balki faqat eng muhim, harakterli qismlari, tomonlari va belgilarini ifodalaydi.

Idrok — borliqdagi predmet va hodisalarni yaxlit holda, bir butun ko'rinishda, ularning hamma asosiy tashqi belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in'ikos ettiruvchi hissiy bilishning nisbatan yuqoriroq shaklidir. Idrok — predmet va hodisalarning bir butun yaxlit hissiy obrazdir. U his qilish va sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq, insonning hissiy bilishi idroklar shakllarida yuzaga kelgan hissiy ma'lumotlar inson miyasida qayta ishlanib, hissiy bilishning yangi, yuksak shaklini hosil qiladi. Bu — tasavvurdir.

Tasavvur — ilgari idrok etilgan, ammo, ayni vaqtda, bevosita idrok etilmayotgan predmet va hodisalarning inson miyasidagi qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazdir. Tasavurning o'ziga xos xususiyati shundaki, u borliqdagi predmet va hodisalar bilan, ayni vaqtda, bevosita bog'lanishda bo'lmagan holda ularning ilgarigi paydo bolgan obrazlari asosida qayta tiklanishidir. Ammo inson o'z tasavurida, shu bilan birga, oldin idrok etilgan predmet yoki hodisaga, ularga o'xshash yangi predmet va hodisalarning hissiy obrazlarini ham hosil qilishi mumkin.

Hissiy bilishning tasavur shaklida predmet va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan xususiyatlari tashlab yuborilib, faqat ayrim muhim xususiyatlarigina in'ikos etgan bo'ladi. Shu tufayli, tasavur predmet va hodisalarni umumlashtirgan, mavhumlashtirgan darajada aniq hissiy shaklida in'ikos ettiradi. Bu jihatdan tasavurda, hech shubhasiz, tafakkuming ba'zi elementlari paydo bo'ladi. Lekin, u hali hissiy bilish chegarasidan chiqib ketmagan bo'ladi.

Umuman olganda, insonning hissiy bilishi, ma'lum darajada, cheklangan, bir tomonlama, to'liq bo'lmagan bilishdir. Inson borliqdagi predmet va hodisalarning ichki tomonlarini, ularning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini, bir so'z bilan aytganda, ularning mohiyatini faqat *mantiqiy bilish* orqaligina bila oladi.

Mantiqiy bilish — predmet va hodisalarning mohiyatini bilishdir. Insonning borliqni aqliy bilishi — bu uning tafakkuri orqali borliqdagi predmet va hodisalarni fikr shakllarida bilishdir. Aqliy bilish — borliqdagi predmet va hodisalarning inson miyasidagi umumlashgan, mavhumlashgan va konkretlashgan fikriy ifodalanishidir.

Mantiqiy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning ichki bog'lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o'zgarish va rivojlanish qonunlarining ma'lum fikr shakllari — *hukm, tushuncha va xulosalarda* ifodalaydi.

Bunda hissiy bilish obrazlari tafakkur uchun material bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur o'zida hissiy bilish bergan ma'lumotlarni qayta ishlab, ularni umumlashtirib, mavhumlashtirib, ayni bir vaqtda, aniqlashtirib, analiz va sintez qilib, aniqlikdan mavhumlikka va yana undan aniqlikka keltirib, ma'lum hukmlar, tushunchalar va xulosalarni hosil qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilishning bu fikriy shakllari tilda so'zlar va gaplarda ifodalanadi. Aqliy bilishning dastlabki shakli hukmlardir.

Hukm — mantiqiy bilishning shunday fikriy shakli, unda borhqdagi muayyan predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi-yu, inson o'z tafakkurida bir yoki bir necha hukmlarni mantiqiy o'zaro bog'lab, turli usullar asosida ularning eng muhim xususiyatlarini ajratib olib, biror tushuncha hosil qiladi. Mantiqiy bilishning navbatdagi shakli *tushunchadir*.

Tushuncha — predmet va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va, ayni choqda, aniqlashtirilgan fikriy obrazidir. Masalan, „Inson“ tushunchasini olaylik. Bu tushuncha hamma kishilik jamiyatiga xos bo'lgan, m'ehnat qiluvchi, mehnat qurollari va mehnat vositalarini yaratuvchi hamda ular asosida moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiquvchi, ong, tafakkur, til va nutq kabi muhim va zarur belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan bioruhiy ijtimoiy mavjudotning fikriy ifodasidir.

Xulosa chiqarish esa, mantiqiy bilishning shunday shakli, unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm — yangi fikr hosil bo'fiadi.

Shunday qilib, insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: his etish, sezgi, idrok va tasawurlardan boshlanib, aqliy bilish shakllari: hukm, tushuncha va xulosa chiqarish shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning “quyi” bosqichdan „yuqori“ bosqichi tomon ko'tarilib boradi.

Tasavvurlar sezgi va idroklar kabi yorqin va aniq emas, ammo ular ancha uzoq vaqt davom etadi va barqarordir. Tasavvurlar yordamida biz allaqachon bo'lib o'tgan voqealar manzarasini ongimizda tiklay olamiz. Bundan tashqari, tasavvur bizga ilgari idrok etilganlar asosida kelajak manzarasini ifodalab berishga imkon beradi. Insonning kelajak obrazini tasvirlab va tuzib berish layoqati farazdan boshqa narsa emas. Xissiy bilish qanchalik muhim bo'lmasin shuni aytish kerakki, u cheklangan va tashqi dunyoning faqat tashqi, bevosita, xissiy idrok etiladigan tomonini aks ettiradi. Buning ustiga sezgi bizni yanglish yo'lga boshlashi mumkin. Xissiy bilishdan keyingi bosqich ratsional bilishdir, abstrakt-mantiqiy tafakkurdir.

Agar biz sezgilar vositasida hodisalar olamini aks ettirsak, sezgi bilan idrok etib bo'lmaydigan mohiyatni aql bilan bilib olamiz. Aql bizning sezgi a'zolarimiz tashqi olamdan olgan axborotlarga asoslanib, hodisalar mohiyatini xiralashtiruvchi va yashiruvchi tashqi, tasodifiy holatlardan abstraklashib hodisalar dunyosini tashqi, nomuhim xususiyatlar va aloqalardan xalos qiladi. Muhimni nomuhimdan farqlantira va ajrata olmaydigan sezgilardan farqli o'laroq, aql hodisalardan hamma narsani emas, balki faqat eng muhimini, barqarorini, qonuniyatlisini oladi. Shuning uchun *abstraksiyalar* xissiy bilish uchun g'oyat harakaterli bo'lgan yorqinlik, bevositalik va yaqqollikdan mahrumdir.

Ratsional bilish. Ratsional, abstrakt-mantiqiy tafakkur hodisalar olamining qonuniyatli aloqalarini bilishga imkon beradi, bu esa insonga tashqi dunyoni bemalol tushunib olish va tevarak-atrofdagi voqelik hodisalari va jarayonlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun zarurdir.

Ratsional bilishning asosiy shakli *tushunchadir*. Tushuncha bu tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish natijasidir, dunyoni o'rganish yakunidir. Tushunchalarning paydo bo'lish jarayoni o'rganilayotgan predmetning bir qator ikkinchi darajali alomatlari va xossalarini e'tiborga, hisobga olmaslik, ulardan chalg'ishdir, *abstraktlashishdir*. Tushunchaga ta'rif berish torroq tushunchani kengroq tushuncha ostiga qoyishdir. Masalan: olma meva, fil hayvon, Erkin odam, terak daraxt va hakoza. Tushunchalarning paydo bo'lishi bu biluvchi inson ongi faoliyatining oliy maxsulidir. Bilish jarayonida tushunchalarni ifodalabgina qolmasdan, balki ularni qo'llay bilish ham kerak. Tushunchalarni qo'shib biz *hukm* shakllantiramiz, hukmlarni bir-biri bilan qo'shib ulardan aqliy xulosa chiqaramiz.

Hukm tafakkurning shunday shakliki, unda inson narsani uning aloqalari va munosabatlarida ifodalaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan, hukm bu biron bir narsani tasdiqlash yoki inkor etish yo'li bilan voqelikni aks ettirish shaklidir. Shu boisdan hukm tasdiqlovchi («hozir yomg'ir yog'moqda» kabi) yoki inkor etuvchi («bugun yomg'ir yog'maydi» kabi) hukmlarga bo'linadi. Agar biz ikki yoki bundan ko'proq hukmni bir-biri bilan tenglashtirib, taqqoslab, solishtirib ko'rsak, u holda biz yangi hukmga ega bo'lishimiz, ya'ni *aqliy xulosa* chiqarishimiz mumkin.

Aqliy xulosaning, mantiqiy natijaning chinakam to'g'ri bo'lishi uchun ikki shart zarur. Birinchisi: mantiq ilmida asoslar deb atalgan dastlabki hukmlar haqiqiy bo'lmog'i, ya'ni voqelikka mos kelmog'i lozim. Ikkinchisi: boshlang'ich asoslardan aqliy xulosa chiqarish jarayonining o'zi mantiq ilmining qonunlariga muvofiq to'g'ri bo'lmog'i lozim.

Dunyoni bilish bu nafaqat nazariy, balki hayotiy, amaliy jarayondir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, insoniyatning amaliyoti bu insoniyatning tabiatni ongli ravishda va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir, bu insoniyatning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan birga qaralgan mehnat jarayonidir. Amaliyot hamisha ijtimoiy harakterda bo'ladi, kishilar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarsiz amaliyot bo'lishi mumkin emas. Amaliyot tarixiydir, u qurshab turgan tabiatni ham, insonning o'zini ham, kishilarning turmush sharoitini ham o'zgartirishdan iborat.

Gnoseologik kategoriya sifatida amaliyot sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi shunday munosabatni ifodalaydiki, bunda sub'ekt ob'ektni biron-bir jihatdan o'zgartirish maqsadida unga ongli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Amaliy faoliyat jarayonida, ob'ektning o'zgarishi ta'siri ostida sub'ekt ham o'zgaradi, uning amaliy qobiliyati va malakasi chuqurlashadi, fikrlash doirasi kengayadi, ongi va xotirasi boyiydi, dunyoqarashi o'zgaradi.

Amaliy bilishning oliy darajasi yani bilishning mezonidir. Bilish jarayoni ijtimoiy-tarixiy amaliyot natijasida va vositasida sodir bo'ladi. Kishilarning amaliy faoliyati o'zi o'zgartirishga qaratilgan ob'ektga va o'zi erishmoqchi bo'lgan maqsadga bog'liq holda turli shakllarda namoyon bo'ladi. Eng keng, falsafiy ma'noda, amaliy faoliyatdagi kishilarning ob'ektga nisbatan konkret-tarixiy birligi bo'lgan jamiyat *amaliyot sub'ekti* bo'lib chiqadi. Bunda ob'ektiv reallikning odamlar ta'sir o'tkazadigan tomoni esa *amaliyot ob'ekti* bo'ladi. Moddiy ishlab chiqarish va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi amaliyotning eng muhim shakllaridir.

Amaliyot nazariy bilimdan yuqori turadi. U nafaqat umumiylik, balki bevosita voqelik hislatiga ega. Amaliyotda asosiy qarama-qarshiliklar ideal qarama-qarshilik

(sub'ektiv reallik sifatida) va moddiy qarama-qarshilik (ob'ektiv reallik sifatida) birga qo'shilishadi. Amaliyot bu voqelikni insoniyat oldida turgan maqsadlarga muvofiq tarzda uzluksiz o'zgartirish jarayonidir. Agar jamiyatda biron-bir amaliy ehtiyoj paydo bo'lsa, bu bilish jarayoniga o'nlab universitetlarga qaraganda ko'proq asos bo'ladi, chunki amaliyot ehtiyojlari ilmiy bilishning o'zini olg'a siljitadi.

Amaliyot bilish jarayoniga boshidan oxirigacha «amaliyot nazariya, yana amaliyot yana nazariya» tarzidagi formula boyicha kirib borib uni boyitadi. Amaliyotdan ajralgan bilish bo'lishi mumkin emas. Faqat amaliyotgina u yoki bu nazariyaning to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib beradi. Amaliyot o'zgarimas emas, fan yutuqlari tufayli u doimo takomillashib, boyib va rivojlanib boradi. Bilish va amaliyot bir-biridan ajralmasdir. Amaliyot bilish haqiqatligining asosiy nuqtasi, harakatlantiruvchi kuchi, maqsadi va mezonidir.

Haqiqat, bu bizning dunyo to'g'risidagi bilimlarimiz va tasavvurlarimizning dunyoning o'ziga, ob'ektiv reallikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni nohaqiqatdan, yanglishuvdan, yolg'ondan farqlashtirish, ajratish uchun bizning bilimimiz ob'ektiv voqelikka, uning yashash va rivojlanish qonunlariga qanchalik mos kelishini aniqlab olmoq kerak. Aristotel haqiqatning «klassik» konsepsiyasi muallifidir. Bu konsepsiya haqiqatni fikrning, bilimning voqelikka mos kelishi deb, yolg'onni esa fikrning real ahvolga mos kelmasligi deb talqin qiladi. U o'zining «Metafizika» sida bunday deb yozadi: «Bor narsani yo'q deyish yoki yo'q narsani bor deyish yolg'on gapirishdir; borni bor va yo'qni yo'q deyish esa haqiqatni gapirishdir».

Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy adabiyotida ob'ektiv haqiqat tushunchasi tez-tez uchrab turadi. *Ob'ektiv haqiqat bu bilimlarimizning shunday mazmuniki, u bir kishiga ham, butun insoniyatga ham bog'liq emas. Haqiqatning ob'ektivligini u mavjud olamning in'ikosi bo'lishi belgilaydi.*

Absolyut haqiqat bu bilish ob'ekti haqidagi inkor etib bo'lmaydigan to'liq va tugal bilimdir, nisbiy haqiqat esa bilish predmeti to'g'risidagi noto'liq va notugal bilimdir. Absolyut haqiqat to'liq hajmdagi ob'ektiv haqiqatdan boshqa narsa emas, nisbiy haqiqat esa notugal shakldagi, notuliq hajmdagi ob'ektiv haqiqatdir. Har bir nisbiy haqiqatda absolyut haqiqat jihati bor, chunki har qanday nisbiy haqiqat ob'ektivligi sababli, unda doimiy bilim jihati bor. 1913 yilda XX asrning eng yirik fizigi Nils Bor o'zining mashhur *to'ldiruvchanlik* prinsipini ta'riflab berdi. Bu prinsipga ko'ra, haqiqatligi muayyan hodisalar guruhi uchun aniqlangan va tasdiqlangan bilim va nazariyalar yanada kengroq predmet sohasini qamrab olgan yangi, yanada chuqurroq bilim va nazariyalar paydo bo'lishi bilan mutlaqo noto'g'ri deb uloqtirib tashlanmaydi, balki nisbiy haqiqat sifatida bu yangi nazariyalarning chegaraviy shakli yoki xususiy holati sifatida saqlanib qoladi. Klassik mexanika bilan nisbiylik nazariyasi, moddalar ximik tuzilishining klassik va hozirgi zamon nazariyasi va ko'p boshqa nazariyalar o'zaro ana shunday munosabatda bo'ladi.

Absolyut haqiqatni absolyutlashtirish *dogmatizmga*, nisbiy haqiqatni absolyutlashtirish *relyativizmga* olib keladi. Relyativizm va dogmatizmning cheklanganligiga sabab ularda absolyut haqiqat bilan nisbiy haqiqat bir-biridan ajratib olinganligi va qarama-qarshi qilib qoyilganligidadir. Bizning bilimlarimiz ayni bir vaqtning o'zida ham absolyut, ham nisbiydir. Egallagan bilimlarimiz va tajribamiz asosida biz bilib olgan va tasvirlay oladigan narsa, sodir bo'lgan, inkor etib bo'lmaydigan narsa bizning bilimlarimizning absolyut jihatini tashkil etadi. Lekin, shu bilan birga, biz har bir bosqichda hamma narsani ham bilavermaymiz. Bizning

bilimlarimiz ayni bir vaqtning o'zida uzluksiz kengayib va chuqurlashib boradi. Shu ma'noda ular absolyut emas, balki nisbiydir, shu boisdan absolyut haqiqatning o'zi nisbiy haqiqatlar yig'indisidan tarkib topishini e'tirof etmoq kerak. Rivojlanishning har bir bosqichida bilimlarimizning chegaralari vaqtinchadir, lekin, bilimlarimiz tobora to'lib va chuqurlashib borgan sari biz absolyut haqiqatga yaqinlashib boramiz, ammo uni hech qachon to'la-to'kis egallay va tushunchada ifodalay olmaymiz, chunki tabiatning o'zi bilish ob'ekti sifatida kengligi jihatidan ham, chuqurligi jihatidan ham cheksizdir.

Bilimlarimizning haqiqat yoki yolg'onligini, ularning absolyutlik va nisbiylik darajasini konkret joy va vaqt sharoiti belgilab beradi. *Joy va vaqt* sharoiti almashinib, o'zgarib turadigan omil ekanligi sababli bir sharoitda haqiqat bo'lgan narsa o'zgargan sharoitda yangilish yoki yolg'on bo'lib chiqadi.

Joy va vaqt sharoitini har tomonlama hisobga olish talabi biluvchi sub'ektni dogmatik xatolardan ehtiyot qiladi. Joy va vaqt sharoitining o'zgarishi yetilgan vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashuvni zarur qilib qoyadi, zarur bo'lib qolganda o'rtaga qoyilgan maqsadga erishish taktikasi, metodi va usullarini o'zgartira bilishni taqozo etadi. Shu boisdan ham bilishning u yoki bu shakllari, metodlari va usullarini absolyutlashtirish mumkin emas, eskirgan xulosalar va formulalarni o'z vaqtida yangilari, o'zgargan sharoitga mos keladiganlari bilan almashtirish zarur, chunki ayni bir xil qonuniyatlar turli tarixiy sharoitda turli natijalarga olib keladi.

Agar haqiqatga jarayon deb qarab unga uning rivojlanishi nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, bu holda konkret haqiqatga abstrakt haqiqat qarama-qarshi qoyiladi. *Abstrakt haqiqat* bu to'liq bo'lmagan, rivojlanmagan, birtomonlama haqiqat, *konkret haqiqat* esa, aksincha, to'liq, rivojlangan, ko'ptomonlama haqiqat. Har qanday haqiqat, u bilish jarayonida rivojlanib borganligi sababli, abstraktlikni ham, konkretlikni ham o'z ichiga oladi. Haqiqat o'z rivojining keyingi bosqichiga nisbatan abstrakt va ilgarigi rivojlanish bosqichiga nisbatan konkretidir. Haqiqatga darhol erishib bo'lmaydi; unga erishish bilishning qiyin, ko'p bosqichli jarayonidir.

Intuitiv bilish. Insonning olamni bilish jarayoni uning sezgilari va ongi zo'r berib ishlashini talab qilibgina qolmasdan, uning uzluksiz qizg'in g'ayrishauriy faoliyat ko'rsatishini ham taqozo etadi. Insonning g'ayrishauriy bilish faoliyati intuitiv bilish nomini oldi, intuitsiyaning o'zi esa bu bilish ob'ektining muayyan sharoitda boshqacha yo'l bilan asoslab berish mumkin bo'lmagan xossalarni bevosita, g'ayrimantiqiy tarzda haqiqat deb bilishdir. *Intuitsiya* sezgi va aql harakatiga qarshi turmaydi, balki bilishning xissiy va ratsional jihatlari bilan birgalikda chiqib ularni to'ldiradi. Inson biron-bir hodisani g'ayrishauriy tarzda oldindan sezgan oddiy, kundalik hayotda ham, olim bilib olinmagan jabhada uzoq vaqt adashib toliqib yurganidan keyin to'satdan uning ko'z o'ngida *yorishish, insayt* sodir bo'lib, shu asnoda ilmiy kashfiyot yuzaga keladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham intuitsiyaning roli juda kattadir.

XVII asrda R.Dekart *intellektual intuitsiya* haqida ta'limot yaratadi. Dekartning fikricha, ilmiy bilish asosida yotgan boshlang'ich g'oyalarning haqiqatligi intuitiv tarzda anglab yetiladi, bilish sub'ektining aqli bilan bevosita aniqlab olinadi. Intuitiv bilimga o'z-o'zidan ravshanlik, aniqlik nisbat berilgan. Dekart intuitsiya inson aqlining tug'ma qobiliyati, intuitivlik bilan ratsionallik bir-biri bilan bog'lik, lekin intuitivlik birinchi o'rinda turadi va bilishning oliy shaklidir deb hisoblagan.

Intuitiv bilishning to'satdan, yorishish yo'li bilan paydo bo'lishi, natijaning aniqligi, uni mavjud ma'lumotlardan chiqarib bo'lmasligi, muammo yechimining to'g'riligiga ishonch va uni mantiqiy asoslash zarurligini tushunish xissi kabi o'ziga xos belgilarini qayd etmoq lozim.

Geometriyada intuitsionizmni asoslab bergan Puankarening fikricha, bilish jarayonida ijod qilish intuitsiyani, g'ayrishuuriy ishni albatta o'z ichiga oladi. Bilish quyidagi bosqichlardan tarkib topadi: birinchi urinishda joyali hech nimaga erishib bo'lmaydi, so'ngra ozdir-ko'pdir uzoqroq tanaffus boshlanadi, uning davomida g'ayrishuuriy ish qilinadi, shundan keyin ongli ishning yangi bosqichi boshlanadi, u ham natijasizdek tuyuladi, lekin to'satdan yorishish sodir bo'ladi, hal qiluvchi fikr tug'iladi, so'nggi zaruriy bosqich vazifaning olingan yechimini tekshirib ko'rish. G'ayrishuuriy intuitiv ish faqat undan oldin va undan keyin ongli ish bo'lgan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin. Puankare bilish natijalarini ularning aniq bo'lib tuyulishiga va intuitiv aniqligiga qaramay, albatta tekshirib ko'rish zarur deydi.

Intuitiv yorishish, tasmollab bilish tegishli muammoni hal qilishga olib kelgan yo'llarni insonning o'zi aniq anglamagan holda o'z-o'zidan, bexosdan, to'satdan amalga oshadi. Bunda turli kishilarda turli sharoitlarda intuitsiya ongdan turli darajada uzoqlashgan bo'ladi. Intuitsiya olingan natijaning mazmuni, harakteri, o'rganilayotgan hodisaning mohiyatiga qanchalik chuqur kirib borishi, sub'ekt uchun shaxsiy ahamiyati boyicha o'zining individual xususiyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga intuitsiya nafaqat hissiy bilishdan, nafaqat abstrakt mantiqiy bilishdan iborat. Unda bilishning shu ikkala jihati mavjud, lekin ular doirasidan tashqariga chiquvchi narsa ham borki, bu intuitsiyani shu shakllardan birontasiga ham mansub deb qarashga imkon bermaydi. Shuning uchun hozirgi zamon bilish nazariyasida intuitiv bilim hissiy bilishga ham, ratsional bilishga ham teng ahamiyatli bo'lgan o'rin egallaydi.

Qadimdan *goyibona bilish* haqida ham turli fikrlar mavjud. G'oyibona bilish inson bilishining shunday turiki, bunda kishi uzoq masofadan turib sodir bo'lgan yoki bo'ladigan hodisa va voqeani bilish, his qilish, bu hodisa va voqeaning qanday sodir bo'lishi unga ayon bo'ladi. Kishilar biron ishni qilmoqchi bo'lsalar, bu ishning natijasi haqida oldindan „shunday bo'lishi kerak, bunga men qat'iy ishonaman“, „shunday bo'ladi deb oylayman“ yoki „oldindan yuragim sezgandi“, „oyog'im tortmagandi“, „negadir ko'nglim g'ash“ degan fikr-mulohazalarni aytishadi. G'oyibona bilishning hozircha mexanizmi fanga ma'lum emas. Shu sababli, ko'pincha, g'oyibona bilishni kishilar ilohiylashtirib, bunday bilish faqat aziz-avliyolarga, alohida, g'ayritabiiy xususiyatlarga ega kishilarga xos, deb qarab kelishmoqda.

Inson bilishini ijtimoiy hodisalar bilan bog'lanishiga ko'ra: *mifologik, diniy, falsafiy, badiiy-estetik* bilishlarga ajratish ham mumkin, ular bilish sohalarining turli tomonlarini tashkil qiladi

Ilmiy bilish va uning usullari. Fanlar ilmiy bilishning shakllaridir. Fanlar borliq va uning turli ko'rinishlari: tabiat, jamiyat, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir. Ular insonning borliqni bilishi, o'rganishi va o'zlashtirishining o'ziga xos nazariy shakllari bo'lib, o'zlarida moddiy va ma'naviy omillarni birlashtiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy hodisalar.

Fanlarning predmeti, keng ma'noda, insonni qurshab turgan borliq va uning shakllaridir. Shu jihatdan fanlarni ularning predmetlariga ko'ra, shartli ravishda:

tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik va ularning o'rtasidagi *texnika fanlariga* bo'lish mumkin.

Tabiatshunoslik fanlari tabiatni bilish, o'zlashtirish va o'zgartirish qonunlarini o'rganadi.

Jamiyatshunoslik fanlari esa, ijtimoiy munosabatlarni, insonni va uning jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganadi.

Texnika fanlari bo'lsa, inson tomonidan ixtiro qilingan mashina va mexanizmlar, ularning tuzilishi, qurilishi va ish faoliyatining qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlardir. Texnik fanlarning vazifasi insonni texnika qurilmalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirib, yangi texnika vositalarini yaratishga yordam berishdan iboratdir.

Fanlarni yana amaliy va fundamental fanlarga ham bo'lishadi. Bunda ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, erishilgan har bir yangi natijasi ishlab chiqarishga bevosita tatbiq etilib boradigan fanlar *amaliy fanlar*, deyiladi. Fundamental fanlar esa tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fanlardir. Amaliy va fundamental fanlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, fundamental fanlar borliqning turli sohalari qonuniyatlarini ishlab chiqarishga joriyetib, ijtimoiy-amaliy masalalarni ham hal qilishga tatbiq etadi.

Tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik va texnika fanlaridan farqli, falsafa insonning borliq haqidagi eng umumiy bilimlari tizimidan iborat bo'lib, boshqa barcha fanlarga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Barcha fanlarning o'ziga xos tadqiqot usullari (metodlari) bor. Ularning metodologiyasi esa, barcha fanlarning yutuqlarini umumlashtirishdan kelib chiqqan falsafiy xulosalardir.

Ilmiy metodlar va metodologiya. Ma'lumki, har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchi obektni o'rganishga kirishar ekan, o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u predmet yoki hodisa ustida ma'lum davr ichida tinmay turli xil izlanish va tadqiqotlar olib borib, o'z tadqiqot jarayonida turli xil yo'llar, usullar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni kechiradi. Shundan keyingina o'zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma'lum yangi bilimlarni hosil qilishi mumkin.

Tadqiqotchining o'z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga erishish uchun qo'llaydigan turli xil usullari, yo'llari va vositalari ilmiy bilishning metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari tadqiqotchining tadqiqot obektini bilishi uchun qo'llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi: tadqiqotchiga o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiati va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarini ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqotning xarakteri va uning natijasida hosil bo'lgan yangi bilimlar tadqiqotchining o'z faoliyatida qanday metodlarni tanlaganiga, ulardan qanday foydalanganiga bog'liq. Tadqiqotchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodlar tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishiga olib keladi. Aksincha, noto'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri qo'llangan metodlar tadqiqotchini o'z izlanishlarida boshi

berk ko'chaga kiritib qoyib, tadqiqotining muvaffaqiyatsiz, samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy bilishda to'g'ri tanlangan metod shu metod yordamida qilingan ilmiy kashfiyotga nisbatan qimmatliroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday metod bilan tadqiqotchi bir emas, balki bir necha ilmiy kashfiyotlar qilishi mumkin.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganish falsafada metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy ta'limot sifatida o'zida kishilar dunyoqarashi prinsiplarini, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tadbiiq etishni o'rganadi.

Ular quyidagilar:

- Ilmiy bilishning eng umumiy metodlari.
- Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy metodlar.
- Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy metodlar.

Ilmiy bilishning eng umumiy ilmiy-metodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tadqiqotchilarning har qanday ongli amaliy va nazariy faoliyatida, hamma va har qanday ilmiy tadqiqot sohasida qo'llaniladi.

Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlari — bular ko'pchilik yoki bir guruh fan sohaslarida qo'llaniladigan, ilmiy bilishning 'empirik bosqichiga old bo'lgan metodlardir.

Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar esa, ilmiy tadqiqotlarning nazariy bosqichida qo'llanadigan metodlardir.

Ilmiy bilish ko'plab umumiy, xususiy va alohida konkret ilmiy metodlar yordamida vujudga keladi. Ilmiy bilishda metodlarning xilmaxil va ko'p bo'lishi insonning dunyoni bilib olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uni chuqurroq bilishga imkon beradi.

Hozirgi zamon fanlarida ilmiy bilishning quyidagi metodlari mavjud: *kuzatish* va *eksperiment*, *analiz* va *sintez*, *induksiya* va *deduksiya*, *umumlashtirish*, *abstraktlashtirish* va *konkretlashtirish*, *tarixiylik* va *mantiqiylik*, *ideallashtirish*, *modellash* va shu kabilar. Ilmiy bilishning bu metodlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo'llanishi, o'zlarining tabiati va xarakterlari bilan bir-birlaridan farq qiladi.

Analiz — bir butunni qismlarga, bo'laklarga, tomonlarga, elementlarga ajratib, ularning har bin nima, qanday vazifani bajarishini bilishdir. Analiz usuli natijasida butunni tashkil etgan qismlar, tomonlar, bo'laklar, elementlar, ularning butun tarkibidagi o'rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va hodisalarning strukturasi, tuzilishi bilinadi.

Sintez — analiz tufayli ajratilgan bo'laklar, tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro biriktirib, ularni bir butun holiga keltirishdir.

Sintez orqali tadqiqotchi butunning bo'laklari, qismlari, tomonlari, elementlari o'rtasidagi va ularning butun bilan bo'lgan aloqa va bog'lanishlarini bilib oladi.

Analiz bilan sintez bilish jarayonidagi bir moddiy yoki mantiqiy amalning ikki tomonidir, ularni bir-biridan ajratib qo'llab bo'lmaydi, chunki tabiatda va jamiyatda hamma jarayonlar ko'p tomonlamadir.

Tadqiqotchi o'rganayotgan predmet yoki hodisalar ustida olib borgan kuzatish va eksperimentlar, analiz va sintezlar asosida hosil bo'lgan empirik faktlar va ma'lumotlarni o'z tafakkurida umumlashtiradi, abstraktlashtiradi va

konkretlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlarini tashkil etadi.

Ilmiy bilishning asosiy shakllari. Tadqiqotchi o'zi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalarni o'rganishda, bilishning turli ilmiy metodlaridan foydalanishi asosida ma'lum yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar o'zlarining paydo bo'lishidan to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari — fanlarga kirib kelishigacha, har xil ko'rinishlarda bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo'lgan yangi bilimlarning rivojlanishidagi bu bosqichlar *ilmiy bilishning shakllari* deyiladi. Ilmiy bilish shakllarining asosiylarini: *ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariya va ilmiy oldindan ko'rishlar* tashkil qiladi.

Ilmiy g'oya — ilmiy bilishning birinchi shaklidir. G'oya — tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. G'oya o'z tabiatiga ko'ra — fikrdir, u tadqiqotchi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyati asosida paydo bo'lib, borliqning to'g'ri yoki xato in'ikosidir.

Ilmiy bilishda g'oya muhim rol oynaydi. Aniq g'oya tug'ilmaguncha, biror sohada tadqiqot olib borish mumkin emas. Har bir g'oya ma'lum tayyorgarlik, mushohada asosida, muayyan sohada fikr yuritish natijasida paydo bo'lib, unda tadqiqotchining amaliy va nazariy tajribalari umumlashgan bo'ladi.

Muammo — ilmiy bilishning hali bilib olinmagan va hal qilinmagan, lekin bilinishi va hal qilinishi lozim bo'lgan bilim shaklidir.

Muammo, odatda, tadqiqotchining biror bilish obektiga oid yangi dalillarni to'plagan, lekin bu dalillarni mavjud bilimlari bilan izohlashi mumkin bo'lmaganda, bu dalillar eski bilimlar tizimiga sig'may, o'zlarining yangicha bayonini talab qila boshlaganda tug'iladi. Muammoning tug'ilishi va qoyilishi ilmiy bilish jarayonining eng muhim momentlaridan biridir. Muammoni aniqlash — ilmiy bilishda ishning yarmini hal qilish demakdir.

Kundalik hayotda muammoni, ko'pincha, savol yoki biror masala bilan aralashtirib qo'llashadi. Ilmiy bilishning shakli sifatida, muammo savol va masaladan farq qiyadi. Xususan, savolga javob berish yoki masalani yechish doimo oldingi bilim asosida amalga oshadi. Muammoni esa oldingi hosil qilingan bilimlar doirasida turib hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun yangi dalillar, ma'lumotlar to'plash, ularni yangicha izohlash, shu paytgacha mavjud bo'lgan eski bilim doirasidan chiqish talab qilinadi.

Muammolar ham g'oyalar kabi, haqiqiy va soxta (yolg'on) muammolardan iborat bo'ladi. Haqiqiy muammolar ilmiy dalil va fanlarning qonunlaridan kelib chiqsa, soxta muammolar ilmiy dalillar va fan qonunlariga zid keladi.

Ilmiy bilish jarayonida muammolarni hal qilishda ko'plab gipoteza (faraz)larning paydo bo'lishi mumkin.

Gipoteza — tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy dalil va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Ilmiy bilish jarayonida vujudga kelgan gipotezalar bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga zid, bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi gipotezalar bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ilmiy bilishning rivojlanishi — gipotezalarning paydo bo'lishi, ularning isbotlanishi yoki rad qilinishi va yana yangi gipotezalarning paydo bo'lishi asosida sodir bo'ladi.

Nazariya — ilmiy bilishning eng yuqori shaklidir.

Nazariya deyilganda haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid g'oyalari, qarashlar, qonunlar va prinsiplarning muayyan tizimi tushuniladi. Nazariya fan sohasiga oid bo'lib, ma'lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo'ladi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi amaliyot bergan yangi dalillarni izohlash, o'rganilayotgan predmet yoki hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirish, roy beradigan voqea va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iboratdir.

Har qanday nazariya ma'lum sohadagi ilmiy bilimlarning so'nggi natijasi, lekin uni hech qachon tugallangan, o'zgarmas, absolut bilim, deb qaramaslik kerak. Chunki, har bir nazariya faqat u yoki bu gipotezaning akti asosidagi isboti bo'lmay, balki uzluksiz o'rin almashib, chinligi aniqlanib boruvchi juda ko'p va cheksiz gipotezalarning natijasidir. Shu sababli nazariya ham doimo rivojlanib borib, uning mazmuni *mutlaq* va *nisbiy* haqiqatlarning birligidan iborat bo'ladi.

Insonning kundalik amaliy faoliyati hamisha ma'lum rejaga, mo'ljalga asoslangani kabi, tadqiqotchining ilmiy izlanish va tadqiqotlari ham doimo ilmiy bashorat bilan bog'liq bo'ladi.

Bashorat — insonning kelgusida tabiat va jamiyatda nimalar sodir bo'lishi, qanday hodisa va voqealar yuz berishini bilishi bo'lib, inson miyasining borliq voqea va hodisalar istiqbolini oldindan aks ettirish qobiliyati bilan bog'liq jarayondir. Inson biror faoliyatini boshlar ekan, buni qanday qilib amalga oshirish, qay tarzda va qanday tartibda qilish kerakligi ustida fikrlaydi. Shu asosda o'z faoliyatining qanday natijalarga olib kelishini fikran belgilab oladi. Inson doimo o'zining oldin orttirgan bilimlariga, tajriba, ko'nikma va malakalariga tayanadi. Shular asosida oldindan ko'rish sodir bo'ladi.

Ilmiy bashorat — tadqiqotchi yoki olimning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti qonunlariga asoslanib, kelgusida yuz beradigan hodisa, voqea yoki jarayonni oldindan aytishidir.

Ijtimoiy bilish — jamiyatdagi, ijtimoiy hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanish qonunlarini bilishdir. Ijtimoiy bilish kengma'noda, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongning in'ikosidir. Ijtimoiy bilish jamiyat paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lgan va uning o'zgarib, rivojlanib borishi bilan ham rivojlanib borgan.

Ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat, i tabiatni bilishdan nima bilan farq qiladi? Tabiatni bilish qulaymi yoki jamiyatni bilish o'ng'aymi. Albatta, tabiatni bilish jamiyatni bilishdan ancha oson. Chunki, tabiat bilishga qarshilik qilmaydi. Shuning uchun oldin tabiiy fanlar paydo bo'lganligini hamma biladi.

Ijtimoiy bilish insonning ijtimoiy borliqni ma'lum maqsad asosida o'zlashtirilishidir. U tabiatni bilishdan farqli o'laroq, faqat jamiyatdagi moddiy ijtimoiy faoliyat va munosabat qonuniyatlarini bilishdan iborat bo'lmasdan, ma'naviy, mafkuraviy faoliyatlar va munosabatlarni, ularning qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Shu asosda ijtimoiy bilishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

Tabiatni bilishda inson faqat bilishning subekti bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni bilishda esa inson ham, obekt ham subektdir. Inson o'z tarixini yaratadi va uni biladigan ham o'zi.

Jamiyatni bilishda inson manfaatlari rol oynaganligi uchun biluvchi subektning xohish-irodasi katta ahamiyatga ega. Binobarin, ijtimoiy bilishda tasodiflarning roli ham ortib ketadi. Ijtimoiy harakat tepasida kim turgani, u qanday shaxs ekanligining xarakteriga, katta ta'sir qiladi.

Ijtimoiy bilishda subektning, subektiv omilning roli juda katta. Chunki, qarama-qarshi maqsad, intilish va boshqalar belgilovchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun dalillar, voqealarga baho berganda alohida olingan shaxs faoliyatini emas, balki sinflarning, ijtimoiy guruhlarning manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqmoq zarur.

Bu ma'noda ijtimoiy bilish o'z ichiga falsafaning faqat gnoseologik, mantiqiy vazifasinigina emas, balki dunyoqarash vazifasini ham qamrab oladi.

1. Ijtimoiy bilishda subektning ruhiy holati, ehtirosi, kayfiyat, dunyoqarashi, tarbiyasi, ma'lumoti ham katta rol oynaydi. Moddiy hayot sharoitlari, moddiy ishlab chiqarishning qanday rivojlanganligi ham bu yerda muhim ahamiyatga ega.

2. Tabiatni bilishda faqat moddiy munosabatlar tekshiriladi. Jamiyatni bilishda esa, moddiy munosabatlar bilan bir qatorda ma'naviy, mafkuraviy munosabatlar ham bilishning obekti bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, hech bir inson o'zini yomon demaganidek, hech qaysi jamiyat ham o'zini yomonlamaydi.

3. Ijtimoiy fanlar tabiiy fanlardan keyin kelib chiqqan, dedik. Buning sababi shundaki, ijtimoiy voqealar juda murakkab va chigal jarayon bo'lib, uning qonuniyatlarini ochish ancha qiyin. Buning uchun jamiyat taraqqiyoti ham ma'lum bosqichgacha rivojlanib, uning qonuniy tartibotlari aniqroq namoyon bo'lishi kerak edi.

4. Tabiatshunos olim o'zi tekshirayotgan narsani amalda sinab, tekshirib ko'rish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy bilishda bunday imkoniyat yo'q darajada, tarixchi olim bunday imkoniyatga ega emas.

Yuqoridagi xususiyatlar asosida ijtimoiy bilish uchun narsa va hodisalarni bir-biri bilan aloqador va bog'lanishda olib tekshirib, tarixiylik tamoyiliga amal qilish, haqiqatning konkretligidan kelib chiqib ish yuritish muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy bilish — insonning ijtimoiy borliqni ma'lum maqsad asosida o'zlashtirishidir. U, tabiatni bilishdan farqli o'laroq, faqat jamiyatdagi moddiy, ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlarni hamda ularning qonunlarini bilishdan iborat bo'lmasdan, ma'naviy, mafkuraviy va munosabat qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy bilish, shu bilan birga, insonning o'zini ham, uning tabiati va jamiyatdagi o'rnini, taqdiri, hayotining ma'nosi va mazmunini bilishdan ham iboratdir.

Ijtimoiy bilishning har bir yangi bosqichi oldingi avlodlarning amaliy tajribalari va nazariy bilimlariga tayangan holda yuzaga keladi. Ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradigan asosiy omillardan biri — ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlardir. Har qanday ijtimoiy bilish jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari bilan, kishilarning moddiy va ma'naviy manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi.

Bilish va o'z-o'zini anglash. Inson voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini boshqarishdek qobiliyatga ham ega. O'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish

mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga — subektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o'zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat'i nazar alohida va betakror «Men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o'zining imkoniyatlarini o'zi baholashga o'rganib boradi. Aynan mana shu davrda to'g'ri yo'lga qoyilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta'sirida bolada o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida u mansub bo'lgan madaniyat, turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta'sirlar mavjudligi shaxsning o'z-o'zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta'minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagina ijtimoiy muammo shaxs hayotini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta'sirlar domiga tortishi mumkin. Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib borayotgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

Bilish va axborot. Keyingi yillarda «Axborot», «Axborotlashgan jamiyat», «Informatsion portlash» tushunchalari tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch-qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. Asrimizning o'rtasida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operatsiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo'sh, bularning inson ongi, bilishi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, kompyuterlar ham inson tafakkuriga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Ammo ular qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo'nalishlardagi aqliy faoliyati ni yengillashtirishga xizmat qiladi va o'zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo'la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o'n yilda, informatsiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o'zlashtira oladimi, degan savol ko'ndalang bo'lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bolmagan yaqin o'tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o'zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo'nalishlari boyicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, inson

eng yangi adabiyotlarni o'rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o'qigan betiga o'n ming o'qilmagan sahifa to'g'ri kelar ekan.

Umumlashtirib aytganimizda, bilishning mohiyatini tushunish, u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, bilish mohiyatini anglash insonning o'zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma'no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo'l ochadi. Bu bilish va u bilan bog'liq masalalar har bir inson hayotida nihoyatda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI. «Jamiyat» tushunchasining mazmun-mohiyati. Insoniyat azalazaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushiga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi. Har bir jamiyatning o'z qiyofasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari mavjud bolishi tarixiy zaruratdir. Muayyan jamiyat hayotiga xos bo'lgan yashash va taraqqiy etish sohalarining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu masalani o'rganish ayniqsa dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar roy berayotgani hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa, muhim rol oynaydi. Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa, muayyan hodisalarning sabablari nimada, degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qoymasa-da, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritir ekan, falsafa shunga asoslanib, muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi. Madaniy-tarixiy tiplar g'oyasi. XIX asrda madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi vujudga kelgan bo'lsa-da, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy tarixiy tiplarga ajratadi. Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) er yuzidagi jami insonlarni qamrab

oluvchi yirik jamiyat, b) Erning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat. Forobiy fikricha, «Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar».

Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan Yunon faylasuflaridan ilgari ketadi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

- u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;

- u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;

- unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'sunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;

- mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;

- uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;

- individlar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;

- bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;

- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;

- hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan. Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi.

Kishilarning rang-barang manfaatlari, ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali royobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning hisobini yuritish ancha qiyin ish. Chunonchi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, AQShda yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi. XIX asr fransuz sotsiologi A.De Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritarkan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar.

Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir. Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar.

Fuqarolik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagicha ta'rif beradi: "Fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada royobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qoyilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'sunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, birbirini to'ldiradi va birbirini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noevropacha sivilizatsiyalar ancha kata guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda, umumiy tipologik jihatlariga ega. Bular yevropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noyevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noyevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi siklliligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat haloqati sivilizatsiya tipini

o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avlodan-avlodga o'tadi. Yevropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipii bo'lib, u Evropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning o'tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va Yevropa xristiancha an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalikalohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:

- ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);
- qishloq xojalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;
- industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;
- hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.

Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. «Madaniyat» atamasi arabcha «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar», degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush, deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa, O'rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan. Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. Shu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalarini: vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan. Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida, jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qoyish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga boysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo, madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Madaniy faoliyat. Madaniyat inson dunyosi, faqat unga xos faoliyat usuli bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida odamzod o'zi yaratayotgan narsalarga ruh baxsh etadi, tabiatni, o'zi yashaydigan muhitni insoniylashtiradi. Madaniy faoliyat ongli va qadriyatlarga qaratilgandir. Unda meyorlarga rioya qilish va ularda nisbatan mustaqillik, maqsadga muvofiqlik va nouutilitarlik o'zining uyg'un ifodasini topadi. Madaniy faoliyat umuminsoniy ideallar va qadriyatlarni etnik yoki mintaqaviy shaklda aks ettiradi. Madaniyat jabhasida inson faoliyati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. Ortiqchalik tushunchasi, madaniyat hodisalarida, ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezoni bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsada, ular madaniyatda o'zining variativ ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyat funksiyalari. Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. U insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi.

Madaniyat normativ funksiyani ham bajaradi: u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etadi, shuningdek, o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi.

Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljalarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan meyorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan meyorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning yana bir muhim funksiyasi insonni kamol toptirish hisoblanadi: individ madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanadi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. Madaniyat qadriyatlari mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu erda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu, jamiyatning, u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning, jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'rnini, faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy

jarayon doirasida o'rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin. Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo'lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi; jahon tarixi qaysi yo'nalishda harakatlanadi; tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «Tarix falsafasi» degan nom olgan bo'limi javob beradi.

I.A.Karimov (1938-2016) tarix falsafasini tarixiy xotira bilan uyg'un holda ko'radi. Uning fikricha, «Inson uchun tarixidan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir». Fikrining davomida u tarixiy xotirasi bor inson irodali inson, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, deb ta'kidlaydi. Buning uchun har bir millat o'zining tarixiy ildizlariga nazar solishi, u yoki bu mafkura ta'sirida xash-po'shlangan tarixiy xotirani o'z holicha, qayta tiklashga harakat qilishi lozim. «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q». Shundagina millat, xalq o'z-o'zini angelaydi. Tarixchilar millatga uning haqqoniy tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan, tarix xalq ma'naviyatining asosidir.

Hozirgi zamon tarix falsafasida, tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. Ularga batafsilroq to'xtalamiz.

Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar olinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limotni Karl Marks o'zining «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida ilgari surgan. Marks nazariyasining mohiyatini, uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo'lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o'rtasida o'rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma'naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro aloqasida moddiy munosabatlar etakchi rol oynaydi. Ularning o'zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo'lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o'rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma'naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko'pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko'p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham mumkinligi (ya'ni, har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan.

Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va

o'zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan.

Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv o'zini oqlamadi. Bunda tarixiy rivojlanish jarayonini tushuntirishga nisbatan Marksning yondashuvi emas, balki uni dog mag'a aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi. Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarni qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq boylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

Shunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo'lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan o'zgacha, nochiziq yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir.

Falsafani tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv XIX-XX asrlarda vujudga kelgan. U, asosan, ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu erda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri, tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va birbiri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Jahon tarixining mazmunini, Danilevskiy o'zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o'z-o'zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat, deb bilgan. Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta'riflagan: 1) bir tilda yoki o'xshash tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari

madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi, ularning ravnaq topish davri esa, qisqadir; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Danilevskiyning qarashlarini nemis mutafakkiri Osvald Shpengler (1880-1936) rivojlantirgan. U ham ijtimoiy taraqqiyotning bir chizikli evroposentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. Shpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgarmas va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Evropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab etishdan iborat, deb hisoblaydi. Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori, ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889— 1975)dir. U Danilevskiy va Shpenglarning tarixning siklliligi haqidagi fikr-mulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan (dastlab, u, 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa, ularni 13 tagacha qisqartirgan). Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyusion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi. Toynbi, bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash, deb hisoblab, shunga asoslangan holda, yaqin kelajakda, dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi, ijtimoiy rivojlanish takroriyligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyusiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa, jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa, statik, deb e'tirof etadi; 2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalaridan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv «monadaga doir yondashuv», degan nom olgan. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning

ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa, ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qoyish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va royobga chiqariladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi.

Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davridayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham, Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumi, Leonardo da Vinchi ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa, eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, «yaxshi xulqlar» muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi «yomon xulqlar»ni farqlaydi. Keyinroq, XX asrda, o'zbek faylasufi S.Shermuxeimedov Avloniy g'oyasini davom ettirib, insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishini, inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etadi.

XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. «axios» «qadriyat», «logos» «fan», «ta'limot») atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik, aksiologiya muammolari fenomenologiya,

germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Xo'sh aksiologiya nimani o'rganadi? Aksiologiya falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. «axios» «qadriyatlar», «logos» «bilim» qadriyatlar haqidagi fan). Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab etish imkonini beradi.

Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlarning mavjudligi fuqarolar, ijtimoiy birliklar va guruhlarining tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar muammosi jamiyat rivojlanishining o'tish davrlarida, tub ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimlarida o'zgarishlar yasab, odamlarni yo'zlari ko'nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar va mo'ljallarni yo'qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimidan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi. Qadriyatlar madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. Shu sababli, qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o'zaro munosabati qanday, qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamshumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarning bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi. Aksiologiya ta'limotiga ko'ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagilar bu nazariyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba, hayotning mazmuni, baht, hurmat va hokazo. «qadriyat» tushunchasining falsafiy mazmuni nimada? Qadriyat mohiyati va tabiatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir va ob'ekt-sub'ektki xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning o'zi behudadir. Zero, narsalar, voqealar, ularning inson bilan, sotsium hayoti bilan aloqasisiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniylik tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki, hatto ko'p sonli tabiat ob'ektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera Erda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

2. Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni shu maqsadga erishishga bag'ishlanadi. Maqsad individga

o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin bo'lgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri. Shunday qilib, individ o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasiga avval-boshdanoq qadriyat sifatida qaraydi. Shu sababli, inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o'ziga ham o'zi uchun muhim, qadrlil bo'lgan jarayon sifatida yondashadi.

Albatta, insonning har qanday faoliyati va uning har qanday natijalari emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy ehtiyojlarga va odamlarning manfaatlariga mos keladigan faoliyat va natijalargina qadriyatlarga aylanadi. Qadriyatlar qatoriga narsalargina emas, balki g'oyalar, munosabatlar, faoliyat usullari ham kiradi. Biz moddiy ne'matlarni ham, insoniy xatti-harakatlar ezguligini ham, davlat qonunlarining odionaligini ham, olamning go'zalligini ham, aqlning ulug'vorligini ham qadrlaymiz.

3. «Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. Shuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasalliklar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan.

Qadriyat tushunchasining yuqorida keltirilgan umumiy tavsifidan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin: «Qadriyat bu borliq rang-barang elementlarining ob'ektiv ahamiyati bo'lib, ularning mazmuni jamiyat sub'ektlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan belgilanadi».

Baholash. Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha «baholash» ham kiradi. Baholash buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab etish vositasi. Baholash sub'ektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo'ljall olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va albatta, faoliyat ko'rinishida royobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko'rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab etish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo'sh, bu farq nimalarda ko'rinadi?

Birinchiidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya'ni baholash predmeti bo'lsa, baholash bu baho berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo'lib, uning natijasi o'laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchiidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o'laroq («salbiy qadriyatlar» bo'lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb, topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb,

baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb, qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa, sub'ektivdir. U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni shu sababli, ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Ehtiyojlar va qadriyatlar. Insonga nima muhim? Muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniymi? Inson faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini, xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqalar va munosabatlarning butun rangbarangligi tegishli ehtiyojlarni u yoki bu tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoinki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo, har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga da'vat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta oylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. Shaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni royobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezonini, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi. Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va bir-birining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari aktuallasadi, ba'zilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero, ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi va differentsiatsiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z meyorlari va qadriyatlari bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi bularning barchasi uning ehtiyojlari o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi. Garchi, qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark Shagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va shu kabilar. Ayni hol shu bilan izohlanadiki, ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. Shu sababli amalda muhim

hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa, yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar bu o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o'zi qandayligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qoyilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, O'rta asrlarda feodal o'z krepostnoyini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o'ldirish u yoki bu tarzda jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Har bir shaxs hayotda ma'lum bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi. Biroq uning maqsadi ma'no va mazmuni jihatdan har xil bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar ierarxiyasi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari bilan belgilangani bois, ular murakkab tuzilishga va alohida ierarxiyaga ega bo'ladi. Qadriyatlar ierarxiyasi zamirida tirik mavjudot sifatidagi inson hayoti uchun zarur bo'lgan fundamental qadriyatlar (tabiiy boyliklar, moddiy yashash sharoitlari turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari, sog'liqni saqlash va sh.k.) va insonning ijtimoiy mohiyatiga, uning ma'naviy tabiatiga bog'liq bo'lgan oliy qadriyatlar yotadi. Birinchi guruhga moddiy (utilitar) qadriyatlar, ikkinchi guruhga esa ma'naviy qadriyatlar kiradi. qadriyatlarning birinchi guruhi insondan tashqarida yotuvchi maqsad bilan belgilanadi, ikkinchi guruh ichki asosga ega. Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero, narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, shu vazifa bilan belgilanadi. O'z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o'laroq, ma'naviy qadriyat o'ziga to'q xususiyat kasb etadi va o'zidan tashqarida yotuvchi

motivlarga muhtoj bo'lmaydi. Utilitar pragmatik qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Shunga mos ravishda shaxsning ma'naviy dunyosi ham o'z ierarxiyasiga ega bo'ladi. Inson ma'naviyati uchta: ma'rifiy, axloqiy va estetik asoslarni o'z ichiga oladi. Ularga ma'naviy ijodkorlarning uch tipi: donishmand (biluvchi), taqvodor (avliyo) va san'atkor mos keladi. Bu asoslarning o'zagi ma'naviyatdir. Bilim bizga haqiqatning tagiga etish uchun imkoniyat yaratib, to'g'ri yo'l ko'rsatsa, axloqiy va estetik asos insonning o'z egoistik «Meni» chegarasidan chetga chiqib, ezigulik urug'ini sochish qobiliyati va ehtiyojini nazarda tutadi. Ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nouutilitar va noinstrumental xususiyat kasb etadi: ular boshqa biror narsaga xizmat qilmaydi, aksincha, boshqa barcha narsalar ularga boysunadi va oliy qadriyatlar bilan bog'liq holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Oliy qadriyatlarning yana bir xususiyati shundan iboratki, ular muayyan xalq madaniyatining o'zagi hisoblanadi. Madaniyatda odamlarning fundamental umuminsoniy qadriyatlari: tinchlik, salomatlik va insoniyat hayoti mujassamlashadi. Madaniyatda muloqot qadriyatlari (do'stlik, mehribonlik, ishonch, oila), turmush tarzi qadriyatlari (ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari va shu kabilar haqidagi tasavvurlar) o'z ifodasini topadi. Oliy qadriyatlar yo'l tanlash vaziyatlarining cheksiz to'plamida royobga chiqadi.

Shunday qilib, qadriyatlar tushunchasi shaxsning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq. Aql-idrok, oqilonalik, bilimlar insonning maqsadga muvofiq faoliyatini belgilovchi ongning eng muhim elementlari hisoblansa, ular negizida shakllanuvchi ma'naviyat o'z hayot yo'lini, o'z faoliyatining maqsadlari va mazmuni hamda ularga erishish vositalarini tanlash to'g'risidagi masalani u yoki bu tarzda echayotgan inson hayotining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar qatoriga kiradi.

Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Bugun bizning bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan, qonun ustuvorligiga tayangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishdir. Undagi «erkinlik», «demokratiya», «qonun ustuvorligi» so'zlariga e'tibor qaratish kerak. Bu tushunchalar O'zbekiston qurayotgan jamiyatning qanday umuminsoniy tamoyillarga, qadriyatlarga asoslanishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'i nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik davlatlar kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining falsafiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu — xalqimizning asriy an'alariga, insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda rivojlangan davlatlar tajribalaridan shunchaki nusxa ko'chirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'lni izchil davom ettirishni anglatadi. Bu jamiyat hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurishni erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'p partiyaviylikni qaror toptirishni bildiradi. Bu mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqei oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonlarining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'ramiz. Konstitutsiya o'ziga xos falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlari, tamoyillari, inson huquq va erkinliklari o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki O'zbekistonni mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Mustaqillik tufayli dunyoga eshik ochish, jahon maydoniga, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga sobitqadamlik bilan kirib borish, o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy, savdo va boshqa sohalarda qizg'in hamkorlikni yo'lga qo'yish, O'zbekistonni, uning boy o'tmishini, madaniyatini, hozirgi kunini va bu yerda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonini dunyoga tanitish imkoniyatlari ochildi.

Bugungi kunda yurtimizda yashayotgan va bizga zamondosh bo'lgan kishilar hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni mustaqil O'zbekistonimizning milliy istiqboliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini barqaror qilish, bu tizimda qadriyat shakllarining dialektik uyg'unligiga erishish, inson qadri, qobiliyati, iste'dodini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish borasidagi dolzarb vazifalar hozirgi avlod umrining mazmuniga aylandi.

FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar, katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti, deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar.

Inson muammosi falsafaning azaliy mavzularidan biridir. Odamzotining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o'rni, insoniy fazilatlari, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida turgan. Fan sohasida odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o'rganish hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, ijtimoiy, ma'naviy qiyofasi bilan bog'liq jihatlari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o'zi va o'ziga o'xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, qadri, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq muammolar azalazaldan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obekti bo'lib kelmoqda.

Inson avvalo tiriklikning eng oliy mo'jizasi, boshqa jonzotlardan ajralib turuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida, tabiiy-tarixiy qadriyatdir.

Insonni ontologiya grekcha — borliq, nazariya, ta'limot va antropologiya grekcha — inson, ta'limot nuqtayi nazaridan, ya'ni insonni borliqning bir qismi sifatida talqin qilish ontologiya va uni vujudga kelishi, ijtimoiy xususiyatlarining shakllanishi bilan bog'liq tadqiqotlar (antropologiya) hamon davom etmoqda. Inson — tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sifatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatdagi asosiy qadriyatdir. Shu bilan birga u olamga ijtimoiy munosabatda bo'lish, odamlar bilan muomala va aloqaga kirishish, mehnat qilish asosida moddiy va madaniy boyliklarni vujudga keltirish, tafakkuri, his-tuyg'ulari, fikrlarini tili vositasida ifodalash kabi xususiyatlarga ega bo'lgan umumijtimoiy vujud hamdir.

Inson jamiyatsiz yashayolmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bolmaydi. Nag qanday jamiyat o'zini tashkil qilib turgan kishilar faoliyati, o'zaro munosabati va umrguzaronligi bilan tirikdir. Shu ma'noda inson — har qanday jamiyat bor bo'lishini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy elementdir. Bunday ta'minlab turish insonni individual — shaxsiy ishtiroki orqali, ya'ni biror guruh, qatlam, sinf, qavm, elat, xalq yoki millat doirasidagi faoliyati, oila va turmushdagi xatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, yaratgan boyliklari, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Insonning kelib chiqishi eng murakkab va jumboqli fenomenlardan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan boshlab ushbu fenomenni tushuntirishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki paradigma mavjud: insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va tabiiy tarixiy evolyusiya g'oyasi.

Yaratish nazariyasi. Ibtidoiy miflarda odamlarning kelib chiqishi ko'pincha mifik qahramonlarning transformatsiyasi, totem ajdodlar, butun mavjudot yaratilgan mifik davrdagi personajlarning transformatsiyasi natijasi yoki ularning ijod mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Ayrim miflarda odamlarning paydo bo'lishi tasodifiy xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarida demiurglar totem ajdodlarning ongli ishi sifatida aks ettiriladi.

Yangi Gvineyadagi papuaslarning tangu qabilasi miflarida afsonaviy qahramon odamlarni qapqonga ilingan to'ng'izlarning maydalangan bo'laklaridan yaratadi. Tasmaniyaliklarning tasavvurlariga ko'ra dastlabki odamlar Mopxerni nomli mifik mavjudot tomonidan dumli, bo'g'insiz oyoqlarga ega bo'lgan hayvon qiyofasida yaratilgan. Keyinchalik boshqa bir afsonaviy mavjudot Drumerdim ularning dumlarini kesib tashlagan va yog'lar yordamida tizzalarini bo'qiladigan qilgan. Avstraliya aborijenlari va Yangi Gvineyadagi papuaslarning marind-anim qabilasining afsonalariga ko'ra odamlar dastlab yarim odam, yarim hayvon qiyofasida, ko'zlsiz va og'izsiz, oyoq-qo'llarining uchlari yopishgan holda mavjud bo'lgan. Demiurglar pichoqlar yordamida ularni hozirgi holatga keltirganlar.

Ancha keyinroq paydo bo'lgan miflarda birinchi odamning paydo bo'lishi xudolar tomonidan yaratilish g'oyasi bilan bog'lanadi. Jahon dinlarida mavjud bo'lgan yaratilish aktining barcha tasvirlari o'z ildizlariga ko'ra aynan mifologiyaga borib taqaladi. Masalan, jahon dinlarida keng tarqalgan insonning xudo tomonidan loydan yaratilganligi haqidagi tasavurning mifologik ildizlarga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Vavilonda yaratilgan poema "Enum Elish"da tasvirlanishicha dastlabki odam tartib xudolari va tartibsizlik (xaos) xudolari o'rtasida bo'lib o'tgan urushdan so'ng loy va qondan paydo bo'lgan. Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida Xnum degan xudo odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasalganligi aytili. Ayolning erkak kishining qovurg'asidan yasalganligi motivi Mesopotamiyada yaratilgan miflarga borib taqaladi. Insonning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi paradigma har doim *diniy e'tiqodlar* va ishonchlarga asoslangan. Fan antropogenez jarayonini yoritib bera boshlashi va dindan bu sohani tortib olishi munosabati bilan *kreatsianizm* o'z mavqeini mustahkamlay boshladi. Bu hol tegishli institularning yaratilishi, ilmiy anjumanlar o'tkazilishi, kreasinistik adabiyotlar va filmlarning paydo bo'lishida o'z aksini topdi.

Hozirgi zamon kreatsianizmi quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

Birinchidan, bu odamning azaldan mavjud bo'lganligi g'oyasidir va u odamning eng qadimgi davrlarga oid qazib topilgan hayvonlar (masalan, dinovavrlar) bilan bir

paytda mavjud bo'lganligini isbotlovchi dalillarni qidirib topishda ifodalangan. XX asr 60-80 yillarda Texasdagi Palluks daryosi havzasida topilgan 120 million yil ilgari qoldirilgan bir izni ana shunday dalillardan (insonning eng qadimgi davrdagi izi) biri sifatida ko'rsatishga urinishlar bo'lgan edi. Ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, u qadimgi kaltakesakning izi ekan.

Ikkinchidan, bu insonning va qazilmalar orqali topilgan primatlarning tadrijiy taraqqiyotida qandaydir oraliq bo'g'inlar bo'lganligini inkor etishdan iborat. Kreatsianistlarning fikricha, qazilmalar chog'ida topilgan barcha suyaklarni yoki odamniki, yohud maymunniki sifatida tasnif qilish lozim. Boshqacha qilib aytganda xudo hamma turlarni ular qanday bo'lsa shunday yaratgan va odam ham avval boshdanoq odam bo'lgan. Biroq, fanga ma'lum barcha qazilmalar chog'ida topilgan gominidlar bunday bir xillikka ega emas, chunki ularda maymunlarga xos xususiyatlar bilan odamga xos xususiyatlar birlashib ketgan.

Uchinchidan, bu yetarli ma'lumotlar bo'lmaganligi uchun gipoteza sifatida qaraluvchi antropogenezga oid bir qator nazariyalarning tanqid qilinishidir.

Kreatsianizm bugungi kunda ham keng tarqalgan. Bir qator mamlakat(davlat)larda insonning kelib chiqishi haqidagi kreatsianistik va evolyusion qarashlarni maktablarda o'qitish masalasida keskin kurash bormoqda. 1925 yilda (AQShning) Tennesi shtatidagi Dayton shahrida o'qituvchi Djon Skops ustidan o'tkazilgan sud bugungi kunda barchaga ma'lum. U o'quvchilarga Darvin nazariyasi va uning odamning maymundan kelib chiqqanligi haqidagi gipotezasi xususida so'zlab bergan edi. 1986 yilda esa Mobayla shahri sudi Alabama shtatining ta'lim boshqarmasiga qarshi da'vo bilan ish qo'zg'adi. Bunga ta'lim boshqarmasining «dinga va xudoga qarshi mazmundagi 45 darslikdan o'rta maktablarda foydalanishga ruxsat berganligi» sabab bo'lgan edi. Kaliforniyaning ayrim shaharlarida evolyusiya nazariyasini o'z ichiga olgan darsliklardan foydalanish taqiqlangan.

Shu sababli yaqinda amerikalik yirik 72 ta olimlar Nobel mukofotining sovrindorlari kreatsianistlarning insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va evolyusiya nazariyasini «teng huquqli» ravishda o'quv dasturlariga kiritish va o'qitish uchun urinishlariga qarshi chiqdilar. Bironta boshqa hujjat shunchalik ko'p sonli Nobel mukofoti sovrindorlari tomonidan nizolanmagan edi. Ularning mazkur qadami shu bilan taqozo etilgan ediki, zamonaviy, ilmiy bilishning yutuqlariga asoslangan ta'lim fan mezonlariga javob bera oladigan nazariyalarga asoslanadi. Bu eng avvalo, tegishli tarzda asoslab berish va isbotlashdir, kreatsianizm esa o'zining haqligini ko'rsatuvchi isbot-dalillarga ega emas.

Keyingi paytda «kosmik tajriba» nazariyalari paydo bo'ldiki, ularning markazida ham odamning yaratilganligi haqidagi g'oya turadi. Diniy talqinlardan farqli o'laroq, ushbu nazariyalarda inson qandaydir o'zga planetaga mansub sivilizatsiya tomonidan yaratilgan deb tasdiqlanadi.

Ushbu konsepsiyaga ko'ra, yerdagi ko'plab noyob inshootlar (Misr ehromlari, Pasxa orolidagi toshdan yasalgan ulkan haykallar, faqat tepada qaraganda ko'rinadigan benihoyat ulkan rasmlar va hokazo) ana shu o'zga sayyoraliklar tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi.

Fan o'zga sayyoralarda sivilizatsiyaning mavjudligini va ular yerga kelgan bo'lishlari mumkinligini prinsip jihatidan inkor etmaydi. Biroq, insonning o'zga sayyoraliklar tomonidan yaratilganligini tasdiqlovchi hech qanday dalillar mavjud

emas. Bu mavzuga oid barcha mulohazalar hozirga qadar mushohada-gipoteza bo'lib qolmoqda.

Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi haqidagi nazariya. Eng qadimgi miflardayoq, odamning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi g'oya bilan bir qatorda antropogenezni tabiiy-tarixiy idrok etish unsurlari ham mavjud edi. Insonlarning paydo bo'lishi ularda mo'jizali shakliga ega, ammo ushbu tasavvurlarda insonning xudo tomonidan yaratilganligi akti mavjud emas. To'g'ri, miflarda ko'pincha tabiiy-tarixiy va diniy elementlar shunchalik qorishib ketadiki, aks hollarda ularni bir-biridan ajratish qiyin bo'ladi.

Avstraliyadagi *dieri* qabilasining afsonasida odamlarning kelib chiqishi shunday bayon qilinadi. Perigundi ko'lining o'rtasida yer yorilib u yerdan *mardu* deb ataluvchi totem mavjudotlar chiqqan. Ular kuchga kirib olgunlariga qadar oftobda yotdilar, keyin esa odamlarga aylanib yer yuziga tarqaldilar. *Keraki* qabilasida mavjud tasavvurlarga ko'ra odamlarni hech kim yaratmagan: afsonaviy qahramon Kambel daraxt kesayotib, ularni urug'lari bilan yashayotgan joyidan topib olgan. Qadimgi xitoy mifologiyasiga ko'ra esa, odamlar Pan-Gu deb ataluvchi kosmik odamning jasadi ustida o'rmalab yurgan parazitlardan kelib chiqqan.

Qadimgi falsafiy tasavvurlarda ham insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi haqidagi gipotezani uchratish mumkin. Hind faylasuflari *charvak-lokayatlar* ta'limotiga ko'ra ongga ega bo'lgan tirik tan ham butun dunyo singari to'rt unurning, ya'ni yer, olov, havo va suvning qo'shilishdan paydo bo'lgan.

Odamning tabiiy ravishda kelib chiqqanligi g'oyasi qadimgi yunon falsafasida ham o'z aksini topgan. Odamning hayvondan kelib chiqqanligi haqidagi gipotezani birinchi bo'lib *Anaksimandr* oldinga surgan edi. Uning ta'limotiga ko'ra odamlar baliqlar qornida paydo bo'lgan va xuddi akulalar singari parvarish qilingan. Ular kuchga kirib o'zlarini eplay oladigan bo'lganlaridan so'ng tashqariga chiqqanlar va yerga yetib borganlar. Qadimgi yunon faylasufi *Empedokl* dastlab inson tanasining ayrim qismlari: boshlar, qo'llar va h.k. paydo bo'lgan deb hisoblagan. Birlashtirish va ajratish qudratiga molik bo'lgan *sevgi* kuchlarining dunyoda ustuvor bo'lishi bilan turli xil qismlar bir-biri bilan qo'shila boshlagan. Buning natijasida turli kombinatsiyalar yuzaga kelgan: ikki boshli odamlar, ho'kizpeshona odamlar, inson boshi singari boshga ega bo'lgan ho'kizlar, ayollarga xos belgilarga ega bo'lgan erkaklar va hokazl. Ular orasidan mukammallikka ega bo'lganlari yashab qolgan, qolganlari esa qirilib bitgan, shu jumladan yuqorida sanab o'tilganlar tipidagi mavjudotlar ham yo'qolib ham ketgan. Atomizmning asoschisi bo'lgan *Demokrit* esa inson loy va suvdan paydo bo'lgan deb hisoblar edi. yer paydo bo'lgandan so'ng uning loyqasimon yuzasida plyonka bilan qoplangan pufaklar (badboy va suvli) yuzaga kelgan. Ularni kunduzi quyosh qizdirar, tunda esa namlikni o'zlariga singdirar edilar. Ular shu tariqa ko'payib borgan va so'ngra yorila boshlagan hamda ulardan odamlar va hayvonlar paydo bo'lgan.

Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi to'g'risidagi falsafiy konsepsiyalar to XIX asrning oxiriga qadar faqat mushohadalardan iborat bo'lib, hech qanday isbot-dalillarga ega emas edi. Biroq ilmiy ma'lumotlarning to'planishi bilan mazkur yondashuv ilmiy hamjamiyatda tobora ko'proq ustunlikka ega bo'la boshladi.

Insonning hayvonlarga o'xshab ketishini odamlar juda qadimgi zamonlardayoq payqaganlar. Antik fanning paydo bo'lishi bilan inson va hayvonlarni qiyosiy tahlil qilish yo'lidagi dastlabki urinishlar ham yuzaga keldi. Bunday harakatlarning

dastlabkilaridan birini Qadimgi Gretsiyada *Arastu* amalga oshirdi, Qadimgi Rimda yashagan vrach va anatom *Klavdiy Galen* esa birinchilardan bo'lib odam bilan maymun o'rtasidagi o'xshashliklarni tavsiflab berdi.

1610 yilda faylasuf va olim *Lyuchilio Vanini* odam va maymunning qarindoshligi haqidagi g'oyani ilgari surdi va buning uchun gulxanda kuydirildi. 1699 yilda esa ingliz anatomi *E.Tayzon* «Orangutan yoki o'rmon odami: maymun, pigmey va insonning qiyosiy anatomiyasi» nomli asarini e'lon qildi.

XVIII asrga kelib olimlar endi inson va hayvonlar o'rtasidagi o'xshashlikni shunchaki qayd etish bilan cheklanib qolmadilar. Tirik organizmlarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan shved olimi *Karl Linney* (1707-1778), garchi insonning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi g'oyani tan olsada, o'z tasnifida uni hayvonlar dunyosining boshqa vakillari orasiga joylashtirgan va bunda u Homo turini alohida ajratgan edi. *J.B.Monboddo* va *J.E.Doornikning* ilmiy ishlaridan boshlab odamlarning insonga o'xshash maymunlardan kelib chiqqanligini haqidagi fikr to'g'ridan-to'g'ri tasdiq etiladi.

Antropogenezning tadrijiy xususiyati haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarning shakllanishida *Jan Lamarkning* (1744-1829) «Zoologiya falsafasi» deb atalgan va 1809 yilda e'lon qilingan asari muhim bosqichni tashkil etdi. Lamarkning fikriga ko'ra qadimgi maymunlar o'rmonlarning kamayib ketishi natijasida daraxtlardan tushib yerda yashashga va tik turib yurishga majbur bo'lganlar. Bu ularning umurtqa pog'onalari, oyoq kaftlari, qo'l bo'g'inlari, jag'lari, tishlari va bosh miyalarining o'zgarishiga olib kelgan. To'da-to'da bo'lib ijtimoiy hayot kechirish sharoitlarida esa ularda nutq rivojlana boshlagan. 1818 yilda esa *Bilenshtedning* asari dunyoga keldi, unda muallif inson va ungacha bo'lgan hayvoniy shakllarni bir butun evolyusion zanjirga bog'lovchi oraliq shakllar mavjud bo'lganligi haqidagi fikrni bayon qildi.

Odamning kelib chiqishi haqidagi tabiiy-ilmiy qarashlarning uzil-kesil tasdiqlanishida *Ch.Darvinning* «Tabiiy tanlanish natijasida turlarning kelib chiqishi» (1859) va «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish» (1871) kabi asarlarida bayon etilgan evolyusiya nazariyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asrning o'rtalariga qadar antropogenezning talqinlari tabiiy-ilmiy xususiyatga ega bo'ldi, ya'ni antropogenez faqat tabiiy fanlar (anatomiya, embriologiya, evolyusiya nazariyasi va boshqalar) doirasida izohlandi. Shunga muvofiq antropogenezning harakatga keltiruvchi kuchlari sifatida tabiiy-biologik olimlar tushunilar edi. Antropogenez jarayonida ijtimoiy olimlarning roli *F.Engels* antropogenezning mehnat nazariyasida («Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli», 1873-1876) o'z aksini topdi. Uning mohiyati «*Mehnat -insonni yaratdi*» degan formulada ifoda etilgan edi.

Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy nazariyasi endilikda tor tarmoq sohasi emas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarning tutashuv chegarasidagi majmuaviy fanlararo tadqiqotlardan iborat.

Bugungi kunga kelib fan odamning kelib chiqish jarayonini muayyan darajada tiklash imkonini beruvchi ko'p sonli ma'lumotlarni to'plagan. Ushbu muammoni hal etishda arxeologiya va antropologiyadan tortib to molekulyar biologiya hamda atom fizikasigacha bo'lgan ko'plab fanlar ishtirok etmoqda.

Hozirgi zamon tasniflari ma'lumotlariga ko'ra, odam turiga, umurtqalilar kichik turiga, sut emizuvchilar sinfiga, primatlar guruhiga, gominoidlarning katta oilasiga, gominidlar oilasiga, Homo turiga mansubdir.

Odamning hayvondan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalillar qiyosiy anatomiya, fiziologiya, embriologiya, paleontologiya, genetika fanlari bergan ma'lumotlarga suyanadi. Barcha tirik organizmlarda hujayra tuzilishi, odam va hayvonlarning skeletlarining hamda a'zolarining o'xshashligi, odamdagi rudimentar a'zolar (kopchik umurtqalar, ohirgi jag' tishlar, ko'richak va hokazo hammasi bo'lib 90 dan ortiq), atavizmlar (jabra yorig'i, tananing to'liq jun bilan qoplanishi va boshqalar), inson embrionida hayvonot dunyosiga xos evolyusiya bosqichlarining takrorlanishi va hokazo.

Odam hozirgi zamon biologiya fani tomonidan yaxshi o'rganilgan primatlar bilan eng ko'p genetik va anatomo-fiziologik o'xshashliklarga egadir. Odamning primatlardan kelib chiqqanligi paleoantropologiya tomonidan ham qazishmalar chog'ida topilgan gominidlar va antropoidlar shakllarini morfologik tahlili asosida tasdiqlanadi. Molekulyar biologiyaning so'nggi yillardagi yutuqlari odam bilan primatlarning nasli bir ekanligini ko'rsatuvchi yangi dalillarni aniqladi. Ma'lumki, yaqinda inson genomi sirlari ochildi va e'lon qilindi. Genetika bergan ma'lumotlarga ko'ra genlar boyicha biz insonning hozir yashayotgan qarindoshlaridan eng yaqini bo'lgan shimpanzedan atigi 1% dan sal ortiqroq farqqa egamiz. DNK molekulari nukleotid izchilligining o'zgarish tezligiga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra («molekulyar soatlar» metodi) bizning hozirgi maymunlar bilan ajdodimiz bir bo'lgan. Ularning ajdolari bilan odamga kelib tutashuvchi gominid liniyaning ajralish bundan 5-7 mln yil ilgari yuz bergan. Agar shimpanze nazarda tutilsa, u holda bu divergensiya 5 mln yil ilgari bo'lgan, gorillalar va orangutanlar ildizlarining ajralishi esa undan ham oldinroq ro'y bergan.

Antik falsafa insonga mikrokosm, kosmosning bir qismi, ya'ni makrokosm umuman dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi qism sifatida qaragan. Aynan ana shu antik davrda «O'z-o'zingni o'rgan» degan so'zlar aytilgan edi (Suqrot).

Suqrotning shogirdi *Aflotun* (eramizgacha bo'lgan 428-347 yillar) insonning ruhi o'lmaydi, u har gal yangi tanaga ko'chib o'tadi, deb taxmin qilgan edi. Insonning o'zini o'rab turgan atrof dunyoni o'rganishga urinishi bu ruhning tanga kirgunga qadar mushohada etgan abadiy g'oyalar olami haqidagi xotirotlaridir. *Aflotun* uchun inson ideali donishmand, faylasuf bo'lib, uning ruhi ko'p «sayr qilgan» va shu sababli uning bilimlari eng to'g'ri va qimmatlidir. Bunday komil faylasufni *Arastu* «o'zini tafakkur etuvchi tafakkur» deb atagan edi.

Inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishga antik materialistlar *Demokrit*, *Epikur*, *Lukretsiy Kar* va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, inson hayotining maqsadi ongli lazzatlanish, azob-uqubutlarga chap berish, ruhning sokin va tinch holatiga erishishdir. Shu sababli ular falsafaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatishdan iborat deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o'limga mahkum, tana haloqatga uchragandan so'ng atomlar yemiriladi. Inson o'limdan qo'rqmasligi kerak, zero toki u hayot ekan o'lim yo'q, o'lim kelganda esa inson yo'q bo'ladi.

O'rta asr falsafasi asosan diniy falsafa o'laroq, insonni unda ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi. O'rta asr yevropa diniy falsafasining «otasi» *Avreliy Avgustin Avliyo* insonning mohiyatini aynan ruh va faqat u tashkil etadi, deb hisoblandi. Tana esa vaqtinchalik qobiqdan, ruh qamalgan joydan, ruh «zindoni»dan boshqa narsa emas. *Foma Akvinskiyning* fikriga ko'ra odam ruh bilan tanning uyg'un birligidan iborat va

bu hol uni quyi, hayvoniy dunyo bilan oliy, ilohiy, farishtalar olami o'rtasida arosatda qolgan mavjudot qilib qoyadi. Unda jismoniylik qancha ko'p bo'lsa, u hayvonga shunchalik yaqinlashadi, ruhiyat qancha ko'p bo'lsa u shuncha farishtalarga yaqinlashadi. O'rta asr sxolastikasi vakillari (Buyuk Albert, Anselm Kenterberiy) nuqtai nazariga ko'ra insonning asosiy vazifasi o'z mohiyatini anglash emas, balki yanada yuqori ilohiy mohiyatga qo'shilishga intilishdir. O'z-o'zidan ayonki, inson ruhi boqiydir va inson yerdagi butun hayoti davomida faqat uni qutqarish to'g'risida oylashi kerak.

Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qoyilgan, shu sababli insonning qo'lidan keladigan birdan-bir ish bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qoyilganidek tutish. Biroq, *Forobiy, Beruni, Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirza Bedil*, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar *Axmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdulg'afforov* va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qoydilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar.

Yangi davr falsafasi insonning mohiyati va o'z-o'zini anglashi muammolariga qaytishi bilan ajralib turadi.

Tomas Gobbs, mexanik materializm tarafdori o'laroq, insonning ruhiy dunyosi mexanik kuch-g'ayrat va harakatlar majmuasidan boshqa narsa emas, deb hisobladi. Uning fikricha, inson faqatgina murakkab tuzilgan mexanizmdir xolos, u mexanika qonunlariga boysunadi. Gobbs ruhning alohida substansiya sifatida mavjudligini inkor etdi.

Rene Dekart insonning dualistik konsepsiyasini ishlab chiqdi. U inson o'lik mexanizm (tana) bilan irodaga va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan substansiya (ruh)ning qo'shiluvidan tashkil topgan, deb hisobladi.

Benedikt Spinoza o'zining inson haqidagi ta'limotini insonning tabiatning bir qismi ekanligi, tana va ruhning birligi asosida yaratdi. Insonning butun ruhiy hayoti idrok va affektlar (quvonch, g'am, lazzat)dan iborat. Insonni harakatiga keltiruvchi kuch o'zini saqlash va manfaatga intilishdir.

XVIII asr fransuz materialistlari *J.O.Lametri, K.A.Gelvetsiy, P.A. Golbax, D.Didro* va boshqalar inson haqidagi ta'limotini ishlab chiqishga katta xissa qo'shdilar. Buni hatto ularning asarlarining nomlari ham tasdiqlab turadi: Lametrining «Inson-mashina», Gelvetsiyning «Inson haqida» va hokazo.

Lametri ijtimoiy rivojlanishning asosiy sabablari ulug' shaxslarning faoliyati va ma'rifatdir, deb hisoblar edi. Didro insonni oliy qadriyat, koinotning idrok markazi, butun madaniyatning yaratuvchisi deb hisobladi. Golbaxning nazarida esa, inson tabiatning bir qismi, u tabiat qonunlariga boysunadi. Gelvetsiyning fikriga ko'ra, insonning shakllanishida atrof muhit asosiy rol oynaydi. U barcha odamlar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ko'ra tabiat tomonidan teng qilib yaratilgan, ularning qanday bo'lishi faqat tarbiyaga bog'liq deb hisobladi.

XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri bu *Lyudvig Feyerbaxning* (1804-1872) falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafasining «birdan-bir, universal

va eng oliy» muammosi sifatida qaradi va birinchi planga olib chiqdi. Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologik nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi.

Antropologik tamoyil (ya'ni, ob'ektiv olamni inson mohiyatining hosilasidan iborat bir narsa sifatida qarash) ekzistensializm, hayot falsafasi, falsafiy antropologiya, antroposotsiologiya, freydizm va boshqa ko'plab falsafiy va ijtimoiy oqimlarning asosida yotadi. Ekzistensialistlar (*J.P.Sartr*, *A.Kamyu* va hokazo) falsafaning asosiy muammosi deb insonning mavjud bo'lishi masalalarini hisoblaydilar (Ekzistensiya). Inson faqat o'zini anglashi mumkin. *K.Yaspers* yozganidek: «Mavjud bo'lish bilish demakdir va men ong sifatida mavjudman». Ekzistensializmning asosiy tamoyili erkinlik tamoyilidir. Inson «ozod bo'lishga mahkum etilgan» (*J.P.Sartr*). Ijtimoiy hayotning tangliklaridan chiqishning yo'li shaxsning individualistik borlig'ida. Insonning o'z diqqat markaziga qoyuvchi yana bir oqim «*falsafiy antropologiya*». Bu oqimning asoschisi Maks Sheler (1874-1928) falsafaning asosiy masalasi «Inson nima?» degan savoldan iborat deb hisobladi.

Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni *Homo sapiens* turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo.

Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hokazo) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenetika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi.

XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differentsiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qoyadi.

Falsafada inson. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ko'p fanlar tomonidan predmet sifatida qaraladi, shu sababli bizning oldimizda muhim bir vazifa inson muammosining aynan falsafiy aspektlarini ochib berish turadi.

Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikda insonni tadqiq etishning hozirgi darajasi shundayki, bunda inson hozirgi to'plangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish masalalari tobora ko'proq birinchi planga chiqmoqda.

Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Individ va individuallik, inson va shaxs.

Falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda «individ», «individuallik», «shaxs» singari tushunchalar ko'p qo'llaniladi. Ularning o'xshashligi va farqlari nimada? Bu tushunchalarning har birining mohiyati nimadan iborat?

Yuqoridagi tushunchalar qatorida «*individ*» tushunchasi birinchida turadi. U eng avvalo, muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib»

olganligini ifoda etadi. Individ bu Homo sapiens biologik turining ayrim olingan, yakka vakili. Individning asosiy xususiyati bu uning boshqalardan ajralganligi, alohidaligidir. Individ bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi.

Shunisi qiziqki, turli fanlar «individ» tushunchasini turlicha talqin etadilar. Masalan, *psixologiya* ushbu tushunchani ikki aspektda ko'radi: a) individ ayrim olingan tabiiy mavjudot, tug'ma va orttirilgan xususiyatlarning mahsuli, individual, o'ziga xos xususiyatlarning sohibi sifatida; b) insonlar jamoasining alohida olingan vakili; o'zining biologik cheklanganlik doirasidan chiquvchi qurollardan, belgilardan foydalanuvchi va ular vositasida o'z xulqi hamda psixik jarayonlarini kasb etuvchi ijtimoiy mavjudot.

Psixologiya individning asosiy qirralari deb quyidagilarni hisoblaydi: 1) psixofiziologik tashkillashuvning yaxlitligi; 2) atrof dunyo bilan o'zaro ta'sirdagi barqarorlik; 3) faollik.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ bu inson naslining ayrim olingan vakili va insoniyatning barcha ijtimoiy va psixologik xususiyatlarining: aql, iroda, ehtiyojlar, manfaatlar va boshqalarning muayyan sohibi. Bu holda «Individ» tushunchasi muayyan, aniq bir insonni anglatadi.

Va nihoyat, *falsafa* uchun individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat, ancha keng bo'lgan ijtimoiy yaxlitlikning (guruhning, sinfning, millatning, insoniyatning) ayrim olingan vakili.

Individ eng avvalo qandaydir ko'plikni bir vakili, ko'plarning biri. Shu ma'noda deyarli har bir odam individ (ba'zan individium ham deyiladi va yoziladi).

Bu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: ajralib turish, alohidalik insonning spetsifik xususiyati emas, ob'ektiv dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar u yoki bu tarzda ajralib turadi. Ammo insonga nisbatan ko'proq boshqa bir tushuncha nisbat beriladi «*individuallik*» U muayyan insonning noyobliki, betakrorligini anglatadi. Muayyan ma'noda individuallik individdan shaxsga olib boruvchi pog'onadir. Inson tug'ilishidan individ bo'lib tug'iladi, biroq shaxs sifatida u o'z individualligining barcha imkoniyatlarini ochish orqaligina shakllana oladi.

Individuallik individning o'ziga xosligini, ichki dunyosining o'ziga xosligini aks ettiradi, bu insonga xos umumiy (universal) va ayrim (noyob, o'ziga xos) xususiyatlarning uzviy birligidir.

Inson falsafasidagi yana bir muhim tushuncha «*sub'ekt*» tushunchasidir. Sub'ekt sifatida ayrim olingan individ ham va qandaydir jamoa (guruh, sotsium va xatto umuman insoniyat) namoyon bo'lishi mumkin. Bu o'rinda bizni individual sub'ekt qiziqtiradi. Uning asosiy tavsiflari quyidagilardir: faollik, onglilik, maqsadning mavjudligi, o'z-o'zini anglash, xattiharakatlar erkinligi. Sub'ekt sifatida inson muayyan ijtimoiy rolni oynaydi. Odam sub'ekt bo'lib tug'ilmaydi, balki tarbiya jarayonida sub'ektga aylanadi.

Sub'ektivlik haqida so'z ketganda mazkur tushunchaning ikki ma'nosi borligini esda tutish lozim. Birinchidan, u ayrim individning tanlovi sifatidagi sub'ektivlikni anglatadi, ikkinchidan esa ushbu individ insoniy sub'ektivlik doirasidan tamoyilan chiqa olmasligini bildiradi.

Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushunchadir. Inson shaxsi rivojlanishining eng muhim biologik omili inson miyasidir. Ammo shaxs mohiyati bu ijtimoiy xususiyatga molik hodisa. Miya esa moddiy organ bo'lib, u orqali shaxs o'z-o'zini namoyon etadi.

Inson mazkur sotsiumga xos bo'lgan me'yorlar, bilimlar, qadriyatlarining muayyan tizimini o'zlashtiradi. Muayyan jamiyatning real shart-sharoitlari shaxsning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Shaxsning shakllanishi jarayoni *sotsializatsiya* deb ataladi.

Falsafada shaxs muammosi bu eng avvalo insonning mohiyati, uning dunyodagi, tarixdagi va jamiyatdagi o'рни muammosidir. Muayyan ijtimoiy munosabatlar muayyan tarixiy tipdagi shaxsning shakllanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Antik davr odami uchun eng asosiy deb yaxshi firklar, intilishlar, istaklar hisoblangan va ular ijtimoiy amaliyotda qanchalik royobga chiqishiga umuman olganda katta ahamiyat berilmagan: «Insonni faqat uning ishlariga qarab emas, intilishlariga qarab ham baholash lozim» (Demokrit), «Inson qanday fikrlasa, u hayotda shundaydir» (Sitseron), «Bizning hayotimiz biz u haqda nima oylasak ana shudir» (Mark Avreliy), «Axloqiy fazilatlar niyatlar bilan bog'liqlikda ko'zga tashlanadi» (Arastu).

Antik davr mutafakkirlari nazarida chinakam shaxs deb shunday odamni aytish mumkinki, birinchidan, u axloqli, ikkinchidan, aql-idrok egasi, uchinchidan, boshqalar bilan muloqotga kirishadigan, to'rtinchidan siyosiy va davlat mavjudotidir.

O'rta asrlar bizga shaxsning boshqacha tipini ko'rsatadi. Mazkur davr uchun jamiyatning tabaqalanganligi, kastalarga bo'linishi va qat'iy korporativlik xosdir. Shu sababli muayyan tabaqaga, kastaga, sexga, gildiyaga mansublik, uning qonunlariga, odatlariga, an'analariga bo'sunish shaxsning individual sifatlarining namoyon bo'lishidan ko'ra muhimroq va kuchliroq edi.

Faqat yangi davrga kelib ayrim olingan inson shaxsining qimmati, avtonomligi, o'ziga xosligi qaror topadi. Bu ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy fikr uchun xosdir. Ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va foydali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy mas'uliyat, o'z qadrqimmatini bilish tuyg'usi mana bular shaxsning *g'arb, yevropa-amerika konsepsiyalari* yuksak qadrlanadigan sifatlari hisoblanadi.

Shaxsning sharq modeli esa boshqachadir. Shaxsning *sharqqa xos modelining* bir nechta modifikatsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin (islom, budda, konfutsiy va hokazo). Shunday bo'lsa-da, ular o'rtasida ularni shaxsning *g'arb* modelidan ajratib turuvchi muayyan mushtarakliklar mavjud.

Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardir: mas'uliyat va majburiyatlarining inson huquqlari oldida ustuvorligi, xulq-atvordagi traditsionalizm, hulqatvorning, jamoaviy modellarining individual me'yorlardan ustunligi, sotsiumga ko'proq qaramlik, ijtimoiy muhit bilan aloqaning ko'pligi.

Shuni esda tutish lozimki, shaxs tipi ijtimoiy munosabatlarning real tizimining in'ikosidir. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotida muayyan rolni bajarishi namoyon bo'ladi. Individual shaxs sifatida faqat turli tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. O'z vaqtida Arastu «insonning vazifasi uning ongli faoliyatidan iborat» deb hisoblagan edi. A.Jomiy «Qo'llaring baquvvat ekan, mavjud ekan kundalik mehnatga ko'ngil qoy» deya da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino «Bekorhilik va ishyoqmaslik faqat nodonlikka sabab bo'libgina qolmay, ayni paytda kasalliklarga ham sabab bo'ladi» deb ogohlantirgan edi.

Shaxs bu muayyan ijtimoiylashuv jarayonining natijasigina emas, bu uzluksiz o'sib boruvchi jarayon. Agar doimiy rivojlanish, kamolotga intilish, olg'a harakat bo'lmasa, u holda shaxs buzilishi, degradatsiyaga duchor bo'lishi mumkin.

Shaxs va jamiyat. Faollik va doimiy kamolotga intilish bilan bir qatorda shaxsning muhim xususiyatlaridan biri uning *erkinligidir*. Erkinlikning yo'qligi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: qullik, krepostnoylik, qamoq, ma'naviy qullik va hokazo. Erkinlikning yo'qligi shaxsiy mas'uliyatning yo'qligini anglatadiki, u siz shaxs haqida so'z ham yuritish mumkin emas. Bunda shuni esda tutish kerakki, erkinlik bu anarxiya emas, zero «jamiyatda yashab undan ozod bo'lish mumkin emas».

Erkinlik va mas'uliyat ikkita o'zaro dialektik bog'langan qarama-qarshilikni tashkil etadi.

Inson o'zining ijtimoiy majburiyatlarini, jamiyat oldidagi burchini, o'z mas'uliyatini tabiiy bir hol, o'z erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy bir qismi sifatida qabul qilgandagina chinakam shaxsga aylanadi.

Insonning hayotiy *faolligi* uning shaxsining shakllanishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan balki inson uni o'z xohishiga mos ravishda o'zgartiradi. Bunda chinakam insoniy, shaxsiy, ijtimoiy taqozo etilgan olam shakllantiriladi. Jamiyatning o'zi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi unsurlar bularning hammasi shaxsning bunyodkorlik faoliyatining, uning dunyoni o'zgartiruvchi ijodiy faoliyatining natijasi.

Ushbu o'zgarish jarayoni cheksizdir, chunki faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo'lishi, ochilishi va rivojlanishi demakdir. Dunyoni o'zgartirar ekan, faol shaxs ayni paytda o'z qobiliyatlari, mahorati, ko'nikma va bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borgan holda o'z-o'zini yaratadi. Faol hayoti va ishi davomida shaxs doimiy ravishda sotsium ichidagi o'z aloqalarini kengaytiradi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayib boradi va shu bilan bir paytda mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan o'sishi yuz beradi.

Axloq shaxs erkinligini, uning o'zini, o'z ehtiroslarini boshqarish qobiliyatini, insonning o'z qilmishlari uchun, avvalo, o'zi oldida javobgarligini nazarda tutadi. Axloq inson aqlini ezgu ishlarga yo'naltiradiki, bu shaxsiy manfaatdorlik tuyg'usidan xoli yaxshi niyatlarda namoyon bo'ladi. Individ erkinligi va axloqiy qadriyatlarining mos kelishi axloqqa xos xususiyatdir. Jamiyatning axloqiy qoidalari shaxsga bu qoidalarga rioya etish majburiyatini yuklaydi, shu sababli burch axloqiy qilmishlarga turtki beradigan muhim ichki omil hisoblanadi. Bundan xulq-atvor meyorlari va andozalariga oddiy rioya etish nari borsa ijtimoiy jarayon bir maromda kechishini ta'minlash imkonini beradi. Uning rivojlanishi uchun esa ijod imkoniyat yaratadi. Bunda ijodning vazifasi tarix talablariga javob berish, faoliyatning mutlaqo yangi dasturlarini topishdan iboratdir.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli⁹. Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashkarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani hakidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyok odamlarni

⁹ Ushbu mavzu f.f.n.,dots. T.T.Malikov tomonidan nashr etilgan Globallashuv va global muammolar.(O'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan 2016. –B.60) asosida tayyorlandi.

fanga o'z e'tiborini karatishga, olimlarni esa, bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur kildi.

Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har kanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'likliklarida kamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar kodir emas. Zero, o'z tadqiqoti obyektini u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli, u yoki bu fan kaysi muayyan vazifalarni yechishidan kat'i nazar, ular bilan bog'lik jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-okibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Har kanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab yetishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas. Shunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy yechimi to'g'risida, boshqa tomondan esa falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsada, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar, ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinli bo'lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli yechimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat.

Falsafiy tadqiqot muayyan fanlarning mazkur sohadagi yutuqlariga tayanib, masalaning ayrim jihatlarini mavhumlashtiradi va global muammolarni ular bir-birini qay darajada taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganadi. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy belgilanganligi nuqtai nazaridan yaxlit o'rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot, avvalo, global muammolarning mohiyatini aniqlashni nazarda tutadi, chunki ularning asl tabiati va genezisini aniqlash bu muammolarning ilmiy va amaliy yechimini topish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global muammolarni falsafiy anglab yetishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz.

Birinchiidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. Shu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu ma'noda, falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funksiyasi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni haloqatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi obyektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendensiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini takozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab yetish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orkali ma'naviy madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamasdan yechish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan okimida yanada anikrok mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talkin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrbokiylik masalalarini kun tartibiga ko'yadiki, bu insoniyatga global muammolar taxdid solayotgan sharoitda ayniksa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'lik bo'lgan va bashariyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini tushunish va anglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inkilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv hakida muayyan tasavvur hosil kilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga karab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Global muammolarning mohiyati.

Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan ko'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofik u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tarika bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, yer kurrasi bilan bog'lik. Ayni shu sababli *butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan*. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim obyektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintakalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaktida global muammolarning yechilmay qolishi, butun insoniyat kelajagi uchun haloqatli okibatlariga olib kelishi mumkin.

Global muammolarning turli darajalari.

Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariylar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va shu kabilar.


Mahalliy muammolar *tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi*. Bu yerda, odatda, kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar *tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'amtashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin*.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr faloqati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi,

taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo‘ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to‘la sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo‘shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.



Shunday qilib, global muammolar to‘g‘risida so‘z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko‘rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy koloklik muammosini tadkik etishda, odatda, butun sayyorani ikki mintaka rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o‘rganishda esa, mintakalar soni ko‘payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda shuni kayd etish lozimki, har kanday muammo sayyoraning istalgan mintakasiga nisbatan muhim sanalgan, ya‘ni ularning har birida namoyon bo‘lgan holdagina global, deb hisoblanishi mumkin. Aks holda, bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Bundan barcha global muammolar, ayni vaktida, mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin mintakaviy darajada aniklangan barcha muammolar ham global bo‘lavermaydi, degan xulosa kelib chiqadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, global muammolar soni kamrok bo‘ladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko‘rinishga ega bo‘lmasligi yoki bu yerda uncha sezilmasligi mumkin.

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof-muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzokda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati konikarli bo‘lishi, tabiiy muhitga antropogen ta‘sir esa, deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga karamay, bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta‘sirning notekisligiga bog‘lik bo‘ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-shubha tug‘dirmaydi. O‘z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy

muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero, ularning soni takkoslab bo'lmaydigan darajada ko'prokdir.

Keltirilgan mulohaza global va mintakaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash imkonini beradi, chunki barcha global muammolar o'z mikyosida o'zgarmaydigan yagona tizim butun sayyoraga tegishlidir. Shu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy boskichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaktida boshqa darajadagi muammolar sonining anik hisobini yuritish mumkin emas. Zero, mintakalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maksad va vazifalariga karab shartli olinadi.

Globallik mezonlari.

Shaxs va jamiyat fani va falsafada global muammolarni yanada anikrok tavsiflash uchun yukorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashkari bu muammolarni boshqa tomondan ularning sifati va muhim xususiyatlari nuktai nazaridan tavsiflovchi ko'shimcha mezonlar ko'llaniladi.

Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.

Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-gayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.

Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.

To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususi, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin, zimdan va uzoq shakllanadi, yechilishiga qarab esa (nazariy jihatdan), quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendensiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

Global muammolarning boshqa bir muhim xususiyati ularning barchasi birbiriga shu darajada bog'liqki, ulardan birini yechish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Global muammolarning tasnifi.

Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarning qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlarga ajratiladi.

Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta keskin ziddiyatlarini kompleks o'rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va

mazkur muammolarni ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va obyektiv mavjud global muammolarning keskinlashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o'zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko'maklashadi va amaliy qarorlar qabul qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Izchil va aniq amalga oshirilgan tasniflash bilishning mazkur sohasidagi avvalgi tadqiqotlarni ma'lum darajada sarhisob qiladi va ayni vaqtda, bunday tadqiqotlarning rivojlanishida yangi bosqich boshlanganini qayd etadi.

Hozirgi zamonda global muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida, ayniqsa, keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va yechimining ahamiyatiga, shuningdek, real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy boglanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar. Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular *interijtimoiy global muammolar deb ataladi*. Bu yerda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi.

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilar bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek, Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Uchinchi guruhni «inson jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar ya'ni demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi ma'naviyat masalalari va shu kabilardir.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday tasnif masala yechimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.



Asosiy global muammolar tizimi. Hozirgi davrning global muammolari o‘z holatini zamonda tinimsiz o‘zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lgan yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning yechilishiga qarab, yo‘qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechchei bu holatga e‘tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko‘ndalang bo‘lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig‘ butun sayyorani o‘z iskanjasiga olmoqda... yechilmagan muammolar soni o‘sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o‘z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», deb yozgan edi.

Ammo global ziddiyatlar tuguni qanchalik chigal bo‘lmasin, uni fan va falsafa yordamida yechish, ya‘ni sababni oqibatdan, muhim tafsilotlarni ikkinchi darajali tafsilotlardan, obyektivni subyektivdan farqlash uchun nazariy jihatdan anglab yetish lozim. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol yechishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishini ham farqlash muhimdir.



Demografik muammo. Hozirgi zamonda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko‘payishiga sabab bo‘layotgan aholining nazoratsiz o‘sishi qayd etiladi. Ayrim mutaxassislarning baholashlariga ko‘ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar Yerdan faqat bir milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta‘minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko‘paydi va bugungi kunda 6 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o‘shish sur‘atlari

ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi 150 yil ichida, uchinchisi 100 yil ichida va oxirgisi 40 yildan kamroq vaqt ichida yuz berdi. Shuni aytishning o'zi kifoyaki, 1956 yil Yerdan 2,8 milliard kishi yashagan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib, bu rakam 6 milliardga yetdi.

XX asrda Yer kurrasi aholisining « demografik portlash » deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Bu, avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lib, ularga jahon aholisi o'sishining o'ndan to'kkiz qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu yerdagi vaziyat rivojlangan mamlakatlarga XX asr boshidayok xos bo'lgan o'lim darajasining yukoriligi va butun insoniyatga XVIII asrga xos bo'lgan tug'ilish darajasining yukoriligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaktida mehnat unumdorligi darajasi va aholi jon boshiga olinadigan daromad miqdoriga, kishlok xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi va kishlok xo'jaligining samaradorligiga, aholining savodxonlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga ko'ra, bu mamlakatlar xalqlarining aksariyati hali XIX asrda yashamokda.

Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ularni yechish kechga surilgani sari, yanada murakkabrok va chigalrok tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga karatilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat kilmokda. Jumladan, O'zbekistonda 1995 yilda «Oilani rejalashtirish» Davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda har bir oilada farzand tug'ilishini rejalashtirishning ona va bola sog'ligini asrashga yo'naltirilgan say-harakatlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, mamlakatda demografik portlashning oldini olish vazifasini boskichma-boskich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada barcha viloyatlarda, kishlok va ovullarda reproduktiv salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmokda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi erkaklar orasida 73, ayollar orasida 75 yoshga teng.

Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ham keskinlashdi, lekin bu yerda uning aks ko'rinishiga duch kelish mumkin. Umr uzunligining va keksa odamlar sonining o'sishi jarayonida hatto aholining oddiy ko'payishini ham ta'minlamaydigan tug'ilish darajasining pasayishi kuzatilmokda. Ayni holda depopulyatsiya, ya'ni aholi sonining kamayishi to'g'risida so'z yuritiladi-ki (Rossiya aholisi o'rtacha 54 yoshni tashkil qiladi), bu ham milliy manfaatlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti va shu kabilarga tegishli ko'shimcha kiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Rossiyadagi so'nggi 20 yillikdagi demografik jarayonlar bunga yorqin misol bo'ladi. Birok, keyingi besh yilda bu masalada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmokda. Jumladan, aholi soni ortishi va o'rtacha umrguzaronlik 4 yilga oshdi.

Ta'lim muammosi. Demografik portlash sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'lik. So'nggi yillarda, jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlak hisobda o'sishda davom etmokda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy akidalar bilan oklaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmokda. Hozirgi vaktida ajabto'vur vaziyatni kuzatish mumkin: savodxonlik mutlak rakamlarda o'sayotgan bir

paytda, savodsizlar, ya'ni o'kish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormokda (Hindiston aholisining 70 foizi, Pokiston aholisining 60 foizi, Afrika mamlakatlari aholisining 80 foizi savodsiz).

Shu bilan bir qatorda aksariyat odamlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'lakonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'lik *funksional savodsizlik ham o'sib bormoqda*.

Bu muammoning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan bo'lib, bu ijtimoiy keskinlikning ko'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turmokban. Shuni alohida ta'kidlash lozimki ta'limning ijtimoiylashuvi o'kuv jarayonida gumanitar fanlarning o'kuv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas, balki tabiiyilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har kanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishi lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda 1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida» aynan shu maksadlarni o'zida ifodalaydi. «O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi»¹⁰ Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash. *Aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek, atrofmuhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi bilan uzviy bogliq.* Aksariyat kasalliklar va atrof-muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof-muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo, elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmokban. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi.

Bu yerda yukimli kasalliklar bartaraf etilgan bo'lib, ular odamlar o'limining asosiy sabablari hisoblanmaydi. Lekin, yurak-kon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar sezilarli darajada ko'paydi, «sivilizatsiya kasalliklari» deb nomlangan butunlay yangi kasalliklar: rak, OITS va boshqalar paydo bo'ldi. Bunday kasalliklar, xususan yurak-kon tomir kasalliklari o'sishining asosiy sabablari kam harakatchan turmush tarzi, semirish, chekish, ruhiy zo'rikish, stress holatlari ekanligi aniklangan. Bu hodisalar insonga tabiatning kudratli kuchlarini jilovlash va o'zini jismoniy mehnatdan asosan xalos etish, mazkur ishni mashinalar, texnika vositalariga yuklab, o'ziga asosan aqliy mehnat, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini qoldirish imkonini bergan XX asr sivilizatsiyasining rivojlanish mahsulidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin: bu yerda kasalliklardan azob chekayotganlar soni rivojlangan mamlakatlardagidan ko'proq, kasallikning oldini olish yoki davolanish imkoniyati esa sezilarli darajada kamroqdir. Tibbiyot sifatining pastligi, qashshoqlik va antisanitariya tufayli

¹⁰ Karimov I.A. BMT Sammiti ming yillik rivojlanish maksadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutq. - T.: «O'zbekiston», 2010

rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, bezgak, sil, traxoma, qoqshol bilan kasallanish darajasi, epidemik yuqumli kasalliklarning paydo bo'lish ehtimoli, rivojlangan mamlakatlardagi holat bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yuqoridir.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yurak qon-tomir kasalliklari kun sayin ortib bormoqda. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda o'lim bilan tugaganligi sababli jamiyat uchun katta tahdid sanaladi. Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) hisobotiga ko'ra, 2005 yilda yurak qon-tomir kasalliklaridan

million inson vafot etgan. Ushbu ko'rsatkich barcha o'lim holatlarining 30 foizini tashkil qiladi. Shu jumladan, 7,6 million kishi yurak-ishemik kasalligidan 5, 7 million kishi insult oqibatida hayotdan ko'z yumgan¹¹. Hozirgi vaqtda o'rnatilgan internatsional aloqalar natijasida davlatlar o'rtasidagi ulkan yuk oqimlari, odamlarning faol migratsiyasi va kengaygan iqtisodiy munosabatlar olamshumul xususiyat kasb etdi va ko'pgina yuqumli kasalliklarning tarqalish tezligini oshirdi. Notipik zotiljam, qush grippi, cho'chqa grippi kabi ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, yangi kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini ham ayni shu yerdan izlash lozim.

Ayni paytda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, XX-XXI asrda yangi kasalliklar soni ko'payib borsada, kasalliklarga qarshi kurash vositalari ham takomillashib bormoqda. Jumladan, XXI asr fanining eng katta yutug'i sifatida, 2008 yilda nemis olimi Xareld sur Xauzen (1936), ayollarda bachadon saratoni kasalligini «papiloma» virusi keltirib chiqarishini aniqlagan va unga qarshi emlash vositasini yaratgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Dunyo bo'yicha umumiy saraton kasalligining 5 foizini bachadon raki tashkil qilar va har yili ikki yuz mingga yaqin ayollar shu kasallikdan bevaqt olamdan ko'z yumar edi. Ushbu kasallikka qarshi vaksinatseyaning ommalashuvi yuzlab ayollarning sog'ligi garoviga aylanmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham 2009 yildan 12-14 yoshdagi qizlarda bachadon saratoni kasalligiga qarshi emlash ishlari keng amalga oshirilmoqda. Xareld sur Xauzenning kashfiyoti asr boshining eng buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligi bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, barcha viloyatlarda skrining markazlari tashkil qilindi, ona va bola salomatligining profilaktikasi, «Tez yordam» markazlarining faoliyati yo'lga qo'yildi, aholini notipik gripp kasalligiga qarshi emlash ishlari rejali amalga oshirilmoqda. «Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning 98 foizidan ortig'i oldini olish mumkin bo'lgan infeksiyalarga qarshi emlanmokda. Buning natijasida, difteriya, kizamik kasalliklariga chalinish holatlari keskin kamayganini aytish darkor. 2010 yilda yukumli kasalliklar bilan og'rish holatlari, jumladan, meningokok infeksiyasi 28 foiz, epidemik parotit 27 foiz, virusli gepatit 13 foizga kamaygani ana shunday tadbirlar samarasidir»¹². Darhakikat, 1997 yilda 1-sonli yukumli kasalliklar ilmiytadqiqot institutida yangi laboratoriyaning tashkil qilinishi, O'zbekistonda (gipprotit) odam organizmida sarik kasalligining nafaqat A va V virusi, balki S, D, YE viruslarini aniklash imkonini yaratdi. «Sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh

¹¹ Bobojonova N. «Yoshargan» xavfli to'lqin. -T.: «Noshir», 2012 y. 23-b.

¹² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish - tarakkiyotimizning muhim omilidir.-T.: «O'zbekiston», 2010 y.

qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yukumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida kat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'prok, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi. Erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi»¹³. Zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishning yo'lga ko'yilishi, surunkali sarik kasalligining okibati bo'lmish jigar sirrozining kamayishiga va aholining umumiy umrguzaronligini oshishiga olib keldi.

Yangi qadriyatlar tizimi. Ayni shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo'ljallarini izlash jamiyatni ma'naviy yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o'zga sivilizatsiyaga o'tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo'yuvchi antropotsentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e'tiborni qaratuvchi biosferotsentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa, aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko'rishi ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o'zgartirish, insonparvarlik va koevolyusiya, ya'ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo'ljallarini yaratishdan boshqa yo'li yo'q.

Dunyo xalqlar o'rtasida o'zaro aloqa va asosli hamkorlik yo'liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda yuz berayotgan hozirgi jarayonlar hakidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chukurlashtirish, shuningdek, odamlarning yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o'z javobgarligini yanada teranrok tushunishiga erishish lozim. Bu yana shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron kurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o'z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo'lgan okibatlarini ham chamalash va bashorat qilish kobiliyatini ko'p karra oshiradi. Shu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof-muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa okibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik loyihalar bo'yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini mislsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o'ziga tobora ko'prok e'tiborni tortmokda. Bu yerda jonli organizmlarni, shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmokda. Bu ko'p sonli axloqiy va psixologik masalalarni yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta'sirida faqat ellik foizga shakllanadi, kolgan jihatdan u ijtimoiy muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Shu munosabat bilan eng yangi falsafiy adabiyotlarda insonparvarlik masalalari yana birinchi o'ringa chikmokda. Fan-texnika taraqqiyotini nafaqat ayrim insonning,

¹³ Karimov I.A. BMT Sammiti mingyillik rivojlanish maksadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutk. -T.: «O'zbekiston», 2010 y.

balki butun insoniyatning axloqiy fazilatlariga bevosita bo'ysundiruvchi inson faoliyatini butunlay o'zgartirish lozimligini ifodalovchi «ilmiy insonparvarlik» atamasi faol ishlab chiqilmoqda. Birinchi Prezident I.A.Karimov bu xususda: «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday taxdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inkirozga olib kelishi mumkin»¹⁴, degan edi.

Keyinchalik muayyan inson dunyoviy axloq va qadriyatlar umumiy tizimini yaratishning boshlang'ich tayanch nuktasiga aylandi. Bu odamlar, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda axloq «oltin qoidasi»ni ro'yobga chiqarish mumkinligi va zarurligini e'lon qilgan Forobiy, Ibn Sino, T.Gobbs, P.Gassendi, M.Volter, J.J.Russo, I.Kant, G.Gerder va boshqa mutafakkirlar etikasida, ayniksa, bo'rtib namoyon bo'ldi. Uning bizgacha turli ko'rinishlarda yetib kelgan mazmuni Volter bayonida barcha odamlarga karatilgan insoniy chorlov sifatida yangraydi: «O'zing bilan qanday muomala qilishlarini istasang, boshqalar bilan shunday muomala qil». Ayni shu XVII asrda ingliz liberalizmining yorqin vakili J.Lokk (1632-1704) insonning uzviy huquqlari (yashash, erkinlik, mulk huquqi va b.) daxlsiz ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Alisher Navoiy o'zining mashhur «erkinlik», «tenglik», «birdamlik», «adolat» shiorlarini e'lon qilib, odamlarning umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

O'zbekiston o'z aholisi o'sishi bilan bog'liq masalalarni, aytish mumkinki, muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Keyingi paytlarda respublika hukumati inson sog'lig'ini muhofaza qilish, tug'ilgan har bir chaqaloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissini oshirish borasida, Shuningdek, farzandning ota-ona va Vatan hamda xalqi oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma'naviy rag'batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqqanligi o'ta muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda «Sog'lom avlod» jamg'armasining tuzilishi, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi ham fikrimizning dalili bo'ladi.

Bugungi kunda ajdodlarimizning o'z Vatani, tabiiy muhitga mehr-muhabbatli bo'lish kabi muqaddas tuyg'ulari avlod-dan-avlodga meros bo'lib o'tayotganligi bejiz emas. Zero ona Vatanimiz Yer yuzining eng obod va ozod go'shalardan biriga aylanishi shak-shubhasizdir.

Tayanch tushunchalar: Jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy falsafa, madaniy-tarixiy tiplar, ijtimoiymadaniy tizimlar, ijtimoiy makon, sivilizatsiya, madaniyat, qadriyat tushunchasi, madaniy-tarixiy relyativizm, qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi, qadriyat kategoriyasining mazmuni, qadriyatning funksional ahamiyati, qadriyatning shaxsga doir mazmuni, baholash, ehtiyojlar va qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, Inson, shaxs, individ, antropologiya, inson — biologik mavjudot, inson — ijtimoiy mavjudot, inson faolligi, inson qadri, introvertiv, ekstrovertiv, inson ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadi, ideallari, inson huquqi, barkamol inson, praksiologiya, faoliyatning atributlari, dunyoni anglash, ong, in'ikos, bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, bilish obekti, bilish subekti, bilish metodlari, haqiqat, o'z-o'zini anglash, axborot.

¹⁴ I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008 y. 12-b.

Takrorlash uchun savollar.

1. Ong nima?
2. Gnoseologiya nimani o'rganadi?
3. Bilish nima?
4. Bilish obekti, subekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Bilishda haqiqatga erishish yo'lini izohlang.
6. Bilimlar va axborot omili ta'siri ortishini qanday tushunasiz?
7. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyati nimada?
8. Jamiyat nima uchun rivojlanuvchi tizim sifatida baholanadi
9. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifini ayting.
10. "Madaniyat" tushunchasi va uning mohiyati nima
11. "Madaniyat" strukturasi va funksiyalari hamda Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir-biriga ta'siri qanday.
12. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.
13. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari.
14. Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari.

4-MAVZU: LOGIKA - MANTIQ ILMI, TADQIQOT DOIRASI VA VAZIFALARI. TUSHUNCHA –TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA. MULOXAZA. XULOSA CHIQRISH- TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA. ARGUMENTLASH VA BILIMLAR TARAQQIYOTINIIG MANTIQIY SHAKLLARI.

Mantiq ilmi jamiyat tarixida ikki ming yildan ko‘proq davr mobaynida o‘rganib kelinadi. Uni o‘rganish insonga olamni bilish, bilimlarini ko‘paytirish, atrofidagi odamlar bilan muloqotini to‘g‘ri tashkil qilish uchun xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan inson to‘g‘ri tafakkur shakllari va ular bilan bogliq qonun-qoidalarni bilib olar ekan, o‘z fikrini mantiqan to‘g‘ri qurishga, asoslangan bo‘lishiga, nafaqat o‘zining balki boshqalarning ham fikrlaridagi noaniqliklarni aniqlashga va tuzatishga o‘rganadi. Bu ish uzoq tarixga ega bo‘lgan mantiq ilmini chuqur bilishni taqozo etadi.

Mantiq keng ma‘noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog‘lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya‘ni tushuncha, hukm va xulosa chiqarish hamda ular o‘rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma‘lum mantiqiy qonunqoidalarni vujudga keltiradiki, to‘g‘ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan xoli fikrlash ana shu qonun-qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlash yoki rad etish, ularning to‘g‘riligi yoki xatoligini tasdiqlash yoxud inkor etishga xizmat qiladi.

Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha bo‘lgan “mantiq” (grekcha–logos) atamasi «fikir», «so‘z», «aql», «qonuniyat» kabi ma‘nolarga ega. Uning ko‘p ma‘noligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o‘z aksini topadi. Xususan, “mantiq” so‘zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obyektiv mantiq», «narsalar mantig‘i») kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini anglatish (masalan, «subyektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida ishlatiladi.

Mantiq ilmining o‘rganish obyektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» so‘zi ham arabcha bo‘lib, o‘zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida subyektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan, uning ma‘lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo‘lgan narsalarni tushunib yetishga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o‘z oldilariga ma‘lum bir maqsadni qo‘yadilar. Ular o‘rganilishi lozim bo‘lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo‘nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish– insonning sezgi organlari yordamida bilishi tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya‘ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon

bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish obyektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) subyektga (individda, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet–signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To'rtinchidan, hissiy bilish konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham har biri alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning obyektini qayd etish orqali aniqlanadi. O'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarib turiladi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida jinoyatchining portreti (kompyuter yordamida fotoroboti) yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin shunga qaramay, hissiy bilish imkoniyatlari o'z chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to'plami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik (masalan, muz bilan havoning harorati o'rtasidagi bog'lanish) o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu, odatda, bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyat va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, ongga ega bo'lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin.

Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlar va bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosa chiqarishda aniq namoyon bo'ladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan obyektlar (masalan, “absolyut qattiq jism”, “ideal gaz” kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud bo'ladi. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlari, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifodalangan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoni, aholisi, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks etadi. “Milliy g'oya” tushunchasida esa millatning, xalqning kelajak bilan bog'liq orzu-havaslari, maqsadlari, tub manfaatlari o'z ifodasini topgan. Mazmun jihatidan turli xil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali tafsirlanadi. Xususan, «o'z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalarining mavjudligi», «siyosiy tashkilotdan ekanligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «millatning orzu-havaslari, maqsadlarini aks ettirishi», «uning tub manfaatlarini ifoda etishi» milliy g'oyaning muhim belgilaridir. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilnayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» degan hukmda

predmet (yuksak ma'naviyat) bilan uning xossasi (yengilmas kuch) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquq bilan uzviy aloqada» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) S—R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagi kabi holatni kuzatish mumkin.

Masalan,

“Daraxt – o‘simlik”.

“Terak – daraxt”.

Demak, “Terak – o‘simlik”.

yoki

“Har bir kimyoviy element o‘z atom og‘irligiga ega”.

“Mis – kimyoviy element”.

Demak, “Mis o‘z atom og‘irligiga ega” kabilar.

Bunday xulosa chiqarish yo'llari mazmunan bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – «daraxt», ikkinchi misolda – «kimyoviy element» tushunchasi) orqali bog'langan.

Yuqorida keltirilgan misollardan tafakkur shakli fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishi va, demak, o'ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham mantiq ilmida u alohida o'rganish predmeti sifatida olib qaralishi mumkin.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari hamda asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shu elementlar va ularning o'zaro aloqaga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya va shu kabilar)da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda fikrning chin bo'lishi va shakliy jihatdan to'g'ri qurilishi ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga kiradi. Chin fikr o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, «temir – metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «temir – metall emas»). Fikrning to'g'ri yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlardir.

Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsa-da, o'z holicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan ham to'g'ri qurilgan bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xildagi mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar – fikrning aniq, izchil, yetarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi

muhokamaning noto‘g‘ri qurilishiga sabab bo‘ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Tafakkur ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo‘yicha, tayyor holda yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o‘rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo‘nalishlarga ajralishiga sabab bo‘ladi.

Formal va dialektik mantiq. Falsafiy adabiyotlarda dialektik mantiq bilan formal mantiq mavjudligi ta‘kidlanadi. Bularning birinchisi tafakkur shakllarini ularning rivojlanishida olib qarasa, ikkinchisi ularni shakllangan fikrlar sifatida o‘rganadi. Shuningdek, dialektik mantiq tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o‘rgansa, formal mantiq fikrning shaklini uning konkret mazmunidan chetlashgan hamda nisbatan mustaqil holda olib tadqiq etadi. Shuning uchun dialektik mantiq fikrlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishini, formal mantiq esa nisbiy turg‘unligini aks ettiradi. Dialektika fikrlashning formal mantiq qonun-qoidalariga amal qilishni taqozo etadi. Dialektika ham, formal mantiq ham doimo falsafa tarkibida rivojlanib kelgan.

Dialektika rivojlanish jarayonida aynanlik, tafovutlar va qaramaqarshiliklar darajasiga ko‘tariladi, nozidlik taraqqiyot manbai bo‘lmay, balki ular o‘rtasidagi qarama-qarshilik taraqqiyotni ta‘minlaydi, deb ko‘rsatadi. Formal mantiq va dialektik mantiq bir-biriga muqobil metodlarga asoslanadi. Ular mustaqil ta‘limot hisoblanadi. Dialektik mantiq falsafiy metod sifatida, falsafaning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo‘lsa, formal mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan ta‘limotdir.

Falsafada “qonun” tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida esa “qonun” tushunchasi fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo‘ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari obyektiv olam va bilish jarayoniga xos bo‘lgan eng umumiy qonunlar bo‘lib, dialektik mantiqning o‘rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o‘rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to‘g‘ri tuzilishi, aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo‘lishini e‘tiborga olgan holda o‘rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog‘lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari obyektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan. Bu qonunlar fikrlashning to‘g‘ri amalga oshirishini ta‘minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo‘lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar), xulosa chiqarishning shakllanishi va o‘zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo‘lish va asoslanganlik to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy

qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Ayniyat qonuni. Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya'ni mulohazalar mantig'i va predikatlar mantig'ida o'ziga xos ko'rinishga ega.

Mulohazalar mantig'ida $a \rightarrow a$ va $a \leftrightarrow a$. (Bunda, a – har qanday fikrni ifodalovchi belgi, \rightarrow implikasiya belgisi, « \leftrightarrow » ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig'ida $(x(R(x) \rightarrow R(x)))$ bu ifoda quyidagicha o'qiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bo'lsa, X shu belgiga ega, degan fikr to'g'ri bo'ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham, mazmunan aynandir.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgani holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borishimiz bilan o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi. Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'lishi bilan birga, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligi, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo'lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qoʻllanadi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato boʻlishi mumkin; oʻzaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato boʻlmaydi, ulardan biri xato boʻlsa, ikkinchisi albatta chin boʻladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday boʻlmaydi, yaʼni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Arastu — mantiq fanining asoschisi” va “Arastu — mantiq fanining asoschisi emas” — bu oʻzaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato boʻlmaydi. Ulardan birinchisi chin boʻlganligi uchun, ikkinchisi xato boʻladi. Oʻzaro qarama-qarshi boʻlgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato boʻlishi mumkin.

“Uchinchisi – istisno” qonuni. Uchinchisi istisno qonuni Nozidlik qonunining mantiqiy davomi boʻlib, fikrning toʻliq mazmunini qamrab olib, bayon qilingan ikki zid fikrdan birichin, boshqasi xato, uchinchisiga oʻrin yoʻq ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «A yo V, yoki V emas boʻladi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantigʻida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi: $a \vee \neg a$ (formula “a yoki a emas” deb oʻqiladi.)

Bu qonun fikrlar oʻrtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning toʻliq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi maʼlum boʻlsa, unda “Uchinchisi – istisno” qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «aʻlo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato boʻlishi va talaba imtihonda «oʻrta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «aʻlo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «aʻlo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga oʻrin yoʻq ekanligi maʼlum boʻladi. Chunki «yaxshi», «oʻrta» va «ikki» baholar – «aʻlo» baho emas.

“Uchinchisi-istisno” qonuni quyidagi holatlarda qoʻllanadi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida oʻzaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent – Oʻzbekistonning poytaxti.

Toshkent – Oʻzbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham boʻla olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisi mulohazaga oʻrin yoʻq. “Uchinchisi-istisno” qonuni oʻzaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib boʻlmaydi. Bunday holatda «Baʼzi faylasuflar notiqdir» degan uchinchisi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Uchinchisi istisno qonuni:

1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.

2. Umumiy tasdiq va juz'iy inkor etuvchi mulohazalarga nisbatan.

3. Umumiy inkor va juz'iy tasdiq mazmunidagi mulohazalarga nisbatan qo'llanadi.

“Uchinchisi-istisno” qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor mazmunida bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohaza bir-birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi kifoY. Masalan, “erkak” va “ayol” tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo'lib, “inson” tushunchasining to'liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

“Uchinchisi-istisno” qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunini bilish, muhokama yuritishda to'g'ri xulosa chiqarish uchun muhim bo'lib, o'zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo'l qo'ymaydi.

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri asoslilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun uni asoslash, isbotlashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar **mantiqiy asos**, berilgan mulohazaning o'zi esa **mantiqiy natija** deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli

asosga ega bo'lishining obyektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatiningina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma'noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi fazo va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalar ta'rifi, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Shuningdek, asoslashning subyektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjud. Intuitsiya, e'tiqod, avtoritet va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalaniladi. Intuitsiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. "Intuitsiya" so'zi – lotincha "intuitio" so'zidan olingan bo'lib, «diqqat bilan tiqilib qarayman», degan ma'noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, hissiy va aqliy bilishdan o'zgacha bir ko'rinishni tashkil etmaydi; o'ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab, tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi – haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

E'tiqod – kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlar majmuasidan iborat. E'tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko'rilmagan, chinligi noma'lum boshlang'ich bilimlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Intuitsiya kabi e'tiqod ham subyektiv xarakterda bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib turadi. «Anglash uchun e'tiqod qilaman», degan edi Avliyo Avgustin (354-470) va Anselm Kenterberiyский (1033–1109).

Fransuz faylasufi va teologi Pyer Abelyar (1079–1142) esa aql va e'tiqodning o'zaro nisbatini haqqoniy ko'rsatgan holda «E'tiqod qilish uchun tushunaman», deydi. Albatta, e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda

yetarli asos bo‘ladi. Shuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o‘rnashib qoladi. Birinchi Prezident I.A. Karimov: «Milliy mafkura – bu xalqning, millatning o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan o‘lmas e‘tiqodidir¹⁵», deganda aynan shuni nazarda tutgan edi.

Avtoritet (autoritas – hokimiyat, ta’sir) – keng ma’noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko‘pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta’siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishda “avtoritet” tushunchasi obro‘li, e‘tiborli, nufuzli manba ma’nosida qo‘llanadi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro‘li, e‘tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblardagi bitiklar, xususan, “Qur’on”da yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlardan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil bo‘ladi. Tor doirada amal qiladigan, qisqa muddatli avtoritetlardan fikr-mulohazalarni asoslashda hamma vaqt ham foydalanib bo‘lmaydi. Chunki vaqt o‘tishi yoki amal qilish doirasining o‘zgarishi bu avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bo‘lgan avtoritetlarga fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun yetarli asos bo‘ladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoit va siyosiy o‘zgarishlarning ta’sirida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaydi, vaqt sinoviga bardoshli bo‘ladi. Umuminsoniy ma’naviy madaniyat xazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli so‘zlari, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda yetarli dalil hisoblanadi. Masalan, «Ilm olish uchun tinimsiz izlanish zarur» ekanligi haqidagi fikrni hazrat Mir Alisher Navoiyning «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim» so‘zlari bilan, shuningdek, hadislarda keltirilgan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» kabi fikr-mulohazalar yordamida asoslash mumkin.

Avtoritetlarga asoslanish bilan **avtoritar tafakkurni** o‘zaro farqlash zarur. Avtoritarlik – asoslanganlikning o‘zgargan, buzilgan ko‘rinishi bo‘lib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

Avtoritar tafakkurlashga moyil kishi biror muammoni o‘rganishdan avval o‘zini «asosiy mulohazalar yig‘indisi» bilan cheklab qo‘yadi. Bu mulohazalar yig‘indisi tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi va ko‘pincha avvaldan ma’lum bo‘lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo‘lgan fikrlar sistemasi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga bo‘ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo‘lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo‘lgan fikr yuritish usuli bo‘lib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a’zolari, xususan, yoshlarda milliy mafkura va milliy g‘oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Shu o‘rinda matbuotning, ayniqsa, radio va televideniyaning u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e‘tiborlidir. Avtoritetlar masalasi murakkab va ko‘p qirralidir. Shu sababdan fikr-

¹⁵ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: FIDOKOR gazetasi muxbiri savollariga javoblar.-T.: O‘zbekiston. 2000, 30-b.

mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, meyorga amal qilgan holda foydalanish zarur.

Urf-odat avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi xatti-harakat, xulq-atvor usuli bo'lib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Urf-odatlarga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish ko'pincha kishilarning turmushi, axloqiy meyorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a'zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bo'lgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga ko'ra...», deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko'ra, fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat'iy mazmunga ega bo'lishi, aynan shu fikr doirasida o'zgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Tushuncha – tafakkurning mantiqiy shakli

Tushuncha – predmet va hodisalarni umumiy, muhim belgilari orqali aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomon va xususiyatlarga aytiladi.

Belgilar muhim yoki nomuhim bo'ladi. Predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo'lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo'lishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, ma'lum bir munosabatda muhim bo'lmagan belgilar boshqa munosabatda muhim bo'lishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo'lsa, inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma'lum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, obyektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bo'lishi bilan zaruriy aloqada bo'lgan belgilar) farq qiladi.

Predmet to'xtovsiz harakatda, taraqqiyotda bo'lganligi uchun vaqt o'tishi bilan uning muhim bo'lgan belgisi nomuhim bo'lgan belgiga yoki aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin. Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi.

Demak, tushunchada predmetning muhim belgilari mujassamlashadi, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, «G'afur G'ulom» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, shoir) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Sen yetim emassan» she'ring muallifi) ham ifodalangan.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor

berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. «Qalam» tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan maxsus belgilar bo'lib ham xizmat qiladi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak, uni to'laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma'noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in'ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to'laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi. Bu usullar: taqqoslash, tahlil, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishdir.

Taqqoslash yordamida predmetlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash, umumiy va bir-biridan farq qiluvchi individual belgilari aniqlanadi. Taqqoslash tahlilni taqozo qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo'lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko'ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. **Tahlil** yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o'rganiladi.

Sintez tahlilga teskari usul bo'lib, u tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holga keltirishdan iborat. Sintez bo'lmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bo'lmaydi. Tahlil va sintez uzviy bog'liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa **abstraksiyalash** yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so'z bilan uzviy bog'liq. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o'rtasidagi bog'lanishning konkret tarzda namoyon bo'lishidir.

Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifodalanadi. Masalan, «talaba», «Falsafa fakulteti», «O'zbekiston milliy universiteti» birikma so'zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda ham turli xil so'zlar bilan ifodalanadi. Tilimizdagi omonim va sinonimlik hodisalari so'z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi. Shuni ham aytish lozimki, so'zning ko'p ma'noliligi ega bo'lishi ba'zan tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada ko'proq terminlardan foydalaniladi. **Termin** qat'iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so'z bo'lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma'noda ishlatiladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi

Tushuncha o'zining mazmuni va hajmiga ega. **Tushunchaning mazmunini** unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to'g'risidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, ya'ni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi obyektiv chin (haqiqiy) bilimlar tizimidan iborat bo'lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi kabi ma'lumotlar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa, unda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisini aks ettiradi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni ichiga qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog'liq bo'lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi Teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha, hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»qa oid bo'lish belgisini qo'shish bilan hajm jihatidan undan torroq bo'lgan «mantiq fani» tushunchasiga o'tiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo'lgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos bo'lib, boshqa ijtimoiy ong shakllari, masalan, huquqiy ongda bo'lmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Tushuncha turlari

Mantiq fanida tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'ra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Mars planetasi», «O'zMU asosiy kutubxonasi» yakka tushunchalardir. **Umumiy tushunchalar** predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «kimyoviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to'plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. **Ayiruvchi tushuncha** shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir. **To'plovchi tushuncha** ham umumiy tushuncha bo'lib, u aks ettirgan belgilar shu umumiylikni tashkil etuvchi har bir predmetga taalluqli bo'lmaydi. Masalan, «konferensiya» – to'plovchi, «konferensiya ishtirokchisi» – ayiruvchi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalambor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo'linadi. **Konkret tushunchalarda** predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. **Abstrakt tushunchalarda** esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan, «inson», «tabiat» tushunchalari – konkret tushunchalar, «qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «go'zallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari – abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. **Nisbatsiz tushunchalar** nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «o'qituvchi» va «o'quvchi», «ijobiy qahramon» va «salbiy qahramon», «sabab» va «oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba'zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. **Ijobiy tushunchalarning** mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «savodli kishi», «vijdonli kishi» – ijobiy tushunchalar, «savodsiz kishi», «vijdonsiz kishi» esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning qaysi turlarga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, aniq, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi» – yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Tushuncha turlari

Mantiq fanida tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'ra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Mars planetasi», «O'zMU asosiy kutubxonasi» yakka tushunchalardir. **Umumiy tushunchalar** predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «kimyoviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to'plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. **Ayiruvchi tushuncha** shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfnig har bir predmetiga xosdir. **To'plovchi tushuncha** ham umumiy tushuncha bo'lib, u aks ettirgan belgilar shu umumiylikni tashkil etuvchi har bir predmetga taalluqli bo'lmaydi. Masalan, «konferensiya» – to'plovchi, «konferensiya ishtirokchisi» – ayiruvchi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalambor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo'linadi. **Konkret tushunchalarda** predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. **Abstrakt tushunchalarda** esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan, «inson», «tabiat» tushunchalari – konkret tushunchalar, «qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «go'zallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari – abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. **Nisbatsiz tushunchalar** nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «o'qituvchi» va «o'quvchi», «ijobiy qahramon» va «salbiy qahramon», «sabab» va «oqibat» tushunchalari

nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba'zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. **Ijobiy tushunchalarning** mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «savodli kishi», «vijdonli kishi» – ijobiy tushunchalar, «savodsiz kishi», «vijdonsiz kishi» esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning qaysi turlarga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, aniq, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi» – yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar

Obyektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «paxtakor» va «dehqon» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.


Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «ideal gaz» va «go'zallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar hisoblanadi. Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar o'rganiladi.

Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi. **Sig'ishadigan tushunchalarning** hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo'ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi. Masalan:

«SH.Mirziyoyev», «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti» tushunchalari xuddi shunday munosabatda. Buni quyidagi tuzilmada ko'rsatish mumkin:

A – SH.Mirziyoyev.


B – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.



Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A – sportchi.

B – talaba.




Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning o'zida ham sportchi, ham talaba bo'lganlarni bildiradi.

Bo'ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to'liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A – fan.

B – mantiq.



Bunday munosabatdagi tushunchalardan biri bo'ysundiruvchi (A), ikkinchisi (B) bo'ysunuvchi bo'lib, ular jins-tur munosabatida bo'ladi. "Jins" tushunchasi predmetlarning birorta sinfini, "tur" tushunchasi esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhi yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u biror tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga ega. Har bir tushuncha o'zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, "milliy g'oya", "g'oya", "fikir" tushunchalari o'rtasida quyidagi nisbat mavjud: «g'oya» tushunchasi «fikir» tushunchasiga nisbatan tur, «milliy g'oya» tushunchasiga nisbatan jins bo'ladi.


Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalar bo'lib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlar yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyligi faqat ana shunda. Bu tushunchalar o'rtasida ham uch xil munosabat: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik mavjud.

Birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar o'rtasida mavjuddir:

A – fan.

B – mantiq.

C – fizika.




Bunda «mantiq» va «fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «fan» tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ya'ni biri predmetning ma'lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar o'zlari bo'ysunadigan tushunchaning hajmini to'liq egallay olmaydi. Masalan, «baland bo'yli odam» va «past bo'yli odam» tushunchalari «odam» tushunchasining hajmini to'liq qoplay olmaydi.

A – odam.

B – baland bo'yli odam.

C – past bo'yli odam.




Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo'lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalardan farqli o'laroq, bo'ysundiruvchi tushunchaning hajmini to'liq qoplaydi. Masalan:

A – odam.

B – e'tiqodli odam.

C – e'tiqodsiz odam.



Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirish, bog'lash, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o'tishga yordam beradi. Masalan, «talaba» va «a'lochi» tushunchalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Ba'zi talabalar a'lochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin.


Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigan amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga («jins» tushunchasidan «tur» tushunchasiga) fikran o'tishdan iborat. Masalan, «mexanik harakat» tushunchasidan «aylanma harakat» tushunchasiga o'tsak, uning hajmini chegaralagan bo'lamiz. Chegaralashda berilgan tushuncha – «mexanik harakat» jins tushuncha, deb qabul qilinib, uning mazmuniga tur tushuncha hosil qiluvchi belgilar qo'shiladi. Natijada unga nisbatan tur hisoblangan yangi tushuncha – «aylanma harakat» tushunchasi hosil bo'ladi.

Chegaralash amalini davom ettirib, «Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi» tushunchasiga o'tish mumkin. Demak, chegaralash davomida hosil bo'lgan har bir yangi tushuncha avvalgisiga nisbatan tur tushuncha bo'ladi. Chegaralash amali yakka tushuncha hosil bo'lguncha davom ettirilishi mumkin. Chunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo'lgan tushuncha yo'q.

Tushunchani chegaralash amalining tuzilmasi quyidagicha:


- A – harakat.
- B – mexanik harakat.
- C – aylanma harakat.
- D – yerning o'z o'qi atrofida aylanishi.



Tushunchani umumlashtirish hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran o'tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada, mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko'ra kengroq bo'lgan jins tushuncha hosil bo'ladi. Masalan, «aylanma harakat» tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo'lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, «mexanik harakat» tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya'ni kategoriyadir. Chunki kategoriyalar uchun jins bo'lgan tushuncha yo'q.

Tushunchani umumlashtirish amalining tuzilmasi quyidagicha:

- A – Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi.
- B – aylanma harakat.
- C – mexanik harakat.
- D – harakat.



Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari kundalik hayotimiz va ilmiy bilishda keng qo'llanadi. Xususan, barcha kategoriyalar, ular yordamida ifodalanadigan nazariy qonunlar, g'oyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalar va empirik qonunlarni umumlashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Umumlashtirish muhokama yuritish jarayonida induktiv xulosa chiqarish usulida yaqqol ifodalangan bo'ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bo'lmaydi; mavjud bilimlarni tizimga solish qiyin va umuman, fan taraqqiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni (nazariy tushuncha, g'oya, nazariya va shu kabilarni) talqin etishda ishlatiladi. Masalan, Nyuton mexanikasidagi «inersiya» tushunchasi Galiley nazariyasidagi «erkin tushish» tushunchasi yordamida tushuntirilishi mumkin.

Tasniflash (turkumlash, klassifikatsiya) tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Tasniflash predmetlarni ma'lum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga) ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rniga ega. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, tuzilmalar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Mantiq fanida sun'iy va tabiiy tasniflar farq qilinadi. Sun'iy tasnif predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxonadagi kitoblar katalogini ko'rsatish mumkin. Tabiiy tasnifni amalga oshirish uchun bo'lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisi olinishi lozim. Ana shuning uchun ham u predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog'lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleevning "kimyoviy elementlar davriy jadvali", "Darvinning Jonli tabiat predmetlari tasnifi" misol bo'la oladi.

Tasniflashda tushunchani bo'lish qoidalariga amal qilish zarur.

Tasniflar nisbiy turg'un xarakterga ega. Ular bilish va kundalik turmush jarayonida uzoq yillar davomida ishlatiladi.

Albatta, bilimlarimizning taraqqiy etishi, yangi bilimlarning vujudga kelishi ko'p hollarda tasniflarga tuzatishlar kiritish, ba'zan esa butunlay yangisi bilan almashtirilishini taqozo etadi. Shunga qaramay, tasniflash mavjud bilimlarimizni tizimga solish vositasi sifatida bilishda o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lib qoladi.

Tushunchalarni ta'riflash (definitsiya)

Ta'riflash (yoki definitsiya) tushunchaning mazmunini ochib beruvchi mantiqiy amaldir. Ta'rif aniqlanuvchi va aniqlovchi qismlardan tashkil topadi. Aniqlanuvchi qismni mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha, aniqlovchi qismni esa, aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar tashkil etadi. Masalan, «mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fandir» degan ta'rifda «mantiq» aniqlanuvchi qism, qolganlari esa aniqlovchi qismni hosil qiladi. Ta'riflash bilishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishda yordam beradi: 1) tushunchada aks etuvchi predmetning muhim belgilarini ko'rsatadi; 2) tushunchani ifoda qiluvchi so'zning (termining) ma'nosini ochib beradi; 3) termin hosil qilishga imkon beradi. Yuqoridagi vazifalardan qaysi birining hal qilinishiga qarab nominal va real ta'riflar farq qilinadi.

Nominal ta'riflar yordamida predmetni tasvirlovchi murakkab ifodalar yangi termin bilan almashtiriladi hamda uning ma'nosi aniqlanadi. Masalan, «Mantiq»

so‘zigrekcha «logos» so‘zidan olingan bo‘lib, tushuncha, fikr, so‘z, qonuniyat kabi ma’nolarga ega», desak, “mantiq” tushunchasiga nominal ta’rif bergan bo‘lamiz. «Til belgilarini o‘rganuvchi fan semiotikadir», degan ta’rif ham nominal ta’rifga misoldir.

Real ta’rifda predmetning muhim belgisi aniqlanadi. Masalan, «Atom – moddaning yadro va elektronlardan tashkil topgan zarrachasi», degan ta’rif real ta’rifdir.

Real ta’rif aniq va noaniq ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Aniq real ta’rif predmetlarning muhim belgilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib beradi. Noaniq real ta’rifda esa tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi. Masalan, o‘qigan parchamizda notanish terminlar uchrab qolganda, uning ma’nosini lug‘atdan foydalanmay, boshqa so‘zlarning ma’nosiga qarab aniqlashimiz mumkin.

Aniq real ta’rifning ikki asosiy turi mavjud: 1) yaqin jinsi va tur belgisini ko‘rsatish orqali ta’riflash; 2) genetik ta’rif.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko‘rsatish orqali ta’riflash real ta’rifning eng ko‘p ishlatuvchi turi bo‘lib, u ikki bosqichdan tashkil topadi. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi. Bunda uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlanadi, ya’ni uning tur belgisi ko‘rsatiladi. Shu tariqa mazkur tushuncha mazmunining qolgan qismi ochib beriladi. Masalan, bizning oldimizda «metafora» tushunchasi mazmunini aniqlash vazifasi turibdi, deylik. Bunda, avval aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi: u «so‘z» tushunchasidir. «Metafora so‘zdir» deyish bilan «so‘z» tushunchasi mazmunida fikr qilinadigan muhim belgilarning metaforaga ham tegishli ekanligini ko‘rsatamiz, ya’ni «metafora» tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi umumiy belgilarni aniqlaymiz. So‘zning ko‘chma uning tur belgisi, ya’ni individual belgisi hisoblanadi. Bu tur belgini yaqin jinsga qo‘shib «Metafora ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘zdir», degan to‘la ta’rif hosil qilamiz. Shu tariqa eng qisqa yo‘l bilan, ya’ni yaqin jinsi va tur belgisini ko‘rsatish bilan tushunchaning mazmunini aniqlaymiz.

Genetik ta’rifda aniqlanuvchi tushunchaning mazmuni u ifodalagan predmetning kelib chiqishini ko‘rsatish orqali ochib beriladi. Masalan, «Oksid metallarning kislorod bilan reaksiyaga kirishishi natijasida hosil bo‘lgan kimyoviy birikmadir», degan ta’rif genetik ta’rifga misoldir. Bu ta’rifning mantiqiy tarkibi yaqin jinsi va tur belgisini ko‘rsatish orqali ta’riflash bilan bir xildir.

MULOXAZA. XULOSA CHIQARISH – TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA.

Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish – bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma’lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi shaklidir.

Xulosa chiqarish asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o‘tish jarayonidan tashkil topadi. To‘g‘ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalardan iborat bo‘lishi, o‘zaro mantiqan bog‘lanishi kerak.

Masalan, Arastu – mantiq fanining asoschisi va Platon yunon faylasufidir degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki bu mulohazalar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlik yo‘q.


Xulosa asoslari va xulosa ham o‘zaro mantiqan bog‘langan bo‘lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo‘ladi.

Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Talaba A – a'lochi» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining soni va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyani hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

Xulosa chiqarish



Deduktiv xulosa chiqarish

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: XY_{SP} , bunda X va Y oddiy qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning subyekti va predikatini ifodalaydi. X_{SP} – xulosa asosi yoki antesedent, Y_{SP} – xulosa yoki konsekvent, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni subyekt va predikat munosabatlarning miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita

xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. Aylantirish (lot.–obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o‘zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo‘sh inkor sodir bo‘ladi, ya‘ni avval asosning predikati, keyin bog‘lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{S - P}{S - P}$$

Inkor qilish jarayonida (-ma; -siz; -mas) kabi qo‘shimchalar yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat‘iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa asosi bo‘lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanadi:

		Xulosa asosi		Xulosa
1	A	Hamma S-P	Y E	Hech bir S-Psiz emas
2	Y E	Hech bir S-P emas	A	Xamma S emas P dir
3	I	Ba‘zi S-P	O	Ba‘zi S-P siz emas
4	O	Ba‘zi S-P emas	I	Ba‘zi S emas P dir

Aylantirish usuli bilan xulosa chiqarilganda “biror nimaning qo‘shinkori uning tasdig‘i bilan tengdir ” degan qoida amal qiladi.

Masalan:

1. A. Hamma ilmiy qonunlar obyektiv xarakterga ega.

YE. Hech bir ilmiy qonun subyektiv xarakterga ega emas.

II. Almashtirish (lot.–conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subyekt va predikatning o‘rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi:

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e‘tiborga olinishi shart.

Juz‘iy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Almashtirishga misol:

A. Hamma shifokorlar oliy ma‘lumotlidir.

B. Ba‘zi oliy ma‘lumotlilar shifokorlardir.

Demak, almashtirish usuli qo‘llanganda mulohazadagi subyekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlar o‘rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta‘riflarning to‘g‘riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo‘yish (lot.– contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo‘lib, bu usul qo‘llanganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so‘ngra almashtiriladi. Natijada hosil bo‘lgan mulohazaning (xulosaning) subyektini asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subyektiga mos bo‘ladi:

$$\frac{S - P}{P - S}$$

Bunda, xulosadagi S ning inkor shaklida bo‘lishi xulosa bog‘lovchisining inkor etilishi natijasidir. Predikatga qarama-qarshi qo‘yishda A-YE ga, YE-I ga, 0-I ga o‘zgaradi.

Turli mulohazalardan bunday usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi shaklda ko‘rsatilgan:

	Xukm	Xulosa asosi	Xulosa
	A	Hamma S-P	Hech bir R emas S emas
	Y E	Hech bir S P emas	Ba’zi R emas S dir
	O	Ba’zi S P emas	Ba’zi R emas S dir

Masalan:

1. A. Hamma musulmonlar Islom diniga e‘tiqod qiladilar. Islom diniga e‘tiqod qilmaydiganlar musulmon emas.

Juz‘iy tasdiq (I) mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo‘yish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki, «Ba’zi S-P mulohazani aylantirsak «Ba’zi S-P mas emas», ya’ni juz‘iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat‘iy mulohazalarning o‘zaro munosabatlarini (qarang: mantiqiy kvadrat) e‘tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o‘rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo‘ysunish munosabatlariga asoslanadi. Bu munosabatlarning tahliliga ko‘ra xulosa chin bo‘lgan quyidagi holatlarni ko‘rsatish mumkin.

1. Asos mulohaza va xulosa chin bo‘lgan : $A \rightarrow I, YE \rightarrow 0$.

2. Asos mulohaza xato va xulosa chin bo‘lgan: $I \rightarrow O, O \rightarrow I$

Masalan: A. Hamma mustaqil davlatlar BMT ga a‘zo.

I. Ba’zi mustaqil davlatlar BMT ga a‘zo.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilish jarayonida mavjud fikrni aniqlab olish, uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish, shuningdek, bir fikrni turli xil ko‘rinishda bayon qilish, yangi bilimlar hosil qilishga imkon beradi.

Oddiy qat‘iy sillogizm

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo‘ladi. “Sillogizm” so‘zi qo‘shib hisoblash, degan ma‘noni beradi. Bu termin mantiq fanida, deduktiv xulosa chiqarishning ko‘proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat‘iy sillogizmni ifodalashda qo‘llaniladi. **Sillogizm** o‘zaro mantiqiy bog‘langan ikki qat‘iy mulohazadan uchinchi – yangi qat‘iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo‘ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo‘ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo‘lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba’zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – Ba’zi boylar saxiy emas, degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat‘iy mulohazalardan tashkil


topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conclusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar **terminlar** deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S – **kichik termin** (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – **katta termin** (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) **o'rta termin** deb ataladi. Asoslarda katta termini o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik termini o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.

S – kichik termin;

M – o'rta termin;

R – katta termin.




O'rta termin katta va kichik termini bog'lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbot talab qilmaydigan isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmi yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasi mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: *buyum va hodisalarning sinfi to'g'risida bildirilgan tasdiq yoki inkor fikr shu sinf tarkibidagi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrimlar ham taalluqli fikr hisoblanadi.*

Masalan:

Tafakkur shakllari obyektiv xususiyatga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha obyektiv xususiyatga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi: *biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo'lgan narsalar buyum, hodisaning o'ziga ham ziddir.*

Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o‘zaro uzluksiz, obyektiv bog‘langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomondan, hamma umumiylikka juz‘iylik va yakkalik xos ekanligini va har bir yakkalik juz‘iylik, umumiylik xislatiga ega bo‘lishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, buyum va belgining o‘zaro uzviy bog‘langanligi, ya’ni buyumlar jinsi ayrim o‘ziga xos belgiga ega bo‘lsa, albatta, bu belgi shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham xos belgi bo‘lishini ifodalaydi. Bular esa, o‘z navbatida, yakkalik va umumiylik hamda miqdor va sifat o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir.

Sillogizmning umumiy qoidalari

Xulosa asoslarining chin bo‘lishi xulosaning chin bo‘lishi uchun yetarli emas. Xulosa chin bo‘lishi muayyan qoidalarga amal qilish ham zarur. Ular sillogizmning umumiy qoidalari bo‘lib, sillogizm terminlari va asoslariga taalluqli bo‘lgan quyidagi qoidalardir:

1. Sillogizmda uchta termin: katta, kichik va o‘rta terminlar bo‘lishi kerak. Ma’lumki, sillogizmning xulosasi katta va kichik terminlarning o‘rta terminga bo‘lgan munosabatiga asoslanadi; shu sababdan ham terminlar soni uchtdan kam yoki ortiq bo‘lmasligi talab qilinadi. Agar terminlar soni uchtdan kam bo‘lsa, xulosa yangi bilim bermaydi.

Masalan: Hamma notiqqlar so‘z san’atini chuqur egallagandir.

So‘z san’atini chuqur egallaganlar orasida notiqqlar ham bor.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi, chunki terminlar soni ikkita. Terminlar sonining uchtdan ortib ketishi ayniyat qonuni talablarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, terminlar to‘rtlanishi (quarternio terminorum) deb ataluvchi xatoga olib keladi:

Davlat – iqtisodiy munosabatlarning siyosiy ifodasidir.

Har bir inson uchun sihat-salomatlik eng katta davlatdir.

Bu mulohazalarda «davlat» so‘zining ikki xil ma’noda qo‘llanishi chetki terminlarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishiga imkon bermaydi. Terminlarning uchtdan ortiq bo‘lishi asoslar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikning uzilishiga ham sabab bo‘ladi:

a) Hamma notiqqlar – shuhratparast.

Sitseron davlat arbobi bo‘lgan.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi, chunki bu mulohazalar o‘zaro mantiqiy bog‘lanmagan.

2. O‘rta termin hech bo‘lmaganda asoslardan birida to‘la hajmda olinishi kerak.

Agar o‘rta termin hech bir asosda to‘liq hajmda olinmasa, chetki terminlarning bog‘lanishi noaniq bo‘ladi va xulosaning chin yoki xatoligini aniqlab bo‘lmaydi.

Ba’zi faylasuflar notiqdir.

Kafedramizning hamma a’zolari faylasufdir.

Bu sillogizmda o‘rta termin katta asosda juz‘iy hukmning subyekti, kichik asosda umumiy tasdiq hukmning predikati bo‘lganligi uchun har ikkala asosda to‘liq hajmda olinmagan. Shuning uchun chetki terminlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanmagan. Bu asoslardan sun’iy ravishda chiqarilgan “Kafedramizning hamma a’zolari notiqdir” degan xulosa noaniq bo‘ladi.

3. Katta va kichik terminlar asoslarda qanday hajmda olingan bo‘lsa, xulosada ham shunday hajmda bo‘lishi kerak.

Bu qoidaning buzilishi kichik yoki katta termin hajmining noo‘rin kengayib ketishiga olib keladi. Masalan:

Hamma talabalar imtihon topshiradilar.

Hech bir abituriyent talaba emas.

Hech bir abituriyent imtihon topshirmaydi.

Bu misolda kichik termin hajmining noo‘rin kengayib ketishi xulosaning xato chiqishiga sabab bo‘ldi.

4. Ikki inkor hukmdan (asosdan) xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Masalan:

Ishsizlar tadbirkor emas.

Talabalar ishsiz emas.

5. Ikki juz‘iy hukmdan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Masalan:

Ba‘zi ayollar tadbirkordir.

Ba‘zi davlat arboblari ayollardir.

6. Asoslardan biri inkor hukm bo‘lsa, xulosa ham inkor mazmunda bo‘ladi.

Masalan:

Hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi.

Vatanga xiyonat qilish jinoyatdir.

Vatanga xiyonat qilish jazosiz qolmaydi.

7. Asoslardan biri juz‘iy hukm bo‘lsa, xulosa ham juz‘iy hukm bo‘ladi. Masalan:

Yaxshi farzand ota-onasini hurmat qiladi.

Ba‘zi yoshlar yaxshi farzanddir.

Ba‘zi yoshlar ota-onasini hurmat qiladi.

Sillogizm figuralari va moduslari

Oddiy qat‘iy sillogizmning strukturasi o‘rta terminning joylashishiga qarab sillogizmning to‘rtta figurasi farq qilinadi.

I figurada o‘rta termin katta asosning subyekti, kichik asosning predikati bo‘lib keladi.

II figurada o‘rta termin katta va kichik asoslarning predikati bo‘lib keladi.

III figurada o‘rta termin har ikki asosning subyekti bo‘lib keladi.

IV figurada o‘rta termin katta asosning predikati, kichik asosning subyekti bo‘lib keladi.

Sillogizm asoslari oddiy qat‘iy hukmlar (A, YE, I, O)dan iborat. Bu hukmlarning ikki asos va xulosada o‘ziga xos tartibda (to‘plamda) kelishi modus deb ataladi. «Modus» – shakl degan ma‘noni anglatadi. Sillogizm figuralarining o‘ziga xos moduslari mavjud. Har bir figuraning to‘g‘ri moduslarini aniqlab, to‘g‘ri xulosa chiqarishda sillogizmning umumiy qoidalari bilan birga har bir figuraning maxsus qoidalarga ham amal qilinadi. Figuralarning maxsus qoidalari sillogizm terminlarining o‘ziga xos bog‘lanishi asosida aniqlanadi.

Oddiy qat‘iy sillogizmning birinchi figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Katta asos umumiy hukm bo‘lishi kerak.

2. Kichik asos tasdiq hukm bo‘lishi kerak.

I figuraning to‘rtta to‘g‘ri modusi mavjud:

AAA-Barbara, EAE-Celarent, AII-Darii, EIO-Ferio.

Moduslarning birinchi harfi katta asosning, ikkinchi harfi-kichik asosning, uchinchi harfi xulosaning sifat va miqdorini ko‘rsatadi. Figuralarning moduslarini bir-biridan farqlash maqsadida ularning har biri alohida nom bilan ataladi.

Masalan:

A. Hamma ilmiy qonunlar obyektiv xususiyatga ega.

A. Tafakkur qonunlari – ilmiy qonunlardir.

A. Tafakkur qonunlari obyektiv xususiyatga ega.

Sillogizmning I figurasida oddiy qat'iy hukmlarning barcha turlari bo'yicha hulosalar beriladi.

Oddiy qat'iy sillogizmning II figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Katta asos umumiy hukm bo'lishi kerak.

2. Asoslarning biri inkor hukm bo'lishi kerak.

II figuraning to'rtta to'g'ri modusi mavjud:

AEE-Camestres, EAE-Cesare, AOO-Baroko, EIO-Festino.

Masalan:

A. Hamma hukmlar darak gap orqali ifodalanadi.

YE. Savol darak gap orqali ifodalanmaydi.

YE. Savol hukm emas.

Sillogizm II figurasidan faqat inkor hukm ko'rinishida xulosa chiqiriladi.

a) Oddiy qat'iy sillogizm III figurasi bitta maxsus qoidasi bor: kichik asos tasdiq hukm bo'lishi kerak.

III figuraning to'g'ri moduslari oltita:

AAI-Darapti, AII-Datasi, IAI-Disamis, EAO-Felapton, EIO-Ferision, OAO-Bokardo.

Masalan,

A. Hamma mantiqshunoslar faylasufdir.

A. Hamma mantiqshunoslar – ilmiy kishilardir.

I. Ba'zi ilmiy kishilar faylasufdir.

III figuraning hulosalari faqat juz'iy hukmdan iborat bo'ladi

Oddiy qat'iy sillogizmning IV figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Asoslarning biri inkor hukm bo'lsa, katta asos umumiy hukm bo'ladi.

2. Katta asos tasdiq hukm bo'lsa, kichik asos umumiy hukm bo'ladi.

IV figuraning beshta to'g'ri modusi mavjud:

AAI-Bramalip, AEE-Camenis, IAI-Dimaris, EAO-Fesapo, EIO-Fresison.

Masalan,

A. Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.

A. Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.

I. Ba'zi adolatli kishilar halol odamlardir.

Sillogizmning IV figurasi umumiy tasdiq hukm ko'rinishidagi xulosani bermaydi.

Arastudan boshlab barcha mantiqshunoslar sillogizmning I figurasi va uning moduslariga katta e'tibor berganlar. Ular I figurani mukammal, deb bilganlar, uning hulosalarini aniq va yaqqol, deb hisoblaganlar.

Entimema (qisqartirilgan qat'iy sillogizm)

Entimema deb, asoslaridan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. Entimema so'zi – aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Zarur bo'lganda uni topib, o'rniga qo'ygan holda entimemadan to'la sillogizmi tiklash mumkin.

Entimemalar uch turli bo'ladi:

1. Katta asosi tushirib qoldirilgan.

2. Kichik asosi tushirib qoldirilgan.

3. Xulosasi tushirib qoldirilgan.

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:

Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadi.

Sobirov falsafa fakultetining talabasi.

Sobirov mantiq fanini o'rganadi.

Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:

1. Sobirov falsafa fakultetining talabasi bo'lganligi uchun mantiq fanini o'rganadi (katta asos tushirib qoldirildi).

2. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, shu jumladan Sobirov ham (kichik asos tushirib qoldirildi).

3. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, Sobirov esa shu fakultetning talabasi (xulosa tushirib qoldirildi).

Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayoni va notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.

Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizmlar

Bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ikki yoki undan ortiq oddiy qat'iy sillogizmlardan tuzilgan xulosa chiqarish – polisillogizm, ya'ni murakkab sillogizm deb ataladi. Polisillogizm dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining katta yoki kichik asosi bo'ladi. Shunga ko'ra, polisillogizmning progressiv va regressiv turlari farqlanadi.

Progressiv polisillogizm dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining katta asosi o'rnida keladi. Masalan:

Insonni kamolotga yetishtiruvchi narsalar foydalidir.

Ilmni egallash – insonni kamolotga yetishtiradi.

Ilmni egallash foydalidir.

Hunar o'rganish – ilmni egallash demakdir.

Demak, hunar o'rganish foydalidir.

Regressiv polisillogizm dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining kichik asosi bo'lib keladi. Masalan:

O'simliklar tirik mavjudotlardir.

Daraxtlar o'simliklardir.

Tirik mavjudotlar hujayradan tashkil topgan.

Daraxtlar tirik mavjudotlardir.

Demak, daraxtlar hujayradan tashkil topgan.

Polisillogizm tarkibidagi birinchi, dastlabki sillogizm **prosillogizm**, qolganlari **episillogizm** deyiladi.

Polisillogizmning qisqartirilgan ko'rinishi – **sorit** deb ataladi.

Soritning tuzilishi quyidagicha:

Hamma A-B.

Hamma B-V.

Hamma V-G.

Hamma G-D.

Hamma A-D.

Soritlar ham progressiv yoki regressiv bo'ladi. **Progressiv soritda** prosillogizmning xulosasi – episillogizmlarning katta asosi tushirib qoldiriladi.

Regressiv soritda prosillogizmning xulosasi – episillogizmlarning kichik asosi tushirib qoldiriladi.

Sillogizmning kichik asosi tushirib qoldirilgan sorit – Arastu soriti, sillogizmning katta asosi tushirib qoldirilgan sorit – Goklen soriti, deb ataladi.

Epixeyrema

Epixeyrema – murakkab qisqartirilgan sillogizm bo‘lib, uning har ikki asosi qisqartirilgan oddiy sillogizm (entimema)lardan iborat bo‘ladi. Epixeyremaning shakli quyidagicha:

M-Rdir, chunki M-Ndir.

S-Mdir, chunki S-O dir.

S-Pdir.

Masalan:

Ilmiy qonunlar isbotlangan fikrlardir, chunki ular haqiqatdir.

Fizika qonunlari ilmiy qonunlardir, chunki ular tabiat qonunlaridir.

Fizika qonunlari isbotlangan fikrlardir.

Epixeyremaning to‘liq ko‘rinishi quyidagicha:

1. Haqiqat – isbotlangan fikrdir. N-Pdir.

Ilmiy qonunlar haqiqatdir. M-Ndir.

Ilmiy qonunlar isbotlangan fikrlardir. M-Pdir.

2. Tabiat qonunlari – ilmiy qonunlardir. O-Mdir.

Fizika qonunlari – tabiat qonunlaridir. S-Odir.

Fizika qonunlari ilmiy qonunlardir. S-Mdir.

3. Ilmiy qonunlar – isbotlangan fikrlardir. M-Pdir.

Fizika qonunlari – ilmiy qonunlardir. S-Mdir.

Fizika qonunlari isbotlangan fikrlardir. S-Pdir.

Epixeyreman bahs va munozaralar, notqlik san’atida foydalaniladi. Epixeyrema murakkab sillogizmning bir turi bo‘lishiga qaramay, uning tarkibidagi katta va kichik asos, xulosani ajratib olish, farqlash oson bo‘lgani uchun ham fikr yuritish jarayonida keng qo‘llaniladi.

Murakkab hukmlarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarish

Murakkab hukmlarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslariga mantiqiy bog‘lovchilar orqali bog‘langan oddiy hukmlar deb qaraladi. Xulosa asoslari yo shartli, yoki ayiruvchi, yoki ham shartli, ham ayiruvchi hukm ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Asoslardagi hukmlarning turiga ko‘ra bunday xulosa chiqarishning quyidagi shakllari mavjud:

I. Shartli xulosa chiqarish.

II. Ayiruvchi xulosa chiqarish.

III. Shartli-ayiruvchi xulosa chiqarish.

I.Shartli xulosa chiqarish deb har ikki asosi yoki asoslaridan biri shartli hukm bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Ular sof shartli va shartli-qat’iy turlarga bo‘linadi.

Sof shartli xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi shartli hukm bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Uning formulasi quyidagicha:

1) $p \rightarrow q$

$q \rightarrow r$ yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow r)] \rightarrow (p \rightarrow r)$

$p \rightarrow r$

2) $\frac{p \rightarrow q}{\frac{\neg r \rightarrow q}{q}}$ yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (\neg r \rightarrow q)] \rightarrow q$

Masalan:

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda u chin bo'ladi.

Agar fikr chin bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi.

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi.

Agar havo yaxshi bo'lsa, konsertga boramiz.

Agar havo yaxshi bo'lmasa ham konsertga boramiz.

Konsertga boramiz.

Bu turdagi sillogizmlarning xulosasi shartlangan (shartli hukm) bo'lgani uchun ulardan bilish jarayonida kam foydalaniladi.

Shartli-qat'iy xulosa chiqarish deb, katta asosi shartli hukm, kichik asosi oddiy qat'iy hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi. Bunday xulosa chiqarishning ikkita to'g'ri (aniq xulosa beradigan) modusi mavjud:

1. **Tasdiqlovchi modus** – modus ponens

$\frac{p \rightarrow q}{\frac{r}{q}}$ yoki $[(p \rightarrow q) \wedge p] \rightarrow q$

2. **Inkor etuvchi modus** – modus tollens

$\frac{p \rightarrow q}{\frac{\neg q}{\neg p}}$ yoki $[(p \rightarrow q) \wedge \neg q] \rightarrow \neg p$

Masalan:

1. Agar fuqarolar jamiyat qonunlariga amal qilsalar, unda ular erkin bo'ladi.

Fuqarolar jamiyat qonunlariga amal qiladilar.

Demak, ular erkin bo'ladilar.

2. Agar meyor buzilsa, unda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelmadi.

Demak, meyor buzilmagan.

Shartli – qat'iy sillogizmning xulosasi aniq, chin bo'lishi uchun quyidagi holatlarga e'tibor berish zarur:

1. Shartli hukmdagi asosning chinligidan natijaning chinligi, natijaning xatoligidan asosning xatoligi mantiqan kelib chiqadi.

2. Shartli hukmdagi natijaning chinligi asosning chinligini, asosning xatoligi esa natijaning ham xatoligini isbotlamaydi.

Bu qoidalar buzilganda shartli-qat'iy sillogizmning formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{p \rightarrow q}{q} \text{ Ehtimol } p$$

$$[(p \rightarrow q) \wedge q] \rightarrow r$$

$$\frac{p \rightarrow q}{\neg p} \text{ Ehtimol } \neg q$$

$$[(p \rightarrow q) \wedge \neg p] \neg q$$

Shartli-qat'iy sillogizm xulosalarining noaniq (ehtimol) bo'lishiga sabab shuki, shartli hukm ($p \rightarrow q$) r – chin, q –xato bo'lgan holatdan boshqa hamma holatlarda chin hisoblanadi.

Masalan:

Agar bemorning qon bosimi ko'tarilsa, uning boshi og'riydi.

Bemorning boshi og'riyapti.

Ehtimol, uning qon bosimi ko'tarilgandir.

Bunda natijaning chinligidan asosning chinligini mantiqan keltirib chiqarish mumkin emas. Chunki boshqa asos ham shunday natijani keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagi misolda shartli hukmning asosi xato, noaniq, natijasi chin bo'lganligi uchun sillogizmning xulosasi noaniq bo'lgan.

Endi yuqoridagi misolni bir oz o'zgartirib, ko'rib chiqamiz:

Agar bemorning qon bosimi ko'tarilsa, unda uning boshi og'riydi.

Bemorning qon bosimi ko'tarilmagan.

Ehtimol, uning boshi og'rimayotgandir.

Bilamizki, bosh og'rig'iga faqat qon bosimining ko'tarilishi sabab bo'lmaydi, undan boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin. Bu esa, xulosaning noaniq bo'lishiga olib keladi.

II. Ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi yoki asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Sof ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Masalan:

Tushunchalar hajmiga ko'ra umumiy yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Har bir umumiy tushuncha yo ayiruvchi, yoki to'plovchi bo'ladi.

Demak, tushunchalar hajmiga ko'ra yo ayiruvchi, yoki to'plovchi, yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Sof ayiruvchi sillogizm formulasi quyidagicha: $S-a \vee b \vee c$
 $\frac{ad \vee f}{S-d \vee f \vee b \vee c}$

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishda xulosa asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo'lsa, boshqasi oddiy qat'iy hukm bo'ladi. Bunday xulosa chiqarishning ikki modusi bor:

1. Tasdiqlab-inkor etuvchi: $p \vee q$
 $\frac{p}{\neg q}$

modus ponendo tollens

2. Inkor etib tasdiqlovchi:

modus tollendo ponens

$p \vee q$

$\neg p$

q

Masalan:

1. Tushunchalar mazmuniga ko‘ra konkret yoki abstrakt bo‘ladi.

Bu – konkret tushuncha.

Demak, bu – abstrakt tushuncha emas.

2. Hukmlar tuzilishiga ko‘ra oddiy yoki murakkab bo‘ladi.

Berilgan hukm oddiy hukm emas.

Demak, berilgan hukm murakkab hukmdir.

Ayiruvchi sillogizmida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor qilishi, hajmiga ko‘ra, kesishmasligi shart, aks holda xulosa xato bo‘ladi.

Masalan: Kitoblar qiziqarli yoki fantastik bo‘ladi.

Bu kitob qiziqarli.

Bu kitob fantastik emas.

Kitob ham qiziqarli, ham fantastik bo‘lishi mumkin. Bunda ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor etmaydi va hajmiga ko‘ra, kesishadi. Shuning uchun xulosa xato.

2. Ayiruvchi hukmda bir-birini inkor etuvchi muqobillar to‘liq ko‘rsatilgan bo‘lishi shart.

Burchaklar o‘tkir yoki o‘tmas burchakli bo‘ladi.

Bu burchak o‘tkir burchakli emas.

Bu burchak o‘tmas burchaklidir.

Xulosaning xato bo‘lishiga sabab, ayiruvchi hukmdagi muqobillar to‘liq ko‘rsatilmagan, ya’ni to‘g‘ri burchakning mavjudligi e’tibordan chetda qolgan.

Ayiruvchi sillogizmlardan ko‘proq bir necha yechimga ega bo‘lgan masalalarni yechishda, ya’ni muqobil holatlardan birini to‘g‘ri tanlab olishda foydalaniladi.

III. Shartli – ayiruvchi – lemmatik (taxminlab) xulosa chiqarish deb, asoslardan biri ikki yoki undan ortiq shartli hukmlardan, ikkinchisi esa ayiruvchi hukmdan iborat bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi asosdagi a’zolarining soniga ko‘ra, bunday xulosalar dilemma (ayiruvchi asos ikki a’zodan iborat bo‘lgan), trilemma (ayiruvchi asos uch a’zodan iborat bo‘lgan) va polilemma (ayiruvchi asos to‘rt va undan ortiq a’zodan iborat bo‘lgan) deb ataladi.

Dilemma oddiy yoki murakkab bo‘ladi. Oddiy dilemmaning shartli asosidagi hukmlar yo shartiga, yo natijasiga ko‘ra o‘xshash bo‘ladi. Murakkab dilemmaning shartli asosidagi hukmlar ham shartiga, ham natijasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Dilemmalar **konstruktiv** (tuzuvchi) yoki **destruktiv** (buzuvchi) turlarga bo‘linadi. Demak, dilemmalar to‘rt xil bo‘ladi: 1. Oddiy konstruktiv dilemma. 2. Oddiy destruktiv dilemma. 3. Murakkab konstruktiv dilemma. 4. Murakkab destruktiv dilemma.

Oddiy konstruktiv

Oddiy destruktiv

dilemmaning formulasi:

dilemmaning formulasi

$$\frac{a \rightarrow s, b \rightarrow s}{a \vee b} \\ s$$

$$\frac{a \rightarrow b, a \rightarrow c}{\frac{\bar{b} \vee \bar{c}}{a}}$$

Masalan:

Agar yoshlar ilm o'rgansalar, hayotda o'z o'rinlarini topadilar.
 Agar yoshlar hunar o'rgansalar, hayotda o'z o'rinlarini topadilar.
Yoshlar yo ilm, yo hunar o'rganadilar.
 Demak, ular hayotda o'z o'rinlarini topadilar.

Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, konkursda ishtirok etadi.
 Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, chet elga o'qishga boradi.
Talaba konkursda ishtirok etmadi yoki chet elga o'qishga bormadi.
 Demak, talaba chet tilini yaxshi bilmaydi.

Murakkab konstruktiv dilemmaning formulasi:

$$\frac{a \rightarrow b, c \rightarrow d}{\frac{a \vee c}{b \vee d}}$$

Murakkab destruktiv dilemmaning formulasi:

$$\frac{a \rightarrow b, c \rightarrow d}{\frac{\bar{b} \vee \bar{d}}{\bar{a} \vee \bar{c}}}$$

Masalan:

Agar inson yaxshi amallarni bajarsa, uni yaxshi nom bilan eslashadi.
 Agar inson yomon amallarni bajarsa, uni yomon nom bilan eslashadi.
Inson yo yaxshi, yo yomon amallarni bajarishi mumkin.
 Demak, uni yo yaxshi, yo yomon nom bilan eslashadi.
 Agar inson boshqalarga yaxshilik qilsa, unga ham boshqalar yaxshilik qiladi.
 Agar inson boshqalarga yomonlik qilsa, boshqalar ham unga yomonlik qiladi.
Insonga yo yaxshilik, yo yomonlik qaytadi.
 Demak, u boshqalarga yaxshilik ham, yomonlik ham qilmadi.

Dilemmalarni to'g'ri tuzish va hal qilish uchun ko'rilayotgan masalaning barcha yechimlarini aniqlash zarur. Dilemmani ba'zan unga qarama-qarshi mazmundagi boshqa bir dilemma orqali rad etish mumkin. Bunga mantiq ilmi tarixidan quyidagi misolni keltiramiz: «Afinalik ayol o'g'liga shunday maslahat beradi: jamoat ishlariga aralashmagin, chunki agar haqiqatni gapirsang, seni odamlar yomon ko'radi, agar yolg'on gapirsang, unda seni xudolar yomon ko'radi. Bunga Arastu quyidagicha rad javobni o'ylab topadi: Men jamoat ishlarida ishtirok etaman, chunki agar haqiqatni gapirsam, meni xudolar yaxshi ko'radi, agar yolg'on gapirsam, meni odamlar yaxshi ko'radi».

Trilemmada berilgan masalaning uch xil yechimi haqida taxminiy fikr yuritiladi. Trilemma ham to'rt turga bo'linadi:

1. Oddiy konstruktiv trilemma

$$\frac{a \rightarrow d, b \rightarrow d, c \rightarrow d}{a \vee b \vee c}$$

2. Oddiy destruktiv trilemma

$$\frac{a \rightarrow b, a \rightarrow c, a \rightarrow d}{\bar{b} \vee \bar{c} \vee \bar{d}}$$

d

3. Murakkab konstruktiv trilemma

$a \rightarrow b, c \rightarrow d, m \rightarrow n$

$a \vee c \vee m$

$b \vee d \vee n$

a

4. Murakkab destruktiv trilemma

$a \rightarrow b, c \rightarrow d, m \rightarrow n$

$\bar{b} \vee \bar{d} \vee \bar{n}$

$\bar{a} \vee \bar{c} \vee \bar{m}$

Masalan:

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bevosita aloqador bo'lsa, u qattiq jazolanadi.

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bivosita aloqador bo'lsa, u yengil jazolanadi.

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga aloqador bo'lmasa, u ozod qilinadi.

Tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga yo bevosita, yo bilvosita aloqador yoki mutlaqo aloqasizdir.

Demak, tergov qilinayotgan shaxs yo qattiq jazolanadi, yoki yengil jazolanadi, yoki ozod qilinadi.

Bu murakkab konstruktiv trilemma ko'rinishidagi xulosa chiqarishdir.

Shartli-ayiruvchi xulosalash masalani hal qilishning bir necha usullari mavjudligi va ularning har biri turli oqibatlarni keltirib chiqarishini aniqlab beradi. Sohibqiron Amir Temur ta'бири bilan aytganda, bu oqibatlardan qaysi biri davlat va ulus manfaatlariga mos bo'lsa, ya'ni «savobliroq yoki kam xatarli bo'lsa», shunisi tanlab olinadi.

Induktiv xulosa chiqarish

Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiq fanida ehtimoliy xulosa chiqarish ham o'rganiladi.

Ehtimoliy xulosa chiqarish turli xil shakllarda, jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga xos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma'lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.

Ehtimoliy xulosa chiqarish ba'zan induksiya (lot. “inductio” – yagona asosga keltirish) juz'iy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o'tish shaklida sodir bo'ladi.

Induktiv xulosa chiqarish empirik umumlashtirish shaklida amalga oshib, unda *birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.*

Induksiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o'rnatilgan turli empirik qonunlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o'z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizni oshiradi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish hisoblanadi, ya'ni uning asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir

mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz'iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatamiz. Ayrim faktlarni ifodalaydigan, juz'iy xarakterga ega bo'lgan bilimlar umumiy bilimlarni hosil qilish uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Takrorlanib turuvchi turg'un aloqalar, odatda, predmetlarning muhim zaruriy aloqalaridan iborat bo'lgani uchun, bu umumiy bilimlar qonuniyatlarni ifodalaydilar. Asoslardagi yakka va juz'iy faktlar haqidagi bilimlar esa ana shu qonuniyatlarning namoyon bo'lishini qayd etadilar.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to'liq va to'liqsiz induksiya farq qilinadi.

ARGUMENTLASH VA BILIMLAR TARAQQIYOTINING MANTIQUIY SHAKLLARI.

Yurtimizning gullab-yashnashi, barqaror, mustahkam bo'lishi asosan yoshlarning ongli, bilimli, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi»

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo'lishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, bilishda ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko'rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e'tiqod bu kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'liq boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e’tibor uning chinligini ko‘rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o‘zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremlar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko‘rsatuvchi mulohazalardan iborat bo‘ladi.

Argumentlar – tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar sifatida faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta’riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Ta’riflar ham chin hukmlar bo‘lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o‘zgarishdan iborat», degan ta’rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko‘p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo‘ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O‘zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bivosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi.

Apagogik isbotlash tezis (a) va antitezis (\bar{a}) o‘rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo‘lsa, «Moddiy predmetlar strukturasisiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli dizyunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini

ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Jinoyatni yo A, yo B, yo C shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni B shaxs ham, C shaxs ham sodir etmagan»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmni inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

Raddiya – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I Tezisni rad etish

II Argumentlarni rad etish

III Demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealar, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, birinchi Prezident I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch – adolatda», deyishi mumkinmi?»

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llanadi.

Tezisa aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo'linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisa aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlar yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan B kelib chiqsa, lekin B hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis B hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (B) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan;

b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir;

v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – **sofistlar**, ularning ta'limoti esa **sofizm** (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l

qo'yilsa, **paralogizm** deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa **paradoks** deb ataladi.

Bahs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi.

Bularga asosan quyidagilar kiradi:

- zaruriyatsiz bahslashmaslik;
- mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o'zgartirmaslik;
- bahs mavzusi yuzasidan o'zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo'lmasa, bahsni to'xtatish;
- mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;
- bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o'z va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to'g'ri bo'lsa, isbotlashning ham to'g'riligini e'tirof etish va h.k.;
- bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va bahs yuritish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Tayanch iboralar: mantiq va mantiq ilmi, predmet belgisi, predmetlar sinfi, tushuncha, tushunchaning mazmuni, tushunchaning xajmi, tushunchaning turlari, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, tushunchani chegaralash, tushunchani umumlashtirish, tariflash, tasniflash, tushunchani bo'lish, Xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, sillogizm, entimema, polisillogizm, epixeyrema, sorit, induktiv xulosa chiqarish, to'liq induksiya, to'liqsiz induksiya, ommabop induksiya, ilmiy induksiya, ilmiy induksiya metodlari, statistik umumlashtirish, analogiya, xususiyatlar analogiyasi, munosabat analogiyasi, modellashtirish, argumentlash, tezis, asos-dalil, isbotlash, rad etish, tanqid, argumentlashning strategiyasi, argumentlashning taktikasi, paralogizm, sofizm, paradoks, kommunikativ model, proponent, opponet, muammo, savol, javob, muammoli vaziyat, muammoni qo'yish, muammoni hal etish, gipoteza, ishchi gipoteza.

Takrorlash uchun savollar

1. Mantiq fanining predmeti va ahamiyati.
2. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari
3. Tushunchalarning shakllanish va qo'llanishi.
4. Xulosa chiqarish nima?
5. Xulosa chiqarishning qanday turlari mavjud?
6. Deduktiv xulosa chiqarishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Bevosita xulosa chiqarish qanday shakllarda amalga oshadi?
8. To'liq va to'liqsiz induksiyalarning bir-biridan farqi nimada?
9. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Analogiya va modellashtirish o'zaro qanday aloqada?
11. Muammolar ko'lamiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
12. Muammoni hal etish uchun nima qilish kerak?
13. Gipoteza nima?

5-MAVZU: AXLOQSHUNOSLIKNING PREDMETI, TADQIQOT DOIRASI VA VAZIFALARI. NIKOH VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI, UNING YOSHLAR TARBIIYASIDAGI O'RNI. ESTETIKA: GOZALLIK FALSAFASI PREDMETI VA VAZIFALARI. TABIAT VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ESTETIKASI. ESTETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI.

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini urganadi. «Axloq» suzi arabchadan olingan bo'lib, «xulk» suzining kuplik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyektini anglatasa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-xarakatining eng kamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bulsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattarok qismini xulk, eng kamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob – inson xakida yokimli taassurot uygotadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat xayotida u kadar muxim axamiyatga ega bulmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-xarakatlarni uz ichiga oladi.

Xulk – oila, jamoa, maxalla-kuy mikiyosida axamiyatli bulgan, ammo jamiyat va insoniyat xayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yokimli insoniy xatti-xarakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bula oladigan ijobiy xatti-xarakatlar yigindisidir.

Bu fikrlarimizni misollar orkali tushuntirishga xarakat qilamiz. Deylik, metroda yoshgina yigit, talaba xamma qatori utiribdi. Navbatdagi bekatdan bir kekxa kishi chikib, uning ruparasida tik turib koldi. Agar talaba darxol: «utiring, otaxon!» deb joy bushatsa, u chiroyli a'mol kilgan buladi; chetdan karab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb kuyadi. Aksincha, talaba yo teskari karab olsa, yoki uzini mudraganga solib, kariyaga joy bushatmasa, gashimiz keladi, kunglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr utadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uygotadi. Lekin, ayni paytda, talabaning kariyaga joy bushatgani yoki bushatmagani okibatida vagondagi yulovchilar xayotida biror-bir ijobiyimi, salbiyimi – muxim uzgarish ruy bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: maxallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha quni-qushnilarning barcha ma'rakalarida xizmatda turadi, xech kimdan kulidan kelgan yordamini ayamaydi, ochiq kungil, ochiq qul, doimo o'z bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq, oila a'zolariga mexribon va x. k. Unday odamni biz xushxulk inson deymiz va unga maxallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bulsa, u quni-qushnilar bilan kupol muomala qilsa, to'y – ma'rakalarda janjal ko'tarsa, sal gapga udagaylab, musht uqtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, xaqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi, ba'zi shaxslar jabr kuradi, maxalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-xarakatlari jamiyat ijtimoiy xayotiga yoki insoniyat tarixiga biror bir ta'sir utkazmaydi.

Axloqqa kelsak, masala jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yoxud viloyat prokurori uzi mas'ul xududda doimo qonun ustuvorligini, adolat karor topishini kuzlab ish yuritadi, lozim bulsa, xokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chikib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat o'z

kasbini e'zozlovchi shaxs, balki xaqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u – umrini millat, Vatan va inson manfaatiga bagishlagan yuksak axloq egasi; u, uzi yashayotgan jamiyat uchun namuna bularok, usha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun ximoyachisi bulaturib, uzi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yulida okni kora, korani ok deb tursa, u axloqsizlik kilgan buladi: oddiy fukoro nazdida birgina kishi prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uygonadi. Bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi esa, oxir-okibat usha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi¹⁶.

Axloqshunoslikdagi tushunchalar (kategoriya) ning shaklari xilma-xil bo'lib, mazmunida axloqshunoslik talab qiladigan jarayonlar ifoda etiladi. Kategoriya – yunoncha so'z bo'lib, ta'rif berish, fikr aytish ma'nolarni anglatadi.

Muhabbat va nafrat axloqshunoslikda juft kategoriya (tushuncha) bo'lib hisoblanadi. Muhabbat bosh mezonbiy tushuncha bo'lib, barcha asosiy tushuncha va tamoyillarga ta'sir qiladi.

Muhabbat me'yorlar, an'analar, qonunlarga buysunmaydi. Lekin, yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga o'lkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi.

Muhabbat – insonni tashqi va transtsendental olam bilan bog'laydigan, uni yolgizlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning obe'kti go'zallikdir. Insonning ona tabiatga, yoriga, ota-onasiga, Vataniga bo'lgan muhabbatni Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zganio'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi.

Muhabbat inson axloqiy hayotining cho'qqisi, komillik belgisidir. Haqiqiy muhabbat g'oyalari yoshlar tomonida doimiy axloqiy ideal tarzida qabul qilanadi: Farxod va Shirin, Romeo va Julietta, Otabek va Kumush va hokazolar. Demak, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o'ziga xos ko'rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin.

Muhabbat-oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Muhabbatning ziddi-nafrat bo'lib, u ham muhabbat singari keng qamrovli tushuncha emas.

Nafratning aksi muhabbat tarzda namoyon bo'ladi, obe'ktidan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo qiladi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko'rinishdir. Nafrat g'azabdan keskin farq qiladi. U g'azabga o'xshab, o'z obe'ktini yo'hotishga intilmaydi, undan faqat yuz beradi. U muhabbatga zid holda noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli ko'zg'aladigan hissiyot deyish mumkin.

Ko'rinishidan nafrat kishida yoqimsiz taassurot oygotsa-da, ko'p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi mavjud bo'lib, u ijtimoiy hodisa emas, ko'p hollarda jinsiy munosabat bilan yonma-yon keladi. Muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi me'yordan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashkning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi. Ba'zi hollarda rashk fojiaga olib kelishi mumkin.

Ezgulik va yovuzlik - u inson faoliyatining muhim tomoni, asl mohiyatini anglatadi

¹⁶ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. — T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — 42b.

Ezgulik – insonga eng kuchli ma‘naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, u haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komilikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyatdir.

Ezgulik va yovuzlik keng qamrovli bo‘lib, ijtimoiy xususiyatga ega. Shu tufayli amaliyotda qaxramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Masalan, insonparvarlik – odamzot qadri, erkinlik va qobiliyatlarini har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotning taqdim etishga intilishini ifodalaydigan g‘oya va qarashlardir. Bu jarayon insonni ezgulikka yetaqlaydi.

Ezgulik axloqiy ideal bilan bog‘liqdir va inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. U odam bolasini ulug‘lik va tubanligini ulchaydigan taroziga uxshaydi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kategoriyasiga uxshasada, ular o‘rtasida farq bor. Ezgulik ijtimoiy xususiyatga ega, yaxshilik shaxsning odobiga, hulqiga bog‘liq bo‘lgan ijobiy hodisadir. Unda mardlik, ochiq ko‘ngillilik, halollik singari axloqiy me‘yorlar mujassamlashgan. Biroq, u kaxramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko‘tarila olmaydi. Alisher Navoiy ezgulik bilan faoliyat ko‘rsatdi. Uning asarlari yuzlab yillar mobaynida zavq – shavq ulashib, kishilarni komillikka chorladi. U ko‘plab yaxshilik qildi, muxtoj odamlarga yordam berdi.

Ezgulik xech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har zamonda har qanday sharoitda ham yovuzlik yovuzlik bo‘lib kolaveradi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Gitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobik Sho‘rolar Ittifokining esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholash buning yorokin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik -juft kategoriya bo‘lib, ular ham bir-biriga ziddir. Kishining butun ma‘naviy hayoti, shu jumladan, axloqiy tushunchalar ham ijtimoiy hayot ta‘sida o‘zgaradi. Yaxshilik va yomonlik insonning tugilishi bilan birga vujudga kelmaydi. Yaxshilik va yomonlik o‘zaro munosabatli, ayni vaktida kutbiy va bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir. Yaxshilik tushunchasida bir muncha ijobiy narsalar, yangi axloqiy idealga mos keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar jamlansa, yomonlik tushunchasida kishilarning idealiga, ular e‘zozlaydigan narsalarga zid keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar baxtga erishishiga, kishilar orasidagi munosabatlarda, taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning usishiga tuskinlik qiladigan hamma narsalar haqidagi tasavvurlar ifodalanadi.

Yaxshilik deganda kishilarning mehnatsevarligi, halolligi, mardligi, insoniyligi, oliyjanoblighi, odamlarga, xalqqa, jamiyatga yetkazadigan nafi, mehr-muruvvati, muhabbati, kishilar og‘irini yengil qilish kabi ijobiy hatti-harakatini ifodalovchi fazilatlar tushuniladi.

Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo‘lib, u kishilarni dangasalik, tekinxo‘rlik, zararkunandalik, zolimlik, mayxurlik, giyohvandlik, ig‘vogarlik, g‘iybatchilik, buzuqlik kabi salbiy hatti-harakatlarni ifodalaydi. Yaxshilik ezgulik, himmatlilikni anglatasa, yomonlik yovuzlikni anglatadi.

Inson hayotining barcha ijobiy tomonlari yaxshilik bilan bog‘langan tushunchadir. Ijtimoiy taraqqiyot, kishilar o‘rtasidagi bo‘ladigan munosabatda insoniylikning o‘rishiga mos keladigan tub insoniy muammolardan kundalik turmush tarzi va uning munosabatlari, hatti-harakatlari, ijobiy hulq-odobi kabilar yaxshilik bilan ifodalanadi. Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo‘lib, u ham insonlar o‘rtasida bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Adolat qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholaydi. Adolatda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor, unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashadi. Uni maʼlum maʼnoda axloq sohasidagi miqdor oʻlchovi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdir oʻlchab turadigan tarozidir. Adolat bir joyda fayz-baraka, haqiqat qaror topadi.

Adolat kishilarning jamiyatdagi axloqiy oʻzaro munosabatlarini mujassamlashtirib, taqdirlash va talab qilishning miqdoriy ulchovini beruvchi baholash kategoriyasi hisoblanadi va huquq bilan axloqni bogʻlaydi. Axloq tushunchasi huquq normalarining muhim ijtimoiy – axloqiy mezonlari sifatida maydonga chiqadi. Demak, adolat tushunchasi huquqiy ongdan ancha oldin paydo boʻlgan. U huquqiy munosabatlar sohasida katta ahamiyat kasb etadi. Axloqshunoslikning asosiy baho kategoriyasi boʻlgan adolat turli dalillar, iqtisodiy, siyosiy huquqiy hodisalarni baholashda namoyon boʻluvchi oʻbeʼktivlik, xolislik, haqqoniylik, insonparvarlik kabi alomatlarini zaruriy ravishda taqozo etadi va umuminsoniy axloqning muayyan elementlarini oʻz ichiga oladi.

Birinchi Prezident I. A. Karimov: «Adolat va haqiqat gʻoyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarni qamrab olmogi darkor, adolat va haqiqat gʻoyasi faoliyatimizning zamini, bosh yoʻnalishi bulmogi shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari mehnat va uy – joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi, kiyingi, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur», deb taʼkidladi.

Demak, adolat bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasining kelajagi buyuk davlatimizning tushunchasiga aylanib bormoqda.

Burch kishilarning jamiyatga nisbatan boʻlgan axloqiy majburiyatlarini ifodalaydi. Bu kishilarning oila, Vatan, millat, umuman jamiyat oldidagi majburiyati, masʼuliyati, sodiqligi, ongliligini ifodalovchi hatti-harakatlar majmuidir. Burch tushunchasi oilada yoshlikdan boshlanadi. U vijdon, eʼtiqod, masʼuliyat kabi tushunchalar bilan chambarchas bogʻliq. Ijtimoiy hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida burch tushunchasi, yaʼni burchiga sadoqat yoki hikmat yotadi. Agar inson oʻz burchiga sadoqatli boʻlsa, u har bir kishiga obroʻ, shon-sharaf keltiradi, agar inson oʻz burchiga sodiq boʻlmasa, u kishiga xiyonat keltiradi.

Burch tushunchasi keng qamrovli boʻlib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida masʼuliyat bilan faoliyat koʻrsatgan: insoniylik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi, talabalik burchi, Vatant oldidagi burchi va xokazolar boʻlib, barcha davrlar uchun umumiy boʻlgan tushunchalari ham, jurnalistik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy burch tushunchalari ham mavjud.

Demak, burch insonga masʼuliyat va majburiyat yuklaydi. 64-moddada bunday deyilgan: «Ota onalar oʻz farzandlarini voyaga yetkunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar». 66-moddada: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar oʻz ota-onalari haqida gʻamxoʻrlik qilishiga majburdirlar», deb taʼkidlanadi.

Vijdon vijdonlilik va vijdonsizlik tushunchalari ijtimoiy taraqqiyotining muayyan davrida, ijtimoiy muhitning taʼsirida shakllanadi. Vijdon insonni oʻz muayyan jamiyat axloq normalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholash va uni nazorat qilish, shuning bilan birga oʻz hatti-harakatlariga bogʻliq boʻlgan his-tuygʻu

va kechinmalarini tahlil qilishdir. Inson o'z vijdoni oldida mas'uliyat his qilib yashaydi.

Vijdon tushunchasi ijobiy va salbiy kechinmalarni ifodalaydi. Masalan, inson quvonchi, u yoki bu iztirobdan qutulish, o'zini yengil tortishi, xijolatdan forig' tortish va yuzining yorug' bo'lishi vijdondagi ijobiy his tuyg'ularni aks ettirsa, uzr surash, tavba qilish, iztirob chekish, pushaymon, uyalish, xijolat tortish kabilar salbiy kechinma, his-tuyg'u, hatti-harakatlarni ifodalaydi.

Vijdon tushunchalari o'zining rivojlanishi tarixi davomida umuminsoniy ma'no elementlari bilan boyib boradi, unga ko'p jihatdan axloq adolat va odamgarchilikning oddiy normalari o'z aksini topadi.

Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba'zi asosiy tushunchalari singari baholash xususiyatiga ega, bu xech qachon obe'ktga kiritilmaydi, u sube'kning hatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sube'kt o'zi uchun ichki obe'kt vazifasini o'taydi.

Vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin o'lkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Or-nomus (sha'n) tushunchasi ham axloqning boshqa tushunchalari singari shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. "Or-nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan joy olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi. Shuning uchun or-nomus, tushunchasi kishilarning ijtimoiy hayotdagi o'z qimmatining anglashi hamda bu qimmatni jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Nomus tushunchasi shaxsiy qadr-qimmatni anglashni o'z ichiga olar ekan, ular bir-biri bilan aloqada va ko'p jihatdan bir-biriga uxshaydi. Biroq or-nomus, qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega emas. Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari insoning o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini avlodlar va ajdodlar sha'niga dog tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

Nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovga, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Masalan, oriyatli odam deganda, eng avvalo o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam – o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketadigan surbetnamo kishilardir.

Nomusning toshi ogir, ijtimoiy xususiyatga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin. Odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat, jamoa nomusi deb kurashadilar. Nomus obru tushunchasi bilan bog'lanib ketadi.

Demak, o'zini o'zi hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarni hurmat-izzatini yo'hotmaslikdan o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Ideal, hayotning ma'nosikabi tushunchalari o'z yechimini talab qilish bilan birga muammolik xususiyati bilan ajralib turadi.

Ideal tushunchasi baholash xususiyatiga ega bo'lmasdan, balki u qiyoslashga asoslanadi. Bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Hayotda ideal narsaning bo'lishi mumkin emas. Uning mavjudlik sharti o'tgan sharti insonning hatti-harakati bilan bog'liq bo'ladi. Ideallik namuna bilan birga tarixiylikni talab etadi. Axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo'ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda idellashtiriladi. Unda inson siymosi yorqin misol bo'la oladi.

Odam ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, uni tanqid qiladi. U inson hayotidan eng ulug' axloqiy talabdirki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Hayotda bunga tulik erishib bo'lmaydi. Inson ana shu komillikni o'ziga namuna qilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy – hayotiy komillikni kulga kiritadi. Dunyoviy va diniy ideal mazmuni hamda mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Musulmonlar uchun ideal Muhammad alayhissalom nasroniylar uchun xazrati Iso, yaxudiylar uchun Xazrati Muso ideal hisoblanadi. Ijtimoiy axloqiy ideal esa doimiy bo'lmaydi. U o'zgarib turadi. Masalan: Amir Temur o'z davrining ideali bo'lgan. Hozir esa «Kuch adolatda!» degan shiorini hayotning ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining na'munaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin.

Hayotning ma'nosi yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish ularni aynanlashtirish mumkin emas. Hayotning ma'nosi deganda maqsadga nisbatan keng qamrovli tushuncha e'tiborga olinadi, o'z ichida o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, u muayyan maqsadlar tizimini tashkil qiladi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin.

Ba'zilar o'z hayot ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kinsochin yashashda deb tushunadi. Harom-harishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldida hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi.

Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni hayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Hayotning ma'nosi – bu hayotning butun bir bosh yo'lidirki, bunda konkret, aniq maqsadlarni belgilab beradigan yo'nalishlar e'tiborga olinadi.

Inson o'z oldiga maqsad qo'yadi. Bu maqsadlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ularni insonning turmush sharoitlari taqozo qiladi. shunday ekan, hayotning ma'nosi-uning inson ongidan qat'iy nazar mavjud bo'la oladigan obe'ktiv mazmunidir.

Baxt bu o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushunish va shu ma'nodagi umri mobaynida qoniqish hosil qilishdan iborat jarayondir.

Abu Nosir Forobiy «Baxt – bu har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», deb ta'kidlagan. Haqiqatdan ham baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Baxt tushunchasini rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan, u jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni muvofiq rivishda yangi mazmun bilan boyib boradi, umuminsoniy elementlarni saqlab qoladi. Baxtning umuminsoniy elementi shaxsiy hayot tarzini, o'zining mavjudligini idroq etadigan, normal yashash sharoitini ta'minlashdan o'z mavjudligini foydalanishga ishonchdan insonning muhabbat, do'stlik, ota-onalik zavq-shavqini anglashdan iborat.

Baxt eng avvalo ma'naviy extiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin – ketin erisha borish, konikish jarayoni, bir umr to'xtamaydi, doimo lazzat va zavkini o'z ichiga oladi.

Baxt orzu kabi idealning hissiy extiros shakli sifatida ko'zga tashlanadi, shaxs intilishini ro'yobini anglatadi. Baxt omad bilan bog'liqdir.

Omada tasodif, baxt – zaruriyat, omad istisnoli, baxt-qonuniy hodisa. Omad – shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi. Baxt esa inson nimaga erishmogi lozim, savoliga umri mobaynidagi amaliy javobidir. Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega. Ya'ni ideal kabi uning ham tabiati o'zgaruvchan.

Har bir kishi o'z baxtini mehnati, tinch-totuv yashashi, kasb-kori, ilm-fan va texnika fanlarini egallashi bilan topadi. Buyuk shoirimiz Gafur Gulom: Taqdirni qo'l bilan yaratur odam, goyibdan kelajak baxt bir afsona, deb yozgan edi.

Axloqshunoslikning o'ziga xos mezoniy tushunchalari bo'lib, ular dialektik aloqadorlikni taqozo etadi. Bu mezoniy tushunchalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlaridan paydo bo'lib, inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir.

Axloqning mezoniy tushunchalari ma'naviyat va ma'rifatni yuksakka ko'tarishda, kishilarni komillik tomon yetaqdashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir talaba yoshdan axloqshunoslikning mezoniy tushunchalarini chuqur o'rganish hamda uni hayotga tadbiiq qilish talab etiladi.

Asosiy mezon kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy ong shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qoyiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson hatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy meyorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarining eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmatini, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovro'pa uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi "namlulu" so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqierkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz insonasir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat-mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qoingan insonlar tamoyilidir.

Erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil bu vatanparvarlik. U insonning o'z Vatani muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-

mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng-u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatantoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi hatti-harakatlardir.

Vatan himoyasi, bu inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'u hissini tuyush, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab-avylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o'rgatish, vatanparvarlik-yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu-millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurarish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'zmillatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar-milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'zi millati bilan farxlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju xilatekim, men tomosha qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i shirdog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiya bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining-millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlarini Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday ta'riflaydi: "Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor".

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: "Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizga madadkor bo'lishi zarur".

Asl millatparvar ana shunday bo'lishi kerak. Asl millatparvar inonlarning

umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy meyorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy-huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda ahloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Chunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki paytlarda o'tish davriga xos bo'lganfidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko'rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; birinchi Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan "Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!" degan so'zlarini axloqiy shoir qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg'or qismi tobora ko'payib bormoqda. Ana shu ko'payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli-shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma'nsida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keladi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hatotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot bilan bog'liq. Shu bois uni inson paydo bo'ganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk almon faylasufi, "Frankfurt maktabi" ning namoyondasi Teodor Adarno Ikkinchi jahon urushidagi genosiddan so'ng, ziyolilik – axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ziyolilik axloqiy tushuncha – tamoyil sifatida murakkab va ko'pyoqlamalilik tabiatiga ega. Ba'zilar ziyolilik deganda oliy ma'lumotli kishiga xos bo'lgan fazilatni tushunadilar. Vaholanki, ziyolilik tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma'nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer – dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko'rishi va atrofdagilar tomonidan: "Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odam – da", degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo'lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidagi qat'iy nazar ham bilim, ham fahm – farosat, ham oliy maqsadlar egasi tushuniladi. Shunday qilib, ziyolilik sosida insonning ma'naviy – ma'rifiy yuksagligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan birlashtirilgan hatti – harakatlar yotadi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti – harakatlarning, faolyatlarining ko'pligi va xilma – xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti – harakatlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan qismidir.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o'z – o'zini namoyish etishga, o'zligini royobga chiqarishga, o'zgaralar bilan munosabat o'rnatishga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondagi halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni

talab etadi, mehnatga nisbatan subektiv tarzda ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma'naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya'ni unda moddiylik va ma'naviylik teng ishtirok etadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxning o'ziga va atrofdagilarga individual munosabatga aylandi, "mohiyatan besh qo'l barobar bo'sin" degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa yangi jamiyatimiz kishisining, jahoniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch – totuv yashashga bo'lgan munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroylik gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emar, balki faol xatti – harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoiy insonlardir. Ularning ana shu fidoiylarcha xatti – harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga qaytarilmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy – madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Jumardlik. Jumardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovrupada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qoyib, "o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutuib" yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu – oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy – meyori talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jumardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jumardlik mohiyatan "oddiy omadlik qobig'idan chiqa bilish", ilohiylik sifatlariga esa bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Inson hayotida axloqiy meyorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida royobga chiqadi. Halollik, rostgoylik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik kabi meyorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik va rostgoylik. Avval shuni aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida qaysi taom harom-u, qaysisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniydunyoviy ma'no kasb etgan meyorga aylangan.

Halollik, rostgoylikviydon tushunchasi bilan bo'g'liq, insonning o'ziga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi meyorlardir.

Birinchi Prezident Islom Karimov nutqlaridan birini “ Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin” deb, boshqa bir suhbatini esa “ Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin” deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgoy, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo'lgan fuqarolar jamiyatini qurishfaqat axloqiy muammo emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiysiyosiy yangilanishdir.

Insoflilik ham halollik kabi viydon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; “o'zga” ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarimlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar meyoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofda axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatgaintilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni toxtata olishi kuchli irodani talab qiladi.

Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, “yetti o'lchab bir kesish “tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi xisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan sung) aloxida falsafiy yunalishdagi fan makomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribrok talkin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuklardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni xaqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chikkan xolda, falsafaning tadqiqot obyektini tafakkur deb belgilash maksadga muvofik. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadbik etadi va amaliyotda insonni ezgulik orkali xaqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin.

Xozir u falsafiy fan sifatida uch yunalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadbik etar ekan, u axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) urgatadi. Shunga ko'ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmona-meyoriy tabiatga ega.

qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero sof nazariy axloqshunoslikning bulishi mumkin emas. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini xikmatlar, nakllar, matal-makollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi, ularga axloqning moxiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Yani, shunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Sitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, gazzoliy, Spinoza, Kant, xegel, Shopenxauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nitshe, Vl. Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda «Patanjali», «kobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Baxoriston», Navoiyning «Maxbub ul kulub», Montening «Tajribanoma», Laroshfukoning «xikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bagishlangan asarlar xam o'z mustaxkam o'rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi xam, uziga xosligi xam undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaligidadir.

Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan uzaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning nafosatshunoslik (estetika) bilan aloqasi qadimiy va uziga xos. Avvalo, insonning xar bir xatti-xarakati va niyati xam axloqiylikka, xam nafosatga tegishli buladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat xam ezgulik (ichki go'zallik) xam nafosat (tashki go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Sukrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar kup xollarda axloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tashki go'zallik tarzida talkin etganlar. Bundan tashkari, ma'lumki, sanat nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot obykti xisoblanadi. xar bir sanat asarida esa axloqning dolzarb muammolari kutariladi va san'atkor doimo uzi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy darajani badiiy kiyofalar orkali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Demak, nafosatshunoslik urganayotgan xar bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuktai nazaridan xam tadjik etilayotgan buladi.

Axloqshunoslikning **dinshunoslik bilan aloqasi** shundaki, xar ikkala fan xam bir xil muammo – axloqiy mezon muammosini xal etishga karatilgan. Chunki umumjaxoniy dinlar vujudga kelguniga kadar mavjud bulgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-koidalarga, mukaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar xam axloqqa ana shunday ta'sir utkazganlar.

Chunonchi, islom dinini oladigan bulsak, Quryoni karim, xadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar xamda talablar musulmon Sharki millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta axamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi xar ikkala fan uchun umumiy xisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuktai nazaridan yondoshadi.

Axloqshunoslikning **huquqshunoslik bilan aloqasi** uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda kup xollarda axloq meyorlari bilan huquq meyorlari moxiyatan va mazmunan bir xil buladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosdagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot obyektleri kup jixatdan uxshash, ular faqat yondoshuv usuli nuktai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq meyorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orkali, majburiy sanksiyalar vositasida yulga kuyiladi: axloq meyorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, aloxida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy gurux, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muxim bulgan amaliy axloq jixatlarini

axloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus soxasi tadkik qiladi va tavsiya etadi.

Axloqshunoslik **pedagogika bilan xam** chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasixatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bulmaydi. Shu bois axloqshunoslik uzining nazariy va, ayniksa, amaliy jixatlari bilan pedagogikaning asosi xisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi talim-tarbiya uzini xar bir kadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Qadimdayok axloqshunoslikning **ruyshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi** aloxida axamiyatga ega bulgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-xarakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini urganadi. Lekin bu urganish ikki xil nuktai nazardan olib boriladi: ruyshunoslik u yoki bu xatti-xarakat, fel-atvor, sababiy asos (motiv) larning ruxiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik ruyshunoslik tadkik etgan xodisalarning axloqiy axamiyatini tushuntiradi.

Axloqshunoslikning **ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi** uziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy muruvatlaridan bulmish axloqni urganadi. Lekin axloqshunoslikning mikyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-xarakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadkik etadi. Axloqshunoslik esa, uz moxiyatiga kura, lozim bulganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chikib, inson axloqining yuksak yutugi sifatida kelgusi davrlar uchun xam tarixiy va axloqiy axamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-xarakatlarni xamda ularning sababiy asoslarini urganadi.

Axloqshunoslikning **siyosatshunoslik bilan aloqasi**, ayniksa, uziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash karama-qarshi axloqiy koidalar va talablar kurashini takazo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maksadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari urtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat kay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona buladi. Bu xozirgi kunda axloqshunoslik xam, siyosatshunoslik xam jiddiy tadkik etadigan eng muxim umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, raxbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning muomala madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus soxalari xam siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Bundan tashkari, keyingi paytlarda axloqshunoslikning **ekologiya bilan aloqasi** tobora mustaxkamlanib bormokda. Tarixan axloqshunoslik kuprok insonning uzi, uzgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini taxlil etish bilan shugullangan, uning tabiatga bulgan munosabati dikkat markazidan chetda kolib kelgan. Lekin, keyingi davrlarda, ayniksa, XX asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondoshuvlar okibatida paydo bulgan ekologik buxron manzarani uzgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar kuprok odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuktai-nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib koldi. Shunday qilib, xozirgi kundagi ekologik muammolarni xal etish axloqshunoslikka borib takalmokda. XX asrda ekologik axloqshunoslik degan maxsus soxa xam yuzaga keldi. Lekin, bu axloqshunoslik ekologiyani tulik uz ichiga oladi, degan suz emas. Chunki bunda axloqiy baxolash va boshqarish obyektii sifatida tabiatning uzi emas, balki odamning tabiatga bulgan munosabati maydonga chiqadi.

Axloqshunoslik xamma davrlarda xam yuksak axamiyat kasb etib kelgan fan. Faqat zulm va zuravonlikka, adolatsizlik va huquqsizlikka asoslangan totalitar

tuzumlardagina yolgonga buysundirilgan, soxtalashtirilgan xamda shu yul bilan uning axamiyati pasaytirilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana axloqshunoslik yangi jamiyatda tobora uz yuksak mavkeini egallab bormokda.

Ana shu yangilanish jarayonida axloqshunoslikning uz urni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniksa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va xar tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va xar doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa buladi. Ayni paytda, ularni axloqshunoslik fani oldida turgan vazifalarning bir qismi, ta'bir joiz bulsa, milliy axloqshunoslik vazifalari deb atash mumkin. Zero fanimizning xozirgi kunda umumjxoniy global muammolarni xal qilishdek muxim vazifasi xam borki, u xakda aloxida tuxtalmaslikning iloji yuk. Ulardan biri, eng muximi sayyoramizda «etosfera» – axloqiy muxit davrini yaratish bilan bogliq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va xukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniksa XX asrda u uz tafakkur kuvvati bilan, ilmiy-texnikaviy inkiloblar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani-texnikaviy muxitni yaratdi. Mana, xozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz-yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz ularsiz xayotimizni tasavvur kila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poyezd, tayyora, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, loqatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va x. k. Bugun video telefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chakirim naridagi suxbatdoshimizni kurish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bulsak, necha kunlab yul bosishimiz kerakligi xakida uylab utirmaymiz, tugrirogi, bu esimizga xam kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muxitimizga aylanib kolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda uzi yashayotgan butun boshli sayyora ta'sir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chikdi. Insoniy tafakkur biosferadagi uzgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Bu xakda noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy shunday degan edi: «Butun geologik davr mobaynida yaratilgan, uz muvozanatlarida barkarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishdi. Aftidan, inson ilmiy tafakkuri xarakatining bu tomoni tabiiy xodisa bulsa kerak. xozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion uzgarishlarni boshdan kechiryapmiz. – Biz noosferaga kirib boryapmiz». Ammo noosfera faqat ijobiy emas, balki salbiy xodisa sifatida xam namoyon bo'lmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli baleistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy xodisalarandir. Bundan tashkari, noosferaning vujudga kelishi atmosferani, olamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabototni, xayvonotni, xatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaxarlanishga olib keldi. xozirgi kunda tirik organizmlarning, usimliklarning, xayvonlarning kupgina turlari jisman yuk bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniksa joy topolmay, okeanda, kemalarda suzib yurgan radioaktiv chikindilar yoki ularning kimsasiz go'zal orollarga kumib tashlanishi, kislota yomgirlarining kupayib borishi singari xodisalar bagoyat xatarli. Afsuski, inson kura-bila turib, uzi utirgan shoxga

bolta urishni tuxtatmayotir. Bu muammolarning xal etilishi faqat atrof-muxitni kimyoviy zaxardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaxaridan foriglantirishni takozo etadi. Ya'ni, ular insoniyat oldida endilikda ekologik xodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida kundalang bo'lib turibdi. Mashxur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorens: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish xodisasining asosiy sababi sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy tuposlikdir», degan suzlari shu nuqtai nazardan ayni xaqiqat.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson uzini va uz sayyorasini mukarrar xaloqatdan kutkaraman desa – XXI asrdan boshlab etosfera davriga utishi kerak; axloqiylik xar birimiz uchun xar kadamda bugungi texnikaviy muxit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda axloqshunoslik fanining urni nixoyatda bekiyos.

Shuningdek, yana bir muxim muammo bu – biologik axloqshunoslik. Mazkur xodisa sunggi bir necha un yillik ichida sof tabobat muammosidan tulakonli axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarroxlik operatsiyasi yuli bilan utkazish orkali kishi xayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan kanday baxolanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Chunki, tabobat borasidagi sunggi tadqiqotlar inson ulimi bir laxzada ruy bermasligini, yurak urishi va nafas olish tuxtaganda xam, miya ulmasa – insonni uldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya kobigi, undan keyin miya tanasi xalok buladi. Shunday keyingina insonni ulgan deb xisoblash mumkin. Zero xozir toki miya ulmas ekan, kurgina ichki a'zolarining yangi tobobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta'minlash va shu orkali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurakning yoki buyrakning kuchirib utkazilishi xali ulmagan odamning minimal tiriklikka bulgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Person uz tajribalariga asoslanib, yurak kuchirib utkazilganda rux xam kuchib utadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar kizning yuragi 40 yashar erkakka utkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta uzgarishlar ruy bergan. Yoki 20 yashar kizning yuragi va upkasi 36 yashar ayolga utkazilganda xam shunga uxshash uzgarishlar yuzaga kelgan: kulishigacha uzgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni kanday izoxlash mumkin?

Biologik axloqshunoslikning anchadan buyon kupchilikka ma'lum muammosi, bu – abort. Ma'lumki, turtinchi xaftaning oxirida xomilada dastlabki yurak urishi paydo buladi. Sakkizinchi xaftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, xar kanday abort, xalq ta'biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bulgan huquqdan maxrum etishdir. Xush, abortni axloqsizlik tarzida baxolash kerakmi yo yukmi? Bu savollarga xam axloqshunoslik javob topmogi lozim. Bizning fanimiz oldida ana shunday global vazifalar turibdi. Aynan shu vazifalarni bugungi kunda axloqshunoslikning axamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Avval biz axloqiy xissiyotlarni axloqiy anglash uchun muayyan ma'noda material ekani tugrisida bir rov tuxtalib utgan edik. Bu xakda mumtoz faylasuflar xam e'tiborga sazovar fikr bildirganlar. Chunonchi, buyuk ingliz mutafakkiri Jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval xissiyotda mavjud bulgan, deb ta'kidlaydi. «Tabiat qonuni borasidagi tajribalar» asarida u shunday deb yozadi:

«Agar xissiyotdan aqlga narsalar kiyofasi yetkazib berilmasa, u xolda tafakkur uchun xech kanday material berilmagan buladi va aql bilishin taraqqiy ettirishi borasida tosh, yogoch, kum va xokazo kurilish materiallarisiz me'mor bino kurishda kanchalik ish kila olsa, shunchagina ish bajara biladi». Aqlni ideallashtirish, xissiyotni ikkinchi darajali omil chifatida talkin etish, afsuski, Lokk va unga uxshash ba'zi mutafakkirlar fikrlarini xisobga olmaslik keyingi davrlarda ayniqsa kuchaydi. Xegel singari faylasuflar esa butun borlikni mantiqiyashtirish yulidan bordilar. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, garb allomalari bu yulning kup jixatdan yanglish ekanini angladilar. XX asr mutafakkirlari, ruxiy taxlil falsafasidagi yangi froydchilik okimining atokli namoyandalaridan biri Karl Yung shunday deb yozadi: «garb kishisi» ruxiy («psixologik», suzini eshitganida, uning uchun «u shunchaki ruxiy» tarzida jaranglaydi. Uning uchun «psixe» – kalb kandaydir, achinarli darajada kichik, e'tiborga noloyik, shaxsiy, subyektiv v.x. Shu sababli «rux» (kalb) urniga «aql» suzini ishlatishni ma'qul ko'radi. Boshqa bir o'rinda: «... barcha metafizik muloxazalar uchun ijodiy zamin aynan qalbning (ma'naviylikning) ko'zga ko'rinmas, yetishib bulmas tarzidagi in'ikosi xisoblangan ongdir...», degan fikrni bildiradi. Darxaqiqat, «yurak va aql», «xissiyot va ong» baxsida garb, ayniksa, bizning XX asrda, suzsiz, birinchilikni aqlga, onnga beradi. Yukoridagi kabi fikrlar istisnoli xollardir. Shu bois axloqshunoslik nuktai nazaridan muxabbat xakida gap ketsa, uni xissiyot, deb yana buning ustiga, ta'riflash kiyin bulgan tuygu, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib karashdan chuchiydilar. Vaxolanki, muxabbat aynan axloqiy xissiyot va axloqshunoslikning bosh mezoniy tushunchasidir.

2. Muxabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda uz «xissa»siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muxabbatsiz tasavvur etib bulmaydi. utgan ma'ruzalarning ba'zilarida biz bu tushunchaning moxiyati, turlari xakidagi Iloxiy Ogustin, Imom gazzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. kushimcha qilib shuni aytish mumkinki, u – insonni tashki va tarnssendental olam bilan boglovchi, uni yolgizlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muxabbatning obyekt doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Olloxmi, Vatanmi, yormi – muxabbat egasiga undan-da go'zalroq narsa yuq. Ayni paytda bir obyektzni sevgan kishi boshqa obyektlni xam sevmaslgi mumkin emas. Deylik, yorga bulgan xaqiqiy muxabbat Vatanga, insoniyatga muxabbatni inkor etmaydi, aksincha, barkaror qiladi. Zero «uz-uzicha», yakka, «xudbin» muxabbatning bulishi mumkin emas. Inson uzi uzgaga aylanganida, uzgani uziga aylantira olganida xaqiqiy muxabbat egasi xisoblanadi. Mana shu obyekt bilan subyekt orasidagi farqning yuqolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nixoyatda go'zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishkdir ul, nasha'i komilkim, andandir mudom

Mayda tashviri xarorat, nayda ta'siri sado.

Komil nash'a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muxabbat inson axloqiy xayotining chukkisi, komillik belgisidir. Shu bois xaqiqiy muxabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farxod va Shirin, Romeo va Julyetta, Otabek va x.

Shuni ta'kidlash lozimki, muxabbat – oliy tuygu, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, kuyi narsa – xodisalarga nisbatan xam kullash xollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari garblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muxabbat

tushunchasini ulikka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan kullaydilar. Ularga nisbatan «uchlik», «ruju», «xirs» singari tushunchalarni kullash ma'kul emasmikan?

Muxabbat xam, axloqshunoslikdagi kulgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muxabbat singari keng kamrovli emas. U aksil muxabbat tarzida namoyon bulgan obyektidan chetlashish, undan begonalashishni takozo etadi. xazar, jirkanch xissi nafratning kundalik turmushidagi tor, «mayda» kurinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy xodisa sifatida namoyon bulishidir. Ayni paytda, bu tushuncha gazabdan keskin farq qiladi. U, gazabga uxshab, uz obyektini yukotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Kurinishdan, nafrat kishida yokimsiz taassurot uygotsa – da, aslida u asosan illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashkari yana rashk tushunchasi borki, u – ijtimoiy xodisa emas, faqat jinsiy muxabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muxabbat egasi uz sevgisini va sevgilisini kizganib, asrab qolishga xarakat qiladi. Ana shu qizganish xissa meyoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni kanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik – meyorning buzilishi, illat.

Inson xayotida axloqiy meyorlar xam katta axamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor kamrovli. Ularni kundalik xayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari xam deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ruyobga chiqadi. xalollik, rostguylik, xushmomalalik, boodoblik, kamtarlik singari meyorlar ayniksa, dikkatga sazovar. Shuni xam aytish kerakki, xalollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida-kaysi taom xarom-u, kaysinisi xalol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allakachon umuminsoniy ma'no kasb etgan meyorga aylangan. xalollik, rostguylik vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning uzgaga munosabati uziga munosabatidek sof bulishini talab etuvchi me'yorlardir.

Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aklga buysundirilgan ravishda, cheklanadi, ya'ni nisbiylashadi. Aks xolda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruxning betiyik erkin ixtiyori nafaqat boshqa insonlar va guruxlar, balki nabotot, xayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning, aklga buysundirishning asosiy vositasi axloqdir.

Shunday qilib, axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. YA'ni axloqning kelib chiqishi iloxiy manba'dandir. Ana shu iloxiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish xar bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois uz-uzini va, iloji bulsa, uzgalarni axloqiy tarbiyalash barcha mukaddas kitoblarda savob sanaladi.

NIKOH VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI, UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.

Nikoh va oilaning ahloqiy asoslari xaqida so'z yuritishdan avval oila va nikoh nima? degan savolga qisqa ta'rif berishlikni lozim topdik. Oila so'zinivg lug'aviy ma'nosi haqida har xil nuqtai nazarlar bor. Masalan, Rimliklarda "oila" so'zi (familia) dastlabki mulk egasiga boysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkining bir qismi hisoblangan; mulk egasining o'z bolalari, xotini, asir, sotib olingan yoki meros bo'lib o'tgan qullar ham hisobga kirgan) majmuini bildirgan. "Ota" so'zi ham dastlab hozirgi ma'nodaga otani emas, balki o'ziga qarashli oilaning xo'jasi yoki egasi degan so'zni anglatgan. "Oila"ning lug'aviy ma'nosi boshqa bir manbaada quyidagicha izohlanadi: "Oila asli arabcha "ayolmand, niyozmand" ma'nolarini anglatuvchi "oil"

so'zidan chiqqanligi "Farxangi zaboni tojikiyda qayd etilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham bu so'zning arabchaligi ta'kidlanib, "er-xotin, ularning bola chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" ma'nosidagina izohlanadi. Har ikkala izohda ham so'zdagi ma'no yuki onalik bulog'idan suv ichgan holda shakllanganligi yetarli ifodalanmagan. "Oila" so'zining lug'aviy ma'nosi uning mohiyatini anglashda va ta'kidlashda muhim negiz bo'ladi. Darhaqiqat, oila er xotin, ularning bola chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda xonadonidir. Chunki oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoxud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila er xotindan tashqari erning ota onasi, ya'ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga buysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: Bunda minglab tasodiflar jarayonida er xotin muhabbati sinovdan o'tadi, shu sinov jarayonida ular bir birlarini chuqurroq tushuna boradi, bir birlarini qadrlashni o'rniga qoyadigan bo'ladi, bir birlariga kechirimli bo'lishadi, er otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo'shadi, orzu xavas ko'radi. Shu manoda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sarchashmasiga aylanadi. Oila ana shu asoslarga tayangan holda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatining ulug' kashfiyoti bo'ldi. Demak, oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, yacheykasi bo'lib, unda er xotinlik, ota onalik, farzandlarning va tug'ishganlarning o'zaro shaxsiy qarindoshlik va mulkiy maqsadlari, manfaatlari va huquqlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir. Kishilar uchun muqaddas dargox bo'lgan oila insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zamirida vujudga keladi. Albatta oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda eng avvalo ikkala jins o'rtasidagi kelishuv, ya'ni nikoh asosiy rol oynaydi. Chunki oila taqdiri rasmiy nikohiy tus olishidan boshlanadi, shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota ona sifatida farzandlaru qavm qarindoshlar, mahalla koy, qisqasi jamiyat oldida, o'z navbatida farzandlar ham o'z ota onalari va el oldida ma'suliyat sezadilar va burchli ekanliklarini his etib yashaydilar.

O'z navbatida nikoh nima? degan savol tabiiy. Nikoh ham arabcha so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: Er xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o'qiladigan shartnoma ma'nosiga ega ekanligi qayd etilgan". Boshqa lug'atlarda ham nikoh "Er xotinlikning yuridik (huquqiy) ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, "nikoh ahdi", "er-xotinlik, uylanish" ma'nolarida ishlatilgan. Nikoh to'g'risida ham turli ta'riflar bor. Shundan eng ma'quli quyidagi ta'rifdir: "Nikoh ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun o'zaro ahdlashuvidir". Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) bo'limida tuziladi va rasmiylashtiriladi Qonunga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar 18 yosh, qizlar 17 yosh nikoh yoshlari qilib belgilangan. Nikoh tuzishdan oldin ikki yosh orasida goh ochiq sevgi-muntazam uchrashuvlar, ahdu-paymonlar va orqa varotdan bir-birini yoqtirish bo'lishi mumkin. Har ikkala ahvolda ham rozilik o'zgarimas shart hisoblanadi.

Muhammad Alayhissalom uylariga sovchi kelganda qizlari Fotimadan doimo rozilik so'raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo'yganlarida Bibi

Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga payg'ambarimizdan qolgan sunnat. Hozirgi kunda ham ko'pgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma'qul ko'rsagina to'y bo'ladi. Juda ko'p hollarda bunday yoshlar o'rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o'rtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa bo'ladi. Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo'ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy extiyojni qondirish birinchi o'rinda turadi. Nikohda u ikkinchi darajali mavqe'ni egallaydi. Demak, nikoh oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, erkak bilan ayolning bir biriga va bolalariga, ya'ni bir oilaga mansub kishilarning bir birlari oldida va jamiyat oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini belgilaydigan oilaviy ittifoqidir. Demak, oila nikoh asosida vujudga keladi. Lekin oila va nikoh aynan bir tushunchalar emas. Oila nikoh va qonqardoshlik bilan bog'langan kishilarning tarixan shakllangan ittifoqidir, eng avvalo, er va xotin, ota onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlardir. Nikoh oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, bir oilaga mansub kishilarning, eng avvalo, er va xotinning va farzandlarning bir-birlari oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini ifodalaydi.

Oilalar va nikoh tarixiy hodisa bo'lib, ular jamiyatning kelib chiqishi va taraqqiyotida azaldan mavjud bo'lmagan. Oilaning kelib chiqishi hali batamom oydinlashtirilgan emas. Bu to'g'rida turlicha nuqtainazarlar mavjud. Mutaxassislarining aksariyatining fikricha, oila va nikoh munosabatlarining evolyutsiyasi quyidagicha yuz bergan: Ibtidoiy tuzumning avvalida (ilk va so'nggi paleolit chegaralarida) umuman oila va nikoh bo'lmagan, u davrda promiskutet deb nomlangan tartibsiz jinsiy aloqalar odati hukm surgan, ya'ni to'dadagi har bir ayol barcha erkaklarniki va har bir erkak barcha ayollarniki hisoblangan. Keyin bu aloqalar o'rmini guruhliy nikoh egallagan. Guruhliy nikohda bir urug'dagi hamma erkaklar boshqa urug'ning barcha ayollariga er bo'lish huquqiga ega bo'lganlar. So'ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy shakli sifatida juft oila paydo bo'lgan. Juft nikohda esa er xotin hisoblangan erkak va ayol o'z urug'larida yashagan. Bu oila qarindoshlikni ham ota tomonidan (otalik davri), ham ona tomonidan (onalik davri) hisoblab borgan, lekin bu oilalarda hali er xotin nikohi barqaror, alohida xo'jalikka ega emas edi. Bu davrda (bronza davri boshlanishi va temir davrida) tabiiy faktor o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasida qon qardoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatlariga aylangan nikohda xotin er bilan yashash uchun uning urug'iga ko'chib o'tgan. Monogam (yakka nikohlik) oila paydo bo'ldi. Nihoyat individual oila bo'lib, bu kichik oilada nikoh er - xotinni hamda ularning bolalarini bir biri bilan mustahkam bog'laydi. Bu holat xususiy mulkchilik rivojlana boshlab ibtidoiy jamoa tuzumi emirilayotgan davrga to'g'ri keladi. Oila shakllari nikoh xarakteriga qarab ham bir -biridan farq qiladi: 1) Poligam (ko'p nikohlik) va monogam (bir nikohlik) oila; 2) hukmronlik kimning qo'lida bo'lishiga qarab oila patriarxal (ota yoki aka-ukalarning biri tomonidan boshqariladigan) matriarxal (ona tomonidan boshqariladigan), 3) demokratik (er xotinning tengligiga asoslangan) oilaga bo'linadi. Hozirgi jamiyat oilasi "demokratik" oilaning tipik shaklidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash

sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etish uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzi haqida: «Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda», — deb ta'kidlagan edilar.

Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muxim xujayrasi deyishadi. Chunki xar bir jamiyat a'zosining, bulajak fukuroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jixatni: uzining bevosita kurinishi bulmish nikoxni; oilaviy mulk va anjomlar xamda ular xakidagi gamxurlikni; bolalar tarbiyasini uz ichiga oladi.

Qonunga binoan nikox tuzish shartlarida eng muximlari – nikoxga kiruvchilarning uzaro roziligi va ularning nikox yoshiga yetganliklari. Bu – masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi – axloqiy tomoni xam borki, u sevgi bilan bog'liq. Nikox tuzishdan avval ikki yosh orasida gox ochik sevgi – muntazam uchrashuvlar, axdu paymonlar qilish yoki orkavorotdan bir-birini yoktirishi xollari bulishi mumkin. xar ikkala xolda xam rozilik uzgarmas shart xisoblanadi.

Ba'zan, qadimda Shark xalqlarida, shu jumladan o'zbeklarda kizning yoki yigitning rozilgisiz tuy qilib yubora berishgan, ota-onalar kelishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniksa, bunday gaplar shurolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaxolanki, bunday xol kam bulgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, paygambarimiz Muxammad alayxissalom uylariga sovchi kelganida, kizlari Fotimadan doimo rozilik suraganlar va rad javobi olganlar. Faqat xazrat Ali sovchi kuyganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandninng roziligini olish bizga paygambarimizdan qolgan sunnat.

Xozirgi kunda xam kupgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma'kul ko'rsagina, fotixa qilinib, tuy taraddudi kuruladi. Juda kup xollarda bunday yoshlar urtasida keyinchalik xaqiqiy muxabbat shakllanadi. Abdulla kodiriy «utgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush urtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa buladi. Ochigini aytish kerakki, muxabbatning xam uz darajasi bor: Layli bilan Majnunning muxabbati xamma sevishganlarga xam nasib etavermaydi. Bunday romantik-sururiy sevgi real xayotda kamdan-kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muxabbat ma'lum ma'noda salobatli, kuprok yashirin tarzda namoyon buladi.

Nikox uz moxiyatiga kura axloqiy xodisa. Unda extiroslar axloqqa buysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy extiyotni kondirish birinchi urinda turadi, nikoxda u ikkinchi darajali mavke egalaydi.

Oilaning yana bir jixati – uning uz mulkiga egaligi. Agar nikox oilaning botiniy kurinishi bulsa, oilaviy mulkni uning tashki kurinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bulishi uchun ishlab topiladigan mablag xam zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag, shubxasiz axloqiy tabiatga ega: oila boshligi oila a'zolarini xalol yedirib-ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani erkak kishi boshqaradi. U nafaqat «topib

keladi», balki oilaviy mulkka xujayinchilik qilish, uni taksimlash huquqiga xam ega.

Oilada bolaning axamiyati nixoyatda katta. Ota bolada uz jufti xalolini, ona esa sevimli erini kuradi: bolada er xotinning muxabbati predmetlashadi, jonlanadi. Bola – oilani tutib turuvchi jonli muxabbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk xisobiga yeb-ichadilar, tarbiya oladilar.

Oilada bolalar intizomli bo'lib o'smoqlari, ota-onaga buysinislari lozim. Lekin bu intizom qullikka urgatish emas, balki bolalariga xos erka-tantiklik, uzboshimchalik singari salbiy xususiyatlarni yukotishiga xizmat qilishi kerak. Ota-onaga buysunishdan bosh tortishga yul kuyish bolaning kelajakda kupol badxulk nokamtarin bo'lib yetishuviga olib keladi. Shu bois oila ilk axloqiy tarbiya uchogi sifatida xam katta axamiyatga ega.

Oila buzilishi xam mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri – oilani axloqiy nuktai nazardan buzilishi. Bunda bolalar balogatga yetgach, erkin shaxs sifatida yangi oilaga asos bulishlari – ugil bolalarning uylantirilishi, kizlarning erga berilishi nazarda tutiladi.

Uylantirilgan farzandlarga xam, erga berilgan kizlarga xam yangi oila kurish va uni moddiy jixatdan dastlabki paytlarda muxtojlikdan saqlab turish uchun yetarli bulgan uy-ruzugor ashyolari ajratiladi. Shuningdek, oilaning tabiiy buzilishi xam mavjud. Unda ota-onaning, yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros bo'lib bir yoki bir necha farzandga utishi munosabati bilan oila buzilishi mumkin.

Bundan tashqari, nikox bekor qilinishi munosabati bilan oila buziladi. Aslida nikox xam diniy, xam dunyoviy nuktai nazardan buzilmasligi kerak. Lekin urtada xiyonat sodir bulishi yoki yana boshqa bir xil sabablar tufayli nikoxni faqat axloqiy obruga ega, qonun bilan tan olingan idoralar, masalan sud, va vakolatli ruxoniy bekor qilishi mumkin, zero u, aytganimizdek, axloqiy xodisa. xar bir jamiyat mana shu sunggi turdagi oila buzilishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi kancha kamaysa, u usha jamiyat axloqiy takomillashib borayotganini anglatadi.

2. Dastlabki axloq maskani bulmish oilalar yigindisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati moxiyatan oila bilan davlat urtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinrok ruy bersa xaa, u albatta davlatni takozo etadi, ya'ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir bulishi kerak. Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, xozirgi paytdagina fuqarolar huquqi xaqiqatan xam inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida xar bir odam uzi uchun maksad. Birok, u boshqalar bilan uzaro munosabatda bulmasdan turib, uz maksadiga tula erisha olmaydi: boshqalar uning maksadga yetishishi yulidagi vositadir. Natijada xar bir aloxida maksad boshqalar bilan uzaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini kanoatlantirgani xolda, uzi xam kanoatlanadi. Boshqacharok qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bulgan xar bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning ushanday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining extiyojini uning mexnati vositasida kondirishi barobarida, shu mexnat vositasida barcha kolganlarning xam extiyojini kondiradi. U uz a'zolarining shaxsiy erkinliklari va huquqlarini ximoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yul kuymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabakalardan tashkil topadi. Ular orasida tabakaviy yoki sinfiy ziddiyat singari xodisalar ruy berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs – davlat fuqarosi,

muayyan inson manfaatlari birinchi urinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, xam axloqiy, xam qonuniy jixatdan ximoya qilinadi.

Mamlakatimizda xozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, garbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. garbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yunalishning ustuvorligiga karatilsa, bizda axloqiy-ma'naviy yunalishning ustuvorligini kurish mumkin. Shu nuktai nazardan olib karaganda, biz kurayotgan fuqarolik jamiyati garb dunyosi uchun urnak bulishi mumkin. Bu faxrlanish xissidan kelib chikkan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, garb jamiyatlari xozirgi paytda axloqiylikni huquqiylikning yukori boskichi sifatida qabul kilmokdalar. Lekin ular uchun «axloqiy urin bushatishdan» kura «huquqiy urinni egallab turish» na faqat qonuniy, balki zavklirok tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa, buning aksi – xar bir «axloqiy urin bushatish» o'zbek qalbiga kuvonch, uz insonlik burchini bajarganlik xissini tuldiradi.

ESTETIKA: GO'ZALLIK FALSAFASI PREDMETI VA VAZIFALARI

Estetika suzi yunoncha «estezikos» suzidan olingan bo'lib «sezish», «xis qilish kobiliyati» ma'nosini bildiradi. Bu fan insonning vokelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonunkoidalari zdidagi fandir. Shu boisdan bu fan «go'zallik falsafasi» deb ta'riflab kelingan. Birok xozirgi davrda bunday ta'rif yetarli emas, chunki endilikda go'zallik estetikaning tushunchalaridan biriga aylanib kolgandir. Estetika suzini ilm-fan estetikasi sifatida birinchi marta olmon faylasufi Aleksavdr Baumgarten (1714—1762 yillar) «Poetik asarning ba'zi bir masalalari tugrisida falsafiy muloxazalar» kitobida iste'molga kiritgan. Birok bu bilan Baumgartenni estetika fani asoschisi deb bulmaydi, chunki estetika nazariyalari qadim zamonlardayok falsafa fani doirasida o'rganilgan.

Dastlabki estetik ta'limotlar kuldorlik jamiyati davrida — Shark mamlakatlari (Misr, Bobil, Xindiston, Xitoy, Eron va Turon) da vujudga kelib, qadimgi Yuno-nistonda, ayniksa *Platoy*, Arastu, Sukrot asarlarsda, qadimgi Rimda Lukretsiy Kar, Goratsiy va boshqalarning tadqiqotlarida rivojlantirildi» XVIII asrning ikkinchi yarmidan esa mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

Sharqda etika (axloqshunoslik) «Ilmi adab», estetika (nafosatshunoslik) esa «Ilmi badi'a», «Ilmi husniya» deb yuritilgan. Arastudan tortib Imom G'azzoliygacha, hazrat Alisher Navoiydan tortib Aleksandr Baumgartengacha, Deni Didrodan olmon faylasufi Hegelgacha barchasi etika va estetika fanlari falsafa fanining uzviy qismi bo'lgan mafkuraviy va nazariy fanlardir, deb qaraganlar.

Tilimizda «go'zal», «chiroyli» degan so'zlar bor. Chiroyli narsa ko'z bilan ko'riladi. Go'zallik ham ko'z bilan ko'riladi, ham dil bilan his qilinadi, ong bilan idrok etiladi.

Nafosat olamini o'rganish, tadqiq va tahlil etish, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, uning mohiyatini odamlarga anglatish, o'qitish kabi maxsus vazifani estetika fani bajaradi.

Estetika falsafiy fandir. Falsafa — tafakkur gulshani, ma'naviyat bog'i. Falsafa fani — haq yo'lga o'rgatuvchi ta'limot, dunyoqarashni shakllantiruvchi, odam va olamni bilish ilmidir. Falsafiy fanlar — Etika (axloqshunoslik) vijdoniylikni, pok,

halol bo'lishni o'rgatsa, Estetika (nafosatshunoslik) esa go'zallik haqida bilim beruvchi fandır.

Estetika suzi kupincha narsa va xodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma'nolari majmui sifatida xam kullaniladi. Moviy osmon, kuyosh botishidagi kirmizi shafak manzarasi, yangi ochilgan gulning tarovati, oxu komatining uta go'zalligi, tovus patlarning nozik jilvasi, sarv daraxtining adl-ligi, kamalakning rangin tovlanishi va boshqalarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin, chunki bularningammasi kishiga zavk-shavk bagishlaydi. Mazkur tushuncha kishilarning yaxshi fe'l-atvori, muomalasi, nutki, did bilan kiyinipshni xam anglatadi.

Xush, estetika (bu suz ba'zan nafosat tushunchasi bilan baravar ishlatiladi). san'atda kaysi ma'nolarda kullaniladi? Vokelikdagi tabiatan nozik narsalar va xodisalar in'ikosi — badiiy adabiyotda nazm, tasviriy san'atda — manzara, miniatyura va boshqalar fikrimizga yorokin dalildir. Ikkinchidan, san'atda nima in'ikos ettirilishidan kati nazar, nixoyatda nozik ifoda usullari kullanilishi, ifoda usulining bagoyat nafisligi — naksh, rake, oxang va boshqalar dikkatga sazovordir. Nafosat atamasi bevosita va bilvosita estetika atamasi urnini bosa oladi. Kupchilik estetika atamasiga urgangani uchun nafosat atamasini chukur xis qilolmaydi.

Estetika fan sifatida voqelikning go'zallik asosida in'ikos etishini, inson amaliy faoliyatining xamma soxalarida go'zallik va xunuklik tuygularini, ayniksa, badiiy ijodning umumiy qonunlarini urganadi. Viz vokelikdagi go'zallik va xunuklikni turlicha tushunamiz. Estetik karashlarimiz, tasavvurlarimiz, baxolarimiz nisbiy bo'lib, ularni xolis baxolash estetikaning vazifasidir.

Mazkur fanning asosiy tushunchasi — go'zallik zoxiriy va botiniy ma'noga ega. Voqea-xodisa, buyum zoxiran go'zal, botinan xunuk bulsa, bu yerda go'zallik tushunchasi kemptikdir. Oltin zirak tashki jixatdan go'zal bulsa, uning oltin sifatidagi ichki moxiyati xaqiqiy kimmatga egadir. Bu chin ma'nodagi go'zallikdir. Shu bois donishmandlar tashki va ichki go'zallik mutanosibligita aloxida axamiyat berganlar.

Insonning chexrasi, komatidagi go'zallik ma'lum kimmatga ega bulsa-da, bu xali tula ma'nodagi go'zallik emas. Qachonki inson tashki kiyofasi bilan birga, uning botiniy olami — xulki, fe'l-atvori, mexnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jixatlari go'zallik xislatlari bilan muvofik bulsa, ular mukammal go'zallik sifatini ola-dilar. E'tibor bergan bulsangiz, ayrim donishmandlar tashki go'zallikni shunchaki shakl deb karab, kuprok ichki go'zallikka — ma'naviy olam mukammalligiga e'tibor beradilar. Inson faqat tashki go'zalligi bilan maktalmasligi kerak. xolbuki tashki go'zallikka ega kishilar botinan go'zal bulmasalar, ularning siyratida manmanlik, xudbinlik, kibr-xavo, sharm-xayosizlik kabi kusurlar joy olgan bulishi mumkin. Go'zallikka intilish tabiiy extiyojdir. Bu extiyoj tarbiya vositasida namoyon buladi. Go'zallik kurshovida yashagan inson bilan xunuklik muxitida usgan odam urtasida katta farq bor. Go'zallik tarbiyasi insonni ma'naviy jixatdan kamolatga yetaklaydi, estetik xis-tuyguni taraqqiy ettiradi. Estetik xis-tuygu insonni kurshab turgao' muxitdagi ruxiy tuygu

paydo kiyauvchi go'zallik va xunuklikni, ulugvorlik va pastkashlikni, fojaviylik va kulgililikni idrok etish va baxolash kobiliyatidir.

Estetik extiyoj — ezgulikka, go'zallikka intilshidir. Bu extiyoj mexnat, san'at, axloqiy munosabatlardagi go'zallikni takozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabati orqali namoyon buladi.

Estetika uz mohiyatiga ko'ra, din, fan, axloq, huquq tamoyillaridan farq qiluvchi uziga xos qonunlar asosida rivojlanib, unda utmish madaniy merosi, xozirgi kun tajribasi, kelajak bashoratlari uygunlashgan xolda namoyon buladi, fan voqea-xodisalarning qonuniyatlarini vokelikka muvofik keladigan tushunchalar va koidalar orkali ochib bersa, estetika voqea-xodisalarni xayol, tukima obrazlar vositasida ifodalaydi. Ulardagi timsollar xam uz tuzilishiga kura bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, xaykaltaroshlik, teatr, badiiy adabiyot, kino san'atida voqea-xodisalar bevosita tasvirlanadi: musika, raks, amaliy-kurgazmali san'at, me'morchilikda san'atkorning voqea-xodisalar va narsalardan tugilgan goyaviy-xissiy xolati ifodalanadi. Bu jixatdan estetika san'atga yaqin turadi.

Insoniyat taraqqiyotida umumbashariy tuygularni gavdalandirgan san'at asarlari xalqchil bo'lib, xalq orzu-armonlariga mos kelgan. San'atda obrazlar milliy fe'l-atvor, til, an'analar, dunyoqarash, san'atkorning vokelikka munosabati va boshqa mezonlardan kelib chiqib yaratiladi.

Xozirgi paytda san'atdagi ijodkorlik rang tasvir, badiiy suz, musyka soxalaridan tashqari, xalq amaliy-xunarmandchilik, xavaskorlik ijodiyoti faoliyati kurishda xam davom etmoqda. San'atdagi ijodiy faoliyat darajasi san'atkorning (musavvir, me'mor, shoir, yozuvchi, bastakor, kushikchi, sozanda, artist va xokazo) iktidori, iste'dodi, san'at turi, janri bilan bog'liq bo'lib, bu mezonlar xar bir yaratilgan san'at asarining ruxiy-tarbiyaviy axamiyatini xam belgilaydi.

San'at asarining yaratilishidagi ijodiy jarayon ikki boskichda kechadi. Avvalo vokelikdagi xodisalarni xissiy obrazlar vositasida ifodalash uchun extiyoj — biror maksad paydo buladi, ijodkor ongida fikrlar va goyalar shakllanadi. Ijod jarayonining ikkinchi bosqichida esa ana shu extiyoj — maksad asosida bevosita asar yaratiladi — fikr va goyalar obrazlarga kuchadi. San'at asari badiiyligining zarur sharti univt shakl va mazmun birligidir. San'atda xamisha go'zal shakl mazmun bilan, go'zal mazmun go'zal shakl bilan bir butunlikni tashkil etadi.

San'at ibrat xissi — ruxiy tarbiya quroli bo'lib, uning vositasida voqelikdagi go'zallik va xunuklikni, ulugvorlik va pastkashlikni, fojialilik va kulgililikni anglaymiz. Shunday san'at insonda kuvonch va kulgi, yigi va kaygu, nafrat va gazab kuzgaydi, inson faoliyatining muxim turi sifatida odamlarni nafasat va go'zallik ruxida tarbiyalaydi, vokelikka estetik munosabat esa san'atkorlar yaratgan asarlarda, mexnatda, turmushda, axloqiy munosabatlarda aks etib, badiiy asoslarda ifodalanadi.

Go'zallik behisob shakl va kurinishlarga ega. Go'zallik barcha narsalarda, xodisalarda namoyon buladi. *Avvalo*, u kuvonch va shodlik histuygusidir. Biz tabiat-dagi, mexnatdagi, odamlar axloqidagi go'zalliklarni begaraz sevamiz. Sevgan, orzu kilgan odamni, narsani kurganda kandy xursand bulsak, go'zallikni ko'rganda xam shunday quvonamiz.

Go'zallik san'atda aloxida kimmatta ega. San'at inson munosabatlari go'zalligini — fidoyilik, olijanoblik, ezgulik, yaxshilik, adolat, jasorat, vatanparvarlik kabi tushuncha shaklidagi xolatlarni badiiy ifodalash orkali aks ettiradi. Ayni maxalda san'at ijtimoiy yovuzliklarni, razillik va munofiklik, pastkashlik va riyo, tubanlik va yoltonchilik kabi xunuk xodisalar vositasida xam insonning tuygulariga ta'sir etib, uni tarbiyalaydi. San'atda go'zallik, kupincha fojia, ulurvorlik, kulgi orkali karor topali. Fojiaviylik, ulugvorlik va kulgililik tushunchalari san'atda aloxida kimmatga ega.

San'at asarining yaratilishidagi ijodiy jarayon ikki bosqichda kechadi. Avvalo vokelikdagi xodisalarni xissiy obrazlar vositasida ifodalash uchun extiyoj — biror maqsad paydo buladi, ijodkor ongida fikrlar va goyalar shakllanadi. Ijod jarayonining ikkinchi boskichida esa ana shu extiyoj — maqsad asosida bevosita asar yaratiladi — fikr va goyalar obrazlarga kuchadi. San'at asari badiiyligining zarur sharti uning shakl va mazmun bir-litidir. San'atda xamisha go'zal shakl mazmun bilan, go'zal mazmun go'zal shakl bilan bir butunlikni tashkil etadi.

San'at ibrat xissi — ruxiy tarbiya quroli bo'lib, uning vositasida voqelikdagi go'zallik va xunuklikni, ulugvorlik va pastkashlikni, fojialilik va kulgililikni anglaymiz. Shunday san'at insonda kuvonch va kulgi, yig'i va kaygu, nafrat va g'azab quzgaydi, inson faoliyatining muxim turi sifatida odamlarni nafosat va go'zallik ruzrida tarbiyalaydi, vokelikka estetik munosabat esa san'atkorlar yaratgan asarlarda, mexnatda, tur-mushda, axloqiy munosabatlarda aks etib, badiiy asoslarda ifodalanadi.

Go'zallik bexisob shakl va kurinishlarga ega. Go'zallik barcha narsalarda, xodisalarda namoyon buladi. Avvalo, u quvonch va shodlik xis-tuygusidir. Biz tabiatdagi, mexnatdagi, odamlar axloqidagi go'zalliklarni begaraz sevamiz. Sevgan, orzu qilgan odamni, narsani kurganda kanday xursand bulsak, go'zallikni ko'rganda xam shunday quvonamiz.

Olamdagi maxlukotlar orasida aql-idrok soxibi bulgai Odamga yoruglikni koronrulikdan (kunni tuidan), ranglarni (okni koradan) farqlay olish, kulgili va fo-jiali xolatlarni mushoxada etish, kuyingki, nafosat, go'zallik, ezgulik, ulugvordik, olijanoblik olamiga in-tilish bilan birga xunuklik, xudbinlik, loqaydlik, joxillik, pastkashlik kabi illatlarga qarshi kurash olib borish qobiliyati in'om etilgan. Inson shu qobiliyati tufayli uzligini anglab, komillik sari intilib kelmoqda. Insonning uziga, uzi yashayotgan turmush muxitiga xavodek zarur bulgan go'zallik, nafosat dunyosini yaratishdagi mashakatli mexnati tufayli shu kadar ulugvor axamiyatga molik bulgan ma'naviy boyliklar vujudga keldiki, ularga xayrat bilan boqib, insonning aql-nafosat kudratiga taxsinlar aytamiz.

Nafosat va go'zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, ran-gorang, jozibali, extirosli, mo'jizali, sexrli, unda moddiy go'zallik bilan ma'naviy go'zallik uygun xolda chiroy ochib turadi. Insonning nafosat olamini anglashga intilishi atrof-vokelikni anglaigga intilshpi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson moddiy go'zallik dunyosini bunyod etish jarayonida ma'naviy go'zalliklarni xam kashf eta borgan, ya'ni nafosat olamining yaratilishi jarayoni uni anglash, mushoxada etish jarayoni bilan uygunlikda sodir

bulgan.

Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, uzlashtirish maqsadi, ya'ni nafosat olamini tadqiq va taxlil etish zaruriyati paydo buldi. Ayni maxalda bu zaruriyat nafosat (estetika) soxasidagi bilim va tajribalarni tuplashga imkon yaratdi. Nafosat olamini urganish, tadqiq va taxlil etish zaruriyatini vokelikka aylantirish, mazkur soxada ilmiy tadqiqot ishlari olib borigp, uning moxiyatini odamlarga anglatish, uqitish kabi maxsus vazifalarni estetika fani va o'quv darsi bajaradi.

Aslini olganda estetika fani va o'quv darsi falsafiy bilimlar majmuida uziga xos, aloxida axamiyatga molik bo'lib, u bir tomondan insonning atrof-muxit, vokelikka, go'zallik va xunuklik qadriyatlari doirasidagi sshamni yaratish jarayonidagi faoliyatini namoyon etadi.

Estetikaning fan, keyinchalik esa o'quv darsi sifatida shakllanish jarayonlarida uni bir qator mustaqil bilim soxalariga bo'lib yuborishlar, ya'ni estetika «estetik qadriyatlar nazariyasi», «estetik idrok etish nazariyasi» va «umumiy san'at nazariyasi» soxalariga ajratib urganish xamda uqitish maksadga muvofik deb ko'rsatilgan edi.

Insonning estetik faolligi badiiy faoliyati bilan, aksincha, uning badiiy faoliyati estetik faolligi bilan bab-barobar degan aqida tarixiy taraqqiyot tajribasida uzini oklamadi. Aslida bu ikky nisbiy mustaqil makomga ega bulgan inson faoliyati soxalari uzaro shu kadar chirmashib ketganki, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bulmaydi.

Insonning estetik faolligi jarayonida tabiat va jamiyat qadriyatlari munosabatlari tizimidagi estetik xu-susiyatlar (go'zallik va xunuklik, ulugvorlik va pastkashlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon buladi. Insonning estetik faolligi sifati va darajasi esa estetik qadriyatlar bilan estetik baxolash kobiliyati, estetik idrok etish bilan estetik amaliyot urtalaridagi uzviy aloqadorlik madaniyatning barcha soxalaridagi badiiy va estetik uzaro bog'liqlik mezonlari bilan o'lchanadi.

Estetikaning ikkinchi tarkibiy qismi bulgan inson badiiy faoliyati jarayonlarining boshlanishidan to oxirigacha yaxlit birlikda mushoxada etib urganish, uning faoliyati boshqa turlari qatorida tizimli va amal qilish xususiyatlarini anglab, badiiy ijod, uning samarasi bulgan san'at asarlari bilan ularni odamlar idrok kiligshining uzviy bog'liqligini ilgab olish, badiiy faoliyat anik shakllari (turlari, kurinishlari, uslublari)ni yaratuvchi qonunlarni o'rganish jamiyat badiiy taraqqiyoti xususiyatlarini, san'at ravnakining istiqbollari kura bilish qobiliyatining vujudga keloyashi jarayonlarini tankid etish estetika fanining eng muxim mavzusi xisoblanadi.

Estetika fani xech vakt faqat atrof-voqelikni estetik va badiiy idrok etish qonuniyatlarini o'rganish bilan chegaralanib kolmay, u tadqiq va taxlil ishlarini istikbol maksad-manfaatlariga yunaltirib turgan. Estetikaning istikbolga malxallanganligi shu bilan izoxlanadiki, u vokelikni nafosat nuktai nazaridan baxolahsa, badiiy mezon ulchovlarini ilmiy jixatdan ishlab chikib, amaliy faoliyatga tatbik etihda ifodasini topadi.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruxiy, mafkuraviy-goyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari xam tobora tiniklashib boradi. Chunki, estetik tafakkur insonning maksad-

manfaatlarini estetik-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini urganish, taxlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, vokelikni estetik in'ikos etish jarayonlarini ko'rsatib beradi.

Estetika mavzui bilan bevosita aloqador bulgan «estetik munosabatlar», «borliqni estetik o'zlashtirish», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat», kabi o'zaro yaqin, ma'nodosh bir qator tushunchalar bor. Ular orasidagi «borliqni estetik o'zlashtirish» tushunchasi qolgan «estetik munosabat», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat» tushunchalarini xam qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan borligini estetik o'zlashtirish moxiyati va qonuniyatlarini o'rganadi desak to'g'riroq bo'ladi. Borliqni estetik o'zlashtirish esa san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois estetika fani san'atning asosiy-uslubiy metodologik zamini bo'lib xizmat qiladi.

Estetikaning borlikni estetik o'zlashtirish moxiyati va qonuniyatlari xakidagi fan sifatidagi o'ziga kos bir qator fazilatlari xam bor. Estetika fani inson tevarak-atrofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarning barchasini kamrab olishga, inson faoliyatining barcha jabxalaridagi nafosat olamini san'at barcha turlari vositasida chukur urganishga da'vat etadi. San'at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir. San'atni ilmiy jixatdan taxlil va tadvik etshp barobarida esa estetik faoliyatining barcha kurinishlariga ilmiy jixatdan yondashish uchun zamin yaratiladi. Shu bois san'at va badiiy ijodning tabiati va moxiyatini urganish, qonuniyatlarini uzlashtirish go'zallik — nafosat (estetika) ning barcha sifat darajalarini urganish uchun kalit vazifasini utaydi. Bu jabxalarga san'atning umumiy nazariyasi (san'atning tabiati, moxiyati, taraqqiyoti va faoliyatining mushtarak qonunlarini aniklash), estetika fanining xususiy-uslubiy asoslariga oid tadviqotlar (mavzui, ilmiy makomi, burch vazifalari, usul-uslublarining uzaro munosabati masalalari)» moddiy boyliklar yaratish estetikasi (mexnat qilish jarayonida moddiy ishlab chiqarish sharoiti va maxsulida estetik jixatlar masalalari), muxandislik-loyixachilik faoliyati va ilmiy tadviqot ishlari soxasida estetik jixatlar, tabyat estetikasi (tabiatta munosabat masalasida uziga xosliklarni aniklash va tabiatdan foydalanishga oid estetik omillar), insoniy munosabatlar estetikasi, kundalik turmush va odob estetikasi kabi bir qancha soxalarni kiritish maqsalga muvofiqdir. Xozir jaxon estetika fanida bu jabxalarning xar biri estetika tarkibiga kiruvchi mustaqil maxsus o'quv kurslari darajasiga ko'tarilgan. Estetika fani esa maxsus o'quv kurslarining uslubiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida uziga xos urin egallaydi. U, eng avvalo, falsafiy bo'lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Masalan, vokelikni estetik va badiiy uzlashtirish jarayonlarini urganipha xolislik, tarixiy yondashish, bilish jarayonida amaliy tajribaning axamiyati kabi uslubiy asosni qullash ijobiy samaralarga olib kelishi mumkin.

Bilish nazariyasi vositasida san'atning bilish tabiati, vokelikni badiiy-ramziy ifodalash bilan ilmiy tadvik etish urtasidagi uzaro aloqadorlik va uzaro farqlar, vokelikni badiiy vositalar orkali tasvirlashning ijodiy tabiati,

san'at asarlaridagi shartlilik va badiiy xaqiqat kabi estetika fanining juda ko'p nazariy xamda uslubiy asoslari muammolarini yechish, ularga javob izlab topish mumkin.

Bilish nazariyasining boshqa aqidalari — ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, ma'naviy xayot xilma-xil shakllarining uzaro bir-biriga ta'sir utkazishi, ikti-sodiy zamkn bilan ijtimoiy ong turli shakllari urtasidagi bilvosita aloqadorlik va bog'liqlik kabi masalalar xam estetik ong, badiiy ijod va san'at tabiati xamda xususiyatlarini ilmiy tushunishga yordam beradi.

Ayni maxalda estetika fani mustaqil bilim soxasini tashkil etgan xolda u falsafaning ravnak topib borishiga xam uzining xissasini qushadi. Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish xam muxim o'rin tutadi. Bilish nazariyasi, badiiy madaniyat qadriyatlari, vokelikka estetik munosabat, estetik tushunchalar, ayniksa ijtimoiy ong, uning nisbiy mustaqilligi xakidagi fikr-muloxazalar xam kup jixatdan san'at bilan bog'liqdir.

Estetika fani mazmunan sotsiologiya — keng ijtimoiy bilimlar doirasi bilan aloqadordir. Estetika *sotsiologiya* fani bilan uch tarkibiy qism orqali boglanadi: birinchidan, ijtimoiy voqea va xodisalar xamda jarayonlarning uslubiy asosi xisoblangan *umumsotsiologiya nazariyasi* estetikaning xam ilmiy-nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, sotsiologiya *ijtimoiy voqea-xodisalarning xususiy, aloxida, nisbiy mustaqil sohalari* (siyosat, davlatlar, millatlar, san'at turlari va kurinishlari)ni kamrab olgan xolda "estetika va badiiy ijod jarayonlarining ayrim jabxalari bilan uzviy bog'liqlikda namoyon buladi; uchinchidan, anik sotsiologik tadqiqotlar orkali olinadigan dastlabki *ijtimoiy axborotlar* (ma'lumot — bilimlar) estetik va badiiy faoliyat jarayonlarini xam qamrab oladi.

Shunday qilib, estetika sotsiologiyaning barcha bilim darajalari bilan u yoki bu kurinishlarda uzaro aloqadorlikda bo'lib, bu aloqadorlik xilma-xil yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, estetika umumsotsiologik nazariyaga tayangan xolla uzining goyaviy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yunalishlari va maksadlarini shakllantiradi. Sotsiologiya san'at bilan jamiyat urtasidagi turli-tuman aloqalarni tadbiiq etadi. Lekin san'at sotsiologiyasi estetykaning sotsiologik muammolari bilan tula kushilib ketmaydi. Chunki, san'at sotsiologiyasi bilan estetykaning sotsiologik muammolari urtasida katta farq bor. Estetika nafaqat san'at, balki vokelikni estetik o'zlashtirishning barcha shakllariga taalluqli bo'lgan sotsiologik masalalar yechimi bilan xam shugullanadi. Yana bir farq shuki, estetik muljal xamisha san'atning xususiyatlarini ochishga karatilgan buladi. San'at sotsiologiyasining asosiy vazifasi esa umumsotsiologik qonunlarning san'at soxasida amal qilishidir. Shuningdek, san'at sotsiologiyasining tushuncha vositalari xam ugzigiga xosdir. Masalan, «jamiyatning badiiy xayoti» tushunchasi sof estetikadan kura kuprok sotsiologiyaga taalluklidir. Estetykaning sotsiologik muammolari bilan sotsiologiya fanining ayrim soxalari urtasidagi farq va chegaralar shartli bo'lib, san'atning ijtimoiy xususiyatlarini tadvik qilishda mazkur farqlar va chegaralar yo'qolib ketishi mumkin.

Sotsiologiya bilan *estetika* fanining uzviy bog'liqligi bush vakt tizimida san'atning urni shaxsning estetik madaniyati bilan mexnat faoliyati o'rtasidagi aloqadorlikka taallukli boltan ma'lumot va axborotlarni jamlash va ilmiy qayta ishlab chiqishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Estetika fani ruxiyashunoslik (psixologiya) fani bilan xam chambarchas bog'lik. Buni estetika tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatamiz. Bu yaqinlikning asosi shundaki, voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik xis-tuyg'u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlarining-xammasi ruxiyat mezonini bilan o'lchanadi. Chunki, estetika u yoki bu darajada insonning ruxiy, xis-tuygu xolatini ifodalaydi.

Ruxiyashunoslik fani estetik munosabatlarning barcha tomonlarini, jumladan, badiiy ijod va idrok jarayonlarini amaliy va nazariy jixatdan tadqiq etadi. Ayni maxalda estetika fani inson ruxiy xayotining eng murakkab va nozik tomonlarini kamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini *ruxiyatshunoslik* fanining erishgan yutuqlari va xulosalaridan keng foydalanmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni paytda shuni xam unutmaslik kerakki, san'atning uziga xos xususiyatlarini urganishda ruxiyashunoslik fanining axamiyati kanchalik katta bulmasin, u xech vakt estetika fanining urnini bosa olmaydi. Zero, o'tmishda va hozirda voqelikka estetik munosabatning butun bir soxasiga ruxiyashunoslik akidalarini bosh mezon qilib olib, estetikani mustaqil fan sifatida chetga surib qo'yishga moyillik seziladi.

Dinshunoslik fani bilan aloqadorligi. Din, estetika va san'at doimo bir-birini to'ldirib keladi va ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o'z tasarrufidagi» san'at turlari bor: buddachilik uchun haykaltaroshlik, nasroniylik uchun tasviriy san'at, musulmonchilik uchun badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o'z ibodatxonalarini taqozo etadi. Ibodatxonalarining esa me'morlik san'ati bilan bog'liqligi hammamizga ma'lum.

Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san'at turlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Asrlar mobaynida ana shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi — diniybadiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me'moriy majmuyi, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi—Xitoy mintaqasidagi Budda ibodatxonalarini ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g'oyalari badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo'q: u o'sha diniy g'oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san'at oldiga qo'ygan talablarini yaxshi bilmog'i va hisobga olmog'i lozim.

Pedagogika fani bilan aloqadorligi. Ularning aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma'lum ma'noda nafosat tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, muxtor qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya'ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi va h.k. Pedagogika ana shu sohalar va yosh bo'yicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab

chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab to o'lgunigacha bosib o'tadigan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus nafosatshunosi M.Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, estetika uning strategiyasidir.

Semiotika (belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan) fani bilan aloqadorligi. Malumki, san'at asarida belgilar va badiiy ramzlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, harflar, notalar va h.k. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya'ni semantik va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana shu san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ—vositachilik jihatini semiotika o'rganadi. Ayni paytda, estetikada tuzilmali—semiotik estetika deb ataladigan nazariya ham mavjud. Unda san'at maxsus til yoki belgilar tizimi, alohida san'at asari esa ana shu tizim belgisi yoki o'sha tizim belgilarining izchilligi sifatida olib qaraladi. Zero bunda belgi san'at asarini idrok etuvchiga uni yetkazib beruvchi hodisa tarzida o'rganiladi.

Bundan tashqari, estetika kibernetika, ekologiya va yuqorida aytib o'tganimizdek, barcha san'atshunoslik fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi. Chunonchi har bir san'at turining «o'z estetikasi» mavjud: so'z san'ati estetikasi, teatr estetikasi, musiqa estetikasi va hokazo.


Har bir fanning o'z oldiga qo'ygan vazifalari bo'lgani singari estetika fani ham bundan mustasno emas. Zotan, biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim va uning nafosat tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yishda estetika muhim ahamiyatga ega. Zero, estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shakliy go'zalligini emas, balki ayni paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz.

Estetika kategoriyalari va ularning tasnifi. Falsafaning birorta kategoriyasini ham voqelikdan ayri holda tasavvur etib bolmaydi Chunki, bu kategoriyalar (butun, qism, zaruriyat, tasodif, mohiyat, sifat va h.k.) insonni o'rab turgan olamda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar haqida aniq xulosalar chiqarishga, ularni to'g'ri tahlil etishga ko'mak beradi.

Estetika ham falsafiy fan sifatida o'zining qonun va kategoriyalariga ega. Estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko'p yillardan buyon olimlar e'tiborida. Bu borada go'zallik, ulug'vorlik, fojaviylik, kulgulilik, hunuklik kabi an'anaviy ko'rinish ko'pgina adabiyotlarda o'z aksini topgan. Bugungi kunda go'zallik — ulug'vorlik — fojaviylik — kulgulilik; estetik ideal — estetik did — estetik tuyg'u; san'at — badiiy obraz — ijodkorlik ko'rinishdagi tizim estetika fanining kategoriyalar tasnifida kengroq qollanilmoqda.

Biroq, kategoriyalar tizimi qanday ko'rinishda bo'lmasin, ularning har birida go'zallik markaziy kategoriya sifatida ishtirok etadi. Go'zallik nima? Bu savolga estetik tafakkur rivoji tarixida juda ko'plab javoblar berilgan, xilma-xil nazariya va qarashlar ishlab chiqilgan.

Juda ko'p yillardan buyon estetika kategoriyalarini yaxlit tizimga solish olimlar e'tiborini jalb etib kelayotgan bo'lsada, lekin keltirilgan an'anaviy va zamonaviy tasniflardan ko'rinib turibdiki, go'zallik metakategoriya sifatida estetikada muhim ahamiyat kasb etadi.



Go'zallik kategoriyasi va uning muqobillari. Ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bolgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa-hodisalarning uyg'unligi, hamohangligi, mutanosibliqi, maqsadga muvofiqqligiga asoslangan qadriyat shakli «go'zallik» tushunchasida ifodalanadi. U estetikaning markaziy mezoniy tushunchasi — asosiy kategoriyasi sifatida barcha estetik tushunchalar uchun asos vazifasini bajaradi. Chunki estetika bilan bogliq har qanday savolning javobi go'zallik masalasiga borib taqaladi.

Go'zallik o'z-o'zidan vujudga keladigan hodisa emas, balki shakli, mazmuni va xususiyatiga ko'ra ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'rinishi go'zallik ontolo dyasi bilan bog'liq. Go'zallik tafakkur va tabiat mahsuli. Kulol loydan, naqqosh yog'ochdan, misgar misdan, zargar tillodan shunday buyum yaratadiki, uning jozibasi insonni hayratga soladi. Yoki tabiatdagi purviqor tog'lar, yuksak cho'qqilar, dengiz-u ummonlarning go'zalligini inson takrorlashga ojiz.

Ikkinchi ko'rinishi go'zallik gnoseologiyasi bilan bog'liq. Ya'ni go'zallik ayni paytda bilishning mahsuli. Voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go'zalligi uning ishonchlilik, qiziqarlilik, haqqoniylik mezonlari bilan o'lchanadi. Inson go'zallikni chinakam his etganda, uning mohiyatini bilgandagina zavqlanadi, huzur qiladi. Zero, go'zallikni bilish, idrok etish insonning badiiy-estetik tafakkurini o'stiradi.

Go'zallikni tadqiqot doirasiga ko'ra tabiat, jamiyat, san'at hodisasi sifatida tabiatdagi, jamiyatdagi hamda insondagi go'zallik turlariga ajratib o'rganish mumkin. Tabiatdagi go'zallik bu tabiatdagi narsa, hodisa, jarayonlardagi uyg'unlik, mukammallikning insonda yorqin va uzviy his-hayajon uyg'onish jarayonidir. Bu go'zallik inson uchun tabiatni asrash, undan bahra olishning manbai bo'lib, tabiatni estetik qadriyat sifatida qadrlashni taqozo etuvchi kuch, vosita bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatdagi go'zallik bu shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini ta'minlovchi adolat, insonparvarlik va tenglikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi. Insondagi go'zallik — bu undagi ma'naviy va jismoniy vujudning uyg'unligidir.

Go'zallik tabiat, jamiyat, inson tafakkuri mahsuli sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) go'zallik obektiv mazmunga ega bo'lgan subektiv obrazlar, tasavvurlar, idroklar, tafakkurlarning hosilasidir. Go'zallik obektivlik va subektivlikning o'zaro mutanosibliqi, uyg'unligidir;
- b) go'zallik — bu narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning insonni ruhlantiradigan, ilhom bag'ishlaydigan, yuksak oliyjanob maqsadlar sari

yetaklaydigan, jo'shqinlik baxsh etib jonlantiradigan tomonlaridir. Go'zallik xuddi shu ma'noda jism va ruhning uyg'unligidir. Ruhni oziqlantirib, jismni yanada ulug'vor qiladigan narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning xossasidir;

d) go'zallik — bu insonning erkin faoliyatidir. Hayotda o'z huquqini, erkini, qadrini topgan insongina go'zaldir. Erkin ijod, mehnat bo'lmagan joyda go'zallik yo'qdir;

Go'zallikning elementlari. Go'zallikning namoyon bo'lishi, shakllanishi va his etilishida muayyan unsurlar mezoniy vazifasini o'taydi. Bular — she'uog, maqsadga muvofiqlik, tartiblilik, uyg'unlik, hamohanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, mutanosiblik, tenglik va hokazo. Mazkur tushunchalar narsa-hodisalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, undagi go'zallikni namoyon ettiradi. Masalan, bahor faslining go'zalligi tabiatning uyg'onishi, ko'klamning yuz ochishi bilan, qish fasli esa oppoq qor bilan o'ziga xos go'zallikni namoyon etadi. Tabiatning ikkala faslida ham go'zallikning moslik va mutanosiblik unsuri muhim ahamiyat kasb etadi.

Go'zallikning sifatlari tug'yoniqlik, maftunkorlik, foydalilik, mo'jizaviylik singari tushunchalar orqali izohlanadi.

Go'zallikning xususiyatlari qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik tushunchalari bilan belgilanadi. Elementlar, sifatlari va xususiyatlar uyg'un bo'lgan narsa-hodisalargina chinakam go'zallikni aks ettirishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiy jarayonlar bilan boladigan munosabatlarida go'zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu holat ayniqsa, go'zallikning moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rnida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, go'zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan muqoyasa qilingandagina uning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go'zallikning ma'naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o'rniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ulug'vorlik kategoriyasi. Ulug'vorlik — insonning narsa-hodisalarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg'usini hosil qiluvchi ma'naviy hodisa. Ulug'vorlikning ko'lami go'zallik ko'lami kabi cheksiz bo'lib, o'zida hajm, miqdor, ko'lam va buyuklikni mujassam etadi. Shuning uchun ulug'vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladi. Ulug'vorlik tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushunchadir. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan umumiylik — meyoriy barkamollikdir.

Tubanlik kategoriyasi. Tubanlik — insonda kuchli nafratlanish tuyg'ularini hosil qiluvchi estetik kategoriyadir. Tubanlik mohiyatan insonga xos bo'lib, uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Tabiatda tabiat, hayvonot va nabotot olamida uchramaydi. Tubanlik inson fe'l-atvoridagi yovuzlik maylining qo'zg'alishi natijasida yuzaga keladi.

Fojiaviylik (tragediya) kategoriyasi — voqelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'qnashuvlari: hayot va o'lim, ozodlik va mutelik, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha. Deyarli barcha buyuk ijodkorlar yaratgan asarlarda fojiali ohanglar mavjud. Har qanday fojia zamirida muayyan fojiali to'qnashuv, ziddiyat yotadi. Gegel fojiaviylikni mohiyatli kuchlar to'qnashuvining natijasi sifatida bejiz ta'riflamagan. Chunki, bu to'qnashuvlar kurashi qanday yakun topishi bilan insoniyat istiqboli, axloqiy taraqqiyot uzviy bog'liqdir. Bu hol fojiani san'atning falsafiy

jihtadan eng muhim turiga aylantiradiki, u ijodkorga insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub hayotiy masalalarni o'z oldiga qo'yib, hal qilish imkoniyatini yaratdi.

Har qanday fojia zamirida keng kolamli, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan muayyan fojiali to'qnashuv yotadi. Fojiaviylik san'atda turlicha talqin etilishi mumkin. Bu hol mazkur janrga xos umumiy xususiyatlarni inkor etmaydi. Fojia uslubining umumiy belgilari qatoriga keng umumlashmalarga intilish, tafakkur boyligi, soddalik va yaxlitlik, hayajon va ehtirolarning yuksakligi kabilar kiradi. Fojia tarixiy davrning burilish paytlarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabatlar barbod bo'lib, qarashlar, estetik va axloqiy aqidaqoidalar qayta baholanayotgan sharoitda ravnaq topadi.

Kulgilik kategoriyasi. Estetik tafakkur tarixida kulgilik bir qadar keng o'rganilgan tushuncha hisoblanadi. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsiz odamlarni kulgili deb hisoblagan bo'lsa, Arastu kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor yetkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi, deydi. Olmon mumtoz nafosatshunoslaridan Immanuel Kant kulgilikning tabiatini latifa misolida ochib berishga harakat qiladi, Fridrix Shiller hajviyani veallik bilan ideallik orasidagi qarama-qarshilik orqali ko'rsatib o'tadi. Georg Hegel kulgilikning asosini zohiriy ishonch va botiniy to'laqonli orasidagi qarama-qarshilik orqali ifodalaydi.

Insondagi layoqatsizlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, izzatlablik, shuhratparastlik kabi illatlar kulgilikning obektlaridir. Shuningdek, kulgi — axloq hududlarini bezarar buzishdir. Har qanday ozod inson hazil bilan ro'baro' kelishi mumkin. Bu holatda kulgi insonning shaxsiy ehtiyojini qondiradi. Inson kulishga va kuldirishga qodir bo'lgan yagona mohiyatdir. Kulgilik boshqa estetik hodisalar singari faqat obektiv tomonga ega bo'lmay, subektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgilikning subektiv tomoni — keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir.

Bugungi kunda milliy g'oya va milliy mafkura hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishini anglamoqdamiz. Tarbiyaning nafosatli shakli esa mazkur jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma'naviy rivojida yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p masalalardan iborat»

Hulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Zero, bugungi kunning talabi ana shundan iborat. Mazkur talabga javob berish esa insondan har tomonlama tarbiyalanganlikni talab qiladi. Tarbiyaning nafosatli shakli esa mazkur jarayonlarda insonni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyatga bo'lgan qarashlarini go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiya qilishi bilan diqqatga sazovordir.

TABIAT VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ESTETIKASI. Go‘zallik haqidagi ilk tasavvurlar ham tabiat bilan bog‘liqdir. Tabiatdagi organizmlarning har biri o‘z holicha emas, balki boshqa organizmlar bilan bogliq holda yashaydi. Nabotot olami ham, hayvonot olami ham quyosh, suv, havo, tuproq ta‘sirida yashaydi, rivojlanadi.

O‘zbek xalqi tabiatga tarixan uzoq davrdan buyon mehr bilan qarashga, uni asrab-avaylashga o‘rganib kelgan. Bu milliy bayram, qadimiy ap‘apa, urf-odatlarida ham yaqqol ko‘rinadi. Xususan, O‘rta Osiyo xalqlarining har yili nishonlanadigan Navro‘z bayrami, asrlar davomida ona Yerga va tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bolish, uni ardoqlash tuyg‘ularini tarbiyalagan.

Tabiatga estetik munosabat xususida Qadimgi Xitoy daochilik ta‘limotida ham o‘ziga xos yondoshuv mavjuddir. Daosizm talimotida Inson mavjud olam kabi dao qonunlari asosida vujudga kelgan, u tabiatning bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo‘lidan borish. Har qanday sun‘iy aralashuv, tabiatning muvofiqlik tartibini o‘zgartirishga intilish odamlar uchun haloqatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoqsiz baxtsizliklarning manbayi tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishdir. Shu sababli, Laoszi nazdida faoliyat daoga qarshi qaratilgan va xalqqa zarar keltiradi, uning asosiy axloqiy tamoyili «uvey»faoliyatsizlik, donishmand kishining «dao»si — bu kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida tabiatga qarshi bo‘lmagan faol xatti-harakat, faqat daoga xos, tabiat qonunlariga mos faoliyatdir. Tabiat go‘zalligini asl holda saqlash va uni ko‘rish, his qilish daochilikda muhim ahamiyat kasb etgan.

Qur‘oni Karim va Hadisi shariflarda Islom qonun va qoidalari, shariat ahkomlari bilan bir qatorda atrof-muhitni toza saqlash, tabiat boyliklaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigiyenasi, zurriyotni tozaligiga, o‘simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan.

Tabiatdagi eng oddiy narsa va hodisalar mazmuni va shakli uyg‘unligi bilan go‘zaldir. Go‘zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, san‘at) hodisasi bolib, aniq hissiy ta‘sir o‘tkazish orqali insonda jismoniy va ma‘naviy kuchlar oqimining ko‘payishiga, shodlik, zavqlanish, to‘la ma‘naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go‘zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo‘ljallangan boladi.

Tabiatdagi go‘zallik ijtimoiy hayot go‘zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go‘zallik badiiy ijoddagi go‘zallikdan farq qiladi. Lekin go‘zallik qanchalik o‘zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo‘lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go‘zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo‘lish tuyg‘usi birdaniga paydo bo‘lmagan, albatta, u sekin-asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgani sari shakllanib borgan. Inson atrofidagi tabiatni o‘zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o‘lchanadi, inson uchun tabiatning go‘zallik va xunuk tomonlari ayon bo‘la boshlaydi.

XX asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida biosfera ichida noosfera ya‘ni texnikaviy muhitning paydo bo‘lishi inson hayoti va faoliyatining asosi bo‘lgan mehnatga katta ta‘sir ko‘rsata boshladi. Bugun uyali aloqa, kompyuterlarsiz hayotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu esa texnika hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini ko‘rsatadi. Albatta, biosferadagi barcha o‘zgarishlarning sababchisi

inson — uning tafakkuri ekanligi barchaga ayon. XXI asr yuqori texnologiyalar, axborotlar asri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa kishilarning ongi, faoliyati mana shu tezkorlikka moslashishi lozimligini taqozo etadi.

Texnika rivojining ko‘p yillik tarixi bizning texnik bilimlarimiz, ixtirochilik, konstruktorlik qobiliyatimiz fan, inson ehtiyojlari, yashash muhiti rivojiga muvofiq doimiy mukammallashib borishini ko‘rsatmoqda. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. U industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati deb atalmoqda.

Inson va jamiyat «texnosfera»da joylashgan bo‘lib, texnika bir joyda to‘xtab turmaydi. Texnika innovatsiyasi inson hayotini to‘xtovsiz o‘zgartirib turuvchi katalizator — harakatga keltiruvchi sifatida inson ongidan joy oladi. Mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy hayotga, iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi. «Inson va mashina» munosabatlari tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Turmush bu ijtimoiy hayot sohasiga oid tushuncha bo‘lib, u inson, millat va xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, rasm-rusum majmuyi, obektiv reallik, moddiy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog‘liqni saqlash, shuningdek, ma’naviy qadriyatlarga bolgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat. U azaldan madaniy qadriyatlarni vujudga keltiradigan va asraydigan muhim makon bo‘lib kelgan. Turmush madaniyati inson hayoti va ijtimoiy muhitda iqtisodiy, ijtimoiy, estetik mezonlarni ko‘rsatish bilan birga estetik madaniyatni ham shakllantiruvchi hodisadir.

Turmush madaniyatining o‘ziga xosligi mehnat, oila, Vatan, kattalarga hurmat, o‘zini tutish meyorlari kabi tabiiy, sodda ammo, asosiy qadriyatlarni singdirishida namoyon bo‘ladi. Turmushga singgan qadriyatlar nisbatan mutlaq bo‘ladi, juda kam o‘zgaradi. Ushbu fazilatlar, qadriyatlarni har bir shaxs o‘zi bilan oilasiga olib o‘tadi va uning abadiyligini ta’minlaydi. Turmush estetikasi dizayn, ekoestetika, atrof-muhit estetikasi, estetik tarbiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, moddiy va badiiy madaniyatni integratsiyalashning eng ta’sirchan vositalaridan biridir.

Turmush estetikasi insonni voqelikka estetik munosabatini namoyon etadigan sohalardan bo‘lib, u bevosita tashqi ko‘rinishi, kiyinish va muomala madaniyati, narsa va buyumlarga, turar joylariga munosabatini aks ettiradi. O‘z o‘rnida insonni o‘rab turgan narsa va buyumlar olamining go‘zalligi inson hayotining uyg'unligini ta’minlaydi va uni estetik tarbiyalaydi. Turar joyi, tashqi ko‘rinishi, kiyim ko‘rkamligi orqali inson yashayotgan, mansub bo‘lgan jamiyat haqida estetik tasavvur olish mumkin. Va aksincha turmushda tartibsizlik, palapartishlik estetik madaniyat pastligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida madaniy-hordiq infrastrukturasidagi islohotlar, bolalar uchun sport maktablari, madaniyat saroylari va barkamol avlod saroylari, fitnes klublar, tikish-bichish, kasb-hunar o‘rganish bilan bog‘liq to‘garaklar aholi turmush estetikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi. «Ma’lumki, aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo‘lib yashashiga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Yaqinda ayni shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQShning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomondan ijtimoiy so‘rov va tadqiqotlar o‘tkazilib, shu asosda «Butunjahon baxt indeksi»ning («World Happiness index») yangi reytingi e’lon qilindi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston 158

mamlakat orasida 44-pog'onada, Mustaqil Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar orasida birinchi o'rinda qayd etildi»¹⁷

Turmush estetikasining muhim jihati insonni o'rab turgan narsa va buyumlar yaratish va unga bolgan munosabatida aks etadi. Qadimgi odamlar turli narsalardan loy, yog'och, tosh va tabiatning boshqa predmetlaridan o'ziga xos mo'jizalar yaratganligi ma'lum. Bu narsalar dizayn faoliyati jarayonida yaratila borib turmush madaniyatining muhim xususiyatini tashkil qiladi.

Tabiatning estetik jihatlari. Darhaqiqat estetik go'zalliklarning xilma-xil ko'rinishlari orasida tabiat go'zalligi inson uchun hammadan ko'ra yaqinroq va tushunarliroqdir. Tabiat bilan yaqin bodishga ichki bir intilish, undagi go'zallik, nafosat olamiga oshno bo'lish barcha uchun xosdir. Tabiat butun tabiiy xilma-xilligi bilan bizni o'rab turgan dunyo demakdir. Jonli va jonsiz tabiat o'zining murakkab qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi.

Tabiat estetikasi insonga tabiiy go'zallik va uyg'unlikni ko'rish va qadrlashni o'rgatadi. Tabiatdagi har bir hodisaning go'zal va takrorlanmasligini sezish mumkin. Inson tabiatdagi go'zallikni avvalo ko'rish orqali idrok etadi, uni tabiatdagi ranglar va shakllarning uyg'unligi, tabiiyligi zavqlantiradi. Masalan, bahorda olamning gulga burkanishi, yozda o'rmonlarning yashillika burkanishi, kuzda esa olovdek tovlanishi, barglarning qizg'ish rangi, qishda oppoq qorga burkangan qir-adirlar barchaga estetik zavq beradi.

Tabiat go'zalligini his etish va idrok etish uchun uning uch jihatini tushunish lozim. Bu tabiiy organizmning o'ziga xos tuzilishi, uzaro mutanosibligi, doimiy harakatda, rivojlanishda bo'lgan jonli organizmning o'ziga xos xususiyatini, tabiiy obektlarga xos bo'lgan dekorativ go'zallik, masalan, kapalak qanotlari, yoki tovus patlaridagi ajib bir uyg'unlik va go'zallikni ajrata bilish lozim. Bu ayniqsa san'at orqali yetkazib beriladi.

Tabiat estetikasi tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Ekologik estetika. Globallashuv jarayonida yangi estetik qadriyatlar qaror topib bormoqda. Bu insonning tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatida aks etadi. Hegelning, tabiatda ideal yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo'ysundirishni» targ'ib qilgan marksizm ta'limotida keng e'tirof etildi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik.

Hozirgi kunda shu narsa aniq boldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas. XXI asrda olamni bilish, voqelikni estetik o'zlashtirish bilan bir qatorda uni qadriyat sifatida e'zozlashga alohida e'tibor berilmoqda. Endilikda odamlarning yaratuvchanlik faoliyati yuksalishi barobarida estetik qadriyatlarga nisbatan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Bu o'z navbatida

¹⁷ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir.
— T.: O'zbekiston. 2015. -12 b.

inson mohiyatan eng oliy qadriyat ekanligi, inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash barcha islohot va evrilishlarning bosh maqsadiga aylanganligi bilan belgilanadi.

Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutlaq va muqaddas qadriyatlardir.

Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo, ona zamin, insoniyatning umumiy uyi. Shunday ekan uni avaylab-asrash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, umumdavlat, umuminsoniyat ishidir. Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Bu esa odamlarning, xalqlar va millatlarning ma'naviyatini yuksaltirish, tabiatga estetik munosabatini shakllantirishni taqozo etadi. Negaki voqelikka estetik munosabatda bo'lish tabiatga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. Tabiat uning o'zini gavdalantiruvchi barcha san'at turlari uchun bitmastuganmas shakllar manbayi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

ESTETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. Estetikaning zamonaviy muammolari xaqida so'z yuritar ekanmiz birinchi navbatta eng asosiy estetik muammo xisoblangan estetik tarbiya borasida fikr yuritishni lozim topdik.

Estetik tarbiya — insonning voqelikdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o'stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya'ni go'zallik qonuni bo'yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoitlarga bog'liq.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to'laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san'at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko'rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, turmush va texnika, sport va milliy urf-odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir.

Estetik tarbiyani to'la amalga oshirmay turib axloqiy, g'oyaviysiyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning asosiy ma'nosi va vazifasi kishilarda dunyo go'zalligi to'g'risida his-tuyg'ular, tasavvur va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsining har tomonlama va uyg'un rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

Estetik tarbiya, eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda san'at asarlarida go'zallikni ko'ra bilish, uni to'g'ri tushunish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go'zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va san'atda bema'nilikka, xunuklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab san'atda o'zining ijodiy kamolotini ko'rsatishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo'lgan go'zallikni to'g'ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go'zallik uchun kurashga o'rgatishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

Birinchiidan, inson o'zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o'zlashtiradi. Undagi go'zalliklarni kashf etadi va idrok qiladi.

Ikkinchiidan, estetik tarbiya ishining barcha usul va vositalari kishida to'g'ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Ya'ni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo'lgan go'zallikni yoki xunuklikni to'g'ri aks ettirishi kerak.

Uchinchiidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlantirishni, kishilarni har qanday xunuklik, yaramaslikka nafrat ko'zi bilan qarash, go'zallikni ijod qilish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Estetikaning maqsadi — insonda hayotdagi, san'atdagi go'zalliklarni umumjahon qadriyatlari nuqtai nazaridan idrok eta bilish va baho bera olish qobiliyatini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan odam deb, o'z mehnati bilan hayot go'zalligiga go'zallik qo'shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko'taruvchi komil insonni tushunamiz.

«Agar kishini turmush ustozini dono qilmasa, hech dono unga so'z o'rgatmoq uchun ovora bo'lmasinki, mehnati zoye ketadi», deydi Kaykovus. Demak, kishini tarbiyalashda hayotiy ta'sirning roli Kaykovusning diqqatidan chetda qolmagan. Yana u tarbiyani inson aqlini, shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Uning fikricha, dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir.

Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmani keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning «ko'rish», «eshitish», tabiat ko'rinishlari, atrof-muhitdagi go'zallikni ajrata bilish va baholash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o'yin, rasm solish, haykalchalar yasash mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Estetik tarbiya aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq.

Estetik tarbiya yosh avlodning axloq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. San'atga ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O'z navbatida san'at ham biror maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.



Estetik hissiyot hayot hodisalarini yoki san'at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo'ladi.

Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o'ziga xos kechinmadan iborat bo'lib, go'zallikni va yuksaklikni, fojaviylik yoki kulgililikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning hayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot mahsulidir. U jamiyat estetik ongining darajasini aks ettiradi.

Estetik did turli estetik hodisalarga nozik baho berish, avvalo, chiroylilikni, go'zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatidir. San'at asarlariga baho beriladigan hollarda estetik did badiiy did ham deb ataladi. Yaxshi estetik did chinakam go'zallikdan lazzat ola bilish, mehnatda, turmushda, yurish-turishda, san'atda go'zallikni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. Aksincha, yomon estetik did insonning voqelikka estetik munosabatini buzadi, chinakam go'zallikka uni loqayd qilib qo'yadi, ba'zan esa hatto shunga olib keladiki, inson xunuk narsadan lazzat oladigan bo'ladi. Rivojlangan estetik didni shakllantirish — estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvurlariga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarni har tomonlama rivojlanishga, «ruh va badan» hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi.

Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylik ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik xislat-fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Bugungi kunda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omili ortib bormoqda, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ezgu xislat-fazilatlari, ongliligi, faolligi, ijodiy qobiliyatlari o'smoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston aholisining ko'pchiligining umumiy madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib boryapti.

Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyotining keng o'rin egallab borayotganligi, qonunchilikning yanada rivojlanib, amal qilayotganligi fuqarolarning umumiy madaniyati, ayniqsa, estetik madaniyati darajasining yuksalib borishini taqozo etmoqda.

To'rtinchidan, hozirgi davr ilmiy-texnika inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib berayapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruhiy holatining ham tubdan o'zgarishini, ijtimoiy-ruhiy, axloqiy-estetik saviyasini oshirishni taqozo etmoqda.

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, «oynai jahon» kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinardi, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilar edi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad-yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato bo'lardi. Shuni esda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnat, ekologik jihatlaridan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi.

Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg'arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi.

Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog'liqligi esa tabiatga beg'araz, insoniy munosabatda bo'lishda, jamiyat bilan tabiat o'rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarni o'rnatishda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, estetik tarbiya — bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida san'at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did-farosat va estetik talab-ehtiyojlari rivojlangan bo'lishi zarur.

Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi.

Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liqdir. Estetik tarbiya vositalari deb, shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi va aksincha bo'lishi ham mumkin.

Yoshlarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

Ayrim yoshlar yasama, sun'iy «go'zallik» bilan o'zlarini badbashara qilib qo'yadilar, ular haqiqiy go'zallik yuzning tabiiy latofatida, sodda va xushbichim kiyimda ekanini unutib qo'yadilar. Kishining tashqi go'zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda yaqqol ko'rinadi. Ko'zga tashlanmagan holda husniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, ayrim kamchiliklarini bilintirmay ketadigan ust-bosh kiygan inson ko'rkam va go'zaldir.

Insonning did-farosati kiyim-boshida, xatti-harakatlarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Samimiy, oqko'ngil, o'ziga talabchan, tarbiyalangan inson tashqi ko'rinishida sun'iylik, qalbakilikni ko'rsatuvchi biron-bir bema'nilikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli-farosatli kishi hamisha ana shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki, ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik — hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirok etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni zavq-shavq bilan bajaradi.

Estetik kechinmalarda har doim xayol ishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki vaqtlarda xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan ta'sir etish natijasida yuzaga keladi.

Keyingi bosqichlarda esa ijodiy faollikning tashqi shakllaridan asta-sekin fikrlashga o'tadi.

Estetik tarbiya — o'quvchining estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashini o'z ichiga oladi.

Bular o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- badiiy adabiyot, tabiat, mehnat;
- insonlarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tabiat manzaralaridan olingan taassurotlar;
- san'at asarlari;
- o'quvchilarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, urf-odatlar, an'analar;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar.

Mehnat—estetik tarbiyaning asosiy vositasi. Ma'lumki, har birimizni xilma-xil murakkab va jozibador go'zalliklar dunyosi qurshab olgan. Go'zallik tabiatda,

mehnatda, insoniy munosabatlarda, san'atda namoyon bo'ladi. Go'zallik, ayniqsa, yoshlik, o'smirlik davrida, shaxsning ma'naviy dunyosi tarkib topishi jarayonida ko'proq maftun etadi. Shu tufayli ham teatr va kinoteatrlarda, konsert va ko'rgazmalarda ko'pincha yoshlarni uchratishimiz mumkin.

Insonning go'zalligi mehnati orqali namoyon bo'ladi. Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnika zimmasiga o'tgani sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiati ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Chunki qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida mehnat turi insonga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir inson o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, bu mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Shaxs hayotida mehnatning estetik ta'sirini kuchaytirishda ishlab chiqarish jarayonlariga estetik texnika (dizayn)ni keng ravishda joriy qilish kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish muhitini nafosat qonunlariga mos tarzda qayta qurishni taqozo etadi. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish omili insonni estetik kamol toptirish bilan birga, uning foydali-amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligi va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

Go'zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy foyda keltiradi. Estetik tarbiyada shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg'unligidan, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos usullaridan foydalanilgandagina mo'ljaldagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Mustaqil O'zbekiston davlati fuqarolarining estetik ongini oshirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, u estetik madaniyatni yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari. Sport estetikasi deganda, inson harakati go'zalligi va ulug'vorligini estetik anglab yetish tushuniladi. Sport estetikasining rivojlanish jarayonlari insonning ma'naviy va jismoniy yetuklik uyg'unligining in'ikosidir. Bunda insonda jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy kamolot, jismoniy ta'lim, jismoniy madaniyat kabi bosqichlar kuzatiladi.

Jismoniy rivojlanish — kishi organizmi shakli va funksiyalarining o'zgarish jarayoni bo'lib, asosan, atropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi. Ya'ni, bo'y, gavda og'irligi, qaddi-qomati, o'pkalarning tiriklik sig'imi, shuningdek, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, kuch-chidamlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tayyorgarlik — bu harakat ko'nikmalari malakalari, jismoniy sifatlarining sport razryadlari va unvonlar, talab va meyorlar bilan belgilanadigan rivojlanish darajasidir.

Jismoniy kamolot — bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog'liqning, hayotga, mehnatga, Vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori bosqichidir.

Sport — bu musobaqa jarayonida namoyon bo'ladigan u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatdir.

Jismoniy madaniyat — umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining majmuidir. Moddiy boyliklarga sport inshootlari, stadionlar, sport zallari, basseyn, kortlar, jismoniy tarbiya jihozlari, maxsus kiyim,

poyabzal, shuningdek, sport sohasida erishilgan yutuqlar, ya'ni kamolot darajasi kiradi. Ma'naviy boyliklarga jismoniy tarbiya haqidagi fan, san'at asarlari, adabiyot, haykaltaroshlik, rang-tasvir, musiqa va boshqalar kiradi.

Shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun sport turlarining ahamiyati katta. Sport, avvalo, chiniqtiradi, tarbiyalaydi, shu bilan birga, go'zallikka va ezgulikka chorlaydi.

Chempionlar millionlab muxlislar oldida ajoyib kombinatsiyalar yaratadilar. Shu bilan birga estetik zavq uyg'otadilar. Sportning estetik turlari figurali uchish, badiiy gimnastika, sinxron suzish, ot sporti, qilichbozlik va boshqalardir.

Bu sport turlari mohiyati jihatidan san'at darajasida ijro etiladi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Yoshlarimiz jahon arenalarida O'zbekiston san'atini dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda. O'zbekiston bayrog'i Yer sharining deyarli har yerida baland ko'tarilmoqda.

Turmush estetikasi. Inson — ijtimoiy hodisa. Lekin u hamisha tabiat bilan aloqadorlikda shakllanadi. Shu tariqa insoniy madaniyati ham vujudga keladi. Madaniyat haqida gapirar ekanmiz, ichki va tashqi madaniyatni farqlash lozim. Ichki madaniyat — insoniyat ma'naviy boyligi, aqliy va axloqiy rivojlanganligi darajasi, dunyoqarashi, hissiyoti, vijdon, imon va diyonat, ezgulik va hamdardligidir.

Tashqi madaniyat — axloq qoidalari, yurish-turish, xattiharakat, odob normalariga rioya qilish. Shuningdek, shaxsning tashqi madaniyatiga so'zlashish, kiyinish madaniyati ham kiradi. Insonlarda ichki va tashqi madaniyat uzviy bog'liq holda rivojlansa, shaxs barqarorligi, insonning munosabatlari go'zalligi, yigit-qizlar munosabati, do'stlik va o'rtoqlik munosabatlari odoblilik doirasida tarkib topadi. Do'stlik, muhabbat umumiy manfaat xayrixohlikka asoslangan o'zaro bog'liqdir. Odob tuyg'usi rivojlangan insonlar go'zal xatti-harakat sohibiga aylanadilar. Tavoze, odob, ohistalik, ehtiyotkorlik, chiroyli muomala zaruriy jihat ekanligini ta'kidlash lozim. Insonning tashqi qiyofasi uning umumiy madaniyati va saviyasidan dalolat beradi. Odamlar orasida go'zal va zamonaviy bo'lish istagi yoshlikning asosiy intilishidir. Lekin tashqi qiyofa go'zalligi uchun intilish yagona maqsad bo'lmasligi lozim. Shu bilan birga insonning did bilan kiyinishi ham san'atdir.

Tayanch tushunchalar: Axloqiy tamoyil, mezon, insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, ziyolilik, mehnatsevarlik, tinchparvarlik, halollik, insoflilik, xushfe'llik, shirinsuhanlik, kamtarinlik, bosliqlik, muomala odobi, kasbiy odob, axloqiy tarbiya, Oila, Nikox, Tarbiya, Fuqarolik jamiyati, Davlat, Axloqiy madaniyat, Muomala odobi, Etiket, Kasbiy odob, Axloqiy tarbiya, nafosat, go'zallik, san'at, go'zallik falsafasi, estetika, estetika obekti, san'at falsafasi, nafosat tarbiyasi, semiotika, kulgililik, kulgili holat, hazil, mutoyiba, kinoya, hajviya, kategoriya, go'zallik, chiroylilik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojiviylilik, foriglanish, fojiviylilik, qahramon, estetik tarbiya, fan, ta'lim, sport estetikasi, estetik did, ommaviy madaniyat, madaniyat, estetik munosabat, estetik anglash, voqelik, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, reklama, texnologiya

Takrorlash uchun savollar:

1. Axloqiy tamoyil deganda nimani tushunasiz?
2. Insonparvarlik, erkparvarlik haqida tushuncha bering.
3. Mehnatsevarlik, halollik deganda nimani tushunasiz?

4. Shirinsuxanlik, kamtarinlik meyorlarini izohlab bering.
5. Shaxsni tarbiyalash yo'llari qanday amalga oshilishi mumkin.
6. Oila, Nikox, Tarbiya, Fuqarolik jamiyati, Davlat, Axloqiy madaniyat, Muomala odobi, Etiket, Kasbiy odob, Axloqiy tarbiya
7. Oila va uning uch asosiy jixati nimalardan iborat?
8. Nikoxning axloqiy mohiyati nimada?
9. Muxabbat va nikoxning uzaro mos kelish-kelmasligi nimalarga bog'liq?
10. Fuqarolik jamiyati qanday tuzilma?
11. Muomala odobining inson xayotidagi urni qanday namoyon buladi?
12. Kasbiy odob shaxs va jamiyat ijtimoiy xayotida qanday mavke egallaydi?
13. Estetika qaysi fanlar bilan o'zaro yaqin aloqador?
14. Estetika kategoriyalarining tasnifini izohlab bering.
15. Ulug'vorlik tabiatda qanday xususiyatlarga ko'ra namoyon boladi?
16. Fojaviylikning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering.
17. Kulgulilik kategoriyasining estetik xususiyatlari nimada?
18. Estetik tarbiyaning asosiy vositalariga nimalar kiradi?
19. Estetik tarbiyada mehnatning roli qanday?
20. Milliy estetik tarbiyaga mahallaning ta'siri qanday?
21. Estetik tarbiyada san'atning tutgan o'rni haqida gapirib bering.

**“FALSAFA”
FANIDAN
SEMINAR
MASHG’ULOTLAR**

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulot jarayonida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha qo'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminarlarida talabalar falsafa fanining nazariy asoslarini o'rganib, uning amaliy hayot bilan bog'likligini tahlil qiladilar.

Seminar mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

№	Mavzular	Soat
1	Falsafa fani predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G'arb falsafasi.	2
2	Borliq - falsafaning fundamental kategoriyasi. Olamning universal aloqalari va rivojlanishi. Falsafaning qonun va kategoriyalari	2
3	Bilish nazariyasi: asosiy muammo va yo'nalishlari. Jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi). Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlarini	2
4	Logika - mantiq ilmi, tadqiqot doirasi va vazifalari. Tushuncha – tafakkur shakli sifatida. Muloxaza. Xulosa chiqarish- tafakkur shakli sifatida. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotini mantiqiy Shakllari	2
5	Axloqshunoslikning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.	2
6	Estetika: gozallik falsafasi predmeti va vazifalari. Tabiat va texnologiya sivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari	2
	Jami:	12

Seminar mashg'ulotlari multimediyaga qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akadem guruxga bir o'qituvchi tomonidan o'tqazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

1-mavzu. Falsafa fani predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G'arb falsafasi.

Reja:

1. Falsafa fani shakllanishining asosiy bosqichlari.
2. Falsafa va Fan- ilmiy dunyoqarash shakli.
3. Qadimgi Sharq falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. Xindiston va Xitoy falsafiy maktablari. Zardushtiylik "Avesto"dagi falsafiy fikrlar.
4. Islom dini. Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va U'ygonish davri. Ilko'rta asrda

tasavvuf va islom ilohiyoti. Ularning dunyoqarash mazmuni.

5. Qadimgi Yunon-Rim falsafasining Misr-Bobil, Xind falsafasi bogliqligi.

6. Xristianlik va Avreliy Avgustin falsafasi. Apologetika va Patristika, Sxolastika. Nominalizm va Realizm. Foma Aqvinsqiy.

7. G'arb uyg'onish davri falsafasi. Yangi davr falsafasi.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A1; A2; A3; A5; A8; A16; Q22; Q26;

2-mavzu. Borliq - falsafaning fundamental kategoriyasi. Olamning universal aloqalari va rivojlanishi. Falsafaning qonun va kategoriyalari

Reja:

1. Borliq tushunchasiva yo'qlikdialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi:. Olamning birligi, cheqliligi va cheqsizligi.
2. Materiya tushunchasi va yashash sharti. Xarakterning shakllari.
3. Makon va vaqt - Borliqning fundamental shakllari. Falsafa tarixida makon va vaqtga substansional va relyasion yondashuvlar.
4. Gnoseologiyaning mazmun-moxiyati vashakllari.
5. Bilishda xaqiqat va amaliyot uyg'unligi. Xaqiqatning asosiy shakl va konsepsiyalari. Amaliyotning tarkibiy qismlari.
6. Falsafa tarixida rivojlanish xaqidagi konsepsiyalar. Shakllanish, o'zgarish va rivojlanishtushunchalari.
7. Barqaror va beqarorlik nisbati. Rivojlanishning tiplari.
8. Qonun tushunchasi: bazis va lokal qonunlar. Falsafaning asosiy qonunlari..
9. Kategoriya tushunchasiva turlari. Fan va falsafa kategoriyalari.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A1; A2; A3; A5; A6; Q21; Q26;

3-mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammo va yo'nalishlari. Jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini. Jamiyat va tarix falsafasi. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi). Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlarini

Reja:

1. Jamiyat va tarix falsafasi tushunchasi va funksiyalari, formatsion va sivilizatsion yondashuv.
2. Qadriyat. Moddiy va ma'naviy qadriyatlarining o'zaro aloqadorligi. Qadrilik va qadrsizlanishning ijtimoiy xarakteri.
3. Inson borlig'i va ongning tabiati. Ongsizlik va antrop tamoyil metodologiyasi.
4. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.
5. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Suitsid va parasuitsidning oldini olish.
6. Inson borlig'ida faoliyatining tuzilishi. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va axloq uyg'unligi.
7. Globallashuv - hodisasi va globalistika.
8. Global muammolarning turli darajalari.
9. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muloqot va sun'iy intellekt tushunchasi. Texnogen sivilizatsiyada til va kommunikatsiya.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A1; A2; A3; A5; A6; Q7; Q10;

4-mavzu. Logika - mantiq ilmi, tadqiqot doirasi va vazifalari. Tushuncha – tafakkur shakli sifatida. Muloxaza. Xulosa chiqarish- tafakkur shakli sifatida. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotiniig mantiqiy shakllari.

Reja:

1. Mantiq va mantiqiy shakl va qonunlar. Formal mantiq..
2. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi.
3. Muloxaza tafakkur shakli va xulosa chiqarish.
4. Xulosa chiqarish qoidalari.
5. Fikrning xarakter yo'nalishiga ko'ra xulosa chiqarish: deduksiya, induksiya va analogiya.
6. Asosli muhokama yuritish shartlari.
7. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar. Paralogizm. Sofizm. Paradoks.
8. Argumentlash nazariyasining asosiy tushunchalari.
9. Muammoni aniqlash va yechimini topishda savolning urni. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A9; A15; Q14; Q18; Q20;

5-mavzu. Axloqshunoslikning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.

Reja:

1. Axloqning paydo bo'lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi.
2. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bulishi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.
3. Nikoh – eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy jihatlarini.
4. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muxitining farzand tarbiyasiga ta'siri.
5. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.
6. Muomala madaniyati – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Asosiy axloqiy qadriyatlar.
7. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A10; A14; Q9; Q13; Q20;

6-mavzu. Estetika: gozallik falsafasi predmeti va vazifalari. Tabiat va texnologiya sivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari

Reja:

1. "Estetika" fanining ob'yekti va falsafiy mohiyati.
2. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi.
3. Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati.
4. Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi.
5. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli.
6. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn.
7. Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi.
8. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri.
9. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamanning estetik jihatlarini va g'ayri estetik xolatlar.

Foydalaniladigan adabiyotlar: A11; A14; Q9;

**MUSTAQIL
TA'LIM
MAVZULARI**

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.
2. Dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasining taxlilida falsafiy tafakkur
3. Insoning ma'naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli
4. Fan ilmiy dunyoqarash shakli
5. Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.
6. Tarix falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
7. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat.
8. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
9. Ilmiy va ijtimoiy bashoratning o'zaro aloqadorligi.
10. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.
11. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
 12. Diniy madaniy an'analarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
 13. Sog'lik- oliy qadriyat.
14. Oila va oilaviy qadriyatlar ma'naviy madaniyatning bosh omili.
 15. Shaxs ma'naviyatining shakllanishiga ijtimoiy muxit va davr ruxining ta'siri.
 16. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi.
 17. Tabiatni o'rganishga oid qarashlar tarixi.
 18. Rim klubi faoliyatining falsafiy taxlili.
 19. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.
 20. Ta'lim global muammo sifatida.
 21. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.
 22. BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat.
 23. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.
 24. Hukm tafakkur shakli sifatida.
 25. Hukmning tarkibi va xususiyatlari.
 26. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
 27. Xulosa chiqarishning tuzilishi.
 28. Xulosa chiqarish turlari.
 29. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.
 30. Ilmiy muammolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari va hal qilinishi.
31. Etika kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
32. Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari xaqida.
33. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.
34. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi
35. Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar.
36. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muxitining farzand tarbiyasiga ta'siri.
37. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati.
38. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.

Talabalar bilimini baholashda quyidagi namunaviy mezon inobatga olinadi.

“Falsafa” fanidan talabalar bilimini baholash mezonlari.

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi: oraliq baholash va yakuniy baholash.

Oraliq nazorat turi xar bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ikki martagacha o'tkazilishi mumkin. Talabaning seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Talabani oraliq nazorat turi buyicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha aniqlangan bilimlar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

Baho	Darajasi	Talabaning bilim darajasi
5	A'lo	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushoxada yuritadi, olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega bo'lishi kerak.
4	Yaxshi	Talaba mustaqil mushoxada yuritadi, olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega bo'lishi kerak.
3	Qoniqarli	Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega bo'lishi kerak.
2	Qoniqarsiz	Talaba fan dasturini uzlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

Nazariy-metodologik

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. -53 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: Uzbekiston, 2017 -484 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: 2017. - 28 b.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlariga Murojaati.// Xalq so'zi-2017. 22 deqabr..
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. - 104
6. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.-T.: O'zbekiston, 1996-2016.
7. Karimov I.A. Yu'ksak ma'naviyat - yengilmas kuch. 2-nashr. -T.: Ma'naviyat, 2016, -176 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Falsafa. AxmedovaM. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
3. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
4. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. -T.: Noshir, 2013, 720-b.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. -T.: Noshir, 2017. 460-6.
8. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-6
9. Sharipov M. Fayzixujayeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.
10. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
11. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. - T.:O'zbekiston, 2016.
12. Xusanov B. Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod- moliya, 2010.
13. Q, Nazarov. Ijtimoiy falsafa. -T. 2018,

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar Shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.318 b.
2. Allayarova S. Badiiy ijod germeneytikasi - T.: Universitet, 2011.
3. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b.
4. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. -M.: Gardariki, 2013.
5. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o'rni- T.: "Star - Poligraf", 2010. -180 b.
6. Krivsun O.A. Estetika. Uchebnik-M.: Gardariki, 2013
7. Qaxxorova Sh. Global ma'naviyat-globallashuvning goyaviy asosi.-T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
8. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va huquq, 2007.
9. Malikov T.T. Globallashuv va global muammolar. O'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan 2016, -60 b

10. Malikov T.T. Falsafa (mantiq etika estetika). O'quv qo'llanma. NamMTI, Namangan, 2019. -449 b
11. Estetika. O'quv qo'llanma. f.f.n., dotsent Malikov T.T. Namangan 2020. -B.479.
12. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. / Monografiya. - T.: Universitet, 2009.
13. Otamurodav S. Globalashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
14. Pulatova D., Qodirov M., Axmedova M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI.2013.
15. Pulatova D., Ruzmatova G., Jalolova U. Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma. - T.: TDSHI.2013.
16. Pulatova D.A., Fayzixujaeva D.E. Mantiq. Uquv qullanma. T.: TDSHI., 2013.
17. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.
18. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova Q. Falsafa.. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2016.
19. Turaev B. Borliq: moxiyati, shakllari, xususiyati. -T.: UzRFA. Falsafa va huquq instituti, 2011.
20. Turaev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. O'quv qo'llanma.- T., 2009.
21. O'zbekiston: dinlararo xamjixatlik - tinchlik garovi.-T.: 2005.
22. Fayzixujaeva D. Mantiq. Izohli lug'at. -T.: Tamaddun, 2015.
23. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
24. Xayitov Sh., Xayitova Q., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
25. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
26. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
27. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-b.
28. Shermuxamedova N.A. Falsafaga qirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
29. Shermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2017. -360b
30. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013, 720 b
31. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
32. Shermuxamedova N.A. Siyosiy mentalitet va davr ruxining dialektikasi.-T.: Noshir, 2017, 220 b.
33. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. - 420 b

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.bimm.uz>
3. <http://www.naturalphilosophy.com>
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.uza.uz>
6. falsafa.dc.uz

SCOPUS resursidan olingan adabiyotlar:

1. International Journal of Research
2. European Science Review

3. Theoretical & Applied Science
4. Proceedings of the IX International Conference of European Academy of Sciences & Reserch
5. International Journal of Intercultural Relations Official Publication of the [International Academy for Intercultural Research](#) Editor-in-Chief: [S. Schwartz](#)
6. Janet Buckenmeyer, Emily Hixon, Casimir Barczyk, and Lori Feldman, Does Participation in a Faculty Distance Education Mentoring Program Comprehensively Improve Teaching Methods? // International J1 on E-Learning (2013) 12 (2), 139-152, www.elsevier.com/locate/ijintrel

FALSAFIY ATAMALAR

Falsafa - yunoncha “phileo” – “sevaman”, “Sophia” – “donolik” degan ma’noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo’qlik kabi ko’plab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

Dunyoqarash - Inson o’zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi bo’lib, dunyoni inson ongidagi o’ziga xos in’ikosidir. Insonning o’ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo’lgan munosabatlarini ifodalaydigan ko’nikmalari, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va nazariy o’zlashtirish hamdir.

Mif - yunoncha “mifhos” so’zidan olingan bo’lib, “afsona, rivoyat, xikoyat” kabi ma’nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo’lishi bilan bog’liq voqealar, shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir.

Mifologik dunyoqarash - Ijtimoiy taraqqiyotning boshlang’ich bosqichlariga xos bo’lib, dunyoni tushunishning oddiy usuli, xayoliy in’ikosidir.

Din - arabcha “ishonch, ishonmoq” demakdir. Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo’lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko’rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya’ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy dunyoqarash - Olamdagi voqea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog’lab tushunishdir.

Monizm — (yunoncha “monos” ya’ni “yakka” ma’nosini anglatadi) olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm — (lotin tilida “dua” ya’ni “ikki” degan ma’noni ifodalaydi) olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g’oya, yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm — (lotin tilida “plyural” ya’ni “ko’plik” degan ma’noni anglatadi) olamning asosida ko’p narsa va g’oyalar yotadi deb e’tirof etadigan ta’limotdir.

Materializm — olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta’limot.

Idealizm — olamning asosida ruh yoki g’oyalar yotadi, dunyo voqeligi va rivojida g’oyalarni ustuvor deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limot.

Antik falsafa - qadimgi davrda eramizdan avvalgi VIII asrda Yunonistonda, eramizdan avvalgi II asrda Rim jamiyatlarida shakllanib, eramizning VI asriga qadar rivojlanib kelgan falsafiy ta’limotlar umumlashmasi.

Vedalar - diniy mazmunga ega adabiyotlar. Ba’zi taxminlarga ko’ra, deyarli to’qqiz asr davomida Hindiston yarim orolida yashab kelgan qadimiy xalq va elatlar tomonidan yaratilgan.

Upanishadalar – “sirli bilimlar” deb atalib, vedalarning falsafiy qismidir. U ma’lum bir kitob yoki falsafiy risolalar shaklida bo’lmay, balki turli mavzularda, turli davrlarda asosan noma’lum mualliflar tomonidan yaratilgan matnlar to’plami. Har bir matn u yoki bu muallifning falsafiy mushohadalarining qisqacha bayonidan iborat.

Eley maktabi - pifagorchilarning ittifoqi kabi Elladaning Eley shahrida yuzaga kelgan. Bu maktabning asosiy namoyondalari Ksenofan, Parmenid, Zenon va Melisslardir. Eley maktabi ta’limoti qadimgi Yunon falsafasining shakllanishida, uning kategoriyalari, jumladan, borliq kategoriyasining rivojida yangi qadam

hisoblanadi. Ioniyaliklarda borliq jisimiy, pifagorchilarniki esa matematik bo'lsa, Eley maktabida u falsafiydir. Eleyliklar birinchilar katorida borliq va tafakkur o'rtasidagi munosabat masalasini qo'ydilar. Antik falsafa shakllanishining yakuni Eley maktabi bilan tugallanadi.

“Veda” — “diniy kitoblar”, “astika” — “Veda”ning muqaddasligini tan oluvchi, “nastika” — uning muqaddasligini tan olmaydigan maktablar.

“Dao” — “tabiat qonuni”, “Si” — borliqning asosida yotgan besh unsur, “yan” — “yorug'lik kuchi”, “in” — “zulmat kuchi”, “metafizika” — qadimgi yunonistonliklar fikricha, “borliqning asosini o'rganadigan dastlabki falsafiy maktab”.

Anxra Manyu - Zardushtiylikda yovuz kuchlar, zulmat va o'lim boshlig'i, Axuramazdaning dushmani, inson ruhiyatidagi salbiy hissiyotlarning timsoli. Olamning yagona hukmdori bo'lmish Vaqt bir-biriga zid ikki buyuk qudrat Axuramazda va Anxra Manyu ruhlarini vujudga keltiradi. Borliq ana shu kuchlar tomonidan navbatma-navbat boshqarilib turiladi.

Axura Mazda - «Avesto» ta'limotida zulm va qabohat egallagan dunyoga, shu jumladan, umidsizlikka uchragan kishilar qalbiga yorug'lik, ezgulik nurini taratuvchi, kishilarni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashga, kelajak abadiy hayotga istagini kuchaytiradigan va unga yunaltiruvchi qudratli kuch sifatida madx qilinadi.

Moniy - Moniy Ibn Fatak monizm ta'limotining asoschisi. Naqqosh va rassom. Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston buylab safar qilib, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanlik kabi turli diniy ta'limotlar bilan tanishadi. Dunyo, ziyo va zulmatning abadiy kurash maydoni, insonning vazifasi esa, yovuzlikni uzil-kesil yo'q qilish uchun ezgulikka ko'maklashishdir. Bu g'oya Moniy axloqiy ta'limotining asosini tashkil etadi.

Mazdakiylik - diniy falsafiy ta'limot. Asoschisi Mazdak (470-529). Mazdak xalq ommasining zardushtiylik koxinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Mazdak ta'limotiga binoan, olamda bo'ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi korong'ilik manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan mukarrar galabasi bilan tugallanadi.

“Fiqh” - musulmon qonunshunosligi.

“Tajvid” - Qur'on oyatlarini yoddan to'g'ri o'qish qoidalari.

“Sohibqiron” - ikki sayyora: Zuhal va Mushtariylarning yaqinlashuv (qiron) jarayoni egasi. Aynan shu qiron jarayonida dunyoga kelgan farzandlargina bunday yuksak nomga sazovor bo'lgan.

Nominalizm - lotincha nomina - ism, nom ma'nosini anglatadi. Sxolastik falsafa. Nominalistlar fikricha, universaliylar haqiqatda emas, balki fakat tafakkurda mavjud. O'rta asrlarda nominalizm sxolastikaning realizm bilan munozarasi natijasida kelib chikkan edi. Lekin nominalizmning asosiy tezisi qadimgi yunon faylasuflari Antisfen va Stoiklar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular Platon g'oyalarini tanqid qilgan edilar. Rosselin tomonidan asoslanganidan keyin mustakil okimga aylandi. U faqat yakka narsalargina real mavjud, universaliylar esa narsalarning nomi, deb ta'kidlagan.

Realizm - Realistlar Anselm Kenterberiyский, Foma Akvinskiy umumiy ob'ektlar, tushunchalar yo alohida insonda, aqldan tashqarida, bu narsalarga qadar yoki individual narsalarning o'zlarida, ularning ruhiy asoslarini tashkil etgan holda mavjud, deb hisoblaydilar. Cherkov realizm nuqtai nazaridan, turli aqidalarni,

masalan Odam Atoning gunohkor bo'lganligi haqidagi afsonani falsafiy asoslash uchun foydalandi.

Apologetika - yunoncha apologetikos - himoya qilish ma'nosini anglatadi. Ilohiyotda tafakkur dalillari yordamida diniy ta'limotni himoya qilish va oqlash bilan bog'liq bo'lgan soha. Dinning mohiyatini aqidalar tizimi xususiyatlari, axloqiy printsiplari, ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyatini tahlil qilish asosida uni falsafiy materialistik va genetik tanqiddan himoya qilishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Patristika - lotincha patris - demakdir. 2-8 asrlarda xristian ruhoniylarining ilohiy, falsafiy, siyosiy-sosiologik qarashlari majmuini ifoda etuvchi tushuncha. Antik davrning inqirozi yillarida gnostisizmga qarshi kurash jarayonida vujudga kelgan.

Sxolastika - diniy falsafaning asosiy yo'nalishlaridan biri. Mazkur ta'limot ilohiyotga asoslanib, diniy akidalar falsafiy yondashgan. Sxolastika aslida, urta asrlarda g'arbiy Yevropada rivojlangan. Birok keyinchalik, mazkur termin Shark falsafasiga nisbatan ham ishlatila boshlandi. Sxolastika antik falsafadan, xususan, Prokl ta'limotidan ko'p bahramand bo'lgan. 13-14 asrlarda Sxolastikada ikkiyoqlama haqiqat nazariyasi aql va iymon uyg'unligi vujudga keldi. Renessans davrida sxolastik an'analarning ayrim jihatlari yanada rivojlandi. Sxolastikada bilimning ikki tomoni - inson ongi orqali hosil bo'ladigan bilim hamda mushohada orqali paydo bo'ladigan bilimni e'tirof qilib, ularni dialektik alokadorligini xisobga olmaydi.

Rasionalizm - lotincha rationalis, ratio - aql degan ma'noni anglatib, aqlga odamlarning bilish va xulqining asosi, deb qaraydigan falsafiy yo'nalish. Rasionalizm atamasi 19 asrning o'rtalarida falsafaga kirib keldi. O'rta asr sxolastikasi va diniy dogmatizmga zid ravishda butun olamning sababiy bog'langanligi g'oyasini ilgari surdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar.

Pragmatizm - yunoncha progmatos so'zidan olingan bo'lib «ish, xatti-harakat» degan ma'noni anglatadi.

Asoschisi - Charlz Sanders Pirs, undan so'ng U.Jeyms, J.D'yui, F.Shiller tomonidan rivojlantirilgan.

Tushuncha va e'tiqodning ma'nosini aniqlashga yordam beradi, g'oya va tushunchalar faqat tadqiqotchi tomonidan tekshiruvdan o'tgandan keyingina muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

Ekzistensializm - lotincha «ekzistensiya» yoki inglizcha «ekzistense» so'zidan olingan bo'lib «mavjudlik», «mavjud bo'lmoq», degan ma'noni anglatadi. Dastlab vatani Rossiya bo'lgan, (Berdyayev, Shestov) keyinchalik Germaniyada keng rivojlandi. (Xaydegger, Yaspers, Buber) Asl ma'noda XX asr ma'naviy hayotining ehtiyojlariga javob sifatida yuzaga keldi va rivojlandi. O'ta ziddiyatli va murakkab xususiyati: kishi, o'zining mavjudligini chuqur ma'naviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatidagina anglay oladi.

Mohiyati: Inson haqidagi falsafadir. Tarixiy cheklangan falsafiy yo'nalishdir.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Ontologiya - borliq haqidagi ta'limot. Falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi sohasi.

Borliq - Bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi. Falsafiy kategoriyalar ichida boshlang'ich kategoriyadir.

Substansiya - lotincha mohiyat ma'nosini anglatadi. Falsafada narsalarning mohiyati to'g'risidagi tushuncha.

Materiya - Moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaniladigan falsafiy tushuncha bo'lib, ob'ektiv borliqni real shaklini ifodlaydi.

Dialektika - Dunyoni bilishning umumiy usulidir.

Sofistika - yunoncha - ataylab xato asoslar asosida ko'p ma'noli suzlarga asoslanib fikr yuritish - bilib turib, xato asoslardan yolg'on xulosa chiqarishdir.

Eklektika - yunoncha tanlayman. Turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-kuralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

Dogmatika - yunoncha kotib kolgan ma'nosini anglatib, konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo'llaniladigan qoida, printsip, fikrdir.

Yakkalik - alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan fark qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligidir.

Mohiyat - narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi.

Hodisa - narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shaklidir.

Mazmun - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning majmuidir.

Shakl - mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasi ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidir.

Sabab - bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhidir.

Oqibat - sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisadir.

Zaruriyat - muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chikadigan voqea yoki hodisadir.

Tasodif - ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan hodisa yoki voqeadir.

Voqelik - real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir.

Imkoniyat - yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Sistema - borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura - sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilish, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir.

Element - sistema strukturasi tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir.

Gnoseologiya - yunoncha gnosis - bilim, ilm; logos - ta'limot, nazariya demakdir. Falsafaning tarkibiy qismi, bilish nazariyasi, bilishning umumiy konuniyatlari, usullari to'g'risida bahs yurituvchi falsafaning alohida sohasi.

Ong - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ya'ni inson miyasining maxsuli bo'lib, uning xususiyati voqelikni aks ettirishdan iboratdir. Ong - akl, tafakkur, falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri.

Ongsizlik - ongning genetik jihatidan talqini. Ongsizlik birlamchiligini bildirib u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va hatti-harakatida muayyan darajada rol o'ynashini tan olishni taqozo etadi.

Ruh - ma'naviy - ruhiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Bilish - insonning o'zining qurshagan dunyoga bo'lgan munosabatlaridan biridir.

Hissiy bilish - inson bilishining dastlabki bosqichi bo'lib, miyada predmet va hodisalarning belgilari, signallari va hissiy obrazlarining hosil bo'lishidir.

Mantiqiy bilish - inson borliqni aqliy bilishidir.

Haqiqat - inson bilimlarida borliqning to'g'ri in'ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo'lsa ularni inson o'z miyasida huddi shunday in'ikos ettirgan bilimlaridir.

Nisbiy haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmagan, bilish jarayonimizda tuzatilib, to'ldirilib boriladigan bilimlardir.

Mutlaq haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to'liq aniq mukammal bilimlardir.

Kuzatish - harakat o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum ob'ektni tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa, shu holicha diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir.

Eksperiment - o'rganilayotgan predmet yoki hodisani o'z holicha, lekin sun'iy yaratilgan sharoitda kuzatishdir.

Analiz - bir butunni qismlarga, bo'laklarga, tomonlarga va elementlarga ajratib, ularning har biri nima ekanligini bilishdir.

Sintez - analiz tufayli ajratilgan bo'laklar tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro biriktirib, ularni bir butun holiga keltirishdir.

Umumlashtirish - tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va xossalarni fikrda e'tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur bo'lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir.

Konkretlashtirish - oldingi butun belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog'lab shu predmet yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Induksiya - tadqiqotchi o'z tafakkuridan tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to'g'risidagi bir qancha juz'iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyroq bilimni hosil qiladi.

Deduksiya - fikrda umumiy bilimlarda juz'iy, qisman bilimlarga kelishdir.

Tarixiylik - o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir.

Mantiqiylik - tarixiylikning tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan abstrakt-konkretlik shaklida ifodalanishidir.

Formallashtirish - tekshirilayotgan predmet yoki hodisalarning ma'lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma'lum abstrakt ifoda, formula yoki sxemalar bilan ifodalashdir.

Modellashtirish - o'rganilayotgan ob'ektga tuzilishi yoki funksiyasiga ko'ra unga o'xshash lekin uning o'zi emas, uning nusxasini yaratib, shu nusxa orqali haqiqiy ob'ektning tegishli xossa va xususiyatlarini o'rganishdir.

Model - lotincha - nusxa - shartli obraz, sxema ma'nolarini bildiradi.

Foya - tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir.

Gipoteza - tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Nazariya - haqiqatligi amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma'lum g'oyalar, qarashlar, qonunlar va printsiplarni muayyan tizimi tushuniladi.

Jamiyat - arabchadan umumiy demakdir. Tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qilinadigan ko'plab munosabatlar majmuasi. Jamiyat o'zida moddiylik va ma'naviylikni, ob'ektivlik va sub'ektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradi.

Sosiologiya - lotincha societas - jamiyat, Iogos ta'limot demakdir. Jamiyat to'g'risida, ijtimoiy munosabatlar sosial uyushmalarning rivojlanish va amal qilish qonunlari to'g'risidagi fan. Ogyust Kont tomonidan sosiologiya faniga asos solindi va atama ilmiy muomalaga kiritildi.

Barqarorlik - ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Barqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlanishi mumkin. Jamiyat barkarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarining keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Inson - har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Boshqa biologik mavjudotlardan xotirasi, tafakkuri, tili, amaliy faoliyati, ongi bilan ajralib turadi.

Antropologiya - yunoncha anthropos - odam va logos ta'limot demakdir. Odamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, odam irklari haqidagi fan. Antropologiya odam tana tuzilishi, kishilar o'rtasidagi salbiy farqlarni o'rganish asosida ish ko'radi. Ilmiy antropologiya mustakil fan sifatida 19 asrda shakllangan.

Shaxs - o'zida sosial sifatlarni mujassamlashtirilgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tugilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlari, fazilatlar avlodlardan avlodga irsiy yo'l bilan o'tmaydi.

“Jadid” - yangi, yangilikka intiluvchi bu harakat Turkistonda XIX asr oxirlaridan vujudga kelgan. Siyosiy oqim, siyosiy harakat sifatida 1905 yillardan boshlangan.

“Totalitar” - «Yalpi» - siyosiy boshqaruvda yagona partiya, yagona ma'muriy-buyruqbozlik tizimining shakli.

“Suverenitet” - «Daxlsiz»- davlatning o'z ichki va tashqi siyosatida mustaqilligini bildiruvchi atama.

“O‘zbek modeli” - mamlakatimizni har jihatdan taraqqiy ettirishni ko‘zlab, fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodlarining taqdirini ham o‘ylab, rivojlangan davlatlar darajasiga chiqishni ko‘zda tutib, Prezident I.Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan taraqqiyot yo‘li.

“Konstitutsiya” – davlatning bosh qomusi.

“Parlament” - Qonun chiqaruvchi organ. O‘zbekiston parlamenti ikki palata: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat.

“Ombudcman” - inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlisning vakolatli instituti.

Referendum – umumxalq ovoz berishi.

Parlament – «Gapirmoq»- qonun chiqaruvchi oliy organ.

Fundamental - asosli, mustahkam.

Sivilizasiya – jamiyat taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichi.

Avesto - Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, asosiy matn degani.

Zardusht - inson nomi, ma‘nosi sariq tuya yetaklagan degani.

Reformator – islohotchi.

Monoteizm – yakkaxudolik.

Metodologiya – uslublar haqidagi ta‘limot.

Renessans – uyg‘onish.

Algoritm - Al Xorazmiy so‘zining lotincha talaffuzi.

Kompleks - birlashtirilgan, umumlashgan, yig‘ilgan.